

83.3(573)
M74

MARG'UBA MIRQOSIMOVA

BADIY PEDAGOGIKA




CH0000036577

83.3(572)
M74

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

MARG'UBA MIRQOSIMOVA

BADIIY PEDAGOGIKA



TOSHKENT – 2019

UO'K: 159,9,018 (075)

КБК: 88,4я73

M.Mirqosimova

M.Mirqosimova "Badiiy Pedagogika"/Lesson
press" nashriyoti 2019 yil T.184b.

Mazkur monografiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Sharq va Mumtoz filologiyasi" fakulteti talabalari hamda universitetlarning "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura bosqichi talabalariga, adabiyot o'qituvchilariga va pedagogika sohasi mutaxassislariga mo'ljallangan. Monografiyada hozirgi she'riyat, dostonchilik, hikoyachilik va qissachilik namunalarini tahlil qilish orqali o'quvchi yoshlar ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni mustaqil fikr egasi qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilgan. O'zbek she'riyati, nasri va dramaturgiyasiga xos yetakchi tendensiyalar, tamoyillar haqida tushuncha berilgan. Monografiya talaba yoshlarning kitobxonlik madaniyatini o'stirishga, badiiy adabiyot namunalarini mustaqil o'qib, tahlil qilishlarida yordam beradi. Badiiy asarlarni mustaqil o'qib tahlil qilishga yo'llash vositasida yoshlar ma'naviy muammolar haqida fikrlashga, faol hayotiy pozitsiyani egallashga da'vat qilinadi.

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbek, qozoq tili va adabiyoti"
kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori

I. Yqubov.

Toshkent davlat "O'zbek tili va adabiyoti" universiteti

professori, p.f.d. R.Niyozmetova.

O'ZXA

"Din psixologiyasi va pedagogika"

kafedrasi mudiri dots.

Z.X. Qosimova.

Monografiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilingan(2019 yil, 31.X. 3-son bayonnoma).

ISBN 978-9943-5902- 1- 2

"Lesson press" nashriyoti 2019

© M.Mirqosimova

KIRISH

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Jamiyatimizning farovonligi, tinchlik, millatlararo totuvlik, ezgulik barqarorligi davlatimiz kelajagini ta'minlovchi yoshlarimizga bog'liqligi barchaga ayon haqiqatdir. Shu bois, mustaqilligimizni mustahkamlash, yaratuvchilik ishlariga yoshlarni har qachongidan kengroq jalb etish muhim ahamiyat kasb etdi. Ularni har jihatdan barkamol insonlar sifatida shakllantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlarimizning Vatan taqdiri, el-yurt istiqboli yo'lida yashab, kurashuvchi; salohiyatli, ilimli, keng dunyoqarashga va mustaqil fikrga ega bo'lib voyaga etishlarida esa ta'lim-tarbiyaning, san'at va adabiyotning o'rni benihoya kattadir. Badiiy pedagogikaning tadqiqot ob'yektini o'quvchilar ongini, ma'naviy olamini yuksaltirish, yoshlarga ibrat bo'lishga arzirli fidoyi insonlar, xalq shoirlari, adiblar hayot yo'li bilan ijodini o'rgatish, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy asarlarni o'qib o'rganish va tahlil qilishga o'rgatish, estetik didni shakllantirish hamda nafosat tarbiyasi masalalari tashkil etadi. Ushbu monografiyada O'tkir Hoshimov, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Asad Dilmurod, Ulug'bek Hamdam, Omon Muxtor, Salomat Vafo, Shoyim Bo'tayev, Nazar Eshonqul qalamiga mansub asarlar ayni jihatdan tahlilga tortilgan. "Suv yoqalab" (E.A'zam), "Hashar", "Qazo bo'lgan namoz", "Beozor qushning qarg'ishi" (X.Do'stmuhammad), "Unitilgan ayol", "Nomsiz kema" (S.Vafo) kabi o'nlab hikoya va qissalar markazidagi qahramonlar ruhiy olami, ko'ngil dardlari, o'y-hayollari orqali yorqin tasavvur qilamiz. Obrazlar talqinining o'ziga xosligi, "men" ruhiyati, tuyg'ular olami manzaralarining yorqin va ta'sirchanligini ta'minlagan. Yangicha shakliy-uslubiy izlanishlar tufayli, ayniqsa, o'zbek nasri va she'riyatida yangicha tasvir yo'llari, usullari, bayon tarzi qaror topdi. Jahon adabiyotiga xos yetakchi tendensiyalar ta'siri

bugungi o'zbek adabiyotida, hozirgi adabiy jarayonda yangicha estetik hodisalar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu monografiyada talabalar e'tibori adabiyotimizda ro'y berayotgan ana shunday jarayonlarga qaratiladi. Hozirgi adabiy jarayonga xos yetakchi tamoyillarni qator asarlar tahliliga bog'lab belgilashga, muayyan umumlashma xulosalar bayon qilishga harakat qilingan. Muallif talqin va tahlil usullaridan foydalanib, hozirgi adabiyot namunalari tahlili vositasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga asosiy e'tiborni qaratgan. Zotan, badiiy pedagogikaning bosh maqsadini nafosat tarbiyasi tashkil etadi.

O'ZBEK SHE'RIYATI NAMUNALARI - YOSHLARDA YURTSEVARLIK, INSONPARVARLIK TUYG'ULARINI TARBIYALASH VOSITASI

Hozirgi adabiy jarayon haqida gap ketar ekan, milliy adabiyotimizning eng sara asarlar hisobiga boyigani, mazmunan teranlashgani, shakllar va uslublar xilma-xilligi har qaysi davrga nisbatan aniqroq ko'zga tashlanganini tan olish kerak. Har bir avlod milliy adabiyotni boyitish manbalarini izlar va yaratar ekan, bu ko'pincha, shakl va uslub yangilanishi hisobiga ro'y beradi. Bugungi o'zbek she'riyati an'anaviy tasvir usulidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar, tazod va parodokslar, eng muhimi, betakror serohang, serma'no ifodalar bilan kitobxonni o'ylatadi. Fikrning ixcham, lo'nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishilgan yutuqlar o'zbek she'riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir. Adabiyotshunos olim U.Hamdami "Yangi o'zbek she'riyati" kitobida bugungi davr she'riyatining ifoda usullarini beshga bo'ladi:

- “1. An'anaviy barmoq
2. Xalqona ohang
3. Aruz
4. Modernistik ohang (yoki ohangsizlik)
5. Sinkretik (qorishiq) ifoda usuli”¹. Albatta, bunday bo'linish muayyan mulohazalarni keltirib chiqarishi mumkin. Muhimi, hozirgi o'zbek she'riyati yangilanayotgan, turfalanayotgan she'riyatdir. Hozirgi she'riyatning xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi tamoyillarni adabiyotshunos olim Nurboy Abdulhakim quyidagicha belgilaydi:

¹ Hamdami U. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: Adib, 2012. – 302 b.

“1. Zamonaviy mavzularni ko‘hna aruzda ifodalashga intilish. O‘tgan asrning 20-30-yillari she‘riyatida aruzdan barmoqqa o‘tish tamoyili kuzatilgani ma‘lum. Keyinchalik butunlay barmoqqa o‘tildi. Bugun esa aruzga ehtiyoj biroz kuchayayotgandek. Ayni kezda bu ko‘hna vaznga yangicha ruh berayotganlar ichida eng faoli ustoz Abdulla Oripovdir. Shoirning “Ranglar va ohanglar” to‘plamiga kirgan g‘azallari ushbu janrning mumtoz namunalaridir.

2. She‘riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortishi.

3. Poetik shakldagi yangilanish. Umuman, poetik shakldagi yangilanish va izlanishlar milliy she‘riyatimizda, nazmiy tafakkurda, badiiy-estetik dunyoqarashda muayyan darajada o‘rishga olib kelayotgani tahsinga loyiqdir.

4. Poetik obrazlardagi yangilanish. Obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda ancha murakkab. Lekin she‘riyatning chin ma‘noda yuksalishi ana shu poetik hodisaga ko‘proq bog‘liq’.¹

Hozirgi kunda modern yo‘nalishda ijod qilayotgan shoirlar talaygina. Ularning har biri bu yo‘nalishda muvaffaqiyat bilan ijod qilyapti deb bo‘lmaydi. Akademik B.Nazarov adabiy ta‘sir va tipologiya haqida fikr bildira turib, modernistik yo‘nalishdagi asarlarga ham to‘xtalib o‘tadi. Shu o‘rinda Bahrom Ro‘zimuhammad ijodiga xos xususiyatlar hozirgi jahon adabiyotining modernistik yo‘nalishdagi asarlarida mavjud xususiyatlarga esh ekanligini e‘tirof etib: “... muayyan milliy adabiyotdagi, nainki keng kitobxonlar ommasi, balki o‘tkir didli, talabchan, katta tajribaga ega kitobxonlar ham qabul qilmaydigan, adabiyotning badiiy takomillashuviga ta‘sir ko‘rsatmay, aksincha, milliy estetikani o‘tmaslashtirishi mumkin bo‘lgan tipologik hodisalar badiiy adabiyotdagi ijobiy hodisa sifatida baholanishi qiyin”, - deb yozadi.² Adabiy

¹ Abdulhakim N. Yangi zamon she‘riyati: izlanishlar, tamoyillar. Sharq yulduzi//2013, 3-son, 137-140-b.

² Qarang: Nazarov B. Adabiy ta‘sir va tipologik yaqinlikni o‘rganishning ayrim metodologik masalalariga doir. O‘zbek adabiyoti: ta‘sir va tipologiya

suhbatlari bilan o'ziga xos maktab yaratgan olim U. Normatov "Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji" deb nomlangan suhbatida shoir va yozuvchi U. Hamdam bilan bugungi she'riyat, uning rivojlanish tadriji, o'ziga xos tamoyillari haqida suhbatlashar ekan, she'riyatning barcha yo'nalishlari qatorida modern she'riyatga ham munosabat bildirib o'tadi. Olim bu yo'nalishni keskin qoralash emas, balki uni anglash tushunish kerakligini aytadi. She'rga qarash davrga qarab yangilanib boradi. Suhbatning bir o'rnida "modern izlanishlar turg'unlikning emas, balki faol harakatning mevasidir", deya ta'kidlanadi³. Umuman, modernistik yo'nalish o'z xususiyatlari bilan boshqalaridan farq qiladi. Uning asosiy jihatlarini U. Hamdam shunday izohlaydi:

– voqeabandlikdan, tasvirdan, bayondan deyarli voz kechish va buning o'rniga metafolra va detallarga urg'u berish;

– siqqlik;

– san'at maydonida "o'yin"ga ruju qo'yish, she'riy san'atlar rolining ortishi;

– butun haqida parcha orqali ma'lumot yetkazish. Chunonchi, birgina g'amgin ko'zlar orqali insonning butun-butun holatlari, kechinmalari, orzu-armonlari va hokazolari haqida "hikoya qilish" ga urinish;

– shoir "men"i uchun ko'ngilning, uning holati-yu "dunyoga qarashi"ning birlamchi ekanligi;

– shaklda o'ziga xoslik".¹

Iste'dodli shoir Bahrom Ro'zimuhammad yaratgan ana shunday poetik kashfiyotlar an'anaviy shakllarga mos tushmaydi, gaplarning grammatik jihatdan parallel

(Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari). –T.: Toshkent, 2013.16-b.

³ Normatov U. Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007, 234-278-betlar.

¹ Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati, 302-b.

joylashtirilishi, ritorik tuzilish, murojaat, xitob ohanglarini ifodalashga yo'naltirilganligi bilan yangicha:

Arvohnning dastxatini ko'rdim

Qalqib yiqildim bir bo'lak tushga

Osmon

Qorachig'i sug'irib olingan

ko'z kabi

Boyo'g'li uvillar edi

Huvillab qolgan bog'da

Soyalar

Hech kim taklif qilmasa-da

raqsga tushardi

Yana nima deyishim mumkin

dunyo keng ekan.

Mazkur she'rda boyo'g'li uvullayotgan kimsasiz bog', qorachig'i sug'irib olingan osmon, raqsga tushayotgan soyalar go'yo tush ko'rayotgan odam nigohlari orqali kuzatiladi. Tush esa o'limga qiyoslanadi. Shu bois, shoir tasvirlayotgan manzara jonsiz, harakatsiz, ma'nisizday tuyuladi. Ammo insonning ko'zlariga yashiringan olam bilan aql va idrokka singishgan dunyo manzaralari ayni olamning turfa ko'rinishlaridir. Shoir dunyoning kengligini ta'kidlar ekan, uning rangin ekanligiga ham diqqatni qaratadi:

Jiyda guli

meni mast qildi

jin chaldi jiydaning ostida

Sap – sariq chiroqmikan bu gullar

yulduz shu'lasidan quvvat olarmi?

Nuqul qo'shiqchilar jarangi

eng xavflisi shunda-ki

bolari nektar yig'moq uchunmas

sizni chaqish uchun keldi.

Jiyda gulining iforidan mast holdagi lirik qahramon go'zallik o'g'risi sifatida tasvirlanadi. Tabiiy go'zallikning sharbatini simiruvchi bolarilar bu "o'g'rini" chaqish uchun kelayotganday. Manzara an'anaviy poetik tasvirga sira

o'xshamaydi. Shoir aytmoqchi bo'lgan poetik fikr ham yashirin. Tasvirlanayotgan manzaradan kitobxon o'z zehni va tuyg'ulari quvvatiga ko'ra ma'no anglaydi: go'zallik qarshisida es-hushidan ayrilgan lirik qahramonni jin chalishi natijasida jiyyda gullari sariq chiroqlarga, jiyyda guliga parvona bolarining harakatlari qo'shiqchalar jarangiga o'xshatiladi. Ayni shu nuqtada poetik ma'no yuzaga chiqadi: bizni o'rab turgan olam va uning go'zalliklaridan hayratlanishni, zavqlanishni bilmagan inson hayoti ro'yoga o'xshaydi. Bunday odamlar faqat yeyish-ichish g'ami bilan umr o'tkazadilar, ularni bolarining mashaqqatli mehnati natijasi emas, o'z jonining, huzur-halovatining bexavotirligi qiziqtiradi. Bunday odamlar bolaridan ham maydaroq, bolarichalik foyda keltirmaydigan, o'z nafsining qullaridir. She'rda manzara ichiga qarab harakatlanuvchi spiral ko'rinishli poetik tafakkur bu dunyoning rang-barang manzaralarga boyligini, har bir manzara o'z ichki ma'nolariga ega ekanligini anglatadi. Shoir she'rlaridagi har bir so'z, har bir satr muayyan bir obrazli ifodaga, ramziy ma'noga va ichki ohangga ega ekanligini quyidagi she'r orqali ham kuzatish mumkin:

Uzoq taraddudlanib turdi Qo'rquv
xotirjamlikka o'xshab bamaylixotir
tahlikaga chap berib turdi
Qo'lini soyabon qilib qoshiga
Vahima yashayotgan uyga qaradi
Qaradi muzaffar navkar singari
So'ng esa
so'ng shunday alpozga tushdiki,
qaltiramagan joyi qolmadi.

Qo'rquv obrazi orqali shoir diqqatimizni uning xavfli ma'naviy illat ekaniga qaratadi. Kezi kelganda qo'rquq odamlar xotirjam, uddaburon, ayyor va o'ta ehtiyotkordirlar. Ammo mardlik talab qilinganda, ular o'z-o'zini fosh etadi. Ana shu ma'nolar qo'rquv obrazi orqali tasvirlanayotgan manzaraholat zamiridan anglashiladi. Ko'rinib turibdiki, bunday she'rlarning chuqur ma'nolarini ilg'ab olish uchun ikki muhim

omilni teran idrok etish talab qilinadi: birinchisi, Navoiy, Bedil singari san'atkor ijodkorlarning merosidan, an'analaridan; ikkinchisi, umumyevropa badiiy tafakkurining nafis namunalaridan boxabarlik; bugungi o'zbek She'riyatida Bahrom Ro'zimuhammad kabi shoirlar ijodida ana shu ikki muhim omil o'zaro tutashib, yangi badiiy kashfiyotlar yaratilishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Barmoq vaznida yozilgan she'rlardan farq qiluvchi hijo, turoq va qofiyadan uzoq, xalq jonli tiliga yaqin bunday sarbast she'rlar ko'proq nasrga o'xshab ketsa-da, badiiy ta'sirchanligi, poetik tili, serma'noliligi, ohangi, so'z jozibasi bilan kitobxonni o'ylatadi, fikrlatadi.

Ilonning o'zidan emas
shaklidan qo'rqaman
shamoyili sovuq men uchun
mabodo mushukka o'xshaganida bormi
silab-siypalardim ilonni...

Hayotda muayyan shakl-shamoyilga emas, balki o'z nuqtai-nazariga egalik kimlarnidir cho'chitar, haq so'zni dangal aytuvchilardan ko'pchilik hadiksirar. Agar bunday odamlar daf'atan mo'min-qobil yo muloyim kishiga aylanib qolsalar, hamma "yoqtiradigan" qiyofaga kirishi mumkin. Xo'sh, mo'min-qobillar nima uchun barchaga yoqadi? Shoir "mo'min-qobillik" ortida yashiringan ma'naviy illatlar haqida o'ylayotir, o'ylatayotir.

"Soyalar suhbat" nomli she'rida shoir rangsiz qiyofa obrazini tasvirlashda rang-ramzdan mahorat bilan foydalangan:

Menga nima bo'ldi uchta soyam bor
Ikkitasi rangsiz, bittasi sariq
Hiringlab kuladi bir soyam
Chunki yo'qotib qo'ydim bolaligimni
Topganim jiyda gulining ifori
U ham boshqa boqqa o'tib ketgandi...

Shoir inson umrining pallalarini soyalarga o'xshatadi. Ikkitasi rangsiz soya – bolalik va yigitlik davrini ma'nisiz

o'tkazgan inson umrining soyalari. Sariq rangli soya – qarilik chog'i o'z umrini sarhisob etib, o'z ustidan kulayotgan, ya'ni bo'm-bo'sh hayoti ustidan hukm chiqargan insonning umumlashma obrazi. U hayoti davomida yuksak orzular yo ezgu maqsad uchun yashamagan, ammo qachondir go'zallikni sevgan. Afsuski, bu go'zallik ham "boshqa boqqa o'tib ketgandi". Bahrom Ro'zimuhammad ijodi haqida gap ketar ekan, shoir ijodining o'zbek va nemis adabiyotida ayricha o'rni borligini aytish joiz. Roviyaon Abdullaevaning "Adabiy aloqalar tipologiyasi"¹ nomli maqolasida "davsaman" atamasining paydo bo'lishi bilan bog'liq qiziq fakt kishini befarq qoldirmaydi. O'zbek shoiri so'z bilan chizgan tasvir nemis adabiyotiga muhrlanib qolganining o'ziyoq shoir ijodiga g'arb adabiyotshunosligining bahosini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi o'zbek she'riyatiga xos rang-razm, obraz-razm orqali ifoda qilinayotgan ma'nolar, obrazli ifodalar shoirlarning o'ziga xos uslubi va mahorati orqali yangi poetik kashfiyotlar yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda yaratilgan o'zbek she'riyati namunalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'alarini milliy ruhiyat ranglariga yo'g'irib ifodalash an'analarni ham, yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlarni, an'anaviy uslubning xilma-xil ifoda ko'rinishlarini ham kuzatish imkoniga ega bo'lamiz.

"Endi adabiyotimizning qiyofasi mozaikasimon ekaniga ko'nishimiz, ko'nikishimiz lozim, – deb yozadi adabiyotshunos Dilmurod Qur'onov, – Zero, bu tabiiy va qonuniy bir holdir. Shunaqa ekan, avvalo, bugungi adabiy jarayondagi hodisalarga munosabatni shunga moslash, uni *dunyoni badiiy idrok qilish bobidagi har qanday g'oyaviy, badiiy-uslubiy izlanish – yashashga haqli* degan tamoyilga qurish kerak bo'ladi. Ya'ni turli "izm"lar haqida balanddan turib, burun jiyirib gapirish

¹ Abdullaeva R. Adabiy aloqalar tipologiyasi (Germaniya turkiyshunosligi misolida). O'zbek adabiyoti: ta'sir va tipologiya (Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari). –T.: Toshkent, 2013, 101-107-betlar.

to'g'ri emas. Aksincha, adabiyot rivoji endilikda o'sha "izm"lar orasidagi sog'lom raqobat muhitini taqozo etadi".¹ Bugungi o'zbek she'riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi hamda ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida lirik qahramon tuyg'ulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish ko'zga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz ko'nikkan shakl va uslub chegaralaridan "qalqib chiqib", e'tiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Lirik qahramon nigohi qadalgan manzara qatiga yashiringan ma'nolarni esa kitobxon o'z tafakkuri ila tuyg'ulari, badiiy-estetik idroki va sezimlari orqali anglab olishi mumkin. Bu xususiyat she'riyatning sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday anglashligini tasvirlashdan o'sha betakror insonlarning turfa idroklari-yu his-tuyg'ulariga, ko'ngillariga o'zlari yo'l topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini o'ziga anglatish tomon qadam tashlaganligidan dalolat beradi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos bu tendentsiya qanday ijodiy-estetik tamoyillarda o'z aksini topmoqda?

O'zbek shoirlarining o'zbek klassik she'riyati va xalq og'zaki ijodiga xos an'analarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma'no tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida ko'rinadi:

"Xalqim deymen, ruhim tushib,
Kimlar ko'ngling to'q qildilar?
Ming so'qiring til topishib,
Bir uyg'og'ing yo'q qildilar!"

¹ . Yangi avlod ovozi. Jarayon (D.Quronov javoblari). // Sharq yulduzi. 2013, 2-son, 117-b.

Shoira H.Xudoyberdiyeva qalamiga mansub ushbu she'rdagi muhim ijtimoiy-ma'naviy illatga kitobxon diqqati tortilgan: qalb ko'zlari ochilmagan, ma'naviy "ko'rlar" birlashib, el-yurt dardiga bedor chinakam fidoyilarni yo'q qilishga chog'lanishlarining o'zi katta fojia! Zero, yaratuvchi, fidoyi Inson darajasini zabt etishi uchun avvalo inson o'zligini yuksaltirmog'i, xalq dardi bilan yonib yashaydigan, uyg'oq qalbli bo'lishi kerakki, bunga "qalb ko'zi ochilgan" buyuk insonlargina erisha olganlar. Afsuski, bunday insonlar barmoq bilan sanarli. Iste'dodsiz, yaratuvchanlik hissidan yiroq, yurt manfaatlaridan o'z xohish-istaklari-yu manfaatlarini ustun qo'yuvchi ma'naviy ojiz, qalb ko'zlari "ko'r" kimsalar esa ko'pchilikni tashkil etadi. Shoira ana shu hayot haqiqatiga ishora qilib, "Ming so'qiring til topishib, Bir uyg'og'ing yo'q qildilar", - deya salmoqli poetik fikrni qisqa, ammo yorqin ifoda qilish mahoratini namoyish qilmoqda.

Azim Suyun ash'orining o'ziga xosligi ularga singishgan xalqona ohangdan, Nurota tog'lari bag'ridagi yurt go'zalligi mujassam poetik chizgilardan, chashmaday buloqlar qaynashiga monand ehtiroslilik, tog' shalolasiday mayin tuyg'ular haroratidan his qilinadi. Ko'z o'ngimizda lojuvard ufq, shovullayotgan "sher yolli" chinorlar, oy yog'dusida jilvalangan "zar chashma" yorishib borayotgan tog'lar darasi, cheksiz kengliklar namoyon bo'ladi. Lirik qahramon kechinmalariga kechinmadoshga aylanamiz.

Lojuvard ufqda mening uyim bor,

Bir uyki, o'ylarim oydin, sarasi.

Shu ufq tagida mening uyim bor,

Nurota tog'larin u yer orasi.

Uning osmonida burgut qanotin,

Shiddati havoni qalqitar tinmay.

Cheksiz kengliklarga bo'z muhabbatin

Cho'pon tili bilan izhor etar nay.

Olmos qoyalarda olmos nur o'ynar,

Cho'qqilar uzra, huv, jayron bolasi.

Buloqlar boshida kakliklar kuylar,

Sozlarin bastalar tog‘ shalolasi.

Lirik qahramon “qirqim-qirqim qirlarga”, “gullarga to‘lgan” qadrdon dalalarga, “mayin maysalarga” boqib, o‘xshashi yo‘q shu diyorgagina hos isni tuyadi, “yig‘lab-kulib, ezib” bag‘riga bosadi.

Durkun-durkun qirlarning “sochlarini taraydi”. “Maysalar sog‘inchi”, “Tog‘ o‘rmoni”, “Tog‘ qo‘shig‘i” She‘rlaridagi tasvir viqorli tog‘larni, uning osmonida uchgan burgutlarni, cho‘qqilar uzra suzgan par bulutlarni gavdalandiradi. Har bir obraz, ramz, ko‘chim ma‘nolari inson hayoti, umri, izlanish-intilishlari, kurash-u mag‘lubiyatlarini ifoda qiladi. Ba‘zan lirik qahramon olam sirlarini kashf etishga qodir inson borlig‘i hanuz siriligicha qolganligidan hayratga tushadi:

Yo‘limiz oyga yetdi,

Yolg‘on aytib netay.

Hamon goh kuyib-yonib,

O‘zni halok etamiz!

Barhanlarga inonib!

Nahotki bu dunyo sir?

Nahotki bani-bashar

Doim aldanib yashar?

Yoki:

Tun qop-qora, tun qop-qora,

Yomg‘irlar yog‘ar qop-qora,

Bu qop-qora tunlarning, oh,

Tonglari oq, oh, bir qara...

She‘rda qo‘llanilgan rang-ramz – “qora tun”da yog‘gan yomg‘irlarning ham qop-qoraligi qanday ma‘noni anglatadi? Agar she‘r yozilgan davr – 1985 yilda ro‘y bergan voqealarni eslasak, yurtimiz osmonida suzgan “qora bulutlar”, xalqimiz sha‘niga to‘qib-bichilgan bo‘htonlar, “o‘zbek ishi” oqibatida qaddi bukilgan vatandoshlarimiz qismati o‘sha “qora kunlar” dahshatini yodga soladi. Xalqimizning achchiq ko‘z yoshlariga qiyoslanuvchi “qop-qora yomg‘irlar” o‘sha fojialarni eslatadi, “oq tonglar”ga umid uyg‘otadi.

Shoirning falsafiylikka yo'g'rilgan "Bir kosa suv", "Navoiy o'giti", "Istig'for", "Bu mag'rur boshimni xam etmak uchun" kabi bitiklari poklanishga mayl uyg'otadi, imonda sobitlikka undaydi.

Goho iymonim sotdim
Nafs deya toshday qotdim,
Uchar qushga o'q otdim
Istig'for, istig'for.

Azim Suyun ijodining asosiy qismini vatanga mehr, uning dardlariga dardkashlik, ona zaminimizning buguni va ertasi haqida qayg'urish tuyg'ulari ifoda qilingan "O'zbekiston", "Vatan", "O'zbekim" singari She'rlari tashkil qiladi. Ushbu She'rlardan buyuk tuyg'u his qilinadi: vatanni sevish, ardoqlash, vatan oldidagi burch mas'uliyatini tuyish.

Nozik qalb tebranishlari badiiy ifodasini topgan "Oy goh to'lin, goho yarimta...", "Sharqiragan soyda", "Quyosh afsonasi" kabi She'rlari orqali shoir ruhiyatini his qilamiz. Katta qalb egasi – shoir obrazi hamisha ezgulikka, tabiiylikka, tabiatga talpinadi. Tabiat quchog'idan sokinlik, osudalik, go'zallik topadi. Shu bois Azim Suyun ijodi kitobxonni ham tabiiylikka chorlaydi.

Hozirgi o'zbek she'riyatida A.Oripov, X.Xudoyberdieva, U. Azim, S. Sayyid, A.Qutbiddin, Faxriyor kabi shoir va shoiralar ijodida poetik nutq shakllaridan unumli foydalanish, o'z ichki dunyosini o'z tili – "men" orqali batafsil va hayajonli tarzda ochib berish tendensiyasi ko'zga tashlanayotir. Bunday monolog She'rlarda har bir ijodkorning inson olami, jamiyat, iymon-e'tiqod borasidagi o'ziga xos qarashlari badiiy aksini topgan. Mana bir misol:

Dunyo kambag'alni kamsitib, g'ajib
Tag'in boyitarkan boyroqlarini.
Ruhim olib qo'yar boshimdan tojni
Ruhim ko'taradi bayroqlarini!
Qaydaki yetimni yetim tishlaydi,
Dunyo qantarmasa kaj itlarini.

Ruhim yuragimga qattiq mushhtlaydi,
Ruhim kiya boshlar sovutlarini.

Shoira bunday murojaat monolog orqali dunyoda adolatsizlik hukm surar ekan, "men" qalbim da'vatiga ko'ra kurashga o'tlanaveraman, - degan salmoqli badiiy umumlashmani ifoda etmoqda. Shoir Usmon Azimov esa qator she'rlarida tasviriy monolog vositasida o'z ruhiyatini taftish etib, o'z dunyosidagi iztiroblar mohiyatini ta'sirchan manzaralar tasviri orqali tasvirlash tendensiyasini namoyon etmoqda.

Mana bir misol:

Qo'llarimni qiydi zanjir: Ezg'iladi boshimni –
Tog'day qullik yerga egdi – bo'ynimdan torta-torta
Men haq bildim bu dunyoning katta-kichik toshini,
Men toshlarga yuzim tutdim yoshimni arta-arta.
Bo'g'izlarim achishdi. Ha, o'pkalarim achishdi.
O'pkam to'ldi odamlarning "Oh"lari to'la tunga.
"Havo" dedim, - tomog'imga qaro qurum yopishdi,
Necha yilki, men havosiz yashayapman butunlay.
Sovuq qotdim. Izg'irinda chirsilladi so'nganim,
Tomirlarim – ayozlarda muzlagan qiyoy hanuz
Olov so'rab, gulxanlarni bo'zlab kezdi yuragim,
Yong'inlardan yonib chiqib, quchoqladi meni muz.
Men – suvsadim. Men qaqradim. Men – xas bo'ldim.
Quridim...

Lirik qahramonning erksizlikdagi iztirobli holati, erk suviga tashna daraxt kabi qaqrab qurishi nihoyatda ta'sirchan o'xshatishlar, jonlantirish, mubolag'a kabi tasviriy vositalar, o'z holatini sharhlash usuli orqali ifodalangan. "Men"ning fojeasi erksizligi – "tog'day qullik" ayni chog'da tosh yuraklarga yuz tutib, dunyoning "katta-kichik toshlarini" haq deb bilganida, ularga ishonch ko'zi bilan qarab, "toshlarga yuz burganida". Bu o'rinda shoir umumlashma obraz "toshlar" vositasida qalbi ezgu tilak va istaklardan yiroq, hissiz, diydasi "tosh" odamlarni nazarda tutayotir. Bunday odamlar el dardiga dardkash-u, tilaklariga tilakdosh bo'la olmasligini kech

anglagan lirik qahramon odamlarning "oh"lari to'la tunda elu yurt iztiroblariga hamohang alamli ko'z yoshlarini to'kmoqda...

So'z san'atining janrlarida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar ko'plab uchraydi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy asarlarida ham lavhalar, tabiat tasvirlari, ilgari surilgan falsafiy axloqiy-didaktik fikrlar rang ramzlari orqali berilganligi ma'lum. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida majoziy ranglar timsollarga ko'chirilib, komillik bosqichlarini zabt etayotgan inson dunyosini tasvirlashga xizmat qilganki, ana shu xususiyatlar Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida o'zgacha tovlanishlar va ma'nolar kasb etmoqda.

Olamni va undagi turfa holatlar, hayot murakkabliklarini qalbida kechirayotgan inson dunyosi ham kamalakrang. Butun hayot zalvorini o'z tafakkuriga sig'dirishga urinayotgan zamondoshimizning kechinmalari, o'y-xayollari ham chegara bilmas darajada rangin. Ana shu olam va inson dunyosidagi mushtaraklikni badiiy so'z poetik ranglar orqali ifodalash imkonini beradi-ki, bunday ramziylashtirish shoirga qisqa ohanglar va sanoqli ranglarda inson timsolini jonlantirishga qodir mo'yqalam tutqazadi. Xalq shoiri Abdulla Oripovning "Bilol xabash" she'rida qora rang obrazning ruhiyatini yoritib turgan e'tiqod nuriga uyg'unlashib oqlikka ko'milsa, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim she'rlarida uchrovchi oq rang beg'uborlik, samimiylik, yorug'lik, ezgulik ma'nolarini ifoda etadi. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida oq rang bilan yondosh sariq va qizil ranglar uchraydi. Shoira judolik, ayriliq, tushkunlik, aldanish holatlarini sariq ranglar vositasida jonlantirsa, qizil rang orqali yovuzlik, fojeaviylik, zo'ravonlik, istibdod ramzlarini yaratgan. Inson qadri bukilgan, erki toptalgan mustamlakachilik davrida hatto nafas ham qizil, kishan ham qizil, tikan ham qizil. Shoirilar favqulotda yaratilgan ifodalar orqali ramziy obrazlarni kitobxon ko'z o'ngida jonlantirishga erishib, poetik g'oyani to'laqonli anglatishga muvaffaq bo'layotirlarki, ~~bu xususiyat hozirgi~~

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

931401

o'zbek she'riyatiga xos tendensiya sifatida tadqiq etilishi lozim. Poklik, nurday bokiralik, illatlardan forig'lik, iymon-e'tiqodlilik Eshqobil Shukurning "Yashil o'lim" she'rida asosiy badiiy unsur-ramziy obraz orqali ifoda etilgan. Bu xususiyatlar o'zbek she'riyatida rang ramzlar vositasida inson dunyosini, olam xossalarini o'ziga xos tarzda anglash va tasvirlash usuli yuzaga kelganligini ko'rsatadi.

Bir qator o'zbek shoirlari qatorida iste'dodli shoir Bahrom Ro'zimuhammad ijodida ham ranglarning ramziy qo'llanish usuli o'ziga xos poetik timsollar yaratishga xizmat qilganligi kuzatiladi.

Inson tabiatga talpinib yashaydi. Uning bag'rida o'zini qushday yengil, dardlaridan forig' his etadi. Tabiat go'zalliklariga boqib bahra oladi va o'zini uning bir bo'lagi deb biladi. Ammo ona tabiatni asrash insoniyatni kulfatlardan asrash ekanini hamisha ham yodda saqlamaydi.

Vaqtiki yer tars yorilganida
Havoda uchib millionlab yer bo'laklari
Mumday erib bitsa
Tutunga aylansa yer
Vaqtiki, sirg'alsa yulduzlar
Uch quyosh charx ura ko'kda
Va uch quyoshga juft bo'lsa uch oy
Tun va kunduz qorishsa bir-biriga
Vaqtiki, borliq o'z ma'nosini yo'qotsa butkul...

Tasavvur qiling, sarhadsiz falak bo'm-bo'sh bo'lib qolsa, tutunga aylansa yer? Shoir beparvolik, bemaqsad yashash, gunohlardan yuraklar ezilmas darajaga kelsa, insonlar borliqni talon-taroj qilib bo'lishsa, tugatishsa, hatto, yanchib bir-birovlarin, hayhot, bu holga chidash berolmay, yer tars yorilsa, mumday erib bitsa borliq! – deya xitob qilmoqda.

Yorug'lik o'rnini zulmat-u qorong'ulik egallasa, borliq ham o'z ma'nosini butkul yo'qotsa, demak kurramiz ham koinotda chilparchin bo'ladi! Shoir ana shu falokatni ko'z oldimizda quyuq qora ranglar orqali jonlantiradi, insonlar

qalbining rangsizligi, bo'shliqqa aylanib qolganligi olamning bo'm-bo'shligi bilan uyg'un tasvirlanadi.

Ana o'rik guli

xo'rozqandga o'xshab muzladi

yashillik sovqotib turibdi

dir-dir...

sochingizni o'ynaydi shamol

shundan boshqa ishi yo'q kabi

jiddiy...

Go'zallikning muzlashi, yashillikning dir-dir sovqotib turishi ezgulikning omonatligidan darak bermaydimi? Farzandlarimiz qalbida nish urishi kerak bo'lgan insoniy sifatlar, latif xulqlar kurtak yozayotgan daraxt yaproqlari kabi sovqotib tursa, bu umrimizning, borlig'imizning omonatligidan, hayotning g'animatligidan darak bermaydimi?

Demak, o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni shartli ravishda quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Insoniy sevgi-muhabbat ma'nolarini ifodalovchi ramzlar.

2. Insoniy fazilatlarini ulug'lashga, mehr-oqibat, ezgulikni qadrlashga undash ma'nosidagi ramzlar.

3. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi ramzlar.

Bulardan tashqari, hozirgi o'zbek she'riyatida "rang-ramz", "rang-obraz", "ibora-obraz", maqollar, hikmatli so'zlar orqali ramzlar yaratish xususiyatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu xususiyat inson bilan tabiatning aloqadorligi, ayni paytda, ruhiyatimizning ona tabiatga uyg'unligi hosilasidir. Ranglarni ramzlashtirish hozirgi o'zbek adabiyotida o'ziga xos an'ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda.

Hozirgi adabiy jarayon xususiyatlarini tadqiq etgan o'zbek adabiyotshunoslari va tanqidchilari mustaqillik yillarida yuz bergan muhim jihatni ta'kidlab, badiiy ijodga yangicha munosabatning qaror topayotganligi; ijodkorga yaratuvchi shaxs, san'atkor sifatida qaralib, badiiy asarlarga birinchi galda badiiyat talablari nuqtai-nazaridan baho berishga harakat

qilinayotgani, “g‘oyaviylik”ni emas, ijodkorning badiiy tafakkur tarzini o‘rganish yetakchi tamoyilga aylanayotganini ijobiy hodisa sifatida ta’kidlayotganliklari quvonarli holdir.

Ijodkor badiiy tafakkuri Olloh in‘om etgan ilohiy mo‘‘jiza-iste‘dod nuriga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, qanchadan-qancha milliy boyliklarni bunyod etadi. Bu haqda so‘z yuritgan I.G‘afurov: “Iste‘dod – milliy boylik. U necha yuzlab, minglab boyliklarni bunyod etadi, dunyoga beradi”,– deganida tamomila haq edi. Aynan ijodkor badiiy tafakkurining ilohiy va dunyoviy mazmunlari uyg‘unligidan yuzaga keluvchi o‘ziga xos uslubda ham shu ikki jihat ko‘zga tashlanadi: iste‘dod – mahoratni yuzaga chiqaruvchi omil bo‘lsa, uslub – ijodkor tafakkurining badiiy til orqali dunyoviy ma‘no va mazmun kasb etishidir. Iste‘dod – yoniqlik, so‘z iztirobi ila yashash...

Demak, ijodkor shaxsida ana shu jihatlar uyg‘unlashib, o‘ziga xos uslubining namoyon bo‘lishida asos vazifasini o‘taydi. Ayni chog‘da, ijodkor uslubi va badiiy mahorati vositasida inson dunyosining sirli, sehrli qatlamlari, tuyg‘ularining shiddati, his-hayajonlarining ma‘no tovlanishlari, tug‘yonlarining zarbi ifoda qilinadi, tasvirlanadi. Kitobxon yana o‘sha ilohiy mo‘‘jiza - iste‘dod qudrati ila o‘zga insonlar ruhiyatini his qiladi, ular dunyosiga kirib boradi, ularni xuddi hayotdagidek jonli insonlar kabi tasavvur etadi va tushunadi, hamdardga aylanadi. Badiiy obrazlar qiyofasida har safar obrazlarning yangi, sirli va sehrli, betakror ilohiy dunyosi namoyon bo‘ladi. Yaratilayotgan hayotiy qahramonlarni zamon va istiqlool davri adabiyoti talablari, badiiyat mezoni asosida har taraflama chuqur o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatiga xos tamoyillardan yana biriga e‘tiborni qaratib, professor Hakimjon Karimov quyidagilarni alohida ta’kidlagan edi: “Totalitar tuzum va uning mafkurasi milliy respublikalar xalqlarini tarixidan, madaniyati ildizlaridan mahrum etibgina qolmay, diniy an‘analari va urf-odatlarini ham payhon qilib tashladi. Diniy madaniyat o‘rniga bu xalqlarga berilgan markscha-lenincha

ta'limot esa ular iymonini salomat olib qololmadi. So'nggi yillarda dinga erkinlik berilishi, islom ta'limotiga oid ilmiy-ommabop asarlarning paydo bo'lishi va boshqa tadbirlar natijasida o'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi. Bu she'rlar "Qur'on" surasidagi oyatlarda va hadislardagi kishini to'g'ri yo'lga solishga irshod qilingan fikrlar asosida yozilgani uchun kishi iymonini mustahkamlashga juda qo'l kelyapti. Chunki iymoni mustahkam odam har qanday yomonlikdan va insoniy illatlardan saqlanadi, hech kimga zulm qilmaydi"¹.

Olimning fikrlariga umuman qo'shilgan holda, biz hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillardan yana biri shoirlarning poetik nutqning xitob, murojaat kabi unsurlaridan foydalanib, olamni uning bir bo'lagi bo'lmish inson dunyosini poklash orqali munavvar etish haqidagi dunyo olimlari, faylasuf-u shoirlari qarashlariga hamohanglikda yaratilayotgan poetik g'oyalar, betakror tashbehlarga yuklangan salmoqli fikr va tuyg'ulardan anglashilishini ta'kidlamoqchimiz. Zero, bugungi kunda insoniyatning qiblaga yuz tutayotganligini dunyo tan olmoqda. Xususan, shoir Usmon Azim olam sirlarini anglashga nechog'lik urinmasin "sirlar tugunini yecha olmaganligini" e'tirof etadi. Shoir ayni holat sababini olamning bor siru-sinoatlarini o'z ko'ngil olamida jilvalantirgan inson qalbi sirligicha qolganligida deb hisoblaydi:

"Tangrim, faqat kechir, bandalaringga

Bir qatra ozodlik bermaganim-chun.

Qon yutgan ko'rimlar uchun kechirgin

Ko'zimning yoshlari uchun kechirgin.

Dunyoning toshligi uchun kechirgin.

Kechirgin – ko'yingda adashganimni,

Kechirgin – ko'yingda tinmaganim-chun,

Kechirgin – erk uchun talashganimni,

Va erk senligingni bilmaganim-chun".

¹ H.Karimov.Istiqlol davri adabiyoti. T.;Yangi nashr. - 2010. 16-b.

Insonni poklash, olamni tozartish, oq va qora ranglar zamiridagi ma'nolar: ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy ziddiyatni ko'tarib, ulotqirib tashlashga qodir kuch bormi? Bugun insoniyat ongini zabt etgan savol alomatiga qanday ma'nolar singishgan? Muammo yechimi qanday? Olamni inson bolasi yaratgan yovuzliklardan saqlab qolish mumkinmi? Ana shu savolga javob izlab, "oxir zamon" alomati-yu zalolatlari haqida, gunohlarga burkangan kurrani shoir Bahrom Ro'zimuhammad quyidagicha tasvirlaydi:

... ayni paytda taftish kuchi bois
o'z o'qidan chiqib ketdi yer shari
chiqib ketdi quyosh sistemasidan.

ayni paytda tong ila tun
ola-bula shamoyilga kirdi
zulmda o'zgartirib rangu tusini

oq olma pishayotgan chog'
qorbo'ron o'ynab yurdi bolalar.
yozga qo'shildi qishning uch kuni.

ayni paytda tug'ilgan go'dakning
soch-soqoli oqardi birdan
onasini emdi munkaygan chol.

ayni paytda quyosh nurini
qayga sochishni bilmay turdi-da
kuydirib yubordi oyni daf'atan....
Nega? Nima uchun? Bu savollarga shoir
"Qarg'algan" nomli She'ri orqali javob qaytaradi:
Sen ulug' ibtidodan nariroqda bir qadam bosding
Shu bois Allohning qahri keldi
Payg'ambar qarg'adi seni
Shaytoni Laidan-da battarroq bo'lding
biroq sening ruhiyatingni to'ldirgan zavqu shavq
ikki dunyoda ham yo'q, faqat senda bor

ey, abadiy yig'i, ey abadiy kulgu, ey abadiy jimlik.

Shoir sirli-sehrli dunyo sarhadlaridan-da nariroqda, bu dunyo chegarasidan tashqariga "qarashga", idroki, o'y-xayollari ila u tomonga "bir qadam tashlashga" botingan insonga shu gunohi uchun qarg'ish yopishganligini ta'kidlamoqda. Bu shakkoklik evaziga lirik qahramon – shoir qalb iztirobi bezovta ruhning mangu azobiga duchor etilgan. Ammo insoniyat dardini kuylab yig'lash, ezgulik nurlariga chulg'angan olam go'zalliklari-yu odam kulgusidan zavqlanish faqat shoirlarga nasib etmishdir. Ayni chog'da, o'z ojizligini tan olib, Olloh irodasiga bosh egib, abadiy "jimlik" sari yuz burgan inson sukuti ham olam-olam ma'nolarni ifoda etadi. Bu xususiyat realistik tasvir uslubi bag'rida yuzaga kelgan "yangilik" sifatida e'tirof etilayotgan "o'zbek modern she'riyati" alohida estetik tamoyil ekanligini asoslaydi. Modern yo'nalishidagi she'rlar ijodkor-u kitobxonning XXI asrdagi tabiiy ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga monand yuzaga keldi. Bunday she'rlar inson shaxsi va hayotini, uning ko'ngil olamini ijodkorning tasavvurlar olami orqali kuzatish orqali har ikki olam uyg'unligi yoki o'zgachaligini anglash mumkin bo'lgan ma'nolarni tasavvur voqeligiga aylantirib (his-tuyg'ular va idrok birligi) badiiy talqin qilinishi natijasidir. Ijodkorlarning bunday she'rlari bir qarashda milliy she'riyatimiz uchun noan'anaviydek tuyuladi. Hijo, turoq va qofiyadan uzoq xalq jonli tiliga yaqin sarbast she'rlarni bir o'qishda tushunish qiyin, ammo har bir so'z, har bir satr muayyan obrazli ifodaga, ramziy ma'noga va ichki ohangga egaki, bu xususiyatlar shoir mahorati orqali betakror poetik manzaralar va badiiy umumlashmalar yaratilishiga asos bo'lgan. Bunday she'rlar o'zi va o'zgalar olamini yangi jihatlardan idrok etishga intilayotgan zamondoshimizning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini to'la qondirmoqda.

Jahon adabiyotiga xos "modernizm" va "syurrealizm" haqida so'z yuritib, adabiyotshunos Andre Bretona quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Uning maqsadi og'zaki, yozma yo istagan boshqa bir yo'l bilan fikrning real amal

qilishini ifodalashdir. Syurrealizm muayyan assotsiativ shakllarning oliy realligiga ishonishga asoslanadi. Syurrealizmga qadar bu shakllarga beparvo qarab kelishgan. Syurrealizm xayolotning qudratiga, fikrning beg'araz o'yiniga, ishonchiga tayanadi. U boshqa har qanday psixik mexanizmlarni uzil-kesil barbod qilib, hayotning asosiy muammolarini hal qilishda ularning o'rnini egallashga intiladi".¹ "Demak, - deb yozadi Hakimjon Karimov, Andre Bretona qarashlariga tayanib: - syurrealistlar aqlga suyanadi, uning qudrati bilan ish ko'radi. Chunki aql kuchigina odam va olam mohiyatini to'g'ri anglashga imkon beradi. Modernizmning yo'nalishi va maqsadi ham shunda"². Shoir Bahrom Ro'zimuhammad esa masala mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borib, modernizmni realizmga qarshi qo'yib bo'lmashligini asosli tarzda ta'kidlaydi: "Modernizmni realizmga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Modernizmga realizm suvratidagi sotsrealizm oqimigina qarshi qo'yilgan. Endilikda asta-sekin adabiyot siyosatdan holi bo'lmoqda. Chunonchi, adabiyotning o'z "siyosati" mavjud. Adabiyot inson ruhiy olami uzra siyosat yurgizadi, ruh olamidagi jismlar orasida intizom o'rnatadi, qadim-qadimdan shunday bo'lib kelgan. So'fiylarning ko'ngil parvarishi ta'limoti bejiz kun tartibiga chiqmagan bir mahallar. Biz shu yo'ldan yurmog'imiz lozim. Bu yo'l ma'naviyatimizni yuksaklikka olib chiqadi, bu yo'l millatimiz yuragini, sharqona kechinmalarini bobolarimiz ma'naviyatiga omuxta etgan holda jahon ilm ahliga ko'z-ko'z qiladi"¹.

Darhaqiqat, shoir ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga qaratilgan va bugungi kunda modern adabiyoti deb

¹ Andre Bretona. Syurrealizm manifesti. // Jahon adabiyoti. -2000. 5-son. 179- b

² H.Karimov. Istiqlool davri she'riyati. 42- b

¹ B.Rozimuhammad. Yangi avlod ovozi (suhbat). // Sharq yulduzi – 2013. 1-6-sonlar.

nomlanayotgan uslubiy yoʻnalish Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu haqda yozuvchi Nazar Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalarini yuqori baholab: “Turkiy xalqlar asotir va eposining taʼsir koʻlami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz. Agar biz ana shu merosni oʻzlashtira olsak, gʻarb adabiyoti nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz”², – deydi.

Taniqli munaqqid va olim A.Rasulov oʻzbek poeziyasining biz tahlil qilgan tamoyillari haqida soʻz yuritib: “Soʻnggi yillar oʻzbek poeziyasida insonning oʻzini-oʻzi anglash muammosi jiddiy talqin etilmoqda. Inson ruhiyatidagi hayot, ziddiyat, falsafiy-ruhoniyl talqin hech kimni befarq qoldirmaydi. Abdulla Oripovning “Bir qaragam” sheʼrida ham oʻzini-oʻzi anglash, ruhiy holat, ichki kurash aks etadiki, u asarning umriboqiyiligini taʼminlagan... Oʻzbek adabiyotida “men” – “yaratgan hamma narsamiz” qatlami yohud inson farzandining tabiat va jamiyat bagʻriga toʻla kirib borishi, “men” – “koinot” qatlami yoki ilmiy-diniy-falsafiy qarashlarni yaxlitlikda aks ettirgan murakkab asarlar hali koʻp emas... Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor singari shoirlar asarlarida tarixiy nomlar, asarlar, diniy tariqatlarga ishoralar borki, ularni oʻzlashtirish uchun maʼlum tayyorgarlik bosqichini oʻtash joiz,³” – deb yozgan edi. Ayni fikrni bugungi oʻzbek Sheʼriyatining “modern” yoʻnalishida ijod qilayotgan barcha shoirlar asarlariga tadbqiq etish mumkin, deb oʻylaymiz. Chunki bunday uslubdagi sheʼrlar kitobxondan sheʼrshunoslik ilmini va muayyan adabiy tayyorgarlikni talab etishi aniq. Zotan, sheʼrni har bir kitobxon oʻz koʻngli, his-tuygʻulari va tafakkur tarziga monand his qilib anglaydi.

² Nazar Eshonqul. Yoshlar nasri oʻz yoʻlida boradi // OʻzAS. – 2000. 4 avgust.

³ A.Rasulov. Uslub – isteʼdod portreti.T.;2013.-35-b.

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "So'z yo'li" nomli tanlangan asarlari ikkinchi jildini keyingi yillarda yozgan she'rlari tashkil etgan. To'plamdagi hazrat Abu Hamid G'azzoliy hikmatlari, Sharq adabiyotining ulug' namoyandalari Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy g'azallari, Aleksandr Pushkin, zamonaviy rus she'riyati darg'alaridan Andrey Voznesenskiy, Aleksandr Faynberg asarlaridan qilgan tarjimalari ham o'rin olgan. Ayni damda, shoirning mumtoz adabiyotimiz an'analarini davom ettirib, o'ziga xos uslub va ohangda bitgan "Yaxshilik eskirmagay" ("Qirq hadis"), "Shamnoma", "Ko'ngil sohili" kabi turkumlari diqqatimizni tortadi.¹ "Shamnoma"ning yozilish sabablarini shoirning o'zi quyidagicha izohlaydi: "Bu to'rtliklarni men osmondan olib yozmadim. Bolalikda, rahmatli momondan ko'p eshitganim, yangalarimga aytadigan "Qiliqning issig'i – baxting isirig'i" yoki "Ayol –erkakning vaziri" degan gaplardan tortib to hozirga qadar, Tashkanning Eski jo'va bozorida "Do'mboqqina handalaklardan olib keting" degan opaxonning so'zlarigacha – hammasi o'zimga tanish, qadrlı, ko'nglimga, hayotimga daxldor kechinmalardir. Ularda nomlar, ismlar bor: ulug' zotlarning, ustozlarimizning nomlari, yana boshqa nomlar. Tilga olish bahonasida men bu zotlar oldidagi uzib bo'lmas qarzimni nazarda tutganman. "O'choqdagi o't boshqayu yurakdagi O't boshqa" deganlaridek, bu yozganlarim – balki mening yana bir urinishim, ko'ngilga tomon yana bir chog'lanishimdir. Yozilmagan katta she'rlarning parchalaridir, balki kunlarim, tunlarimning bo'laklaridir".

Ayni ko'ngil izhori shoirning quyidagi to'rtliklarida yanada yorqin ifodasini topgan:

Mening Vatan ichra vatanlarim bor
Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.
Termiziylar yanglig' xazinalarim,
Buxoriylar kabi ma'danlarim bor.

¹ Sirojiddin Sayyid. "So'z yo'li". She'rlar toplami. 2-jild.T.; Sharq.-2008.193-b./Barcha She'riy parchalar shu nashrdan olindi va sahifasi korsatildi.

* * *

Men bunda har dildan navolar oldim,
Har giyoh, har guldan sabolar oldim.
Oq fotiha oldim oppoq tog'lardan,
Azim chinorlardan duolar oldim. (194-b.)

"Rayhonlar bargidan siyoh olgan" shoir qalbi har hisdan o'z ruhida bir giyoh ungani, "yurtning turna ko'zli buloqlaridan" ko'ngil ko'zi ochilgani, nigohlari tiniqlashganini his etadi. Kimdir umr bo'yi qasr quradi, kimdir mol – dunyo yig'ish bilan ovora. Kimdir jabr qilmish va topmish jafo. Bu dunyoda hatto so'z ham sotildi, begona ham, do'st ham sotildi... kechirilgan umr esa tushlarga aylandi...

"Yomg'irlar yig'lashib sel bo'ldi, ona,
Sog'inchlar birlashib yil bo'ldi, ona.
To'planib-to'planib barcha og'riqlar,
Mening ko'kragimda dil bo'ldi, ona...

* * *

Aytmangiz, biz uzoq manzilga ketdik,
Na daryo va na yo sohilga ketdik.
O'zga manzillardan izlamang bizni,
Yoronlar, biz dilga, biz dilga ketdik".(203-b.)

Shoir dil yo'li ko'ngil tomon olis safarga chog'lanar ekan, "bu manzilga yetguncha go'yo ming yil taraddudlangani, talpingani, "ming yil yo'l yurganini" e'tirof etadi. Kuy tinglab, "ko'ngil nayi" esayotgan manzillar, gul husniga maftun ko'ngil ra'yidan, mehru muhabbat yo'lidan ketgan shoir "bir umrlik ko'ngil payidan ketdik" deya o'z ko'ngil yo'liga ishora qiladi. Barchamizni o'zligimizni tanishga, o'z ko'ngil yo'limizni tayin etishga undaydi, og'riqli savollar bilan tuyg'ularimizni, xayollarimizni siljitadi:

"Dunyoga keldingu ketgaysan qachon?
Ezgulik naqshini bitgaysan qachon?
Neki bor, yetishding yelib-yugurib,
Ey inson, o'zimgga yetgaysan qachon?"

“Rumiyan bir kosa”, “Xayyomdan bir jom” olib, toqat izlab, ko‘ngil yo‘li aro kezayotgan shoir mudroqlikdan kechishga, “shabnamday bir toza g‘am”, dard ila yashashga, ko‘ngil manzaralari ortidagi hikmatlar ma‘nosini uqishga intiladi:

“Olis yulduzlarda qanday xabar bor?

Oyning gardishida qanday xatar bor?

Mangu xavotirday aylanar falak,

Bir kun hammamizga katta safar bor...

* * *

Ulug‘ Oybeklar-u G‘afur G‘ulomlar

Nechun ulug‘ erdi, ulug‘ kalomlar?

Chunki ulug‘ erdi bu zotlarda qalb,

Qalbdagi ulug‘ erdi dardu alamlar”.(233-b.)

O‘z umrini “ko‘ngil yo‘liga” burgan shoir sog‘inchlarini ham, og‘riqlarini, kamlik, kemtiklarini ham so‘z yo‘li aro bitiklarida – “Shamnoma”-yu “g‘amnoma”sida izhor etar ekan, o‘tadigan kun-umrimizning “ko‘ngil tomon bir safari”, har on – “kunimizning bir gavhari”, har otadigan tong - Ollohning bizlarga xushxabari” ekanini ta’kidlaydi. Zotan, insonlik a’moli, otayotgan oppoq tong, qarshimizdagi uzun kun va tun barchamiz uchun ko‘ngil tomon burilishga, ko‘ngil yo‘liga safar qilish, ko‘ngil manzaralari ortidagi ma’nolarni uqish uchun yana bir imkon, fursat demakdir. Ko‘ngil yo‘li esa shoir uchun so‘z yo‘li, so‘z iztiroblari-yu quvonchlariga to‘liq, bepoyon, olis, mashaqqatli yo‘l...

Uyqashdir bu yo‘lning shomu sahari,

Xabarlarini bisyor, ko‘pdur xatari.

Ey do‘st, Farididdin Attordin o‘rgan,

Eng uzoq safardir ko‘ngil safari.

Shoir goh bu yo‘lning “tufroq yanglig‘ so‘qmoqlaridan, goh toshqin sel, ko‘kdagi chaqmoqlaridan” o‘tib, ko‘ngil yo‘lida darbadar kezadi, o‘zini “kangul devorining xasi”day, goh shabnam qo‘ngan yaproqday his qiladi. Dashtu sahro kezib, qay bir qirg‘oqlariga bosh urib, “axtara-axtara ko‘ngilni topganligi”ni e’tirof etadi. Shu dam daraxtlar bandida titroq,

yaproqlar ichra xavotir, qoyalar aro junjikish, daryolarning shiddatla to'lg'onishini his etadi. Hatto yomg'irlar ham "hasrat o'chog'idan to'kilgan cho'g'"day issiq, kuydirguvchi. Bu manzara qanday ma'nolarni ifoda etadi?

O'zini "hasrat o'chog'ida o'tinga", "qismat qirg'og'ida tutunga" qiyoslagan shoir ishqsizlik qirg'og'iga yetib kelganligini ayon etadi. Ishqsizlikdan mung'aygan, dardsizlikdan nurab borayotgan "ko'ngil yo'li"ga qarab shoir ko'zlariga mung, ko'ngliga "qirov to'shaldi". Bu manzaraga dosh berolmagan shoir ahvolni tuzatish ilinjida "yaproqlardan uy quradi", maysadan-xona, "shudring va yulduzdan o'rnatdi oyna". "Osmondan zangori darchalar ochib", "guldan eshik qildi, dildan-ostona". Shu damda shoir tanida yaproq bo'ldi Dard, "ko'ngil jahonida tuproq bo'ldi Dard". Zero, so'z yo'li, ko'ngil yo'li dardsizlar uchun begona. Ko'ngilni dard chekib izlash, dard ila topish va yaratish mumkin. Dard esa bedor, yaratuvchi, mehr-muhabbatga, ezgulikka baxshida ko'ngilda yashaydi. Binobarin, so'z yo'li-ezgu tuyg'ular va maqsadlar yo'lidir. Shu bois shoir o'zi tanlagan so'z yo'lini-dil yo'li, "ko'ngil sohili" deb ataydi. So'z yo'llarida ungan chechaklarini esa siz-u bizga, shoir dardlariga hamdard ko'ngil egalariga taqdim etib, bu dunyo yo'llari eltguvchi so'nggi, yagona manzilga yorug' yuz bilan yetib borishga undaydi.

"Yaxshilik eskirmagay" ("Qirq hadis") to'plami avvalgi "Ko'ngil sohiliga jo ma'no va manzaralarning badiiy falsafiy jihatdan teran talqiniy davomiyligini ta'minlagan. Sakkiz va o'n ikkilik misralar orqali shoir insoniy burch va mas'uliyat, ezgulik, ma'rifat, yaxshilik, ona va yurtga, xotiralarimizga sadoqat tuyg'ulari mohiyatini, ma'no qirralarini falsafiy yo'sinda poetik talqin etishga erishgan:

... Har kim bu dunyoda qilganlariga

Yarasha ajr ila mukofot ko'rgay.

Oqargan sochlaring mahshar kunida

Nur bo'lib yo'llaring yoritib turgay. (235-b.)

Shunisi diqqatga sazovorki, keltirilgan hadislar va hikmatlar ma'nosi sakkizlik va o'n ikkilik misralarga

singdirilganidan tashqari shoir xilma-xil tashbehlar, metafora, metonimiya, poetik ko'chimlardan foydalanib, g'oya ta'sirchanligini ta'minlashga erishgan. Qofiya tartibi b-b yoki a-b; a-b tarzida kelib, o'ziga xos ohangni yuzaga keltirgan. "Insonga bir vodiy to'la molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyni ham berilishini xohlashi" haqidagi hadis mazmuni "nafs" sarlavhali har biri to'rt alohida misradan tarkib topgan sakkizlikda o'z ifodasini topgan bo'lsa, "Xudo aytadiki", "Baxtsizlik", "Foydali yomg'ir" kabi sakkizliklar orqali shoir odamlarni insofga, ezgu va foydali amallarga undaydi; "O'lim", "Meros", "Sadaqa", "Odam tanasidagi idish" kabi to'rt va oltilikdan tashkil topgan misralarga jo ma'nolar esa uning g'animatligi, befoyda so'zdan sukut yaxshiroq ekani, xulq odobdan ulug'roq meros yo'qligi, Ollohdan foydali ilm so'rash, fursatni g'animat bilish, qalb va axloq go'zalligiga erishishga da'vat etadi.

"Imoratlar quring, soling qasrlar,

Istang olam kezib, baxshilik qiling.

Neki qilsangiz ham qay kasb, amalda

Avval duo oling, yaxshilik qiling..."

"Qirq hadis"ni o'qir ekanmiz, sinovlar dunyosidagi o'z hayotimizni sarhisob etish, amallarimiz nechog'lik ezgulikka xizmat qilishi haqida o'ylash, mehr ko'rsatish, go'zallikni qadrlash, chanqagan insonga suv tutish, mung'aygan odamlarga ko'mak berish, noumidlar uchun umid chiroqlarini yoqish, tuyg'usizlarga his-tuyg'u ulashish, istagi tug'iladi. Zotan, so'z-inson dilining ko'rki, libosidir. So'z yo'li esa mehr-muhabbat, ezgulik, go'zallik, rostlik, mas'ullik, hikmat yo'lidir. Shoir aytmoqchi:

"Bu olam yashnagay ezguliklardan

Toki insonlarda qalb va hikmat bor,

She'r ham yaralmagay bekorga asli

She'rda Rasululloh aytgan hikmat bor."

Sirojiddin Sayyidning "So'z yo'li" asari so'nggi davr o'zbek she'riyatiga xos yangicha shakliy izlanishlar xilma-xil mavzular va g'oyalar mujassamligida o'ziga xos ohanglarni

olib kirayotganidan dalolat beradi. Janrlar rang-barangligi, an'anaviy va yangicha ifoda yo'llaridan, shakllaridan mahorat bilan foydalanish natijasida o'ziga xos falsafiy mushohada bilan tasvirning jozibaliligi, musiqiylik, sodda va ravon ifoda tarzi lirik qahramon kechinmalarini, ruhiy evrilishlarini poetik talqin yoki ichki nutq vositasida yoritish imkonini bermoqda. His-tuyg'u, kechinma va poetik fikr uyg'unligidan yuzaga kelgan lirik obraz o'z "men"ini, o'z ko'ngil olamiga xos manzaralarni tasavvur etib, anglashga undaydi. O'zini o'z ko'ngli orqali taniydi. "So'z yo'li" ham kitobxonni ruhiyat kengliklariga, ko'ngil manzaralari jo bo'lgan tuyg'ular olamiga olib kiradi.

She'rdagi shakl ixchamligi g'oyaning esa falsafiy ko'lamdorligi ta'minlanishi taniqli shoira Farida Afro'z ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoiraning "Tasbeh", "Ushshoq" kabi she'riy to'plamlariga xos xususiyatlar keyingi yillar ijodida yanada to'la-to'kis namoyon bo'lmoqda. To'rtliklar (Azim Suyun, Sirojiddin Sayyid), ikkiliklar, hatto birlik she'rlar (Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam, Tursun Ali) qatori bugungi she'riyatda inson ruhiyatini, qalbdagi kechinmalarni shaklan qisqa uchliklarga joylashtirib, tagma'noni davr o'zbek she'riyatiga xos shakliy qisqalikka quyma, mantiqiy shiorlar orqali ifodalash tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday izlanishlarni mahorat bilan uddalayotgan Farida Afro'zning uchlik tasbehlari o'qigan kitobxon matn tagma'nosini o'zi ta'sirlangan holatda hissiyotlari, o'y-kechinmalariga monanad uqib oladi. Shunisi ajablanarliki, shoira o'ttiz uch tasbehdan to'qson to'qqiz misrali shoda yaratib, o'z dunyosiga xos rangin holatlardan falsafiy-ruhiy mantiq asosidagi badiiy umumlashmalar kashf qilishda foydalangan. Uchliklarning ichki qurilishi, ohangi, bo'g'inlar soni, mazmuni turlicha bo'lsa-da ularni yagona shodaga birlashtirib turuvchi lirik "men" olami, tuyg'ulari, hukm-xulosalari, mushohadalari, alam-o'kinch, afsus-nolalari Yaratganga munojot shaklida yaxlitlashadi va mantiqan birlashadi. Yagona shodani tashkil etuvchi uchliklar ohangini

turoq tartibi, vazn yo qofiya emas, ko‘proq “men” ruhiyatidagi evrilishlar shiddati va “sen” ni anglash mashaqqati yuzaga keltiradi. Lirik “men” olamini, uning turfa kinoyalari ortidagi ma’nolarni o‘zligini idrok etish barobarida “sen”ga ba’zan “uchinchi odam”ga murojaat qiladi. Poetik to‘xtamlar, tuyg‘ular ziddiyatidan, insonni anglash yo‘lidagi ikkilanishlar, yo‘qotishlar, aldanishlar, iztirobli og‘riqlar zarbini kitobxonga yuqtiradi.

Yig‘lasam gar sen uchun emas,
O‘zim uchun ham yig‘lamadim, yo‘q.
Peshanamni o‘qidim, xolos.

Telefonning dastagi botdi,
Yonib ketdi qulog‘im lov-lov.
Sinib tushdi tilla baldog‘im.

Sovib ketfi havolar birdan,
Quyoshni kim o‘g‘irladi, kim?
Kimga kerak muzlagan ba’g‘ir?!

Shukrki, sen boqiy emassan, Hayot!
Hayriyat, sen borsan, O‘lim!..
Yaxshiyamki, yutib turasan, Yer!

Tariq ekdir chumchuqdan qo‘rqmay,
Qo‘rquvlarim tariqdek sochdim.
To‘ying endi, nokaslar.

Men ham adashin “Haqman!” dedim.
Sen ham telbalarcha “Haqman!” deding.
Haq esa hayron.¹

¹ Farida Afro‘z. Tasbeh. Sharq -2007.- 66-b.

Shoira "men" ruhiyati manzaralarini chizishda davom etib, har bir holat mohiyatini anglashga yo'llovchi vaziyat yaratadi. Bu vaziyatdan foydalana olsakgina tasbehtar ta'mini — ma'nolar mag'zini tuyamiz, olamni hissiy anglash orqali turfa jilolarda tasavvur qilamiz, natijada jozib tuyg'ularga tuyg'udoshga aylanamiz.

Muhammad YUSUF ijodini o'rgatish vositasida yoshlarni yurtsevarlik, insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalash

Ijodkorlar badiiy asarlarida obrazlarni badiiy maqsadga mutanosib yaratadi. Badiiy obrazlar orqali personajlarning kechinmalarini, yashash sharoiti va muhitga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Natijada obraz ma'lum g'oyaviy yuk tashiydi. Aniqrog'i, shoir o'zi yaratgan obrazga uyg'un badiiy tafakkur orqali kashf qilingan hayot haqiqatini tasvirlaydi. Ijodkor estetik konsepsiyasini ifodalovchi obrazlar o'quvchiga ta'sir ko'rsatib, uning kechinmalarini yuqtiradi. G'oyaga yo'naltirilgan obrazgina haqiqiy joziba kasb etadi. Shoir xohlagan mavzuda, hatto u ishlangan mavzu bo'lishidan qat'iy nazar asar yozishi mumkin. Ammo u tanlagan mavzuni o'zgacha uslub va tasvirda ochib berishi, uni yangicha fikrlar bilan to'ldirishi kerak. Asar o'zining mazmunida yangi sifatlarni namoyon qila olsagina bu mavzu boshqalardan farq qiladi. Mabodo mavzu badiiylikdan maxrum siyosiy g'oyalarni ifodalashga yo'naltirilsa, uning jozibadorligi va ta'sirchanligi yo'qoladi.

Muhammad Yusuf she'riyatiniig g'oyasi va obrazlari xususida fikr yuritar ekanmiz, u yaratgan ayrim obrazlar an'anaviy bo'lsa ham betakror ifoda, uslub orqali betakror timsol sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shoir she'rlarining har bir g'oyasi (u qaysi mavzuda yozilgan bo'lmasin) yaratgan obrazlarning jon qoniga singib, ularni hayot bilan bog'laydi. Shoir yaratgan obrazlar avval his qilinmagan insoniy tuyg'ularni ifodalab, tabiiy go'zallikni yangi jihatlardan namoyon qiladi. Gul, shabnam, olma, oy, yulduz,

yalpiz, majnuntol, maysa, ufq, qush, ohu va shu kabi timsollar Muhammad Yusufning sevib ishlatgan obrazlaridir. Bu timsollarda ko'proq hokisorlik aks etganligi bilan ham shoir ko'ngliga hamroz. Uning she'riyatida eng ko'p uchraydigan va sevib ishlatilgan obraz - qizg'aldoqdir. Qizg'aldoq - tabiatning kelinchagi eng go'zal fasl nomi bilan bog'liq. Biz bahor haqida fikr yuritar ekanmiz, uni qizg'aldoqsiz tasavvur etish mushkul. Ayni mana shu gul qir- adirlarni bezab, alvon ranglarga burkab, yanada go'zallashtirib yuboradi. Qirlarni o'ziga oshyon etgan qizg'aldoq boshqa gullardan ko'rinishi, tarovati jihatidan farq qilmasa-da, yoki nozik, yoqimli, mayin hid taratmasa-da, o'zining nimasi bilandir ko'zni quvontiradi, qalbni his-tuyg'uga to'ldiradi. Qiyg'os ochilgan qizg'aldoqning qirlarga nafis tus berishini, shamolda esa boshini egib tebranishini oddiy nigoh orqali ilg'ay olamiz. Shoir esa bu go'zallikni she'rlariga poetik ranglar, ohanglarda, rangni manzaralarda tasvirlaydiki, natijada obrazni jonlantirib, tabiatning bir bo'lagiga aylantiradi. O'quvchini esa bu gulga oddiy ko'z bilan emas, qalb ko'zi bilan boqishga undaydi. Shoirning "Sevgi bamisoli" deb boshlanuvchi she'rida qizg'aldoqni muhabbat timsoli sifatida namoyon etib, bizni chuqur mushohadaga undaydi:

Sevgi bamisoli lolaqizg'aldoq,

Teginmay bo'lmaydi,

Tegsang to'kilar.

Alvon bir gumbazning o'rtasi oppoq...

Buni bir menu bir kapalak bilar. {49;37.}

Ushbu misralarda ilk muhabbat bilan qizg'aldoq o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, birinchi muhabbatning beg'ubor, pokiza, ilk tuyg'u sifatidagi o'tkinchi umrini qizg'aldoqning umriga, alvon rangi, nozikligi-yu, nafisligi kabi xususiyatlariga uyg'un holda tasvirlaydi. Bahorning ilk elchisi va ramzi qizg'aldoqni ilk muhabbatga qiyoslaydi. Muhabbat ham qizg'aldoq singari qallda eng nozik hislarni uyg'otadi. Muhammad Yusuf ijodida bu obrazga yangi ma'nolar

yuklatilgan: qizg'aldoq obrazi qadrlanmagan muhabbat timsoli sifatida tasvirlanadi. Buni:

Men o'sha gumbazga boshimni suqdim -

Qizil ko'ylakli bir qizgina kular:

Bunday boqma menga, uqdingmi?

Uqdim...

Buni bir menu bir kapalak bilar,-

kabi misralardan anglashimiz mumkin. Qizg'aldoqning tabiiy go'zalligi va noziklik belgilaridan ijobiy foydalangan shoir muhabbatning ilk ko'rinishini yoki ayrim qalblarning faqatgina visolga etishishni sevgi deb tushuniladigan holatini ochib berishda ham qizg'aldoq obrazidan unumli foydalanganligi keyingi misralarda ko'rinadi:

So'ng u oqqanotim uchdiyu ketdi,

Uning umri bir kun - choshgohda o'lar.

Momo er aylanib manzilga etdi,

Buni bir menu bir charxpalak bilar...

Yuqoridagi misralardan ko'rinib turibdiki, muhabbat bir visol bilan nihoyasiga etgan. She'ning davomida ushbu obrazdan foydalanib, sevgining boshqa ko'rinishini poetik tasvirlaydi. Qizg'aldoq obrazini faqat muhabbatga qiyos etmay, bu obrazni shoir goh soddagina qizaloq, ba'zan esa aldangan yor, hamdard do'st, sirdosh singil va armon kabi shakllarda ham namoyon etgan. Jumladan, shoirning "O'g'lonlar" she'rida qizg'aldoqning hokisorlik xususiyati quyidagicha tasvirlanadi:

Bir daryoga ulanmagan irmoqlar,

Bir qiz sochin silamagan barmoqlar,

Bir tuproqqa to'kilgan qizg'aldoqlar,

Bevaqt qurbon bo'lib ketgan o'g'lonlar. {1.67.}

"Tuproqqa to'kilgan qizg'aldoqlar" bevaqt xazonga aylangan obrazni ko'z o'ngimizga keltiradi. "O'zbek qizlari" She'rida esa o'zbek qizlarining beg'ubor qiyofasini gavdalantirib, hatto qizg'aldoqdan ham sir yashirgan qizlarning ruhiyatini qizg'aldoq obrazi orqali ochadi:

Jilmaysa nur yog'ar gul yonoqlardan,

Sir yashirar hatto qizg'aldoqlardan.

Oftob botgandan so'ng xilvat bog'lardan,

Behuda izlamang sira izlarin -

Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin... {49;257.}

"Mana shu - men tug'ilgan go'sha" deb boshlanuvchi she'rida qizg'aldoqni hamdard singil darajasiga ko'taradi. Xalq og'zaki ijodida ham xuddi mana shu fikrning tasdig'ini, ya'ni singil aka uchun onadek eng mehribon inson sifatida gavdalanganligining guvohi bo'lganmiz. Shoir:

Yodladimu aytolmay unga,

Bag'ri dilim to'ldi dog' bilan,

Osmonlarga termulib yotdim,

Tomda singlim qizg'aldoq bilan. {1.50.}

She'rning so'nggi ikki misrasida bu obrazni shoir mehribon, hamdard singil sifatida qo'llaydi. Qalbini, yurak dog'ini ham qizg'aldoqqa qiyoslaydi, tenglashtiradi.

Shoir qizg'aldoq obrazini xokisorlik, ezgulik, poklik, bir so'z bilan aytganda, vafo ramzi sifatida qo'llaydi. "Qizg'aldog'im" she'rida sabr, vafo yo'lida o'zidan, o'zligidan kechgan, jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshin to'kkan qizg'aldoqni uchratamiz:

Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,

Kokil yoysang, erdan bo'lak toshonang yo'q,

O'ksib- o'ksib turganingda o'zim borib

Peshonangdan o'pay desam peshonang yo'q. {1.53.}

Shoir qizg'aldoqda ayrim insonlarga xos manmanlik kabi illatni uchratmaydi. Uning bosh egib turishini ulug'vorlikka mengzib, o'zi singari g'arib ekanligini ta'kidlaydi. Shu sababli ham shoir o'z dardi bilan qizg'aldoqning o'ziga yaqinligini his etadi. Uni o'ziga hamdard hisoblaydi:

Sollanasan kelinchakday boshing egib,

Jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshing to'kib,

Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,

Meningdek sen g'aribning ham parvonang yo'q...

Qizg'aldoq nima uchun shoirning hamdardi? Jayron o'tgan so'qmoqlarga nima sababdan u ko'z yosh to'kadi?- kabi savollarga "Jayron" she'ridan javob topish mumkin:

Yurak qoning to'kilgan so'qmoq,

Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq. {1.25.}

Shoir nazdida qizg'aldoq shijoatkor jayronning to'kilgan yurak qonidan paydo bo'lgandek ko'rinadi.

Yilda bir marotaba keladigan bahordan quvonchlarga to'lgan qizg'aldoq bag'ri to'lib gulgun yashnaydi. O'zi go'zallashib, tabiatni ham yanada ko'rkamlashtiradi:

Qadring bilgan, darding bilgan, ayt kiming bor?...

Kelib-ketar bahor senga bevafo yor,

Go'zalsanki, senga bari gullar ag'yor,

"Oh" ursang, bir ohing tinglar ostonang yo'q...

Bahor o'tishi bilan qizg'aldoq go'yo er bag'riga singib ketgandek g'oyib bo'ladi. Kelgusi bahorda esa yana shu hol qayta takrorlanadi. Tabiatning bu hodisasidan ustalik bilan foydalangan shoir yorini intiq kutgan holatini qizg'aldoqda jonlantiradi. O'z sevgilisini visoliga chog'langan oshiq qalbning jonli portretini yaratadi. Shu orqali kelib-ketar bahorni yor deb qiyoslab hayot davom etar ekan qizg'aldoq o'z bahorini sog'inch bilan kutib yashayveradi, degan poetik umumlashma yaratiladi.

Muhammad Yusuf insof, imon, oqibat, sof qalb, ezgulik kabi insoniylik xislatlarini "Qizg'aldoq" obraziga jo qila oldi:

Oldingga men borolmasam, o't gunohim,

Bir yo'qlab qo'y, men dunyodan o'tgan chog'im,

Qabrim uzra hilpirab tur, qizg'aldog'im,

Muhammaddan bo'lak do'sti devonang yo'q.

Shoir tabiatga, hayotga ijodiy yondashar ekan, uning abadiy, tuganmas, betakror ekanligiga tan beradi. Mehr-muhabbat ramzi bo'lgan qizg'aldoqni abadiyatga muhrladi. Insonning pokiza tuyg'ulari abadiy ekanligi poetik uslubda kashf qilindi.

Shoirning 90-yillarda yaratgan asarlari o'zining poetik obrazlar va ularning emotsional tovlanishlari bilan ijodidagi ilk she'rlariga aslo o'xshamaydi. Abdulla Oripovning suhbatlaridan, ijodidan ta'sirlangan, zavqlangan shoir o'z ijodida yangi bir obrazni mukammallashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bu obraz

“uchinchi odam” obrazidir. Abdulla Oripovning ijodida uchinchi odam obrazi o‘z yuksakligiga erishgan bo‘lib, unda:

Insonlar bir-birin yursa ardoqlab,

O‘rtada vosita asli ziyoda.

Har ikki odamni turuvchi bog‘lab,

Uchinchi odam bor lekin dunyoda, - {2.318.}

degan falsafiy fikr ifodalangan. Muhammad Yusuf ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning She‘rlaridagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, ungacha yaratilgan badiiy obrazlar va falsafiy xulosalarni chuqurroq mazmundagi yangi fikr bilan boyitadi. Hayotda qanday holatda bo‘lmaylik biror shaxs bilan munosabatga kirishishimizga, bizning yelkamizda zalvor bo‘lib turadigan uchinchi kuch ta’siri sezilib turadi. Go‘yo bu kuch o‘zimizdan ham, munosabatga kirishmoqchi bo‘lgan kishimizdan ham ustunroqdek. Nazarimizda, munosabatlarimizning ijobiy yoki salbiy hal bo‘lishi shu uchinchi shaxsga bog‘liqdek. Ustoz Abdulla Oripov bu shaxs haqida fikr yuritarkan, uningsiz biror ish, biror yumush hal bo‘lmasligiga ishora etadi. U payg‘ambar shakliga kirib bandalarga xudodan dalolat beradi, ne-ne o‘jar shohlardan elchi bo‘lib goh bosh keltirib, gohida boshi ketadi. U azaldan tiriklikka hakamlilik qiladi. Muhammad Yusuf uchinchi odam obrazining faqatgina muhabbat bobidagi qirrasini olib, shu qirrani yangi fikrlar bilan boyitdi. O‘sha uchinchi odamning muhabbat bobida buyuk bir mahram ekanligiga alohida o‘rin beradi. “Uningsiz visol ham yo‘qdir aslida” deya o‘z she‘rlarida isbotlashga harakat qiladi. Jumladan, shoiming “Dalada” she‘rida ikki intiq qalbning bir-biriga intilishi bilan birgalikda muhabbat mahramining shu qalblarni ataylab bir-biridan ajratishga urinishi tasvirlanadi:

Qovushmagan ikkita tavdir.

(Balki u ham o‘zicha haqdir).

Orasiga ikki egatni

Atay tashlab o‘tdi brigadir... { 1. 99. }

She‘rning ta’sir doirasini oshirish hamda ohangdorlikni yuzaga chiqarish uchun ham “Atay tashlab o‘tdi brigadir” misrasini ishlatgan

shoir uchinchi odam obrazini yaqqolroq ochishga muvaffaq bo'ladi. Ushbu misrada brigadirning oshiq qalblarni atay masofani uzoqlashtirish orqali bir-biridan uzoqlashtirishga harakat qilishi uning noyob tuyg'udan bebahra, insoniy tuyg'ularni qadrlash hissidan yiroq odam ekanligini anglatadi. O'z tushunchasiga ega bo'lgan uchinchi odam, ya'ni brigadir o'zicha haq ekanligiga umuman, shubha qilmaydi. Shoir ushbu misralarda shunday bir detaldan (ikki egat) foydalanadiki, bu detal shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni ochishda yordam berganligini sezamiz. Shoir she'ri:

Hamma qizning ko'zi ularda,
Hammasi bir bo'lib o'ylandi.

Orasiga ikki egatni
Atay tashlab o'tdi brigadir,

misralari bilan davom ettirar ekan, shoir sevishgan ikki qalbni kuzatib turgan barcha qizlar ham brigadirning ataylab dillarni ajratish uchun egatlarni tashlab ketganligini tushunishadi. Ammo hech kim unga biror so'z demaydi. Oshiqqlar ham unga itoat qilishadi. Natijada uchinchi odam o'zida odamlar taqdirini xal etishga qodir kuchni his etadi. Har qanday sevgi-muhabbatdan ustun ekanligini namoyish qiladi.

- Zorlanadi yalinchoq nigoh
- Kel yonimga birga teramiz.
- Unamaydi tortinchoq nigoh:
- Odamlarga kulgu bo'lamiz...

Ikki oshiqniig nigohidan tashkil topgan ushbu dialog she'rning samimiyligini oshirib, unga o'zgacha nazokat baxsh etadi: lirik qahramonning o'ziga xos insoniy fazilatlarini yoritishga, talqin qilishga harakat qiladi. She'rdagi uchinchi odam she'rning boshlanish qismida brigadir timsolida namoyon bo'lgan bo'lsa, oxirgi bandida uning qishloqdoshlar umumlashma obraziga aylanishida ham muayyan ma'no bor: odamlar "uchinchi odamlar"ga qarshi kurashish o'rniga undan hadiksirashlari oqibatida ularga fikrdoshga aylanib qoladilar. Natijada xasad, ig'vo tarqatuvchi, ma'naviy talofatlar etkazuvchi "uchinchi odamlar"ning yengilmas kuchga aylanishlariga o'zlari bilmagan holda hissa qo'shadilar.

She'rd a Muhammad Yusuf ustozi Abdulla Oripov yaratgan obrazning yangi qirralarini ochishga erishib," uchinchi odam " xatto muhabbat bobida ham hakamlikni qo'lga kiritganligiga atrof dagilarning loqaydligi, qo'r qoqligi sabab bo'lganligini hayotiy epizod timsolida tasvirlashga erishgan. Shoirning "Hamon esga tushsa vujudim muzlar" deb boshlanuvchi she'rida ham mazkur poetik g'oya yanada teran ifodalanganligining guvohi bo'lamiz. Bizningcha, shoirning muvaffaqiyati ushbu She'rning to'rtinchi misrasida qo'sh qofiyadan foydalanganligidadir. Bu xususiyat she'rning kamchiligiday tasavvur uyg'otishi mumkin. Biroq shoir to'rtinchi misrada aytmoqchi bo'lgan fikrini yashirishga harakat qilib, fikr xotimasini kitobxonga xavola qiladi. SHu sababli ham to'rtinchi misrani yuqoridagi misralar singari o'n bir bo'g'indan qilib olmaydi, uni to'ldirmaydi. Balki poetik umumlashma ning davomi bordek taassurot qoldiradi. She'rd a lirik qahramonning o'zbekona soddaligi, beg'ubor yoshligi sabab hammaga ishonishi, o'zining mustaqil fikri yo'qligi bois muhabbatini yo'qotganligini juda kech anglagan g'amgin holati xotiralar silsilasida tasvirlangan :

Hamon esga tushsa vujudim muzlar
O'sha olis oqshom, o'sha eski g'am
Ketaveribman-a ket desa qizlar,
Senga aytmabman ham.
Jayron hurkardida o'zi qaddingdan,
Sevmaydi deyishsa, ko'nibman mulzam.
SHu gap rostmi deya borib oldingdan,
Bir bor o'tmabman ham.

She'rni o'qir ekanmiz, soddagina yigitning ulg'ayib hayot sirlaridan ogoh bo'lganligi, uning past-balandliklarini to'g'ri baholay olganligiga ishonamiz. Chunki uning qalbida armon bo'lib qolgan o'sha oqshom avvaliga bu darajada ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa-da, yigit ulg'aygan sari qalbidagi jarohat chuqurlasha borganligini sezamiz. Ammo bu jarohatning sababchisi o'zi ekanligidan lirik qahramon qiynalib yashaydi. Ayni damda beg'ubor sevgini yolg'onlar qa'riga itqitgan

“uchinchi odamlar” kirdikori tufayli g‘o‘rlik qilgan yigitning dardlari kitobxonni befarq qoldirmaydi:

Qo‘llarim ko‘ksimda, betinch, betoqat,

Ta‘zimlar qilurman senga ushbu dam

U-menmi, u-senmi, kim bo‘lma, faqat

Senga insof bersin, uchinchi odam!

Uchinchi odam - u kim bo‘lmasin, qay holatda bo‘lmasin shoir ularni insof va adolatga chaqiradi. “Kufurli dunyoda oz emas, axir, o‘shaning izmidan yurgan siymolar” she‘r xulosasiga aylangan. Muhammad Yusuf lirikasida ona yurtдан faxrlanish, umr mazmuni haqida falsafiy o‘ylarga berilish, ma‘naviy soflik, olijanoblik, ezgulik haqida mushohada yuritish kabi xususiyatlar bo‘rtib ko‘rinadi. Rustam Musurmonov “Vatanni onadek, onani Vatandek sevdi” maqolasida Muhammad Yusuf she‘riyati mavzu doirasini asosiy uchta o‘qildizga ajratadi {46;4}. Bular: 1. Ona 2. Muhabbat 3. Vatan.

Mumtoz adabiyotimizdan boshlab hozirgi kun she‘riyatida ham oshiq va ma‘shuqa obrazlari yetakchi o‘rin tutadi. Muhammad Yusuf ijodi ham bundan mustasno emas. Muhammad Yusuf ta‘kidlaganidek: “Muhabbat go‘zal iztirob, u - ko‘hna tuyg‘u, u - ko‘hna dard”dir. Shoir bu ko‘hna dardni, bu ko‘hna tuyg‘uni yuzdan ortiq she‘rlarida kuylashga harakat qildi. Shoir muhabbat to‘g‘risida she‘rlar bitar ekan, uni ko‘proq hijronli, azobli, armonli tomonlarini ko‘rsatdi. Shoirning “Muhabbat” she‘ri xuddi shunday she‘rlar sirasiga kiradi.

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,

Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.

Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,

Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku. {49;27.}

Shoir yaratgan oshiq obrazi g‘am, alam ne ekanligini bilmay yashab kelgan inson. Obrazning yuragidan sevgi joy olganida, qushdek engil ruhini yo‘qotadi. O‘tli muhabbat yengilmagan ruhini yengadi, boshini egib, qomatini ham bukib qo‘yadi. Chunki uning muhabbati alangali, shiddatkordir.

Ne qilarding menga tegib sen,

Engilmagan edim - engib sen,
Boshlarimni erga egib sen,
Qomatimni bukib qo'yding-ku.

Biroq, muhabbat lirik qahramon uchun faqat shirin xayol. Hijron azobi uning qalbini shu qadar ezadi-ki, natijada jonidan kechib yuborish ahvoliga tushadi. She'rni o'qir ekanmiz, lirik qahramon yuragidagi muhabbatdan tashqari biror narsani ko'zi ko'ra olmasligi, faqat uning ko'chasidan sarson kezishi mumkinligiga imon keltiramiz.

Muhammad Yusuf "Muhabbat"ni turli ohanglarga solib kuylagan. Yuqoridagi she'rlarda muhabbatning hijronli, azobli ekanligini kuzatgan bo'lsak, "Suv pari", "Men bittadurman", "Muhabbat sen chiroyli", "Biz baxtli bo'lamiz", "Sevar ekan", "Jiyda tagida", "Sanam", "Orzu" kabi she'rlarida sevgi-sadoqat, muhabbat, ishq tuyg'ulari ulug'lanadi.

Sanam, sochingdan ham shaydolaring ko'p,

Xusning oshiqlari - adolaring ko'p.

Nimang ko'p, ko'yingda gadolaring ko'p,

Ammo men bittaman, men bittadurman. {49;34.}

Oshiq - yor portretini chizar ekan yuqorida tilga olingan shaydolar, adolar va ishq gadolarining eng yuksagi ekanligiga ishora qilib jim, beun sevishni ta'kidlaydi. Oshiq bek yigitning muhabbati masofani, ayriliqni pisand qilmasdan ham o'z sevgisini kutadi. Uni kelishiga ishonadi. Oshiq sevgilisi bilan do'st tutinib, bu do'stlikdan ko'ngli to'lmay o'kina boshlaydi. Chunki bu do'stlik uning qalb haroratini ilita olmaydi. She'rning xotima qismida oshiq yuragi sevgi deb atalmish tuyg'uning gulxanida yonsa-da, "Shaydolaring ko'p-u, men bittadurman" deya ta'kidlaydi. O'zining yagonaligiga ishontiradi. Mazkur she'rda ham bu jihat o'ziga xos oshiqning murojaatidan iborat. Mumtoz adabiyotimizda oshiq doim xokisor, g'amgin, dilpora, gado holida tasvirlangan bo'lsa, bu she'rda aksincha, oshiq - sanam oshiqlariniig ichida yagonaligiga, shaydolari ko'p bo'lsa ham o'zining bittaligiga ishontiradi. Muhammad Yusuf ushbu she'rda an'anaviy obraz - oshiqning yana bir yangi jihatini ochgan.

Muhammad Yusuf she'riyatining yana bir o'ziga xos jihati uning xalq og'zaki ijodiyoti ohangi va ruhiga uyg'unligida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatni "Suv pari" she'ri orqali yorqin kuzatamiz. Har bir inson qalbida o'zi istagan, o'zi orzu qilgan ideal yor orzusi yashaydi. She'rdagi lirik qahramon ham o'z qalbidagi muhabbat idealini, ko'ngil orzusini suvpari obrazida umumlashtirgan. Shoirning lirik qahramoni qalbidagi muhabbat tuyg'usin suvpari obraziga qiyoslaydi. U poklik, soflik, go'zallikni, beqiyoslikni, shaffof orzularini suvparidan topadi. Uni muhabbatning qadsizlanishidan saqlashga harakat qiladi.

Seni hech kim sevolmaydi meningdek:

Vaslingga zor bu oshiqdar ehtimol,

Poyingga tiz cho'kib yig'lar, ehtimol,

Lekin sodiq bo'lolmaydi meningdek!... {49; 27.}

Shoir bu xayoliy obrazni fantastik ertaklardagidek odamlarni sehr-jodu, maftunkorlik bilan suv qa'riga, abadiy yo'qlikka, mavhumlikka g'arq qiladigan emas, balki uni musaffo sevgi timsolida ko'radi. Muhammad Yusuf bu obraz orqali ideal sevgining portretini yaratib, she'rning xulosasida lirik qahramon tilidan hech kim o'zidek seva olmasligini yana bir karra ta'kidlaydi.

Sen ko'kdagi harir ko'ylak hur pari,

Ko'k ko'ldagi tinib qolgan suvpari,

Muhammadning ko'nglidagi dilbari,

Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Muhammad Yusufda ham boshqa shoirlar singari o'z ijodida Vatan go'zalligi, iqboli, shuningdek uning mashaqqatli tarixi va taqdirini gavdalantirish asosiy maqsaddir. Vatan dardlarini kuylash, shu yurtida yashayotgan fidoiy farzand kabi uning dardiga malham bo'lishga tayyor turish shoir she'rlarining asosiy g'oyasidir. Shoirning Vatan mavzusini madh etuvchi she'rlarida Vatanga cheksiz mehr-muhabbat hislari bilan to'lib toshgan lirik qahramon obrazini uchratamiz. Shu bois shoir she'rlari xalqimiz ko'nglidan joy oldi. Uning iftixoriga aylandi.

Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Oripov she'rlari haqida fikr yuritar ekan, u: "Ona Vatan, o'tmishda jabrdiyda, bugun baxtini qo'lga olgan xalq Abdulla She'rlarining asosiy leytmotivi» - degan edi. Xuddi shu fikrlarni Muhammad Yusuf ijodidagi Vatan to'g'risidagi she'rlariga ham daxldor, desak adashmaymiz. Shoir she'rlarida Vatan mavzusi - ona Vatan go'zalligi uning dardlari qo'shib kuylanadi. Uning she'rlari Vatan haqidagi tasavvurlarimizni yangilashga, Vatanni biz anglab etmagan jihatlarini idrok etishimizga ko'maklashadi.

Rustam Musurmonov ta'kidlaganidek: "Muhammad Yusuf ona haqida Vatanni yozganidek, Vatan haqida onani yozganidek yozadi". Shoir jurnalistlarga bergan bir intervyusida: "Vatan - mening soddadil, kamsuqum, bepardoz onam. Men Vatan mavzuida she'r yozsam, yuragimning eng to'rida ana shu tuyg'u yotadi. Dunyoda mening onamday mehribon, kechiruvchan, halol va mushtipar zot yo'q. Demak, Vatan ham mening nazarimda ana shunday ona."

Endi tasavvur qiling, onaga munosabatiga qarab men odamlar bilan gaplashaman. Onamni, demak yurtimni aldaganni yomon ko'raman. Uning qadriga etmaganni men ham bir pulga olmayman. Unga tosh otganning qo'lini urib sindiraman", - degan edi.

Mustaqillik davrida Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she'rlari boshqa shoirlarga qaraganda kuchliroq jarangladi. Shoir nazdida yurtining oddiy bir zarrasi ham u uchun Vatan. Vatan shoir uchun eng ulug'lardai ulug'i. Sulaymon taxtidek e'zozli. Shoir xoh yaxshi, xoh yomon, xoh mahzun, xoh dilbar kunlarida ham Vatanning yuziga yuzini qo'yib dardlashadi. U bilan hamdard, hamnafas yashaydi. Oftob ilita olmagan qalbini birgina Vatan degan so'z ilita oladi. Xalq shoiri Abdulla Oripov bir she'rida "Vatanni ona deb bekor aytilmas", - degan edi. U o'z ijodida she'riyat, sayyora singari Vatanga ham Ona nisbatini beradi. Abdulla Oripov singari Muhammad Yusufda ham ushbu nisbatni yaqqol ko'rish mumkin. Shoirning «O'tan bobo» she'ri sanoq ohangida vujudga kelgan bo'lib, unda Vatan degan tushunchani

xiyonat soʻzi orqali ochishga harakat qilganining guvohi boʻlamiz.

Toʻqqiz qizni kuyovga berdi,

Bir soʻz bilan: Xiyonat qilma! {14; 64

Shoirning lirik qahramoni keksha chol. U toʻqqiz qizni kuyovga bergan. Ota oʻz farzandlariga birgina soʻzni tushuntirishga intiladi. Bu soʻz “xiyonat”dir. Xiyonat har qanday holatda ham kechirib boʻlmas gunohdir. Xiyonat qaysi ildizdan etishishini chuqur anglagan Oʻtan bobo:

Eringga xiyonat qilganing -

Elingga xiyonat qilganing,

Onangga xiyonat qilganing,

Otangga xiyonat qilganing,

Oʻtanga xiyonat qilganing...

deydi. Erga, elga, ona-otaga xiyonat qilish faqat bir soʻzga teng. Bu ham boʻlsa: “Vatanga xiyonat qilish”dir. Shoir erga, elga, ota-onaga xiyonat qilishni “Vatanga xiyonat qilganing!” deya lirik qahramon tilidan alohida taʼkidlaydi. “Xiyonat” soʻzini fransuz leksikografi P.Buast shunday izohlagan edi: “Shunday jinoyat borki, uni oqlab boʻlmaydi, bu - Vatanga xiyonatdir”, yoki rus yozuvchisi I.Kornel fikri ham diqqatga sazovor: “Kim Vatanni xor qilsa - u oilasidan ham ayriladi,” deydi u.

Muhammad Yusuf Vatan obrazining yangi qirralarini sheʼrning asosiy gʻoyasiga boʻysundirib yuboradi. Shoir sheʼrni chiroyli sheʼriy sanʼatlar bilan bezab oʻtirmaydi. Sheʼrni oddiy, sodda, xalq soʻzlashuv tilida bitib xiyonatni (u qay holatda boʻlmasin) kechirib boʻlmasligini uqtirmoqchi boʻladi. Muhammad Yusuf oʻzining lirik qahramonini xalqqa sadoqatli, Vatanga muhabbatli inson sifatida gavdalantiradi. Koʻramizki, bu misralarda yaltiroq tashbehlar, jimjimador soʻz oʻyinlari-yu, dabdabali gaplar yoʻq. Shoir oddiygina, joʻngina satrlarda hayotiy lavhani keltirgan. Shoirning mahorati shundaki, ushbu Sheʼrda lirik qahramon sadoqatni qadrllovchi shaxs sifatida gavdalantirilgan va Vatanni butun borligʻi bilan sevuvchi inson obrazini yaratishga erishgan.

Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Oripov she'rlari haqida fikr yuritir ekan, u: "Ona Vatan, o'tmishda jabrdiyda, bugun baxtini qo'lga olgan xalq Abdulla She'rlarining asosiy leytmotivi» - degan edi. Xuddi shu fikrlarni Muhammad Yusuf ijodidagi Vatan to'g'risidagi she'rlariga ham daxldor, desak adashmaymiz. Shoir she'rlarida Vatan mavzusi - ona Vatan go'zalligi uning dardlari qo'shib kuylanadi. Uning she'rlari Vatan haqidagi tasavvurlarimizni yangilashga, Vatanni biz anglab etmagan jihatlarini idrok etishimizga ko'maklashadi.

Rustam Musurmonov ta'kidlaganidek: "Muhammad Yusuf ona haqida Vatanni yozganidek, Vatan haqida onani yozganidek yozadi". Shoir jurnalistlarga bergan bir intervyusida: "Vatan - mening soddadil, kamsuqum, bepardoz onam. Men Vatan mavzuida she'r yozsam, yuragimning eng to'rida ana shu tuyg'u yotadi. Dunyoda mening onamday mehribon, kechiruvchan, halol va mushtipar zot yo'q. Demak, Vatan ham mening nazarimda ana shunday ona."

Endi tasavvur qiling, onaga munosabatiga qarab men odamlar bilan gaplashaman. Onamni, demak yurtimni aldaganni yomon ko'raman. Uning qadriga etmaganni men ham bir pulga olmayman. Unga tosh otganning qo'lini urib sindiraman", - degan edi.

Mustaqillik davrida Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she'rlari boshqa shoirlarga qaraganda kuchliroq jarangladi. Shoir nazdida yurtining oddiy bir zarrasi ham u uchun Vatan. Vatan shoir uchun eng ulug'lardai ulug'i. Sulaymon taxtidek e'zozli. Shoir xoh yaxshi, xoh yomon, xoh mahzun, xoh dilbar kunlarida ham Vatanning yuziga yuzini qo'yib dardlashadi. U bilan hamdard, hamnafas yashaydi. Oftob ilita olmagan qalbini birgina Vatan degan so'z ilita oladi. Xalq shoiri Abdulla Oripov bir she'rida "Vatanni ona deb bekor aytilmas", - degan edi. U o'z ijodida she'riyat, sayyora singari Vatanga ham Ona nisbatini beradi. Abdulla Oripov singari Muhammad Yusufda ham ushbu nisbatni yaqqol ko'rish mumkin. Shoirning «O'tan bobo» she'ri sanoq ohangida vujudga kelgan bo'lib, unda Vatan degan tushunchani

xiyonat soʻzi orqali ochishga harakat qilganining guvohi boʻlamiz.

Toʻqqiz qizni kuyovga berdi,

Bir soʻz bilan: Xiyonat qilma! {14; 64

Shoirning lirik qahramoni kekxa chol. U toʻqqiz qizni kuyovga bergan. Ota oʻz farzandlariga birgina soʻzni tushuntirishga intiladi. Bu soʻz “xiyonat”dir. Xiyonat har qanday holatda ham kechirib boʻlmas gunohdir. Xiyonat qaysi ildizdan etishishini chuqur anglagan Oʻtan bobo:

Eringga xiyonat qilganing -

Elingga xiyonat qilganing,

Onangga xiyonat qilganing,

Otangga xiyonat qilganing,

Oʻtanga xiyonat qilganing...

deydi. Erga, elga, ona-otaga xiyonat qilish faqat bir soʻzga teng. Bu ham boʻlsa: “Vatanga xiyonat qilish”dir. Shoir erga, elga, ota-onaga xiyonat qilishni “Vatanga xiyonat qilganing!” deya lirik qahramon tilidan alohida taʼkidlaydi. “Xiyonat” soʻzini fransuz leksikografi P.Buast shunday izohlagan edi: “Shunday jinoyat borki, uni oqlab boʻlmaydi, bu - Vatanga xiyonatdir”, yoki rus yozuvchisi I.Kornel fikri ham diqqatga sazovor: “Kim Vatanni xor qilsa - u oilasidan ham ayriladi,” deydi u.

Muhammad Yusuf Vatan obrazining yangi qirralarini sheʼrning asosiy gʻoyasiga boʻysundirib yuboradi. Shoir sheʼrni chiroyli sheʼriy sanʼatlar bilan bezab oʻtirmaydi. Sheʼrni oddiy, sodda, xalq soʻzlashuv tilida bitib xiyonatni (u qay holatda boʻlmasin) kechirib boʻlmasligini uqtirmoqchi boʻladi. Muhammad Yusuf oʻzining lirik qahramonini xalqqa sadoqatli, Vatanga muhabbatli inson sifatida gavdalandiradi. Koʻramizki, bu misralarda yaltiroq tashbehlar, jimjimador soʻz oʻyinlari-yu, dabdabali gaplar yoʻq. Shoir oddiygina, joʻngina satrlarda hayotiy lavhani keltirgan. Shoirning mahorati shundaki, ushbu Sheʼrda lirik qahramon sadoqatni qadrdlovchi shaxs sifatida gavdalandirilgan va Vatanni butun borligʻi bilan sevuvchi inson obrazini yaratishga erishgan.

Yuqorida keltirilgan she'rdagi Vatan mavzusi bir muncha umumiy holda namoyon bo'lsa-da, shoirning "Iqror", "Xalq bo'l elim", "Vatanim", "Ota makonim", "Tavallo" kabi she'rlarida bu mavzuning yangi qirralari ochilgan. Adibning ushbu she'rlaridagi lirik qahramonlari - vatanparvardir. Uning lirik qahramonlari hech bir erni o'zining vatanidek yuragiga yaqin olmaydi. Uni vatanidek qadrlab yuksakka ko'tarmaydi. Bu holat shoirning "Iqror" she'rida yanada ko'tarinki ruhda ochilganligining guvohi bo'lamiz.

O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga {14:277.}

Shoirning lirik qahramoni O'zbekistonning birgina soyasiga jonini fido qilishga tayyor turgan shaxsdir. U o'z vatanidek mehribon, ko'rkam diyorni hatto dunyoning eng go'zal va qadimiy shaharlaridan biri hisoblangan Rimda ham topa olmaydi. Shu sabab Rimning butun go'zalliklarini ona yerining birgina bedapoyasiga almashtirmasligi ravshanlashadi:

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurtni ko'rdim, qancha takdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog'laring izimdan ergashib yurar.

Shu yurtning zilol suvlari, uning yashil qirlari ijodkor ilhom manbaiga aylangan. Shoir Vatan manzaralarini tasvirlar ekan, bu makonda unib o'sganligidan g'ururlanadi. Bu g'ururlanish ko'ksimizda iftixor hislarini uyg'otib, ruhiyatimizga ajib bir surur bag'ishlaydi. Bu tuyg'u o'quvchi qalbida ham Vatanga bo'lgan muhabbat hislarini yanada oshiradi.

Ko'rdim suluvlariing eng faranglarin,
YO xudbinman yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go'zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.

Ushbu misralarda shoirning Vatan go‘zalligini, uning qadrigimmatini siyqasi chiqib ketgan gaplar orqali ta’rif etishni istamaganligi, aksincha, iftixor, g‘urur tuyg‘ulari mohiyatini milliylikka yo‘g‘irib ifodalaganligini aniq his etamiz. Shu sababli shoirning lirik qahramoni o‘zbek millatiga xos bo‘lgan birgina “tandir” so‘zi orqali Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini izhor etadi. She’rda Vatanga muhabbat sadoqat tuyg‘usi bilan omuxtalashib ketgan.

Lirik qahramonning chiqargan xulosasi taxminimizni oydinlashtiradi. Unga eng yaqin bo‘lgan shu tuproq, uningchun eng aziz bo‘lgan diyor ulug‘roqdir. Shu sabab ham arabning go‘zal ohusini oddiy Baxmal qo‘zisiga alishmaydi. Shu sababki, Vatanisiz bir on qolsa, o‘ziga rahmi kelib, Vatanini bilmaslarga astoydil achinadi. She’r ohangi shoirning Vatanga bo‘lgan samimiy mehr-muhabbat tuyg‘usi ruhi bilan sug‘orilgan. Bu ruh inson uchun o‘z Vatanidan azizroq go‘sha yo‘q ekanligini yana bir karra his qildiradi.

Nemis yozuvchisi G.Freytagning “Har kimning qalbida o‘z xalqining jajji qiyofasi yashaydi”, - degan fikriga ushbu she’rda ilgari surilgan ma’nolar hamohang.

“Tavallo” shoir ijodida muhim ahamiyatga ega. Ushbu she’r Vatan mavzusida yozilgan she’rlarining eng takomili. U xalqni jipslashtirish, bir yoqadan bosh chiqarib, oqilona ish tutishga da’vat etadi. Shoir Vatanni ona timsolida ko‘rganligi uchun, Vatan uni oq yuvib, taragan. Vatan bedor ona qiyofasida farzandining beshigini tebratgan. Onani, Vatanni sevgan bu kabi fidoiylikka qanday javob berish mumkin? Shoirning lirik qahramoni faqat birgina javobni bera oladi. U ham bo‘lsa: Fidoying bo‘lgaymiz seni O‘zbekiston, Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!... Farzandning mehrga to‘la qalbi, vataniga sadoqat bilan javob berishini istaydi. Faqat vatanni chin yurakdan sevgan farzandgina unga qalqon bo‘lishi, giyohini-da asrab-avaylashi, yovlarni esa qo‘rg‘oniga yaqin yo‘latmasligi mumkin.

Tuzing totib, unutganlar xor bo‘ladi,

Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi.

Shodon daming ko'rolmagan yurtfurushlar,
Bir kun bir kaft qumlog'ingga zor bo'ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O'zbekiston
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!.. {14;201.}

Ushbu misralarni o'qir ekanmiz lirik qahramonning Vatan qadrini anglab yetgan inson sifatida gavdalanganligining guvohi bo'lamiz. U ichki ziddiyatlardan aziyat chekkanligi sabab, Vatanining shodon kunini ko'rolmagan yurtfurushlar sabab, "Nimani qilsang xor, shunga bo'lasan zor" naqlini eslatishni o'z burchi deb hisoblaydi. Bu she'rda zo'rma-zo'rakilik, sun'iylik, soxtalik ko'zga tashlanmaydi. She'rda shoir o'zi kuylayotgan g'oyalarga astoydil ishongan, shu g'oyalar ta'sirida dunyoqarashi shakllangan, natijada jamiyatning barcha fuqarolari kabi tasvirlayotgan muammosini yoritish jihatidan halol va katta iste'dodga ega bo'lgan san'atkor yuragi tepib turadi. Ayni vaqtda ularda davr hayoti, qahramon xarakteri tasvirlanishi jihatidan haqqoniylikka amal qilinganligini ham inkor etmaslik kerak.

Ona, ayol obrazi shoir ijodida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir ijodkorning onaga, ayolga mehr-muruvvati, mehr-shafqati nechog'li cheksiz ekanligi uning "Bag'ishlov" she'rlarida yorqin ko'ringan. Onaning farzandga bergan bir kunlik mehri, har narsadan ulug'. Bu borada muqaddas Hadisu sharifda ham ajoyib so'zlar bitilgan: "Jannat – onalar oyog'i ostida." {7;77}.

Shoirilar onaning beminnat mehrini She'rga solishni muqaddas burch hisoblashadi. Bu haqda adabiyotshunos olim, akademik Baxtiyor Nazarov Abdulla Oripovning "Onajon" she'ri to'g'risida: "Shoir maqsadi ona sha'niga shunchaki qofiyaga solingan shoirona munosabatini bildirish emas, balki shaxs sifatida o'zini his etgan, hujayralarida uyg'ongan farzandlik tuyg'ularini ifodalash", - deya ta'kidlagan edi. Ushbu fikr Muhammad Yusuf ijodidagi onaga bag'ishlangan she'rlariga ham daxldor desak adashmaymiz.

Muhammad Yusuf ijodida ona obrazi yoki xotin-qizlar obrazi hech bir shoir she'rlariga o'xshamagan bir jo'shqinlik

bilan yaratilgan. “Onamga”, “Tuzalmaydi dardim mening”, “Onamga xat”, “Onajon, onajon”, “Armon” she’rlari shular jumlasidandir. Onaga bag’ishlangan ko’pchilik she’rlari markazida ona vafotidan o’rtangan farzand - shoir qalb kechinmalari tasvirlanadi. “Onajon”, “Armon”, “Beshinchi o’g’il”, “Ahmad Zohir qo’shig’i” kabi she’rlari shular jumlasidandir.

Shoirning ona obrazi gavdalangan she’rlarini o’qiganimizda qalbimizga mayin, yoqimli kuy tarala boshlaganday tuyuladi. Bu kuy butun ruhiyatimizni egallab mehr bilan bizni erkalaydi. Bu erkalash og’ushida dunyoning bor tashvishlarini unutsa bo’ladi. Biroq shoir she’rlarining ko’pchilik qismida yuqorida aytib o’tganimizdek ona vafoti manzarasi bo’y ochadi. Bu holat qalbimizdan joy olar ekan, natijada yuraqda taralayotgan mayin kuy tobora pasayib, so’na boshlaydi. Qalbimizdan bitmas-tuganmas og’riq joy oladi.

Shoirning “Ahmad Zohir qo’shig’i” she’ri yorug’ dunyodan ko’z yumgan onasini sog’inib orziqqan yigitning “munojot”i, “murojaat”i bilan boshlanadi. Farzandning hayol dunyosiga yorug’lik olib kiruvchi ona vafot etgan. Lirik qahramon qanchalik urinmasin vaqtini orqaga qaytara olmaydi.

Yuragidagi bor azoblarini unga ayta olmaydi. Yuragidagi bu og’riq lirik qahramon qalbining mungli sadosi bo’lib tarala boshlaydi:

Ko’ngil degan bo’stonim

Gullari so’lib ketdi

Qaydasiz onajonim,

YUragim to’lib ketdi. {14,25.}

Ushbu she’rda shoir izirobli tuyg’ularini ritorik so’roq gaplar orqali ochishga harakat qilgan. Shoir bitta original savol atrofiga farzandning kechmishini, psixologik holatini yig’a olgan.

Onalarni qancha e’zozlasa, qanchalar ko’klarga ko’tarsa, shuncha oz. Chunki onaning farzandiga bergan bir kunlik mehri har narsadan ulug’. Ona uchun farzand xoh katta bo’lib voyaga etsin, xoh go’dak bo’lsin ko’ziga faqat boladek ko’rinaveradi. Farzandi

ko'zidan sal uzoqroq bo'lsa, sarosimaga tushadi. Ona farzandi uchun bu yorug' dunyoda har narsaga tayyor turadi:

Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!.. {14; 47.}

Ona farzandi uchun yorug' jahonning barcha tashvishlari-yu, og'ir -engilliklariga bardosh beradi. Lirik qahramon onaning bu yorug' jahonda har baloni ko'rgan, biroq farzand bo'lib Toshkent shahrini ko'rsata olmaganidan aziyat chekadi, ko'ngli vayron bo'ladi. Xuddi shunday armon faqat shoirning "Onamga" she'rida emas, boshqa she'rlarida ham ko'rinadi:

Do'stlarim-a, qo'yinglar bu dunyolarni,
Onangizga tutmaydi nur – ziyolarni.
Tirigida olib qoling duolarin
Armon qilmang erta etmay fursatingiz
Elga xizmat - onangizga xizmatingiz!

Keltirilgan she'rlarda lirik qahramon onasi Toshkentni ko'ra olmagan armon bo'lsa, keyingi she'rda shoir ertaga fursatingiz etmay, tirigida duolarini olib qololmay armon qilib yurmang, deb maslahat berayotgandek. Onaga xizmat, bu elga qilingan xizmatdir, elga qilingan xizmat onaga qilingan xizmat bilan barobar.

Shoirning ona mavzusidagi she'rlarini o'qir ekanmiz, nafaqat farzand tilidan, balkim ona tilidan ham so'zlaganiga guvoh bo'lamiz. Muhammad Yusufning bag'ishlov she'rlarini o'qish jarayonida onaning oddiy qushlardek, har doim o'z bolasiga parvona bo'lishi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Biroq onalar ham biz va siz kabi betob bo'lib qolishi xayolimizga ham kelmaydi. Onalar haqiqatdan ham betob bo'lib qolsalar, ular faqat endi o'zini emas, balki, farzandlarini o'ylay boshlashadi. Ona betobu biroq yuragining bir parchasi - farzandi, jigargo'shasi yonida bo'lmasa-chi? Unda ona ruhi farzandi kelmaguncha jonni tark eta olmaydi. Oxirgi nafasiga

qadar farzandini intizorlik bilan kutadi. Diydoriga etganda esa olamdan bearmon o'tadi:

O'g'lim, jigargo'sham, aytgin-chi, nahot,

Achinmaydi joning onang holiga.

Meni to'shakilarga mixlab qo'ydi bod,

Kelsang, bir ko'rsamu... o'lsam, mayliga. {14;270.}

Shoirning mahorati onaga xos iztirob tuyg'ularini, og'ir holatni armon xislari tarzida misralarga joylashtira olganida. She'ning samimiy ruhi qalb torini mayin chertib, larzaga soladi. Shoir she'rlarining asosiy g'oyasi esa bizda yana bir karra onaga bo'lgan mehrni oshiradi.

Shoir ijodida Vatan, Ona mavzulari qatorida mehr-muhabbatni tarannum etish alohida o'rinda turadi. Zero, inson qalbi mehr-muhabbatga, sahovatga nihoyatda boy. Bu tuyg'u dunyoni asrab kelayotgani haqiqat. Ana shu tuyg'u yo'qolgan joyda hayot ham o'z go'zalligi, tarovatini tamoman yo'qotadi. Shuning uchun ham inson qalbidagi mehr tuyg'usini inson tug'ilgandan boshlab uyg'otish va kamol toptirishga harakat qilingan. Mehr - inson qalbi va ruhining ko'zgusi, badiiy adabiyotning ham jon tomiri. Chunki adabiyot ana shu mehr sarchashmasidan bahramandligi tufayli hayot va inson ravnaqiga xizmat qiluvchi ezgulik, haqiqat, e'tiqod, samimiyat, go'zallik va poklik kabi tushunchalarning bedor himoyachisiga aylanadi. Shu haqiqat zaminidagi insopparvarlik davriing eng muhim talablari darajasiga ko'tariladi.

She'riyatdagi mehr tuyg'usi jamiyatning iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy inqirozlar girdobidan omon chiqishi uchun olib borilayotgan kurashlar jarayoniga singib xalq qalbiga, ruhiga quvvat beruvchi tayanch manbaga aylanib boradi. Shuning uchun shoirlarni yorug'lik tantanasi yaxshilik, adolat va haqiqat nurlarini taratish uchun kurashuvchi insonlar deb hisoblash kerak. She'riyat esa olam hayotining tirik tomiri, uning qoni, uning olovi, uning shu'lasi va quyoshidir Bu tuyg'ularini o'z ijodida shunday bir ohang bilan kuylaydiki, bu she'rlarni o'qigan o'quvchi qalbidagi

birinchi navbatda, insonlarga yaxshilik qilish, el-yurt uchun jon fido qilish, o'z hayoti bilan uzviy bog'lash tuyg'ulari uyg'onadi. Ayni paytda adolatsizlikka nisbatan nafrat tuyg'ulari bo'y ko'tara boshlaydi:

O'tar qancha yillar to'zoni,

Yulduzlar- ko'z yoshi samoni.

O'tar inson yaxshi-yomoni,

Mehr kolur, muhabbat qolur. {14;26.}

Bu o'rinda adib haqli fikrni o'rta tashlaydi. Dunyoda insondan qoladigai eng ulug' meros birgina mehr-muhabbatdir. «Mehr-muhabbat inson qalbini ichdan nurlantirib, uni ezgulik sari oziqlantirib turadi. Unga alohida o'ziga xoslik, takrorlanmas joziba baxsh etadi. Inson qalbi quyosh nurida titrab, tovlanib turgan shabnam qatrasiday bir narsa... undagi tuyg'ular parvozi to'xtovsiz, undagi ehtiroslar jaranggi uzluksiz, undagi kechinmalar ko'lami ona borliq kabi cheksiz-chegarasiz...» {33;35.}

Shoir o'zi ta'kidlaganidek, inson xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, bu dunyoni tark etadi. Ammo yaxshidan bog', yomondan dog' qoladi, deganlaridek shoirning lirik qaramoni bu holatni chuqur his etadi:

Nima deysan, ey, g'ayur inson?

G'iybatlaring qildi meni qon.

Sen ham bir kun o'tursan, inon

Mehr qolur, muhabbat qolur.

She'ning bosh qahramoni - zamondoshimiz. Uning ma'naviy olami juda boy, ko'nglida ezgu xislatlarni mujassam etgan. U insonlarning ajoyib sifatlarini, etuk insoniy fazilatlarini hurmat qiladi. Shu xislatlarni keyingi avlodga yanada etukroq tarzda etkazishga harakat qiladi. Shoir zamondoshlarining ruxiy olamini, xarakterini, psixologiyasini, ruhiy kechinmalarini, qalb iztiroblarini g'oyat yaxshi bilganligi uchun ham undagi nurli tomonlarni, ibratli fazilatlarini kuylashni istaydi. Bu kabi mayl shoirning inson tafakkuriga, donoligiga hayrat, uning qalbida yaxshilik, ezgulik to'yg'ulari hokim ekaniga ishonchidan tug'ilgan. Zotan, shoir o'z ijodida

faqat ibratli fazilatlarinigina kuylamaydi. Chunki hayot faqat nurli jihatlardan iborat emas. Hayotning ikkinchi tomoni - qorong'ulikning ramziy ma'nolari qanday? Bu qorong'ulikning ichidagi inson ruhiyatiga xos ranju alamlar, iztiroblar, shaxs va jamiyat, inson va ijtimoiy muhitdagi muammolar, insoniy fojialar ifodasi shoir tomonidan qanday tasvirlangan?

Terlar oqdi suv bo'lib bizdan

Va gursillab yiqildi terak...

Aka, bizning qilmishimizdan

Tunda qushlar yig'lasa kerak. {14;57.}

"Poeziyada inson obrazini, uning ma'naviy dunyosi, butun murakkab xarakterlari bilan tasvirlashda shoir shaxsiyatining roli katta ahamiyatta ega" {6;67}. Shoir hayotni muhtasham qasr deb hisoblamaydi. Insoi o'z ehtiyoji uchun tabiat in'om etgan ne'matlardan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Biroq bu harakat qaysi bir jonzod, qaysi bir hayvon uchun fojiaadir. Muhammad Yusufning o'ziga xosligi ushbu fojiani inson qalbidagi ezgulik bilan yo'qotishga harakat qilganida. Shoirning bosh qahramoni o'zi uchun oshyon yaratishga harakat qilgan inson. Hamma oddiy insonlar singari yashash va bu hayotda o'z etiyohlari uchun harakat qiladigan lirik qahramon. Lekin shu harakat negizida tabiatning o'ziga xos qonuniyati yotganligini goh anglaydi, gohida esa yo'q. Shoir tanlagan qahramonning o'ziga uy qurish ehtiyoji asosida terak uchiga qurilgan qush uyasi va uning daraxt bilan birgalikda buzilishi She'rni mantiqiy harakatga keltiruvchi kuch bo'lib xizmat qilgan. Bu o'rinda so'z san'atkori inson va tabiatni uzviy bog'liqligiga alohida urg'u bermoqda. Shoir daraxt haqida so'zlar ekan, She'rning boshidan oxirigacha ham unda qush uyasi mavjudligi haqida aniq bir fikr bildirmasa-da, She'rni o'qish davomida yiqilgan daraxt tepasida qush ini bor ekanligini bevosita tasavvur qilamiz. Chunki she'rda:

Eski indan tashib borib xas,

Yangi inda yig'lasa kerak ,

kabi misralar qush ham yangi in qurayotgan paytda inson singari eski uyini xotirlashi, ko'z yosh to'kishi She'rga yangicha

ruh berib, ta'sir kuchini oshirgan. Lirik qahramon o'zi uchun qulaylik yaratgan bir chog'da ona chumchuqning yig'isidan dili vayron bo'lishini juda go'zal badiiy lavhalar orqali jonlantirib bergan. Shoir shunday bir detal topa olganki, u orqali aytayotgan gapi o'quvchida ishonch hosil qiladi. Bosh qahramonning ham, ona chumchuqning ham qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida jonlantiradi. Bu esa she'rga samimiy ruh, shu bilan birga insoniy joziba bag'ishlaganligining guvohi bo'lamiz. Tabiatning shu oddiy holatiga nazar solgan shoir insonlar orasidagi xuddi shu kabi munosabatlarga ishora qilgan bo'lsa, ajab emas. Muhimi shundaki, Muhammad Yusuf she'rlarida insoniylik g'oyalarini quruq targ'ib qilmaydi, balki insonga xos bo'lgan xislatlarni chinakam jozibaga ega bo'lgan haqiqatga aylantiradi:

Qahr bu - adovat, araz o'tkinchi,
Quyosh ko'tarilib, quyosh botguncha,
Kerakmaslarga ham keraging bo'lsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.{14; 196.}

Hayot - oliy ne'mat. "Shu sababli hayotdagi go'zallikning ham, xunuklikning ham tasviri insonda hayajon va zavq uyg'otadi" {69;155.} Hayotiylik Muhammad Yusuf she'rlarining badiiy barkamolligini ta'minlagan. Xattoki, muqarrar o'limdan ibratli hikmatni axtarib topgan.

Imoni sof, yuzga kirib yorug' yuz,
To'ylar ko'rib elkasidan tog' tushsin.
Jismiga so'nggi safar oldidan
O'z bolasin qo'ldan tuproq tushsin.{14;202.}

Shoirning idroki, iymoni sof insonlarga nisbatan aytilgan tilak ushbu satrlarda umrini yaxshilik bilan o'tkazganlarning farzandlar tarbiyasida ham xato qilmasligini alohida qayd etadi. Shu bilan birga farzandlarga omonlik tilagan shoir xalqimizning "avval kelgan, avval ketsin", "tegirmon navbati bilan" kabi hikmatli so'zlariga tayangan holda "Jismiga so'ngi safar oldidan o'z bolasin qo'ldan tuproq tushsin" degan falsafiy fikrni ilgari suradi. Chunki bu tushuncha mohiyatida insonning

jamiyatdagi o'rnini, uning uzviy birligi bo'lgan oilaning roli beqiyosligini alohida ko'rsatishga harakat qilgan.

Muhammad Yusuf inson xarakteridagi mavjud mehr-muhabbatni, insoniylikni juda yuqori qo'ygan, e'zozlagan san'atkordir. U insonlarni hayot qarama-qarshiliklariga bardosh berish, mehr-muhabbatli bo'lishga, yaxshi niyatlar bilan yashashga uydaydi. Qahr-adovatni o'tkinchi hisoblab, uning umrini quyosh ko'tarilib botguncha bo'lgan vaqt oralig'iga qiyos qiladi. Hazrat Navoiyning "Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim", degan ulug' satriga e'tiborimizni qaratamizmi, yoki Gadoiy aytgan "Har kishinigkim, kishiga rahmi yo'q, iymoni yo'q" hikmatiga quloq tutamizmi, har ikkalasida ham aynan mana shu mehr ustida so'z boradi.

Muhammad Yusufning ko'p qirrali ijodi, poeziyasi xilmaxil obrazlarni va g'oyalarni qamrab olgan. Shoir ularda har doim zaruriy va hayotiy masalalarni ko'tarib chiqadi. Muhammad Yusuf obrazlarni yaratishda ko'pincha ichki monologdan foydalanadi. U qaysi bir obrazni yaratmasin, qaysi bir g'oyani o'rta tashlamasin, unda shoirning yuragi urib turishi seziladi. Ayniqsa, sevgi, ona, Vatan, mehr-muhabbat mavzularidagi tuyg'ular va fikrlar ifodasi shoir qalbining aks sadosidir. Zamondoshlarimizning ezgulik va badbinlik, adolat va zulm, ma'rifat va jaholat, muhabbat va nafrat haqidagi o'ylari, tushunchalari Muhammad Yusuf she'rlarida o'ziga xos milliy ohang, tiniq bo'yoqlarda ifodalangan. Bu esa asarlarining umumbashariy ahamiyat kasb etishiga yordam bergan.

Lirik izchillik va kompozitsion butunlik – shoir mahorati namunalari

Kompozitsiya badiiy asarni yuzaga chiqaradigan barcha poetik vosita va unsurlarni o'z ichiga qamrab oladi. Kompozitsiya to'g'risida V.M.Jirmunskiy, L.I.Timofeev, I.Sulton, N.Shukurov, Jamol Kamol kabi adabiyotshunoslarning mulohazalaridan quyidagi holat namoyon bo'ladi:

1. Kompozitsiya badiiy asardagi alohida tasvir vositalarning o'zaro aloqadorligidan kelib chiquvchi tizimdir. Kompozitsiya badiiy asarning barcha jihatlarini qamrab oladi;

2. Matnda o'z aksini topgan adabiy tasvirning muayyan shakllari (dialog, monolog, peyzaj, obrazli tasvir va boshqalar) kompozitsiya bo'laklaridir.

Muhammad Yusuf ijodining ilk davrlarida asarlarining kompozitsiyasi pishiq ishlangan deya olmaymiz. 80-yillarda shoir mashq davrini o'tadi, desak xato bo'lmas. Yosh shoir bu davrda she'r kompozitsiyasini muntazam holatga keltirish uchun o'ziga xos qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. U ijodining dastlabki yillarida kompozitsion tuzilish jihatidan ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yan edi. Masalan, "Nozim Hikmat", "Bahor o'tdi", "Yana quyosh chiqdi", "Men ertaklar o'qib tunlari" kabi she'rlari kompozitsion jihatdan mukammal she'rlar emas. Shoirning bu asarlarida she'r tugallanmagandek, she'rning ma'no jihati ham pishiq yoritilmagandek taassurotni uyg'otadi. Ushbu fikrimizga shoirning ijodidan bir misol:

Do'stim meni aldadi,

Dardim ichimda qoldi.

Endi tinchim yo'qoldi,

Do'stim meni aldadi.

Muhammad Yusufning "Bulbulga bir gapim bor" to'plamidagi ayrim she'rlariga va vaqtli matbuotda bosilgan boshqa bir qator she'rlariga ana shu talab nuqtai nazaridan yondashsak, ularda jiddiy kamchilik va nuqsonlarni ko'rishimiz mumkin. Mavzuni yoritishga mutlaqo xizmat qilmaydigan yoki keraksiz takrordan iborat bo'lgan misralar juda ko'p. "Bulbulga bir gapim bor" to'plamiga kirgan "Ey dil..." asarini olib qaraylik. Asarning mazmuni quyidagicha: shoir Vatan haqida fikr yuritadi. Vatanining o'tmishini bir-bir eslaydi. Xotirlash natijasida esa shoir o'z diliga savol beradi va undan javob kutadi. Shoir qaysidir savoliga javob topgandek, qaysidir savoliga javob topa olmaydi. Shu savollar barobarida shoir Vatanining dardli tarixini bir-bir ochib, Vatanini tanishtirishni (tarixini o'rganishni) istaydi.

Asar mazmuni yaxshi. Ammo shu mazmunni, unga singdirilgan g'oyani ifodalab berish uchun shoir 300 dan ortiq misra to'qigan. Natijada, misralar ko'payib, mazmun tarqoqlashib qolgan. Asarning birinchi kompozitsion bo'lagida (ya'ni She'ning kirish qismida) «Bo'yi rayhon yurtimning qadrin bilib yurdimmi?// Kulganda shod, kuyinganda bag'rim kuyib yurdimmi?» degan lirik savol qo'yiladi. Bu savolning obrazli ifodasiga 140 misra sarflanadi. 100 misradan tashkil topgan ikkinchi kompozitsion bo'lakda (She'ning asosiy qismida) shoir Vatan tarixini bugungi kuni bilan bog'laydi. Qolgan misralarda esa (ya'ni xulosa qismida) Vatan oldida farzanddik burchini bajara olmayotganidan shoirning dil qiynoqlari o'z ifodasini topgan.

Shoirning ushbu asaridagi misralar asosiy g'oyani yoritishga yordam bermaydi. She'rda ortiq darajada Vatan dardini ko'rsatish yotadi va bu uning asosiy kamchiligiga aylangan. Natijada, she'r sun'iy chiqqan. «Ey dil» - hajm e'tibori bilan poema, mazmun va xarakter e'tibori bilan esa She'rdir.

Lirik asardagi har bir misra, har bir bo'lak yagona vazifaning muhim bir qismini bajarib kelgandagina asarning zaruriy qismi bo'lib qolishi mumkin. Mashhur so'z ustalari asarlarida bu holat ochiq-oydin ko'rinadi. Ularning she'rlaridagi har bir so'z, har bir misra, har bir bo'lakning zaruriyligi o'z joyida ifoda qilingan.

Adabiyotshunos I.Haqqulov o'zining «Ruh, erk va oshkoralik» maqolasida Muhammad Yusufning «Qora quyosh» dostoniga to'xtalib: «davr kun tartibidan allaqachon tushirib qoldirilgan masalaga noliish berib «xronika»navislik qiladi. Nega bunday? Axir, chilangar ham temirni qizig'ida bosmasa, kechikadi-ku!», - degan fikrlarni bayon etadi {105;3.} Bizning fikrimizcha, bu asar, hujjatlar asosida yaratilgan doston sifatida qadrlidir.

A.Said esa «Vaqt hal qiladi» maqolasida shoir yaratgan she'rlarni tahlilga tortib, Muhammad Yusuf she'riyatidagi kamchiliklar, xatolar va uning yutug'i haqida keng mushohada yuritadi. Jumladan, u g'oyibdagi do'st bilan suhbat qurib: «Muhammad Yusufning she'larida ohang xalqona, qofiyalarda

qusur yo‘q. Ammo ko‘pincha fikr to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zlashuv tiliga yaqin holda, she‘riy bezaksiz aytiladi. O‘quvchini mushohadaga majbur qiladigan, tasavvurini qo‘zg‘aydigan hech narsa yo‘q», - deya g‘oyib tilidan munosabat bildirsa, o‘z qarashlari bilan esa: «Mazmundagi hakikat, tuyg‘uning rostligi qudratni belgilaydi», - degan fikrlarni bayon etadi. G‘oyibdagi do‘st fikrlariga o‘z qarashlarini qarama-qarshi qo‘yadi. Natijada, shoir she‘riyati, uning mahoratini vaqt hal qiladi, deya vaqt hukmiga havola etadi {67;3.}

Muhammad Yusuf mumtoz adabiyotning yirik namoyandalari Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab va XX asr so‘nggidagi o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov singari ijodkorlarning mahoratini o‘rgandi. Natijada, talantli shoirlarning poetik mahorat sirlarini chuqur o‘rganish asosida Muhammad Yusuf har tomonlama mukammal she‘rlar yaratish darajasiga ko‘tarila oldi.

Shoirning 90-yillarda yaratgan “Sevgi bu”, “Mehr qolur”, “Bir qiz yig‘lar”, “Ko‘nglimdagi yor”, “Samarqand”, “Bir kuni”, “Onaizor” kabi asarlari faqat poetik mazmun jihatidan emas, balki kompozitsiya jihatidan ham pishiq ishlangan asarlardir. Bu she‘rlarda har bir so‘z, har bir obraz o‘z o‘rnida kelib fikrni rivojlantirgan. Kompozitsiya izchil bo‘lishi uchun ham she‘rdagi mazmun mantiqan to‘g‘ri rivojlantirilishi lozim. Bu fikrimizning isbotini Muhammad Yusufning eng yaxshi she‘ri “Zaynab qo‘shig‘i” misolida ko‘ramiz.

Shoirning “O‘tkan kunlar” romani taassurotlari asosida yuzaga kelgan she‘rlari o‘ziga xosligi va asarga hamda undagi obrazlarga bo‘lgan individual qarashlari hisobiga yanada boyidi. Biz A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘qiganimizda Zaynab obraziga salbiy munosabat bildirib, o‘z zamonasidan anchayin ajratib taassurot hosil qilishga o‘rganib qolganmiz. Muhammad Yusufning “Zaynab qo‘shig‘i” nomli she‘rini o‘qir ekanmiz, unda lirik qahramon hayotning eng qora kunlariga nazar tashlagan holda Zaynabning ohiga quloq tutganligini ko‘ramiz:

Tengim boshqa dedi yor,

Topdim desam tengimni.

Marg‘ilonlik bir dildor

Tortib oldi begimni. {14; 156.}

She'ning birinchi to'rtligidan ko'rinib turibdiki, Zaynabning Kumushga bo'lgan munosabati juda ham qasoskor emas. Chunki "Marg'ilonlik bir dildor" - deb Zaynab tilidan aytilayotgan so'zlarda bu haqiqat o'z isbotini topgan. Lekin shunday qarash bilan birgalikda Zaynab qalbida Kumushga nisbatan bo'lgan alam ham o'z ko'rinishini namoyon etadi. "Tortib oldi begimni" jumllarida Zaynab Kumushning o'zidan anchayin ustunligiga faqatgina tan beradi. Bu tan berish oqibati, o'z g'animining kuchini, imkonini to'g'ri baholashdan o'zga holat emas. Biz Zaynabning iztiroblaridan xabardor bo'lar ekanmiz, uni ham o'z zamonasining oddiy qurboni ekanligini seza boshlaymiz:

Kulgu ketmay ko'zimdan,

Yog'ar bo'ldi ko'z yoshim.

Ko'z-ko'z qilib baxtini,

Yoqar bo'ldi kundoshim.

"Kulgu ketmay ko'zimdan, yoqar bo'ldi ko'zyoshim" misralari orqali Zaynabning ruhiy holati ochila boshlanadi. O'z zamonasining barcha kelinlaridek bir xonadonning bekasi bo'lgan Zaynab orzu-havas ila yashay boshlaydi. Endi uning bor orzusi, butun borlig'i o'z yori deb hisoblagan Otabekka aylanadi. Biroq hayotida hali quvonch, baxt nima ekanligini to'la his qila olmagan lirik qahramon, kundoshi Kumushning Toshkentga kelishi bilan barcha orzu-havaslari sarobga aylanadi. Kumushning bir qancha fursat (to o'limigacha bo'lgan vaqt) Toshkentda qolishi Zaynab ruhiyatini butkul o'zgartiradi. Zaynabning bu xonadonda o'tkazayotgan har bir kuni ko'z yoshga aylanadi. Qalb tug'yonlari jo'sh urgan, alamlari barcha hissiyotlardan ustun kelayotgan Zaynabga kundoshi o'z baxtini ko'z-ko'z qilayotgandek ko'rinaveradi. Natijada, kundoshim o'z baxtsizligiga sababchi deydi:

Nima bo'ldi, bek yigit,

Bekangizga qarash yo'q?

Kumushdan ming o'rgilib,

Zaynabdan hol so'rash yo'q.

Sheʼrdagi lirik chekinish Zaynabning qalbini oʻrtayotgan dard bayoni sifatida aks etadi. Oʻzini bu xonadonning bekasi deb his etgan Zaynab, Kumush kelgan chogʻda begonaga aylana boshlaydi. Chunki Kumushdan ming oʻrgilayotgan Otabek Zaynabni bir borgina holidan xabar olmaydi, soʻramaydi.

Biz sheʼrning kulminatsion nuqtasi deb hisoblaydigan toʻrtlikda esa lirik qahramonning shum taqdirga koʻnmasligi, XIX asrning eng kir, qora kunlariga nisbatan isyon boʻlib yangraydi. Zaynabning qalb isyoni oʻz takdiriga tan berish emas. Bu tan bermaslik obrazni dinamikligini taʼminlaydi. Otabekka boʻlgan muhabbati ifodasi sifatida ushbu misralarda yakun topadi: “Begim, Sizni men axir, Kumushdan kam suymasdim..”. Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” romanida Zaynab boy xonadon farzandi ekanligini va uning taʼrifini quyidagicha keltiradi: “Margʻilonlik kelinning taʼrifini Hasanalidan koʻp eshitgan Oʻzbek oyim shaharning toʻrt tomoniga qiz koʻrish uchun yurib ketdi. Otabekning koʻnglini oʻsha goʻzal margʻilonlikdan sovutish yoʻlida undan ham suluv qiz topish koʻyiga tushdi. Shunga koʻra, unga ancha-muncha qiz yoqmay, shahardagi koʻp eshiklarni sanashga toʻgʻri keldi. Ettinchi marotaba koʻchaga chiqishida Olim ponsod deganning qizi yoqa tushdi» {14; 136}.

Muhammad Yusuf esa ushbu taʼrifdan ustalik bilan foydalanib, quyidagi misralarda bayon etadi: “Qolsam - dardim bir dunyo, Ketsam - bir uy koʻchim bor! Kumushoyni keltirgan Aravada oʻchim bor.” Zaynab ham manaman degan Toshkent boylaridan biri boʻlgan Olim ponsod xonadonining farzandi. U Toshkentning eng goʻzal qizlaridan boʻlganligi uchun ham Oʻzbek oyim oʻz xonadoniga kelin qilgan. Muhammad Yusuf xuddi shunga ishora etib, “ketsam bir uy koʻchim bor” deya taʼrif etadi. Bir uy koʻch boʻlsa ham bu boylik insonga baxt bera olmasligini his etamiz. Shoir sheʼrni “Kumushoyni keltirgan, aravada oʻchim bor” deya xotimalaydi. Zaynabning butun dardu nolasini birgina “arava” soʻzi bilan bogʻlagan shoir Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani mazmunidan anglanganidek turmushning eng qora kunlariga charxga, takdirga, hayotga nisbatan

isyon edi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida Zaynab baxtsizligining asosiy sababini kundoshi Kumushdan axtarib, uni qurbon qilish darajasigacha borgan bo‘lsa, Muhanimad Yusuf esa Abdulla Qodiriyning asarga singdirgan umumiy falsafasidan, “O‘tgan kunlar” romanining ruhiyatidan kelib chiqib Zaynab obrazi ruhiyatining samimiyligini poetik yaratgan.

Shoirning “Shifoxonada” she’ri ham kompozitsion jihatdan puxta ishlangan asar. Unda mehnatga bo‘lgan sadoqat tarannum etiladi:

Shunday bemorlar borki,

To‘shakda mixlanib yotar benajot,

Uyalib ketasan tuzalganingdan.

Shunday shifokorlar borki,

Tug‘ishgan akangday qaraydi senga,

Tuzalib ketasan uyalganingdan...{14; 104.}

Shoir ushbu she’rida lirik qahramonning shifoxonadagi holatini ko‘zdan kechiradi va unga o‘z munosabatini bildiradi. Badiiy tasvirga ko‘ra, shoir shifoxonada benajot bemorlarni ko‘radi. Ular to‘shakdan turolmay mixlanib qolgan. Ularning ahvolini sezgan lirik qahramon o‘zining sog‘ayib ketganligidan uyaladi. Biroq shifoxonada shunday mehribon shifokor borki, shoir bu parvonalikning qadriga etadi she’rda, hatto, ularning mehnatiga baho berib, “Tuzalib ketasan uyalganingdan...” deydi.

Shoir shifokor mehnatini ulug‘lash uchun og‘ir yotgan bemor va shifokor obrazini kontrast holatda gavdalandiradi. Kichik bir bandda katta g‘oyani ifodalash shoirning mahoratini belgilay oladi. Muhammad Yusuf ana shu olti misrada o‘quvchiga etkazishi lozim bo‘lgan falsafiy fikr mohiyatini ifodalay olgan. Asardagi syujet chizig‘i ko‘z oldimizga shifokorning mashaqqatli mehnatini keltiradi. She’riy misralar shunchalik pishiq qilib terilganki, ularning birortasi o‘midan qo‘zg‘olgudek bo‘lsa, kompozitsion parokandalik hosil bo‘ladi. She’rdagi har bir misra tasodifiy misralar yo‘q. Bu xususiyat - kompozitsion izchillik faqat ana shu she’rga emas, umuman, Muhammad Yusufning eng sara asarlariga xos xususiyatdir.

Muhammad Yusuf lirikasining koʻzga tashlanib turuvchi asosiy fazilati uning etukligidir. Bu etuklik avvalo Muhammad Yusuf sheʼrlarining ravon va qoʻyma, kompozitsion jihatdan puxta va tugallangan boʻlishida koʻrinadi. Bu jihatdan "Rayhon" sheʼri ayniqsa, xarakterlidir. Shoir har bir bandning, har bir misraning benihoya mazmundor boʻlishidan, ilgari surayotgan gʻoyani yorqin ifodalashga xizmat etishidan tashqari, uning nihoyatda ravon va musiqiy boʻlishiga ham erishgan:

Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,
Oyqaboq goʻzalim, joningdan sening.
Kulib koʻklaringdan tushmaysan, qara,
Oy oʻtsa uyalar yoningdan sening. {14;45 .}

"Rayhon" sheʼri qoliplovchi kompozitsiya asosida yaratilgan. Bu kompozitsion uslubiga koʻra shoir asar boshlanishida tasvirlangan manzaraga yoxud sharoitga asarning oxirida yana qaytadi. U odatda shoirga poetik asarni kompozitsion chiziq bilan oʻrab, uning yaxlitligini va tugallanganligini taʼkidlash imkonini bergan. Bu Muhammad Yusufning eng sevimli poetik uslublaridan biri edi. Shoir oʻzining qariyb oʻn besh yillik ijodiy hayotida bu uslubga takror-takror murojaat etdi. Bu uslubni shoirning "Uyqudagi qiz", "Muhabbat sen chiroylik", "Tushlarimga kir", "Farzand", "Onaizor" sheʼrlarida ham uchratish mumkin. Bu kabi lirik asarlarida birorta ortiqcha misra, birorta ortiqcha poetik obraz yoʻq. Shu nuqtai nazardan qaraganda "Rayhon" Muhammad Yusuf sheʼr kompozitsiyasi ustida qunt bilan ishlaganini koʻrsatuvchi chinakam lirik namunadir.

Kompozitsiyada portret ham muhim oʻrin tutadi. Badiiy portret insonning tashqi koʻrinishi, yuzi kiyim-kechagi, yurish-turishi tasviri boʻlib, qahramonning maʼnaviy qiyofasini yorqinroq, aniqroq tasvirlashga imkon beradi.

Muhammad Yusuf ijodiga xos portret yaratish mahoratini "Bir qiz yigʻlar" nomli Sheʼri misolida kuzatamiz. Sheʼrni tahlil qilar ekanmiz, sevgi azoblaridan, sevgi yolgʻonlaridan iztirob chekib, koʻz yosh toʻkayotgan, aldangan bir munis muhabbat qurboni portreti koʻz oʻngimizda namoyon boʻladi. sheʼrda tabiat (yaʼni peyzaj) va inson oʻrtasidagi uygʻunlik

holati o'z o'rnini topadi. Er bag'ridan ko'z yosh singari sirg'alib chiqayotgan buloq boshida bir umrga ma'yuslikka mahkum bo'lgan majnuntollar qoshida iztirob to'la ko'z yosh to'kayotgan lirik qahramon gavdalanadi. Ruhiyat rassomi asarida: "Har bir qahramonning individual va psixologik qiyofasi, avvalo ko'z ifodasida aks etadi" {80;31}- deyilgan. Muhammad Yusuf ham bu she'rida lirik qahramonning ko'ziga katta e'tibor berib, uni tabiat bilan bog'laydi.

Bir qiz yig'lar buloq boshida,

Ma'yus majnuntollar qoshida,

Ko'ngil ohi ko'zin yoshida:

Bevafo ko'p ekan dunyoda... {14; 42 .}

Shoir nafis chayqalib turgan majnuntol qiyofasini ham qiz holatiga hamohang tarzda namoyon qiladi. Qizginaning ma'yus holatini tabiat go'zal bir tarovat bilan tuhfa etgan majnuntolning sochlaridan foydalanib ochishga harakat qiladi. Inson yuragidagi sevgining naqadar ulug'ligini majnuntolga qiyosan lirik qahramon portreti chizilar ekan har qanday o'quvchida paydo bo'ladigan "Balki ayb o'zidadir?..." - degan savolga o'rin qoldirmaydi, chunki shoir lirik qahramon portretini tasvir etar ekan, yonib turgan bir nigohni, noliqlarining esa asosli tarzda javobi bor ekanligini, aldangan qalbning sevgi azoblarini yorqin ranglarda chizib beradi. Har bir yigit orzu qiladigan tovoniga tushadigan kokillarini qizginaga qo'shilib iztirob chekayotganligini qalbning tub-tubidan his qilib turishga undaydi. Bu shaloladek uzun kokillar faqat iztirob chekmasdan balki qizginaga qo'shilib achchiq-achchiq yig'laydi. Qizning mana shunday holatga tushishga sabab nima edi?...- degan savol shoirni qiynaydi. O'quvchini esa moziy qa'riga, muhabbat tarixiga etaklaydi. O'z-o'zidan o'quvchi hayo dildan ko'chsagina muhabbat xor bo'lishiga iymon keltiradi:

Tovoniga tushgan kokillar,

Qizginaga ko'shilib yig'lar,

Bir so'z dilga sanchadi tig'lar -

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Shoir sevgining, muhabbatning azobli ko'z yoshlariga, iztiroblariga bardosli chidamay, ozurda qalbga akalik mehri bilan qarab muhabbat bobida bag'ri butun kimsa yo'q ekanligidan noliydi.

Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning She'rlarida mavjud bo'lgan kompozitsion takrorlardir. Shoirning "Muhabbatim", "Onamga", "Samarqand", "Kapalaklar", "Yolg'onchi yor", "Xalq bo'l, elim", "Ruh to'tisi", "Ketar bo'ldim", "Ko'klamoyim" kabi she'rlarida o'ziga xos takrorlar mavjudki, bular muntazamlik baxsh etuvchi, butun fikrlarning boshini qovushtirib turuvchi muhim kompozitsion element sifatida She'rda katta rol o'ynaydi.

Buni "Yolg'onchi yor" she'ridagi takrorlar misolida ko'rish mumkin. She'rdagi "Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon" misrasi deyarlik har bir mustaqil kompozitsion bo'lakning oxirida takrorlanib keladi. She'rning boshlanishida bu misra shoir ifodalamoqchi bo'lgan g'oyaning asosiy o'zagi sifatida keladi. Birinchi, ikkinchi kompozitsion bo'laklarda shoir o'zining "Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon" degan so'zlarini sharhlab beradi. Ushbu takror she'rni chuqur izohlaydi va ichki mazmunini ochib beradi. Shunga ko'ra "Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon" misralarining ikkinchi va uchinchi kompozitsion bo'laklarida takrorlanib kelishi shoirning izohlarini va asosiy g'oyaning mohiyatini qayta ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Muhammad Yusuf bu she'rida oshiqning ahvoliga achinib, endi hech qachon yorning ishvalariga ishonmasligiga, ishonmay turib ham ko'zlarining yoshlari marjon-marjon bo'lib oqishiga yorning yolg'onlari sabab ekanligini ko'rsatadi. Lirik chekinish orqali nega bunday ahvolga tushib qolganini izohlaydi. Ana shundan so'ng takror misralar yangicha mazmun kasb etadi:

Jannat ishvasiga uchib kim chopmagan,
Takdir mening peshonamga qil yopmagan,
Noshud qulman chaman kezib gul topmagan,
O'z holimga endi o'zim hayron-hayron,

Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?.. {14;59
betlar}

She'ning xulosa qismida uniig intonatsiyasini o'zgartirib o'z ahvolidai o'zi shikoyat qiladi. She'ning oxiridagi takrorda xuddi shu o'zgarish (so'roq belgisi o'rniga, undov belgisidan foydalangan), o'z ahvoliga achinish sifatida aks etgan.

Shunday qilib, shoir she'rlaridagi so'z takrorlari katta g'oyaviy-badiiy vazifani bajarib keladi. Bu takrorlar quruq ohangdorlik bag'ishlovchi takrorlar emas, aksincha, ularning har biri kompozitsion bo'lakda yangicha xarakter, yangicha mazmun kasb etadi.

Muhammad Yusuf lirikasida kompozitsiyaning zohiriy elementlari ham ko'zga tashlanadi. Masalan shoirning "Go'zallarim" she'ri "Go'zallarim go'zal aldaysiz" misrasi bilap boshlanib, shu misra yordamida poyoniga etadi. Ushbu misra she'rda kompozitsion xalqa bo'lib xizmat qilgan. Bu esa she'r tuzilishida o'ziga xos yaxlitlik bag'ishlagan. "Nechun" She'rida ham Muhammad Yusuf kompozitsion halqadan foydalanib, kindek qoni to'kilgan go'shasini ko'rsata olgan. Bu muhabbatdan azizroq tuyg'uga ishontirish uchun «Nechun qulluq kilmay Andijonga men» deya e'tirof etadi:

Tuprog'i jannatdek qilguvchi g'amza

Men o'sha yam-yashil vodiyan maysa.

Ming jonim sadag'a bitta jilmaysa -

Nechun qulluq qilmay Andijonga men {14;146 .}

Ushbu kompozitsion bo'lak asarning boshida, o'rtasida, oxirida takrorlanadi va she'rda lirik qahramonning milliy ruhiyatini qamrab oladi.

Muhammad Yusuf kompozitsion usullardan yana biri bo'lgan poetik ko'chimdand ustalik bilan foydalanib, asarlarini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtiradi. Ushbu usulni shoiming "Muhabbat" she'rida uchratamiz:

Qalbga zardob bo'lib to'lganing alam,

Gohi ochilmasdan so'lganing alam

Muhabbat, muhabbat, hammasidan ham

Sochga oq tushganda kelganing alam!... {14;55}

Bu usulni shoirning boshqa sherlarida ham uchratish mumkin. “Singlimga maktub”, “Sevgi bu”, “Qizil olma”, “She’riyat bu”, “Samarqand” kabi bir qator she’rlari shular jumlasidandir.

Muhammad Yusufning mahorati she’rlarining sarlavhalarida ham yorqin ko’rinadi. Shoir she’rlarining mazmunidan kelib chiqib sarlavha tanlaydi. Sarlavhani asarlarning g’oyasini ochish vositasi sifatida ishlatadi. “Erka kiyik”, “Oqibat”, “Iqror”, “Ajib dunyo”, “Onamdan xat”, “O‘zbekning ayollari”, “Hayrat”, “Lolaqizg‘aldoq” shular jumlasidandir.

Shoir ishlatgan sarlavhalar voqeaning mazmunini qisqaravishda o‘zida ask ettiradi. Bu holatni shoirning “Jiyda tagida” she’rida uchratamiz.

Soy bo‘yi. Tun. Kuz.

Bir yigit, bir qiz.

SHivir-shivirlar

Jiyda tagida.

Tahoratkash chol,

Uyga qaytdi lol,

Dilda sanchiqlar -

Jiyda tagida...

Agar shoirning Vatan madhiga bag‘ishlangan she’rlariga nazar tashlasak, shoir sarlavha tanlashda Vatanini jonu dilidan sevuvchi qalbni gavdalangantirganiga guvoh bo‘lamiz. Shoir sarlavhalarida o‘zining dil tuyg‘ularini ifodalash uchun egalik qo‘shimchalaridan foydalanadi: “Quyoshistonim”, “Vatanim”, “Chamanistonim”, “Elim” kabi she’rlari shular jumlasidan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf asarlari kompozitsion jihatdan ajoyib mukammallikka ega bo‘lgan asarlardir. U o‘z she’rlarining kompozitsion yaxlitligini ta’minlashda yuksak mahorat ko‘rsata olgan. Bu mahorat she’rlarning siriqligida, takrorlarning intonatsion jihatdan muntazamlilik baxsh etishida va insonning psixologik portretini milliy ranglarda, xalqona ohanglarda chizishida namoyon bo‘lgan.

MAHMUD TOIR IJODIDA INSONIY G‘OYALAR TALQINI

Hozirgi axborot “buhroni” avj olgan shiddatkor zamonda badiiy so‘z qadrini ko‘tarish, adabiyot va san‘atning jamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyatini tiklash dolzarb masala hisoblanadi. G‘arbda tug‘ilgan “Ommaviy madaniyat” milliy adabiyotlar va qadriyatlarni toptashga urinmoqda. U ayniqsa yoshlar ongini buzishga, qalbini bulg‘ashga, fahshga rag‘batlantirishga urinmoqda. Shunday davrda badiiy barkamol asarlarni omma qalbiga yetkazish, yoshlarni ezgulikka da‘vat qilishda vijdon ovoziga aylangan adabiyotning asl asarlaridan bahra olish dolzarblik kasb etadi. Mustaqillik yillarida yaratilgan ana shunday asl asarlar sirasiga O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir ijodining alohida o‘rni bor. Taniqli shoir o‘zbek mumtoz she‘riyatiga xos an‘analarni zamonaviy shakllarda davom ettirib, so‘zning sehri, jozibasini ajoyib mahorat bilan namoyon etayotgan iste‘dodlardan biri. Shu bois uning she‘riyati hozirgi o‘zbek She‘riyatida o‘z o‘rnini topdi. Xalqona ohang, samimiyatga yo‘g‘rilgan tuyg‘ular, go‘zal tashbehlari bilan shoir kitobxonlar ko‘nglini rom etdi. Chunki shoir she‘riyati mehr-muhabbatga yo‘g‘rilgan insoniy tuyg‘ularni tarannum etadi.

Hayot hodisalari to‘g‘risida o‘ylash, jumladan adabiyot asarlari haqida mushohada yuritish har bir kishining ongini o‘stirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Dunyoqarashi keng odam esa hayotga boshqalardan ko‘ra teranroq nazar tashlaydi. Narsa-hodisalarning o‘zgalarga ko‘rinmaydigan tomonlari, yashirin jihatlari shoir nigohida o‘zgacha jonlanadi, o‘zgacha ma‘nolar kasb etadi.

Mahmud Toirning aksariyat she‘rlari qalb tug‘yonlarini, ko‘ngil manzaralarini aks ettiradi. Insonni faol bo‘lishga, hayotning, fursatning qadriga yetishga undaydi. Bir so‘z bilan aytganda shoir she‘rlari insonni ulug‘lashga undaydi. Bu uning muhabbat mavzusidagi she‘rlarida ayniqsa yorqin ko‘rinadi.

“Elkangdagi qirq kokil qirqta joningmi sening?
Qurboni bo‘lsam arzir bitta joningni sening.
Yor, o‘zingga yetmadi ohlarim, dodim mening,
Elkangdagi qirq kokil qirqta faryodim mening”¹.

Muhabbat kishilar hayotiga teran mazmun baxsh etadi. Bu tuyg‘udan odamlar qalbi charaqlab yonadi. Muhabbat insonni oyga olib chiqadi, nur bo‘lib qalbini yoritadi, tun bo‘lib borlig‘ini qorong‘ulikka, zulmatga burkaydi. Ishq-muhabbat oddiy odamlarni g‘am-anduhga botirib, nochor qilib qo‘yaniday, shohu sultonlarni ham mahzun holatga soladi. Shu bois muhabbat abadiy mavzulardan biri.

Mahmud Toirning muhabbat mavzusidagi she‘rlari, jozibador, ta’sirchan. Shoir sevgi sog‘inchlarini ham, adoqsiz iztiroblarini ham, alamli og‘riqlarni ham, chorasiz hijronlarni ham dardchil ohanglarda ifodalaydi.

Xalq qo‘shiqdarida, qadimiy dostonlarda oshiqlarning samimiy muhabbati, sadoqati ulug‘lanadi. Samimiy muhabbat esa sog‘inchdan paydo bo‘ladi. Shu mazmundagi she‘rlarni mutolaa qilganimizda qalbimizga ham o‘sha tuyg‘u ko‘chib o‘tadi, shu his ko‘nglimizni qamrab oladi. Muhabbat har qanday insoniy munosabatlarga mazmun va joziba baxsh etadi. Shu tuyg‘u tufayli odamlar bir-biriga intiladi, samimiy munosabat yuzaga keladi.

Mahmud Toirning muhabbat mavzusidagi she‘rlarida ana shunday samimiy tuyg‘ular ifoda qilinadi:

“Ko‘zlaringda armon jolasi,

Ko‘zlarimda hijron nolasi.

Bo‘ynimda dor soching tolasi

Kel, ketaylik dunyolaridan.

Seni ko‘rib qaldirg‘och yig‘lar,

Menga boqib xushnuddir zog‘lar,

SHu zog‘larga bo‘lsin bu bog‘lar,

Kel, ketaylik dunyolaridan...” (84-bet)

1 Mahmud Toir. Saylanma. I jild. T.: O‘qituvchi, 2008. 83-bet. (Barcha kochirmalar shu nashrdan olindi va sahifasi ko‘rsatildi).

Pokiza tuyg'ularga to'la ikki qalb egasi "zog'lar" dunyosidan ketishni, jannatlarga yetishni orzu qiladilar. Zero, ularning qalbi boshqalarniki kabi kirlanmagan, pok va samimiy.

Mahmud Toirning muhabbat lirikasi namunalari ichida hayotdagi noqisliklarga o'zini aybdor deb bilish, armonlarini ham samimiy tarzda ifodalash yetakchilik qiladi.

Ulug' nemis shoiri Gyote: "Insonning tavba-tazarruga bo'lgan ehtiyoji hech qachon yo'qolmaydi", – deb yozgan edi¹. Shoir she'rlarida harakat qiluvchi lirik qahramon ham yillar o'tishi bilan o'z xatolarini anglaydi va o'z ko'ngli oldida armonlarini birma-bir so'zlaydi:

"Har kunimdan bir saboq qolar,
Qadringga yetmadim, malikam.
Olsa jonim shu gunoh olar,
Qadringga yetmadim, malikam.
Umring tilamagan til zaxar,
Soching silamagan qo'l qaqshar,
Sen uchun dunyoda kim yashar,
Qadringga yetmadim, malikam.
(85-bet)

"Qarolar" nomli xalqona ohangda bitilgan she'rida ham shoir ko'ngil hasratlarini, qalb "qarolari"ni ta'sirchan ifoda qilgan:

"Men qo'l cho'z sam yulduz bo'lding
Sen intilsang men bir sarob.
Aytgin, tonglar qandoq kulding,
Oqshom bo'zlab botgan oftob...

Gulim endi ohimiz ham,
Osmonlarga chirmashgaydir.
Jannatlarda seni quchsam,
Havas bilan qarashgaydir..." (86-bet)

¹ Hahiqat manzaralari. – T.: Yangi asr avlodi. 2002. 239-bet.

Lirik qahramonning tavba-tazarrusi o'z gunohlarini, xatolarini anglagan, poklanishga intilgan ko'ngil kishisi tuyg'ularidir. Bu jarayon uning botinida kechadi. U yoriga yalinib-yolboradigani yo'q, balki o'z gunohlarini ichdan, dildilidan tan olayapti. Shu yo'l bilan u ruhan poklanmoqda.

Xatolarni anglab, ich-ichidan azoblanganda inson ko'nglida hech kimga nisbatan kek, adovat, bo'lmaydi. U astoydil tavba-tazarru qilib, o'z xatolaridan saboq chiqaradi, o'zidagi manmanlik, takabburlik, balosini sindiradi.

Mahmud To'ir tasviridagi lirik qahramon sevuvchi qalb egasi – ko'ngil kishisi. Boy berilgan muhabbati, armonlari, sog'inchini astoydil his qiluvchi, xato-gunohlaridan saboq chiqaruvchi, hayot murakkabliklarini mushohada qiluvchi, tushunuvchi sermulohaza, sertuyg'u inson. U o'zgalar dardini ham yurakdan his qila oladi. "Kumushbibi aytganlari" she'rida ana shunday kechinmalar ifoda etilgan:

"Ko'zingizdan to'kib, oh, zoringizni,
Yeldirib ketyapsiz tulporingizni.
Izingizda qolgan ozoringizni,
Boshimga bolishlar qilayin, begim.

Ishqingiz jonimga qotiblar qo'yib,
Qayon bormoqdasiz ko'zlarim o'yib,
Gunohimni, Sizni qolganim suyib,
Yo'l bo'lsin, yo'lingiz tilayin, begim?

Marg'ilon ko'kida dilim kabutar,
Men uchun yig'lagan oyni ovutar.
Bag'rimda bog'lagan sog'inchim yotar,
Gunohimni ayting, bilayin, begim..."
(87-bet)

Muhabbat tufayli inson o'zini anglaydi. Hech qachon hayotdan umidini uzmaydi. Ishonchini yo'qotmaydi. Mahmud To'ir yaratgan lirik qahramon ham muhabbat bobida xatolarga, har qanday iztirob cheksa-da, alamzada emas. U qalbidagi

alamlar sababini biladi. Zero, ruhan kamolotga erishgan qalbgina chinakamiga seva oladi. Lirik qahramonining muhabbat tuyg'ularini tasvirlash orqali, qalbidagi sirli hissiyotlarni jonlantiradi, insoniy tuyg'ularni so'z va obrazlarda gavdalantira oladi. Sezgi, hissiyot, fikr birligi mujassam she'rlari muayyan lahzalardagi shoir kayfiyatini, qalb tug'yonlarini aniq his qilishimizga imkon beradi. Mahmud Toirning muhabbat mavzusidagi she'rlarida lirik qahramon ruhiy holati aniq, ta'sirchan ifodasini topgan. Unda tasviriy ifoda uchun mavhum, yaltiroq mubolag'alar uchramaydi. Aksincha, soddalik, aniqlik shoir she'rlariga o'ziga xos joziba, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Obrazlilik ortidagi ma'nolar birdan "yarq" etib ko'rinadi.

Mahmud Toir tuyg'ular manzarasini yorqin chizib beradi. Bu tuyg'ular ma'yus, g'amgin bo'lsa-da, chuqur ma'nosi bilan kitobxonni hayajonga soladi.

Muhabbat mavzusidagi she'rlar boshqalaridan tashbehlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ularda tuyg'ular ifodasi turli qiyos, sifatlash, mubolag'alarga boy. Shoir o'z his-hayajonlarini ham lirik qahramon tuyg'ulariga yog'irib ifoda etadi. "Diydor" She'ridan:

"Yuragimdan sitamlarni sitib oldim,
Men ko'nglimni osmonlardan tutib oldim.
Qayg'ularning qafaslarin parchaladik,
Men baxtimni ostonada kutib oldim.

Sochqi sochdim muhabbatning diydoriga,
Yuzim bosdim sadoqatning ruxsoriga,
Yorning oppoq kaftlaridan quvonch ichib,
Birga kirdik oqibatning gulzoriga..." (201-bet)

Muhabbat mavzusidagi she'rlarning lirik qahramoni sevgan, sog'ingan, birda baxtiyor, birda ayriliqdan azoblangan holatlarda namoyon bo'ladi. She'rxon hamisha uni qadrdon kishisiday qabul qiladi. Shodligidan quvonadi, iztirobidan qayg'uradi, unga dardkash, hamsuhbatga aylanadi. Mahmud

Toir yaratgan lirik qahramon dunyoda yorug' yuz bilan qarashni istaydi. Qalbini yomonliklardan, illatlardan tozartishga intiladi. Uning qalbi kirlanmagan, hamisha charaqlab nur taratib turadi. Unga osmon bepoyon, quyosh yorug', oy go'zal ko'rinadi. Pok qalbning samimiy kechinmalari, jozib tuyg'ulari manzarasi chiziladi. Muhabbatning qadri yuksak ekanligi haqidagi poetik g'oya shoirning bu mavzudagi she'rlarini bir shodaga birlashtirib turadi. Shoirning o'zi muhabbatga cheksiz hayrat va ruhiy sog'inch bilan intilib yashagani bois bu tuyg'u uning she'rlari bosh ohangini tashkil etadi.

Mahmud Toir qator she'rlarida muhabbat mavzusini ayol, ona obrazlari bilan bog'lab yoritadi. Ona haqidagi bitiklari uning mehrga, muhabbatga to'la qalbi haqidagi qasidaga o'xshaydi. "Ayol" she'ridan misol keltiramiz:

... Bog'larga bahorni yetaklab kelgan,
Farzandi qoshida oy bo'lib to'lgan,
Ilk aytgan qo'shig'i allalar bo'lgan,
Jonimiz rishtasi emasmi, ayol?

Laylining labidan tomgan vafoda,
Kumushning ko'zida suzgan hayoda,
Mohim, Mohlaroyim chekkan jafoda,
Muhabbat shevasi emasmi, ayol?
Tishlagan juft nonda ko'z yoshlari bor,
Oh, qirqta jonining hammasi giryon,
Ellik yil shahidin yo'qlagan juvon,
Vafoning siynasi emasmi, ayol?
(133-bet)

"Bir ko'rib turgan va ko'rmagan, aqlimiz, tafakkurimiz bilan idrok etadigan dunyolarni tabiiy bir kuch, bir qudrat biriktirib turadi. Shuning uchun sayyoralar, yulduzlar bir-biriga urilib, parchalanib ketmaydi. Insoniyatni ham birlashtirib, umumlashtirib turadigan bir hissiyot bor. Bu – muhabbat, mehr tuyg'usi. Nazarimda, bu tuyg'uning sarchashmasi – Ayol,

doyasi – ona. Ayol, ona bo'lmasa, mehr-muhabbat tuyg'usi yo'qday. Insoniyat adashib ketadiganday, yo'lini yo'qotadiganday", - deydi Abdulla Oripov¹.

Mahmud Toirning muhabbat mavzusidagi she'rlari dunyoni, muhabbatni, mehr-oqibatni asrashga undaydi. Hayotni sevishga, sevilish baxtiga chorlaydi; qalbimizni yangi fikrlar, tiniq tuyg'ular bilan nurlantiradi.

Muhabbat xush chashma jonda oqquvchi,
Xudoni tanisang qonda o'qquvchi,
Muhabbat jilmaysa quyosh ham ojiz,
Muhabbat alanga dilni yoqquvchi.

Ko'ngil ko'zidagi qo'rdir muhabbat,
Jonlar jarangiga jo'rdir muhabbat,
Shunchalar go'zalki, shunchalar xunuk,
Ikki ko'zi ochiq, ko'rdir muhabbat.(78-bet)

Shoir ijodida Vatan mavzusi talqini

O'zbek adabiyotining Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Zulfiya, A.Oripov, E.Vohidov kabi so'z san'atkorlari ham Vatan mavzusini xilma-xil uslubda talqin etganlar. Shoirilar Vatan deganda avvalo ajdodlarini, qolaversa, zamondoshlarini, kelgusi avlodlarini nazarda tutganlar. Zero, Vatan faqat tug'ilib, o'sgan tuproq ma'nosini ifoda etmaydi. Vatan ko'zga ko'rinadigan ona zamin, u onalarimiz, yaqinlarimiz, tilimiz, imonimiz, o'zligimiz, millatimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, farzandlarimiz...

Vatan – eng avvalo xalqimiz. Har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan o'lkasini qanchalar yaxshi ko'rsa, shu zamindagi odamlarni ham yaxshi ko'radi. Yurtga muhabbat – elga muhabbat, yaqinlaringga bo'lgan mehr tuyg'usidir. Odamning

¹ Oripov A. Adolat ko'zgusi. –T.: Adolat. 2006. 295-bet.

hayoti, baxti, quvonchi tashvishlari atrofidagi odamlar bilan bog'liq holda kechadi. Xotiralarimiz, zamonamiz muammolari haqida qayg'urishimiz, yonimizdagi odamlarga bergan yordamimiz ham qaysidir ma'noda vatanparvarlikdir. Ajdodlar yashab o'tgan zaminning tuprog'ini qadrlash, undagi oddiy tosh, giyohga mehr bilan qarash, ota-bobolar e'tiqodi, udumlarini avaylash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishidir.

Mahmud Toirning Vatan mavzusidagi she'rlari yurtga muhabbatini, Vatan tarixini yurakdan his qilishini namoyon etadi. U Vatanimizning o'tmishi, bugungi kun kishilari qalbini, ko'ngil olamini to'la tasavvur etadi. Har bir inson o'z yurti ravnaqi uchun chin dildan fidoyi bo'lishini istaydi. "Vatan" she'ridan:

"O'ylasam o'yimdan bollar tomadi,
Bog'lari bahorni sog'ingan diyor.
Mehrim beshigida kuy to'lg'onadi,
Mening ham aytajak qo'shiqlarim bor...

Armonlar bag'ridan olgan erkingni,
Yutoqib bolamdek bag'ringa bosdim.
Dunyo peshtoqiga qadaldi tug'ing,
Vatanim, bolangman, dunyocha o'sdim.

Onam duosida tinchliging tilar,
Farzandim yuzida kulgiching ko'rdim.
Bag'ringga botganda temir tobutlar,
Soylarning toshiga boshimni urdim..." (79-bet)

Taniqli adabiyotshunos Ozoj Sharafiddinov Mahmud Toir ijodining bosh xususiyati haqida yozganida uning "faol grajdanlik tuyg'usi, har bir she'ridan his qilishini" alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Darhaqiqat, shoirning Vatan mavzusidagi she'rlaridan bu tuyg'u yaqqol his qilinadi. Mana bir misol:

Qadrim so'raganda qayrog'im tilim,
Yorning ta'rifida qayrog'im tilim,

Yovning yuragiga titroqlar solgan,
Alpomish belida belbog'im tilim.

Yassaviy baytida tumorim tilim,
Navoiy nazmida sen orim tilim,
Kumushning vafida betakror malak,
Qodiriydan qolgan yodgorim tilim.

Onam allasida bayotim manim,
Bolam og'zidagi novvotim mening.
Oq-sariq ilonlar bo'ynidan bo'g'gan,
Tanglayda tosh qotgan faryodim manim.

Jismimda demangiz, jonimda tilim,
Etmish ikki tomir qonimda tilim,
O'g'limga ham mening jonimdan o'tgan,
Qizimga qatralab qonimdan o'tgan... (125-bet)

She'r shoirning barcha hislarini oshkor etadi. Chunki chinakam she'rda shoir qalbi to'la-to'kis ochiladi. Insonning tarjimai holi, orzu-armonlari bevosita uning Vatani bilan bog'lanadi. Vatan har birimizning hayotimizni qamrab oladi. Shu bois Vatan mavzusi boshqa mavzular bilan chambarchas bog'lanadi. Tabiat yoki tarix to'g'risidagi, ona yoki muhabbat, tilimiz, qalbimiz haqidagi she'rlar ham muayyan munosabatni ifoda etadi.

Mavzu badiiy ijod uchun eng muhim omil emas. "Ijodkorning voqelikka sub'ektiv-hissiy munosabati har qanday mavzuga ta'sirchanlik baxsh etadi. Agar ijodkor yangi fikr aytmasa, hodisaning yangi jihatiga e'tiborni tortmasa, eng dolzarb mavzu ham jo'n bo'lib qoladi", - deb yozadi taniqli adabiyotshunos A.Ulug'ov¹.

¹ A.Ulug'ov. Qalb qandili. -T.: Akademnashr, 2014. 57-bet.

Mahmud Toir Vatan mavzusidagi she'rlarida ham voqelikka o'z munosabatini bildiradi, uning yangi qirralarini poetik kashf etishga intiladi. U ko'proq fikr va tuyg'uga tayanib mushohada qiladi. Metaforadan unimli foydalanadi. Bir-biriga aloqador tushunchalardan foydalanib, yangi ma'nolar kashf etadi. "O'zbekmiz" she'rini tahlilga tortamiz:

"Mehmon desa oydek to'lib,
Kundek kulgan o'zbekmiz.
Bir mayizni qirqqa bo'lib,
Ko'ngil to'lgan o'zbekmiz.

Yotni yetti siylab aytgan,
O'z yuragin iylab aytgan,
Anduhini kuylab aytgan,
Dilni tilgan o'zbekmiz.

Naqshbandlar, Yassaviylar,
Qalbida ham imon gullar,
Biz Allohga sodiq qullar,
O'lmay o'tgan o'zbekmiz.

Temurdek bir sultoni bor,
Yulduz yig'lar osmoni bor,
Abdullatif – nodoni bor,
Ordan o'lgan o'zbekmiz.

Ko'ngil o'rtar navosida,
Hatto dard bor sadosida,
Mohlaroyim vidosida,
Guldek so'lgan o'zbekmiz.

Yuragiga dardin mixlab,
Asrlardan ziyod uxlab,
Uyg'onganing qo'yay qutlab,
O'zni topgan o'zbekmiz..." (127-bet)

Mahmud Toir “O‘zbekimiz” radifini takror qo‘llash orqali qadim tarixiga ega xalq ekanimizga ishora qilish bilan birga o‘z o‘tmishi va ajdodlaridan faxr tuyg‘usini ham baralla ifoda etayotir. Ayni damda u o‘z xalqi tarixiga hurmat bilan nazar solib, hatto yotlarni bag‘riga olgan, yuragini uvalatgan (iydirgan) g‘am-anduhga giriftor bo‘lgan erkidan ayrilgan o‘zbeklar nomidan so‘zlaydi. Erksizlikda “Anduhini kuylab aytgan” el nomidan so‘z yuritadi. Naqshbandlar, Yassaviylar avlodi ichidagi nodonlar haqida, o‘z otalari boshini chopgan johillari – Abdullatiflari bor xalq tilidan, dilidan so‘zlaydi. Tarixni bir vositaga aylantirgan shoir o‘tmish haqida so‘zlab bugungi kunlarga boqishga, bugun ham o‘tmish xatolarini takrorlamaslikka da‘vat etadi. “Asrlardan ziyod uxlab” o‘zligini unutay degan holatdan “o‘zni topish” darajasiga yetgan xalqini qutlar ekan o‘z davri dardlari bilan yashaydigan ziyoli timsolida gavdalanadi. Shoir o‘tmishga bugungi kun kishisi sifatida qaraydi. O‘z zamoni bilan olis tarix o‘rtasidagi bog‘liqliklarni idrok etishga undaydi. Shu bois uning tarixga murojaat qilgan she‘rlari markazida sermushohada, o‘ychan inson obrazi turadi. Ayrim she‘rlarida tarixga murojaat qilib, el-yurt dardi bilan yashab o‘tgan ulug‘ siymolar bilan ruhan yaqinlashib, so‘zlashadi.

“Elning ardog‘i” she‘rida esa shoir xalqining sevimli san‘atkori Faxriddin Umarov bilan ana shu tarzda suhbatlashadi:

“Tuproqda yotsa ham tillo tillodir,
O‘zni maqtaganlar chala mullodir.
Sizni ardoqlagan qodir Xudodir,
O‘zbekning faxrisiz, Faxriddin og‘a.

So‘z emas, dillarni chertgan hofizim,
Yuragin kaftida tutgan hofizim,
Alamin ichida yutgan hofizim,
O‘zbekning faxrisiz, Faxriddin og‘a”. (126-bet)

Mahmud Toirning Vatan o‘tmishi haqidagi “Bobolarim” she‘rida “bosmachi”, “bosqinchi” nomini olgan buyuk otabobolarimiz va ularning bulg‘angan nomlarini o‘kinch tuyg‘ulari bilan poklash istagi his qilinadi. Yurt erki deya tig‘ ko‘targan, el sha‘ni, ori uchun jang qilgan bahodirlar, chin vatanparvarlar – bobolarimiz nomini bulg‘agan sobiq sho‘ro davri g‘oyalarining ne chog‘li mudhish ekanligidan dili vayron bo‘lgan shoir alam bilan yozadi:

“... Erkim deya tog‘da qolgan sadolarim,
“Bosmachi” deb nom olgansiz bobolarim!
So‘qir edik nomingizdan or qildik biz,
Erkim degan bek zotini xor qildik biz,
Belbog‘ingiz bo‘yningizga dor qildik biz,
Dor ostida dod solganda momolarim,
Neni o‘ylab jon berdingiz, bobolarim!” (59-bet)

Vatanimizning mustamlaka davridagi manzarasi ko‘z o‘ngimizda jonlanadi. Bobolarga murojaat qilish orqali shoir o‘tmish kunlar armonlari, anduhlarinigina emas, o‘z dardu iztiroblarini ruhiy holatini ham ifodalaydi.

“Ijodkorning ta’sirchan qalbida tevarak atrofdagi barcha narsalar aks etadi. Bexosdan aytilgan so‘z, notanish kishining ovozi, daraxt tanasida ko‘rina boshlagan kurtak, havoda uchib yurgan barglar, gullar rangi-yu ifori, olis yulduzlar shu‘lasi, turli hayotiy voqealar ijodkor qalbida turfa fikr uyg‘otadi. U o‘zi ko‘rgan, eshitgan har bir hodisadan ta’sirlanadi”¹. Mahmud Toir ham o‘tmish voqealarini birlashtirib, yaxlit manzara jonlantiradi. O‘xshatish, metafora, jonlantirish kabi tasviriy vositalar uzoq tarix hodisalarini birlashtirish vazifasini o‘taydi. Natijada, o‘tmish bilan bugunnnning bog‘lanish nuqtalari: yangi poetik ma’nolar yuzaga keladi. Mustaqilligimizni asrab-avaylash, tarix voqealaridan saboq chiqarish, mayli ustun keladi. Bugungi kunning qadri, qimmat

¹ A.Ulug‘ov. Qalb qandili. –T.: Akademnashr. 2014. 62-bet.

o'tgan kunlar haqida o'ylaganimizda anglanadi. O'tmishni unutganlar bugunning qadrini bilmaydilar. Kelajak bugundan boshlanadi, hayotimiz negizini esa ajdodlarimiz merosi tashkil etadi. Asriy tajribalar bugun va kelajak uchun saboqdir.

Shoirning "Oybek" she'ri alohida e'tiborni tortadi. Unda muallifning ulug' so'z san'atkori Oybekka ehtiromigina emas, insonlik sha'nini har qanday og'ir holatlarda ham yerga urmagan, o'zligiga gard yuqtirmagan matonat timsoli – buyuk Shoir va insonga ehtirom tuyg'ulari ifoda etilgan. Shoir Oybek qiyofasini she'riy portret asosida chizib beradi:

"Oybekni tilidan ayirgan kaslar,
Dilidan ayira olamaganlar hech.
Qo'lidani ayirgan nomard, nokaslar,
Elidan ayira olmaganlar hech.

Oybek bandagamas, Haqqa yuqingan,
Yozolmay qolganda ko'zlari yozgan.
Tutilib, tutilib tutdek to'kilgan,
Yuzlari gapirgan, yuzlari yozgan.

Jilmaysa yuz ochgan kunning ko'zidek,
Kirgan davralarga nur bergan Oybek.
Tildan qoldirganning chirog'i ochsa,
Kulib ko'zlaridan qo'r bergan Oybek..." (90-bet)

"Vatan nomli she'rida esa shoir Vatan haqida lo'nda fikrlarini, tuyg'ularini ifoda qiladi:

"Tovonim o'psa tuprog'i,
Yuragimda maysa titrog'i.
Ko'zlarimni kuydirar hamon,
Onam yopgan nonning uvog'i.

Men Vatanni onamda ko'rdim,
Diydamdagi xush namda ko'rdim.
Jaloliddin Manguberdiga
Chekilgan ming, motamda ko'rdim" (229-bet)

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Toir ijodida Vatan mavzusi xilma-xil nuqtalardan talqin etiladi. Shoir Vatanni uning tuprog'i, maysalari, gullari, tog' va adirlari, mehribon odamlari, issiq non isida his qiladi. Vatanni ajdodlari jasorati timsolida, Oybek kabi ma'naviy ustunlari onasi, bahodir o'g'lonlari timsolida tasavvur etadi. Shu Vatandan faxr, g'urur tuyg'ularini baralla kuylaydi. Shoirning Vatanga cheksiz muhabbati, xalqiga samimiy mehridan yaralgan she'rlari ijodkor mahoratidan dalolat beradi.

Mahmud Toir ijodida adabiy an'analarning o'rni va poetik topilmalar

XX asrning 90 yillaridan o'zbek she'riyatiga bir guruh yoshlar kirib kelishdi. Ular A.Oripov, E.Vohidov, H.Xudoyberdieva, Omon Matjon, Usmon Azim, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Shavkat Raxmon kabi o'nlab ijodkorlar edi. Mazkur shoirlar hissiyot orqali mushohada yuritadigan ijodkorlar edi. Shu bois ular qalamga olgan barcha mavzulardagi She'rlari negizida insoniy dard va iztirob yotardi. Metaforalar ham ularning She'rlarida shoir hissiyotlarini, rangin kechinmalarini suratlantirardi. So'zlar ular ijodida rangin bo'yoqlarda ifodalandi. Osmonni "so'z bilan tilmoq", "mengzaygan chaqmoqni olaman yulib" kabi favqulodda ifodalar uchraydi. Bu avlod ortidan Zulfiya Mo'minova, Qutlibeka, Muhammad Yusuf, Mahmud Toir, Usmon Qo'chqor, Farida Afro'z, Iqbol Mirzo, Faxriyor singari yangi avlod shakllandi. Ular A.Oripovlar avlodi boshlab bergan an'analarni davom ettirdilar. Ular ijodida hayot haqiqati, kishilar qalbidagi dard, iztirob ochiq ifoda etildi. Bu avlod mavjud mustabid tuzumni maqtashdan xoli edi. Aksncha, bu avlod millat tarixi, oyoq-osti qilingan qadriyatlari, tili, adabiyotini tiklash, ularning haqiqiy qimmatini ko'rsatish ruhi kuchaydi. Obraz ramzlar vositasida ramziy mushohada yuritish, yangicha poetik obrazlar kashf etish, hodisalarning

boshqalar e'tibor qaratmagan jihatlarini topish – yangi avlodga mansub shoirlar ijodiga xos mushtarak xususiyatlar edi.

Mahmud Toir ham zamondosh shoirlar, ijodini o'rganish, adabiyotimizga xos an'analarni davom ettirish barobarida inson ko'ngli, ko'ngilning turfa kechinmalari, dard-iztiroblari, qayg'u va umidlarini o'z ijodida ifoda etdi. Bu tuyg'ular xalqona ohanglarga uyg'unlashgan sodda shakllarda ifodalanadi:

“Tilab-tilab olganim,
Tilaklarim to'kildi.

Qirqta emas bir jonim,
Qirq chokidan so'kildi.

Yaro-yaro yurakning,
Yarmini kim olgaydir.
Guruchdagi kurmakni,
Oshga kim solgaydir.

To'lqin-to'lqin daryolar,
To'lqinida ohim bor.
O'rtamizda riyolar,
Mening ne gunohim bor?!”¹ (94-bet)

Xalq qo'shiqlari ohangida bitilgan bu She'rda xalq maqollari satrlar mazmuniga singib ketgan. Lirik qahramon o'z kechinmalarini, “gunohini” o'ynoqi ohanglarda ta'sirchan ifoda qila olgan.

She'rxon ruhiyatida ajib o'zgarishlar yasaydigan ijodkor o'ziga xos uslub egasi, o'ziga xos qiyofasi bor shoir hisoblanadi. Rassom borliqni ranglar, chiziqlar orqali tasvirlaydi. Shoir esa hodisalarga o'z tuyg'ularini qo'shib ifodalaydi:

¹ Barcha misollar shoirning “Saylanma”si II jildan olindi va sahifasi ko'rsatildi. -T.: 2008

“Armonga alishdim ko‘nglimni,
Arzonga alishdim ko‘nglimni.
Men jodu ko‘zingga termulib,
Yolg‘onga alishdim ko‘nglimni...

Qoqildim, turmog‘im gumondir,
Yolg‘ondir, bu dunyo yolg‘ondir.
Muhabbat bor degan shirin so‘z,
Majnunning ohidan qolg‘ondir!...” (146-bet)

Hayotga befarq, loqayd qaraydigan kishilar o‘zlari ko‘rgan, duch kelgan har bir hodisadan muayyan tuyg‘u tuymaydilar. Aksincha, faol insonlar hodisalardan ta’sirlanadilar, bu haqda o‘ylaydilar, o‘zgalar dardiga achinib qayg‘uradilar. Shoir esa qandaydir ruhiy ta’sir ostida hissiyotlari junbushga kelib She’r yozadi. Ijodkor vujudi, ruhi nimagadir ehtiyojsezadi. Hissiyotlari bezovta shoir o‘z kayfiyatini ifoda qiladi, ruhi orom oladi. Shoir o‘z kechinmalariga so‘zdan “libos” kiydiradi. Mahmud Toir ham boshqa shoirlar kabi insoniy tuyg‘ularni ulug‘laydi; Vatani, onasi, muhabbati, o‘zi tan bergan insonlar haqida to‘lqinlanib yozadi. Ma’naviy illatlarni qoralaydi. Shoir she’rlaridagi “men”da uning tatjimai holi, shaxsiy hayotiga munosabati, murakkab kechinmalari zohirlanadi. U hayotga shoirona nigoh bilan qarab, undagi norasoliklarni faylasufona mushohada qiladi. Insoniyat ezgulikka intilish o‘rniga aldamchilik, firibgarlik, riyokorlikka ruju qo‘yib, tobora tubanlashayotgani sabab insoniyat go‘zallikdan zavqlanish o‘rniga yeb to‘ymas iste’molchiga aylanib qolayotganidan kuyinadi.

Shoir o‘zi anglagan bu achchiq haqiqatlarni shunchaki bayon etmaydi, balki bugungi hayot haqida, kechagi tarix to‘g‘risidateran mushohada yuritadigan zamondoshlarimizning kechinmalarini ta’sirchan aks ettiradigan so‘z va iboralar topadi. Boshqa shoirlardan farq qiladigan qiladigan ushbu tashbeh va sifatlashlar uning she’rlariga o‘ziga xoslik bag‘ishlashi barobarida ma’noni bo‘rttiradi, ta’sirchanlikni

ta'minlaydi. U qo'llagan timsol, tashbehlar his-tuyg'ular shiddatini qabariq ko'rsatadi. She'rxon shoir kayfiyatini ham, ruhiyat manzaralarini ham to'la tasavvur qila oladi. "Bu dunyo" she'riga e'tiborni qaratamiz.

Bu dunyo tomosha goh o'yinchisi ko'p ekan,
Aytilgan har yolg'onning suyunchisi ko'p ekan,
Kuyib-kuyib so'zlasang, kulib-kulib tinglash,
Gohida odam zoti topilguvchi to'p ekan.

Qoqilsang qabog'idan qor to'kar qarindoshing,
Nokas yodiga tushar to'yida yegan oshing,
Osmonning uvvosimi, yerni savagan yomg'ir,
Malomat bozorida talashlar ko'z yoshing..."(181-bet)

Inson qalbi o'ziga xos tilsim. Unda kechadigan jarayonlarni hamma vaqt tushunish va tushuntirishning iloji yo'q. Aqlning mantiqiy mezonlari qalb holatlariga mos tushavermaydi. Shu bois biz kuchli hayajon yo tug'yonlarimizni aniq-ravshan izohlay olmaymiz. Mahmud Toir she'rlarida aql va hissiyot uzviy birlashib ketadi. Bahor yomg'iri zaminni uyg'otgani kabi asl asarlar kishilar ruhini tiniqlashtirib, kayfiyatini ko'taradi, olam, odam, hayot ziddiyatlari haqida o'ylaydi. Mana bir misol:

"Bu dunyo qadimdir, inson ham
Yaxshi ham qadimdir, yomon ham qadim.
Gohi baxtim kulib, ketib omadim,
O'tkinchi dunyodan o'tib boraman.
Mehr – ko'zlar ichra kulgan bir chechak,
Vafo – har bir mo'min axtargan ertak.
Jafo – har qarichda unguvchi pechak,
Mehru vafo istab ketib boraman..." (110-b)

Shoir o'z hayot yo'lida ketib borar ekan, dunyoning qadimligini, odamzotning-da qadimligini qayta anglayotir.

Zero bu qadimlik qanday ma'nolarni anglatadi? Odamning qadimligi uning kirdikorlari ham, yaxshi-yomonliklari ham azaliy ekanini anglatmaydimi? Shoir bu holni "o'tkinchi dunyo" manzarasi sifatida talqin qilayapti, xolos. Muhimi, insonning bu dunyodan nima izlagani, nimalarni topganida. Lirik qahramon mehr, vafo, imon izlagan; "har qarichda unguvchi pechak" – jafo tortgan, gunohlar qilgan. Ammo o'z dunyosini izlagan; loqayd, bemaqsad yashamagan. Rost dunyo tomon o'z rangin hayotini yashab, o'z maqsadi uchun intilib borayotgan inson kechinmalari "Qadim dunyo" she'rida shu tarzda ifoda qilingan.

Darhaqiqat, hech kimning hayoti, bir tekisda, hamisha zafarlar quchish bilan o'tmaydi. Xatolar, gunohlar hayotning muayyan haqiqatlarini anglash imkonini beradi. Inson ma'nan-ruhan shu tarzda ulg'ayib boradi.

Mahmud Toir ana shunday holatlarni qalamga oladi. Shoir sog'inch, hayrat, hasrat, qayg'u tuyg'ularini mahorat bilan uyg'unlashtirib poetik umumlashmalar yaratgan. Bu o'rinda shoirning ko'proq an'anaviy mavzularga murojaat qilishini ham ta'kidlab o'tmoq zarur. U xalqona iboralarga yangicha tus beradi; ularni she'rning "hujayra"siga aylantiradi. O'ziga xos qofiyalar yaratadi: qadim-omadim, chechak-pechak, ertak; yolg'iz-hargiz-ummatingiz kabi. Ular jarangdor bo'lmasada, ohorli, yangi ekani bilinib turadi.

Shoir ko'pincha xitob, da'vat usullaridan foydalanib, bunday so'zlarni qofiya qilib keltiradi. Xalqona ohang va so'zlar, iboralardan mo'l foydalanadi: "qahrning alhami"; "ko'zlarning zam-zami"; "tikonlar tig'i" kabilar misol bo'lishi mumkin.

Har bir shoir so'z qatlamlaridagi nozik nuqtalardan yangi ma'nolar topishga intiladi. Ijodkorlar shu maqsadda xalq tiliga murojaat qiladi, o'zicha tashbehlar to'qiydi. Mahmud Toirning "Saylanma"lariga kirgan she'rlarini kuzatsak, so'zlashuvda mavjud, ammo She'riyatga olib kirilmagan ko'plab so'z va iboralarni uchratamiz. Ko'pgina o'xshatish va sifatlashlar esa shoir tomonidan kashf etilganligining guvohi bo'lamiz. Bir

qarashda ular bir oz dag'alday, oddiyday, bir qadar notanishday tuyuladi. Ayni she'rlarni mutolaa qilayotganimizda turli hissiyot va kechinmalarni his qilib, ularning ta'siriga tushamiz. Bu so'zlarning ta'sir quvvati yangicha o'xshatish va mubolag'alar orqali ortganligiga amin bo'lamiz.

“Ona rizosi” She'rida diqqatni qarataylik.

“Niyati ziyorat sayyidi olam,
Qay kun qabristonga kirgandi birrov.
Bir qabr yonidan o'tayotgan dam,
Eshitdi, oh ular go'rida birov.

Olovga aylanmish har urgan ohim,
Ostimda olov, vah, ustimda olov.
Dodimni eshitmas, olampanohim,
O'ng yonimda olov, so'limda olov.

Qarasa nolali qabrga yaqin,
Cho'k tushib o'tirmish mushtipar.
So'radi payg'ambar sarvari oqil kampir
- Bu senga kim bo'lar, onaxon, gapir?
- O'g'lim, - dedi ona, - bunday farzanddan,
Parda ko'tarildi va ko'rdi ona,
Olov bilan to'lgan o'g'li mozori.
Yosh emas ko'zidan oqizib qon-a...
Yaratganga uchdi onaning zori...”(108-bet)

She'r ko'hna rivoyat syujet asosiga qurilgan. Onani norozi qilgan o'g'ilning jahannam olovida azob chekishi, bu hodisani kuzatgan payg'ambarning ona bilan dialogi; azobda to'lg'anayotgan farzand ohidan ta'sirlanib, uni avf etgan onaning Allohga nidosi va ona roziligi, onaning tilagi tufayli azoblardan qutilgan o'g'li haqidagi bu rivoyat e'tiborni tortadi. Shoir voqeani yorqin tasvirlab bera olgan. She'r yakunidagi poetik umumlashma yangi:

“Do'zax olovi bor ona qahrida,

Unutmang, mehrida jannat malhami" (110-bet)

Mahmud Toir she'rlarida uchraydigan "Maysalar yuzida dur", "Quyosh kipridi", "Ko'ngil quyoshi", "Rayhonlar rang to'kdi", "Quyosh qo'rg'oni", "Erning kuragiga to'kilmoq", "So'zga sig'maslik" kabi ifodalar g'oyat obrazli, ta'sirchan, original. Zotan she'rdagi ohorli tashbeh, sifatlash, jonlantirish kabi tasviriy vositalar inson hayoti, qalbi to'g'risida betakror, teran mushohadalarga, salmoqli xulosalarga yo'l ochadi. She'rning ta'sir quvvati ana shunda yuksak bo'ladi. Shu ma'noda Mahmud Toirning ayrim she'rlarida hammaga ma'lum haqiqatlar bot-bot takrorlanadi; ayrim She'rlarida yuzakilik, ma'noning siyqaligi seziladi. His-tuyg'ularning nozik, chuqur ifodasi yo'qligi "Dehqonim", "Muhabbat", "Ey dil" kabi she'rlari misolida ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilganda Mahmud Toirning insonparvarlik g'oyalari ifoda etilgan qator she'rlari orqali kitobxon zamondoshlarimiz va shoir ruhiyati bilan ma'naviy yaqinlashadi; shoirning hayajonli va ehtirosli mulohaza, kechinmalari qalbimizga kirib boradi, hamdardlik, hamnafaslik hissini uyg'otadi. Zero, san'at va adabiyotning beqiyos ahamiyati ham shunda.

Tasviriy san'at asarlarida tasvirlanayotgan manzara chiziqlar, ularning yo'nalishi, bo'yoqlarning tovlanishi va jilosi orqali namoyon bo'ladi.

She'riyatda fikr va tuyg'uning muayyan ohanglar orqali kitobxon qalbiga, tafakkuriga yetkazilishi o'ziga xos. She'rdagi fikr inson ongi orqali qabul qilingach uning ma'no qatlamlari idrok etiladi. Kishining fikri harakatga kelganda esa u avval anglamagan haqiqatlarni osonlik bilan idrok etadi. She'rda ifodalangan hayot haqiqati nechog'li haqqoniy bo'lsa, biz uni tan olamiz, mag'zini chaqib, hayotiy xulosaga kelamiz. Shoir bilan ma'naviy yaqinlikni his qilamiz.

Mahmud Toirning "Saylanma"siga kirgan "To'rtliklar"i taxminan ana shunday tasavvur uyg'otadi. Mana bir misol:

"Bir maysa terakka shivirlab,

Erga boq, ildizing qurtlar dedi.
Yonimda yig'lagan shu g'arib to'nka,
Kecha sening kabi kerilgan edi." (288-b)

Maysa tilidan terakka qarata aytilgan hikmat g'arib to'nka holatini ichdan yoritadi. Obraz ramz vositasida ifodalanayotgan falsafiy fikr salmog'i she'rxonni o'ylatadi. Kibr, manmanlik tufayli o'zini xarob etgan to'nka misol oxir-oqibat el nazaridan qolish hech gap emasligini his qilamiz.

Toshlar otmoq uchun yaratilganmas,
Yoshlar sochmoq uchun yaratilganmas,
Shunchaki yig'lama bandai g'ofil,
Ko'z yoshing gunohing yuva olsa bas.

To'rtliklarda tasvir ixcham, fikr salmoqli, falsafiy ruh ustun bo'ladi. To'rtliklar alohida, mustaqil she'r shakli sifatida muallif qarashlarini, o'y-hayollarini, falsafiy, mushohadalarini qamraydi. Ba'zan, to'rtliklarda ifodalangan falsafiy mulohazalar ma'nosini bir o'qishda uqish qiyin kechadi. Ularda qanday holatlar yo qusurlar inkor etilib, qanday haqiqatlar ma'qullanayotganini, nima e'tirof etilayotganini birdaniga bilolmasligimiz mumkin. Shoirning hissiyotlari, murojaati, e'tirozlarini chuqur anglash uchun she'rni bir-ikki qayta o'qish, to'rtlikda qanday manzara yoki holat boshqasiga qarshi qo'yilayotganini aniq tasavvur qilish talab etiladi. Toshlar otmoq uchun emas, yoshlar hamisha yig'lamoq uchun emas, balki gunohlaringni his etib, ulardan qutulmoq chorasini izlash, tonolmasang, gunohlaringni yuvolmasang – yig'lamoq darkorligi Mahmud Toir to'rtligida ifoda etilgan. Ko'z yoshing gunohlaringni yuva oladimi? – degan savolga o'z-o'zimizga berishga undaydi.

She'riyatning o'ziga xos sirli-sinoatli olam ekani unda xilma-xil ifoda vositalari, shakllar, uslublar mavjudligi bilan ham izohlanadi. Har bir ijodkor hayotni, insonni o'ziga xos tarzda badiiy gavdalandirishga intiladi.

Mahmud Toir qalamiga mansub to'rtliklar ifoda uslubi, poetik fikr salmog'i, tashbehu qofiyalari bilan ajralib turadi. To'rtliklarda ifodalangan ma'nolar, falsafiy fikrlar ham hech bir ijodkornikiga o'xshamaydi. Ularda turfa hissiyotlarga to'la qalbning nurli manzaralari, hayotiy tajribasi asosida chiqargan hukm-xulosalari aks etgan. Inkor va tasdiq, e'tirof va e'tirozlar aks etgan to'rtliklari orqali shoir dunyoqarashini, hayotga munosabatini anglab boramiz, befarq qolmaymiz.

Soat chiq-chiqida savol bor emish,

Erdagi uvoqda uvol bor emish.

Bo'yingni qamishga boylayverma,

Tiz cho'k, maysada ham kamol bor emish.

Inson havolanib, o'z bo'y-bastidan, ko'rkamligidan havolanib yuraverishi mumkin. Ammo bu chiroy, bo'y-bastga yarasha ma'naviy olam, go'zal xulq, kamtarlik bo'lmasa ne naf?

“Oyni maqtar yuzidagi dog'ni ko'rmaslar,

Soyini maqtar qo'ynidagi toshni so'rma.

Muhabbatning ko'zi ko'rmi, shunchalar ega

Odam zoti dildan oqqan yoshni ko'r”. (239-b)

Bu to'rtlikda ifoda qilingan ma'nolar ham bizni befarq qoldirmaydi. Undagi bir-biri bilan bog'lanib kelgan qarama-qarshi ma'no tashuvchi sifatlashlar (oy – go'zalligi, yuzidagi dog' esa kemptiklik; Muhabbat – yoqimli, lazzatli; ammo u oshiqhlarni yig'latadi; soy-sokin, tiniq, ruhga yoqimli; soy qo'ynidani toshlar esa og'riq beradi, tiniqlikni loyqalik bilan bulg'aydi), o'xshatish va jonlantirishlar tabiiy tuyg'ular uyg'otadi, fikr-hislarimizni harakatga keltiradi. So'zlar esa qalbizni to'lqinlantirib salmoq kasb etadi.

Olam so'z orqali yaralgan. Ijodkor hamisha so'z sog'inchi, so'z iztirobi bilan yashaydi. Shoirilar, olimlar, ijod ahli millatning tayanchi, elning obro'si, yurtning sharafi, davrning ko'zgusidirlar. Shoiriga qarab elni, uning ma'naviy yuksaklik darajalarini tasavvur qilsa bo'ladi. Mahmud Toir ijodi ham o'zbekka xos milliy tafakkur tarzini, salmoqli, hikmatga to'la

soʻz aytish odobini toʻla namoyon etadi. Milliy ruhiyat egasi sifatida shoir atrofga, odamlarga boqadi. Uning nigohlari ham oʻychan, oʻzbekona.

Olamning va odamning barcha sir-sinoati soʻzda namoyon boʻladi. Inson koʻrgan narsalaridan hayratlanadi, taajublanadi, gʻazablanadi yo quvonadi. Koʻrganlari asosida fikr yuritib, xulosa chiqaradi, taʼsirlanadi.

Mahmud Toir toʻrtliklarini oʻqir ekanmiz ham hayratni, ham taajubni tuyamiz. Nahot odamzot shu hayot haqiqatini tushunmasa, idrok etishga ojiz boʻlsa, degan savol bot-bot xayolimizga keladi.

“Sen tosh otding – men tillo topdim,
Sen qargʻading – men duo topdim.
Yomonlikka yaxshilik qilib,
Oʻz dilimdan men Xudo topdim”. (295-b)

“Kurtak koʻz ochganda daraxt titraydi,
Biz xazon ohiga daraxt qartaydi.
Ey, gunoh bandasi, hargiz unutma,
Tangri sendan yolgʻiz tavba tilaydi”.

Shoir chin haqiqatlardan bizni ogoh etmoqda. Zotan, soʻz jonli narsa. U koʻzga koʻrinmasa ham odamga taʼsir koʻrsatib, turfa holatga soladi. Soʻz orqali haqiqatlar anglanadi, noqasliklarni koʻrganday boʻlamiz, oʻzligimizni taftish qilamiz, soʻz yordamida hayotdan saboq olamiz, ajdodlarimiz anglagan haqiqatlardan boxabar boʻlamiz. Har bir odam oʻzini soʻz orqali maʼlum qiladi. Mahmud Toir toʻrtliklari orqali avvalo shoirni, uning qalbini, oʻy-kechinmalarini anglab boramiz.

“Bogʻ kezib har niholdan oʻzimga doʻst izladim,
Qumrilarga qoʻshilib, soʻzimga doʻst izladim,
Kun kelib tuproq meni tillashgani chaqirsa,
Ortimdan yigʻlab borar izimga doʻst izladim”. (294-b)

“Bu dunyoni tugal koʻrdim, onajonim duosida,
Dunyo goʻyo kulib turar, duolarning sadosida.

U dunyoning vafosini bu dunyodan axtarurman
Bihamdulloh, mening ko'nglim ikki dunyo Xudosida".
(595-b)

"Demagil, qilmishing barchasi sirdir,
Uzingni yulmagil, ko'nglingni sidir.
Opichlab dunyoni chiylolmagaysan,
Ayt do'st, o'zingdan o'zingni qidir". (296-b)

Ushbu to'rtliklarda shoir ko'ngil olami, hayotga, odamlarga qarashlari, ishonch-e'tiqodi, topingan haqiqatlari o'z ifodasini topgan. Mahmud Toir to'rtliklari hayotning turli hodisalari, holatlarini ko'rib, idrok etib, ichki ma'nolarini topa olgan, ulardan hikmatlar yarata olgan; shu hikmatlarini biz kitobxonlarga o'z tuyg'ulariga yo'g'irib she'riy shaklda bayon qila olgan. Oddiy holat yo hodisalarga, ular zamiridagi ziddiyatlarga e'tiborimizni tortib, shu to'qnashuvlar qarshisida turgan inson qalbini tushunishga undaydi. O'z olami, o'z dunyosi, o'z haqiqatlari va hikmatlarini taqdim etadi.

Mahmud Toir hikmatlarida vazmin, teran fikr bor. U o'zi anglagan haqiqatlarni boshqalar ham anglashini istaydi; u tuygan zavq boshqalar qalbiga ham kirib borishini xohlaydi. O'zi javob topolmagan haqiqatlarni She'rxon qarshisiga savol tarzida qo'yadi:

"Kelayotir odamlar, kelayotir odamlar,
Otlar solib oyga ham yetayotir odamlar.
Har ko'ngilda turfa ming ko'cha bor deb,
Bir ko'ngilga yo'l topolmay, o'tayotir odamlar". (286-b)

Hayotimizda uchrab turadigan ma'naviy illatlar ko'ngil chirog'ini xiralashtiradi. Qalbi tiniq, ma'naviy yuksak odamlar uchun osmonga narvon qo'ymaslikning, quyoshga qo'l cho'zmaslikning keragi yo'q. Qalbi xira, ko'ngil osmoni tiniq bo'lmagan odamlar mayda havaslar uchun yashaydilar, yulduzlarga yetishni istaydilar. Hammadan ustun bo'lish

istagida quyosh qadar baland bo'lishga intiladilar. Shoir bundaylarga qarata:

“Siz oyga osilmang, narvoningiz yo‘q,
Quyoshga yo‘l cho‘zmang, davroningiz yo‘q.
Yulduzlar uzoqda, yetmaysiz aniq,

Chunki qalbingizda osmoningiz yo‘q”, - deb yozadi. Bu to‘rtlik fikr, munosabat, hikmat qamrovliligi bilan e’tiborni tortadi.

“Yursang, izlaringga yolg‘on to‘kilar,
Joningda chirqillab iymon o‘kinar.

Fisq-fasod olamin sultoni shayton,
Yorab, seni ko‘rsa u ham chekinar”. (288-b)

Shoir shaytonsifat odamlarning vujudida “iymon chirqirashini”, har bosgan qadamidan “yolg‘onlar to‘kilishini”, soxta, ayyorona hiylalaridan “shayton ham chekinishini” yorqin ifoda etmoqda. Turli xil odamlar qalbidagi turfa xususiyatlar, turli-tuman hayot falsafasi asosida yashaydigan odamlarni kuzatib shoir o‘z kechinmalarini tiniq tashbehlarda ifodalamoqda. So‘zlar, qofiya, ohang shaytonsifat odamlar qiyofasini ko‘z oldimizda gavdalandiradi (to‘kilar, o‘kinar, shayton, chekinar kabi misra oxiridagi qofiyadosh so‘zlar ham o‘zaro ma’nodosh shaklda muayyan ma’nomlarni ifodalaydi). Shoirlar boshqa odamlardan ayni shu sifati bilan farq qiladilar. Odamlarga, hodisalarga, borliqqa o‘zgacha nigoh bilan qaraydilar. Biz ko‘pda e’tibor bermaydigan holatlar ortiga yashiringansirlarni, ma’nomlarni poetik kashf etadilar. Mana bir misol:

“Qor yog‘sa eriydi, qalb muzlamasin,
Eshikdan kirolmay baxt bo‘zlamasin.
Baxt kirs bag‘ringga mahramroq bosgin,
Chiqib ketishga hech yo‘l izlamasin”. (288-b)

Baxtning bo‘zlashini, qalb muzlashini, baxtning “chiqib ketishga yo‘l izlashi”ni shunchaki tasavvur qilish qiyin.

“Bo‘zlash” so‘zi insonning baxtni boy berganligini anglashi natijasidagi faryodini, iztirobini his qildiradi. Ayni damda baxt deb qabul qilingan ne‘mat aksincha bo‘lib chiqsa, inson bu borada adashganini his qilsa, qalbi muzlashi mumkin. Bunisi endi qalb dramasi. Bu fojiani aytib ham, tushuntirib ham bo‘lmaydi. U qalb orqali his qilinadi.

Borliqdagi barcha hodisalar ko‘ngilda ma‘lum hissiyot uyg‘otadi. Lekin barcha hissiyot va kechinmalarni boshqalarga so‘zlab yo to‘la-to‘kis aytib berishning iloji yo‘q. Ammo hayotiy saboqlar, hayot tajribasi asosida e’tirof etilgan haqiqatlar so‘zlanadi:

“Sen ko‘ngil gulini arzonga sotma,
G‘aflat beshigida bek bo‘lib yotma.
Ortingdan tosh otsa, qoqilmagaysan,
O‘zing yo‘ldan chiqqan tosh bo‘lib yotma.

Yoki:

Oromni oqshomdan izlaydi odam,
Tunni kutib yotar ko‘rshapalak ham.
Ko‘rshapalaksifat odamlardan qo‘rq,
Ular tun-kun odam tanimas, bolam”. (589-b)

Bilamizki, o‘zlikni anglash inson hayotining mazmunini belgilaydi. Kishi o‘zining kim ekanligini his etmasa hayot nimaligini o‘ylamaydi. Inson bu xususda mushohada yuritmasa ekan, uning umri ma‘nosiz, samarasiz kechadi. O‘zligini anglamagan odam o‘tmishi, ertangi kuni to‘g‘risida bosh qotirmaydi. U faqat bugunning tashvishi bilan yashaydi. Boshqalar dardi muammosiga befarq qaraydi. Chunki bunday odamlar faqat o‘zini o‘ylaydi. Ulardagi o‘zini o‘ylash hissi boshqa tuyg‘ularini so‘ndirib yuboradi. Natijada, ular ko‘rshapalakka o‘xshab qoladilar. Xudbin kimsalar shaxsiy manfaati yo‘lida eng muqaddas rishtalarni, aziz tuyg‘ularni toptab ketaveradilar. Eng dahshatlisi, ular o‘z qabihliklarini oqlash uchun bahona yo asos topa biladilar.

Mahmud Toirning bunday odamlarni ko‘rshapalakka qiyoslashi poetik kashfiyotidir. U oddiy hodisalar, detallar,

shtrixlar, manzara chiziqlari orqali mayda, jo'n tuyuluvchi narsa hodisalar zamiridan bir olam ma'no, hikmat topa oladi. Xilma-xil qiyoslar, o'xshash narsa-hodisalarning o'rtasidagi o'zaro bog'liq nuqtalarni topa oladi, o'z hayratini ehtirosga yo'g'irib ifoda qiladi. Falsafiy ma'nodor xulosa chiqaradi.

Mahmud Toir she'rlari orqali ko'nglini ochadi. Qalbidan qanday kechirgan bo'lsa, shunday yozadi, tuyg'ularini filtdan o'tkazmaydi. Ko'nglidagini ochiq ifodalaydi. Shoir shu bois kitobxon ko'nglidagi harakatsiz tuyg'ularga turtki beradi, o'z kechinmalarini "yuqtiradi". Iste'dod bilan bitilgan asarni, chinakam she'rni o'qiganda kitobxon o'z ko'ngil manzaralarini ko'rganday bo'ladi. Shoir kechinmalari unikiga juda o'xshab ketoishidan taajublanadi. Shoir bilan hamfikir, hamdard, hamsuhbatga aylanadi.

"Jonimdan tomchilab tomar bir tuyg'u,
Kiprigim qatidan sizadi qayg'u.
Sen buni ko'rmaysan, senga ko'rsatmas,
G'aflat beshigida mastona uyqu". (290-b)

Borlig'i g'aflatda, qalbi g'aflat uyqusida mudragan odamlar o'zgalar dardini, "tomchilab oqqan tuyg'ulari"ni his eta oladimi? "Ta'ma tabog'ini tutganda shayton, Farishta yig'larmish: icha, ey nodon!". Rost va yolg'onlararo dunyo qalqib turganda uni tutib qolguvchi kuch qayda? Qayda inson qudrati? Tilidan shayton so'zi tushmagan holda insonni zalolat chohi chorlab turaveradi. Imon yurak tafti bilan nurlanmasa, olovga aylanmasa, inson poklanmasa – qiyomat yaqin!

Chin shoirgina borliqni sezgirlik bilan his qiladi. Uning boshqalarga noayon sir-sifatlarini zukkolik bilan ifoda etadi. She'rdagi bir-biriga tutash obrazlar zaminu zamondagi jumboqlar kaliti inson haqida o'ylatadi.

Ertak, qo'shiqlarda tosh, daraxt, ilon, ot kabilar xuddi odamlar kabi so'zlaydi. Hayotda ro'y bermaydigan bunday holatlarni kitobxon tabiiy qabul qiladi va tasvirga ishonadi. Nafaqat ishonadi, balki parranda, jonzot, daraxt, gulning so'zidan behad ta'sirlanadi. Aniqrog'i, shoir bu jonzotlar,

o'simliklar, to'y va osmonni poetik detalga aylantirib, voqelik manzarasini chizib beradi. Hayot haqiqati shoir tomonidan badiiy haqiqatga aylantiriladi, shu bois kitobxon e'tiborini jalb etadi. Ifoda qilinayotgan ehtirosli fikr salmog'i bizni ta'sirlantiradi.

Mahmud Toir ham barcha iste'dodli shoirlar kabi azaliy mavzularning yangi qirralarini topa oladi. Har bir to'rtligida teran falsafiy fikr ayta oladi. Ularda shoirning hayot va inson haqidagi o'y-mushohadalari aks etgan. Ijodkorning hayotga munosabati turli vositalar orqali ifodalangan. Tashbeh, qiyoslashlar ijodkor ko'nglidan o'tganligi bois bizning tasavvurlarimizni daf'atan yoritib yuboradi.

"Shayton seni sira gunohkor demas,

Senga yediradi u, o'zi yemas.

Nafsing ko'chasida gar eshik qoqsa,

Taom ye, it ichgan taboqdan emas". (286-b)

She'r – so'zlar orqali fikr va tuyg'ular yetkazish vositasi. Chinakam shoir xayol-tasavvuridagi yangi, oxorli firoyli, tashbehlar orqali ifoda ta'sirchanlikka erishadi. Mahmud Toir to'rtliklari orqali ko'pchilikka tanish yo notanish manzaralarni ko'z oldimizga keltirib, ulardan hayotiy saboq chiqarishga undaydi. U voqelikni yo hayvon xoh inson sifatida ma'qullaydi, gohi ichki achinish, afsus tuyg'ulari bilan ifodalaydi. Shoirning nokaslar, imonsizlar, olchoqlar, aldanchilarga ichki achinish bilan yozilgan misralari illatlarga munosabatini, mavjud holatlardan iztirob chekayotganini, insonni mukammal ko'rish istagini ayon etadi. Chunki ijodkor uchun el koriga yaramoqlik, haq so'zni aytmoqlik, el dardini, orzu-armonlarini bitmaklikning o'zi baxt. Inson shaxsini yanada yuksakroqda, hayotini bundan-da go'zalroq, farovonroq bo'lishini istaydi. U o'z baxtini barcha odamlar bixti bilan uyg'unlikda his qiladi. Ijodkor qalbidan, ruhidan quvvat olgan she'riyat esa odamlar ko'nglini ezgulikka chorlaydi.

Ilhom bilan bitilgan she'rda obraz so'zlar ta'mi, shirasi, rangi va ohangiga singdirib, tabiiy tarzda qofiyalanadi. Bu

ohang she'ning ma'no-mazmuniga chatishib, uni kitobxon diliga olib o'tadi. So'zlari jarangdor, ma'nosi teran she'rlar xuddi kuy kabi kitobxon qalbini rom etadi, cheksiz zavq bag'ishlaydi. Bunday asarlardan ijodkor qalb qo'ri, sezimlari, ruhiyati his qilinadi. Natijada, biz ham uning yuksak ruhiyat kengliklarida uchamiz, ruhan yuksalamiz, ko'nglimiz nurlanadi va poklanadi.

Hozirgi o'zbek she'riyati namunalarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati timsolida sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday angelayotganligini tasvirlashdan betakror inson dunyosining turfa holatlarini o'z idroklari-yu his-tuyg'ulariga tayanib, o'z ko'ngillariga yo'l topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini o'ziga anglatish tomon qadam tashlanganligini ko'rsatuvchi yo'nalish paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos bu tendensiya barqaror shakllangan ijodiy-estetik tamoyillarda o'z aksini topmoqda.

2. O'zbek shoirlarining klassik she'riyati va xalq og'zaki ijodiga xos an'analarni davom ettirib, poetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy ma'no tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlari kabi jarayonlar kuchaydi.

3. Zamondoshimiz ongida, xayoloti va tuyg'ularida sodir bo'layotgan jarayonlarni bor ko'lami va turfa ranglarda tasvirlash tendensiyasi ijodkorlar inson ongi va dunyosining betakror, ziddiyatli holatlarini hayotning o'zidagi kabi tabiiyligi bilan poetik gavdalantirish imkonini berayotganligini ko'rsatadi.

4. Shoirlar favqulodda yaratilgan ifodalar orqali ramziy obrazlarni kitobxon ko'z o'ngida jonlantirishga erishib, poetik g'oyani to'laqonli anglatishga muvaffaq bo'layotirlarki, bu xususiyat hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tendensiya sifatida o'rganilishi lozim. Ranglarni ramzlashtirish hozirgi o'zbek

adabiyotida o'ziga xos an'ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda.

5. O'zbek she'riyatida islom asotirlari va g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar paydo bo'ldi. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos tamoyillardan yana biri shoirlarni poetik nutqning xitob, murojaat kabi shakllaridan, so'z takrori, ritorik so'roq kabi unsurlardan foydalanib, olamni uning bir bo'lagi bo'lmish inson dunyosini poklash orqali munavvar etish haqidagi dunyo olimlari, faylasuf-u shoirlari qarashlariga hamohanglikda yaratilayotgan poetik g'oyalari, betakror tashbehlariga yuklangan salmoqli fikr va tuyg'ulardan anglashilishini alohida ta'kidlaymiz.

6. O'zbek she'riyatiga xos xususiyat: ruhiy tahlilning teranligi; asarga xos poetik tafakkur tarzining serohangligi; voqealarning an'anaviy realistik asarlardan farqli hayotiy manzaralarda gavdalantirish; hodisalar, kechinmalar "men" orqali his qilmishi yangilik sifatida qabul qilindi, bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu xususiyat realistik tasvir uslubi bag'rida yuzaga kelgan "yangilik" sifatida e'tirof etilayotgan "o'zbek modern she'riyati" alohida va o'ziga xos hodisa sifatida yuzaga kelganligi hamda rivojlanayotganligini asoslaydi.

7. She'riyatimizda mumtoz badiiyat sarchashmalaridan bahramandlik sezilarli darajada kuchaydi.

8. Milliy ruhiyatni xalqona ohanglar orqali tasvirlashga intilish ortib borayotir.

9. Poetik shakl va poetik obrazda muttasil ravishda yangilanish jarayoni kechmoqda. Bu esa yangilanayotgan adabiy-estetik tafakkur hosilasi ekani bilan alohida ahamiyatga ega.

O'ZBEK DOSTONLARINI TAHLIL QILISH ORQALI YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH

So'nggi davr o'zbek dostonlariga e'tibor qaratilsa, Sirojiddin Sayyid, Ikrom Otamurod, Usmon Azim kabi ijodkorlar yaratgan asarlarda ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar ruhi, xalq ruhiyatidagi yangilanishlar nafasi o'z ifodasini topganligiga amin bo'lamiz.

O'zbek dostonchiligida ramziy obrazlar va xarakterlarga e'tibor kuchayganligini o'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan dostonlardagi Shayton, Arvoh ramzlarining rang-barang talqinlari orqali kuzatamiz hamda mazkur obrazlar vositasida davr voqea-hodisalarini ifodalash tendensiyasi qaror topganligining guvohi bo'lamiz. Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostoni, Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni, Usmon Azimning "Quyoshli olam" dostonidagi ramziy obrazlar o'sha davr muhitining xarakter ruhiyatini ifoda etgan. "Quyoshli olam"dagi Shayton hamda shaytonsifatlar: Xavfli odam, Xushomadgo'y, Beparvo, Poraxo'r, Mansabparast, Qofiyaboz kabilar o'sha tuzum illatlarini urchitayotgan kimsalar tarzida talqin qilingan. Yaratuvchi Inson bilan davr o'rtasidagi ziddiyat asar konfliktini tashkil etgan. Quyosh timsolida yaratuvchi insonlar va ularning buyuk e'tiqodi ramziy shaklda gavdalantirilganki, kitobxon doston ta'sirida hayotning ma'nosi, uning o'tkinchiligi to'g'risida o'ylatadi. Asardagi shoir obrazi muallif dunyoqarashi va ruhiy olami mazmunini ifoda etadi. Shu bois, shoir "men"i doston syujetini harakatga keltiruvchi "kuch"ga aylangan. Shoir monologi orqali boshqa ramzlarning ma'nolari ochib berilganligi dostonning janr talablariga mos tushadi. Mana bir misol:

Qofiyaboz:

Gapimni eshiting!

Ming bir makkorchilik kitobingizdan

Ming bir usul ila ming bir nayrangni

Oldida ming tusda to'qib tashlangki,

Quyoshni sotganin sezmay ham qolsin!

Xavfli odam

Buyog'idan zinhor xavotir olmang!

Dostonlarda hayotiy hodisalarning, davr talotimlarining "men" kechinmalari, ruhiyati, nuqtai nazari orqali keng ko'lamli tahlilini berish tendensiyasi istiqbol davri o'zbek dostonchiligida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayrim hollarda ijodkorlar o'z tuyg'ulari shitobini, ruhiyat kengliklarini bor ko'lami bilan fikrga "omuxta" etishda qiynalayotganliklari seziladi. Shoir kechinmalari uning ixtiyoridan chiqib, shakl sig'imini izlayotganday tuyuladi. Bunday kezlarda ruhiyat tasvirini shoir tinish belgilarga "ko'chiradi".

Tuyg'uni so'zlardan tashqari harflarda yoki tinish belgilarda ifodalash usulidan Ikrom Otamurod "Yobondagi yolg'iz daraxt" dostonida foydalangan. Bu xususiyatni bor nozikliklari bilan anglagan yosh olim A.Hayitov o'z qarashlarini quyidagicha bayon qilgan: "Tuyg'ular suratini belgilar orqali berish o'quvchini ham kechinmalarga sherik qilishning bir yo'lidir. "Yobondagi yolg'iz daraxt" dostonini mutolaa qilayotgan She'rxonda ruhiyatidan kelib chiqib, shoirning so'z shakliga tushmagan badiiy ifodasini o'yida, xayolida, ruhida yoki dilida davom ettirish imkoniyati bo'ladi. Shuningdek, dostonida o'quvchiga tuyg'ularining badiiy ifodasi uchun imkoniyat ayrim so'z va so'z birikmasiga muvashshah bitishi mumkinligi tarzida ham qoldirilgan".

YoYoDJ

LLAI

G'G'RM

IIA

ZZX

LT

I

K

Tuyg'ular suvratini tinish belgilar vositasida berish usulidan Ikrom Otamurod "Yarador umid otlari" dostonida foydalangan edi. "Yobondagi yolg'iz daraxt", "Sopol

siniqlari”, “Ichkari... tashqari...”, “Aning umidi” dostonlarida bunday tasvir usuli kuchaytirilgan. Bu dostonlarda tuyg’ularning, fikrning soʻzlar ishtirokisiz, faqat nuqtalar bilan bogʻlangan oʻrinlari ham bor. Bu jihatlar muallifning chuqur ruhiy iztiroblari maʼno koʻlamini ifoda etadi. Bu figʻon zarblari yurak urishi kabi tinish belgilarda dukurlab, aks-sado beradi, goʻyo. Matnning “niqobi” ostidagi qalb ovozi ruhiy kechinmaning goh soʻmshi, goh yuqori pardalarini ifoda qiladi:

“Ichkari – xoʻrsiniq.

Tashqari - xandon.

Ichkari – zabun.

Tashqari – muqtadir.

Ichkari – dilsiniq.

Tashqari – chandon.

Ichkari – yobun.

Tashqari – zulzabir.

Kuning ham kanglungda,

Tuning ham kanglungda.

Sunuting ham kanglungda,

Uniting ham kanglungda.

Toʻzing ham kanglungda,

oʻzing ham kanglungda.

oʻzing... ham... kanglungda...

oʻzing... ham... kanglungda...

...Birgina oʻzingsan oʻzingga yarar,

Birgina oʻzingsan oʻzingga soyim.

Kanglum... kang... lum...

...Gulini sovuq shopurgan daraxt...

Qulfini zang erkalatgan uy...

Huzurini sandiq koʻrgan toʻn...

Boʻxhada taxlanib ox urgan roʻmol...

Hasham qo'rg'onida diliqqan sunbul...

... sog'inib – sog'inib...

... sog'inib – sog'inib...

... sog'inib – sog'inib...

... sog'inib – sog'inib...

... sog'inib – sog'inib...

... sog'inib – sog'inib...

Kanglumning ichiga kirib boraman,

Kanglumni axtarib, kanglum.

Zora topsam, zora-a, man,

Intizor munglim?!

Kanglumning ichiga kirib boraman,

Sog'inchimni axtarib, sog'inchim.

Zora topsam, zora-a mann,

Qirmizi g'uncham?!

Bozor... Taloto'm... Tap tortmay...

Bir to'da... Sot-sot... Ol-ol... to'palang...

Yugurgan yugurayotir kartmay...

To'xtagan oyoq osti... yutar chang..."

"Adabiyot, birinchi navbatda, badiiy san'atdir. To'g'ri, dard va iztirobsiz she'r yoki hikoya yozishning iloji yo'q. Ayniqsa, g'am-alamsiz bir misra ham she'r yozib bo'lmaydi. Lekin birgina dardning o'zi bilan ijodkor bo'lib, o'quvchiga manzur asar yaratolmaysiz. Deylik, hikoyada o'quvchiga aytadigan gapingiz naqadar muhim bo'lsa-da, lekin aytadiganlaringizga chiroyli badiiy libos kiydirmasangiz, yozganlaringizning bari – bir pul. Dardsiz asar paydo bo'lmaganidek, asarda san'atsiz dard ham beqadrdir"¹. O'z ko'nglini anglash, izlash, taftish etishga intilish jarayonida "men" xilma-xil hayot haqiqatlarini anglab boradi: asli bu dunyo bozorga o'xshashini; yugurgan yugirgilab ketishini;

¹ Yangi avlod ovozi. Suhbat. R.Rahmat javoblari. // Sharq yulduzi. 2013, 2-son, 124-b.

birov halol, birov harom molini “o‘tkazishini”; to‘xtab qolsang, oyoq osti bo‘lib, chang yutishingni...

Ichkari – ko‘ngil makoni. Tashqari esa hoyu havaslar makoni. Ko‘ngilda dard, iztirob; tashqarida – sho‘x – xandonlik. Ichkariga dardlar to‘kiladi, iztiroblar cho‘kadi, ovoz chiqarib aytilmagan yo ayta olmagan so‘zlarimiz xo‘rsinib “kiradi”. Ko‘ngil bor ranglari, hayqirig‘u fig‘onlari bilan tashqariga otilib chiqishni istaydi. Tashqari esa ichkaridan taskin, xayr, Rahmon topmoqlik istaydi.

“Ul zot birorta nihol ekmagan,
mehr ham bermagan birov niholga
Lekin
daraxtlar soyasidan
umidvor bo‘laveradi,
umidvor bo‘laveradi,
daraxtlarning quyuq-quyuq soyasidan
judayam...

G‘amini ichiga yutaverib
o‘ziga olaveradi dardini,
toqatga aylandi,
bardoshga aylandi
cho‘kirtak
daraxt...

Naqshinkor darvoza har kun o‘zga tus,
har kun o‘zga chiroy olar devorlar.
Marmarlar egnida yaltiragan po‘st
har kun gullar havorlab.

Tashqarida kutib yag‘rini,
qizg‘aldoqlar yalar qovurmoch...
Tashqarida kezar izg‘irin,
hapqirar, hovliqar ayoz.
Haroratga lim-lim chog‘iri

ichkarida yonboshlaydi yoz” –

kabi misralar “ichkari” va “tashqari”ga xos hayot haqiqatlari falsafiylikka yo‘g‘rilib ifodalanganini ayon etadi.

Qandaydir vaziyatda “ichkari”ning eshiklari ochiladi, ko‘ngil dardlari qalqib chiqadi. Qandaydir vaziyatlarda “ichkari”ga “tashqari” quloq tutadi yo “mo‘ralaydi ichkari tomon”. Yana boshqa holatlarda “ichkari” bilan “tashqari” joy almashinadi. “Ichkariga kirdi tashqari”. Shoir ayni holatlarning sabab va oqibatlarini poetik tahlil qilib, inson qalbi orqali his etib, anglanuvchi hayot manzaralarini turli-tuman jihatlardan tasvirlaydi. Tasvir markazida esa shoir “ko‘ngli” turadi. “Ko‘ngul”ni chertgan tuyg‘ular, unga kirib o‘rnashgan hayajonlar-u iztiroblar tashqaridagi insonlararo munosabatlarga bog‘lanadi: hayot hodisalaridan ta’sirlangan ko‘ngil holatiga monand chizgilarda gavdalanadi.

Shoirning 2003 yilda yaratilgan “Xaritaga tushmagan joy” dostonida ham “men”ning o‘z-o‘zini axtarish, o‘zligini topish, ko‘ngil manzil-makonini tayin etish yo‘lidagi kechinmalari poetik tahlil qilingan. “Tog‘lar qoramtir, ummonlar ko‘kish, o‘rmonlar yashil tus, sahrolar sariq, qaysidir yurt kelbatli, qaysisi oriqlar” xaritadan olmish joy. Shoir dunyo xaritasini tuzgan donoga qarata deydi:

“... sendan kichik bir iltimos,
ranglaringga bir rang qo‘shginu, yana,
ellaru yurtlarning o‘rtasiga mos,
ko‘rinarli qilib rangin, hoynahoy,
ki shungacha esdan chiqib kelgan bir –
xaritaga tushmagan joy –
kangulning tarzini tushir...”

Aslida, ummonlar, dengizlar, daryolarning goh toshib, goh sokin to‘lqinlanib oqish holati, shakl-shamoyili, ranglari ma’nosiga bu Dune qiyofasi mos tushadi. Daryo-yu dengiz girdoblari, o‘pqonlari kabi rahm-shavqat neligin bilmaydigan dunyoning aylanishi-yu, “tezobparastligi” ham o‘xshash. Eng ajablanarli tomoni shundaki, dunyo ranglari go‘yo insonlar qiyofasiga ko‘chib o‘tgan.

“Ko‘p narsani istab, qidirar odam,
Mayda-chuydalarga xohishin beri...
Qiziq deysan, ajab deysan, yo Rab deysan,
... Muhimi – kangul, kangulni qidirish,
Muhimi – kanguldir, kangulni topish...”

Shoir tilidan ko‘ngilni topish zahmat, azob, haqiqat izlash yo‘lidagi mashaqqatli hayot ekani bayon etiladi. Muhimi, niyatning pokligi, tilakning go‘zalligi, ruhning latifligi; “muhimi – odamlar seni sog‘insin, ko‘rganda mehr-la bag‘riga bosib, kuzatganda, kutib yana kelishing, xayr so‘zlaridan to‘kilib sog‘inch, umidlarga to‘lsin bu kangul...”. Kichik narsalardan o‘zlikni baland tutish, mayda havaslar “quli”ga aylanmaslik, ezgulikdan harorat olib yashash orqali “kangulga aylanish, kangulni asrash hissi” ulg‘aytirib borar ko‘ngilni; o‘zi o‘z ko‘nglini bilolmaslik - o‘z ko‘ngliga begonalik nishonasi, o‘z ko‘nglini xor etgan kimsa “o‘zga ariqning shovrida oqar”, manfaat loyiga belanar, nafs qurboniga aylanar va ko‘nglini zor qaqshatar. Ko‘ngilga putur yetsa, odam olamni buzar, “qadrdonlar yovlashib, mehru muruvvat to‘zar” o‘z ko‘nglidan kechmoqlik undan-da yomon! Ruh pora-pora bo‘lar, g‘urur cho‘kadi, qalb qaqshaydi, nafsning bozori chaqqonlashadi, yurak – “xiyonatlar ko‘milgan qabrga” aylanadi. Bu manzara qanday ma‘noni anglatadi? “Hurdir – kangulni etganlar Vatan, kangluni topganlar - hurdir”. Shu bois eng katta mamlakat kanguldir. Ko‘ngil mamlakatining xaritaga tushmay qolishi uning insoniyat tomonidan yo‘qotib qo‘yilganligini anglatadi. Odamlari - iymonga, daraxtlari e‘tiqodga, daryolari mehrga, tog‘lari – g‘ururga aylansagina, ko‘ngil mamlakatining chirog‘lari yoniq bo‘ladi. Odamlar o‘z ko‘ngillarini axtarib topsalar, ko‘ngil mamlakati yashaydi, inson jismidagi muqaddas makonga aylanadi.

Dostondagi shoir obrazi va uning monologlari vositasida “Dunyo aks etgan xarita”, “kangul”, “o‘z ko‘ngliga begona kas”, “nafs”, “ig‘vogar, hasadgo‘y, yolg‘onchi odam”, “davrada gap bermaydigan odam”, “safarga hirs qo‘ygan

sayyoh” kabi obraz-ramzlarning ma’nosi ochib berilgan, o‘z ko‘ngliga begonalik katta fojea ekanligi yoritilgan.

Ikrom Otamurodning “Tag‘azzul” dostonida ishqbozlik, oshiqlik kechinmalaridan - ishq “yarolari”dan qad ko‘targan bino tasvirlanadi:

“Tag‘azzul – ko‘p qadim binodir, zotan,
me’morlari – kangul fuqarolari.

Ishqqa doxil suyagi surmalarga tan –
jismimda nish otgan ishq yarolari”, -

Ishq binosining devorlari sog‘inchlardan, sabrlar, sukunatlar, yonishlardan bunyod bo‘lgan. Shifti esa bu binoning “fuqarolari”dan biri shoir kabi ishqbozlar “ustixonidan terilgan og‘och”, “ko‘zlarim – qaldirg‘ochga intiq deraza”; “naqshlar to‘qigan suvog‘ - qonlarim”; “sahnlarini yoritgan chirog‘ – jonlarning joni”; “eshigi –zil ketgan yuragim darzi”; binoning shakli – hajr yomg‘irlari yemirgan vujud ko‘rinishida; bul bino yaralgandan buyon “kangulning nolasi, kangulning kuyi” sas berur. Shoir ritorik so‘roq usulidan va misralar takroridan poetik fikr mohiyatini turli nuqtalardan ochishda foydalangan: ishq yarolaridan bunyod bo‘lgan ko‘ngil uyining ne sabab “kunduzi firog‘u hijrondir tuni?” “Bu nechuk hilqatki, shoir kabi notavon, undayin g‘arib? Ko‘ngul uyini qurshagan bu nechuk dardki, qayg‘uni ham, g‘amni ham sel qilur?!”. Savollarga javob izlayotgan “shoir obrazi” – “men” tilidan ta’kidlaganiday, bu sir “faqat ko‘ngul bilan anglanuvchi sir!” “Ko‘ngulda ishq yaproq yozmagan” odamlar “men”ning dardlarini, his-tuyg‘ularini anglashdan yiroqdirlar, binobarin, ishqbozlarga tuyg‘udosh bo‘lolmaydilar. Shoir o‘z ko‘nglining “yirilgan varag‘lariga” nazar tashlab, “ko‘nglim – ishq dardini o‘stirgan tufroq, ishq – tarjimai holi kanglumning”, - deya umr bo‘yi o‘z ko‘ngliga intilib yashaganligini ta’kidlaydi. Bu yo‘lda har qancha ranj chekmasin, azob tortmasin, “men” o‘z iymonu e’tiqodidan, tanlagan yo‘lidan chekinmaydi. Zotan, bu mashaqqatli yo‘l – ko‘ngil uyi tomon eltuvchi, tag‘azzul binosiga yetaklovchi yo‘l edi.

Oldin kunlar...

So'ngra oylar...

Keyin yillar...

Baribir...

Bordir har lahzada nimadir ilinj,

Bordir har lahzada nimadir payg'om..."

"Men" o'z maqsadiga yetishda ilinju ishonchga, sabrga suyanadi, faqat buyuk ishq bilan tag'azzul binosining me'morlaridan biriga aylanishi mumkinligini anglab yetadi:

"Men senga intildim, ko'z yoshim yutib,

Ko'nglimga yomg'irlar yog'di betinim.

Men senga intildim, o'zim unutib,

Zohir lahzalarning har tun, har kuni".

Bu manzilga yetish uchun "men" buyuk ishqdan o'z ko'ngil uyini barpo etishi darkor.

Barcha sinovlarga dosh berib, yuragiga mayzalar botib, "kuyayotgan jonu kul bo'lgan bag'ir" bilan qadimiy tag'azzul binosiga yetib borgan "men" dunyoning "azob to'la jom"ligi, "qaqragan lablarga" tomchi suv tutmaydigan bemehrlar joyi ekani; rostga qayishmay, yolg'onlarga zeb bergan, tunini "tong yorig'i" sindirgan, "ishqsiz ishq dunyosin unutgan dunyo"ga ro'baro' keladi. Dunyo ham, undagi odamlar ko'ngli ham rangsiz, iymoni yemirilgan; tag'azzul binosini qurshagan borliqning sukuti unga ko'chgan:

Sukunat –

tag'azzul binosida tang –

poymonning sinishi, ahdning sinishi

... qaldirg'och ko'zlarin tushida ko'rar –

dardlarning, g'amlarning qa'riga botib...

Uchayotgan barglarga termulib turar –

tag'azzul binosi sukunatni yutib,

Ma'lum bo'ladiki, qalblarning mudrashsi – sukunatdan, ishqsizlikdan, bemehrlilikdan darak beradi, buning oqibatida insonlarning ko'ngil binolari nurab bormoqda. Rangsiz tuyg'ular bo'm-bo'sh ko'ngillarni ifoda etmoqda, yashashdan maqsadning noaniqligi, ahdu poymonning "siniqligi", ko'ngil eshiklarining darz ketishiga, oxir-oqibat, ko'ngil

me'morlarining buyuk ishqdan bunyod etgan qadimiy tag'azzul binosi yemirilishiga sabab bo'lmoqda.

Kitobxon "men"ning dardchan, so'nib borayotgan nolasi ta'sirida mehr-muhabbat, imon-e'tiqod, buyuk ishq binosiga talpinadi, uni asrab qolish istagida o'z ko'ngil tag'azzulini mustahkamlash maylini tuyadi.

Shoirning "Uzoqlashayotgan og'riq" nomli dostoni muayyan andozalarga mos kelmaydi. Poetik tafakkur tarzining serjilvaligi lirik qahramon ko'nglidagi og'riqning xilma-xil ma'nolarni ifoda qilishidan anglashiladi: "Toki bu dunyoda shunday bir og'riq borligi va usiz odamzod qalbi g'aflat, jaholatga botib qolishin anglasin, tushunib yetsin yurakdan. Uyg'onsin qalbining qa'rida mudrab, g'ofil yotgan og'riq azobi...". Lirik qahramon qalbidagi bu og'riq qanday ma'noni ifoda qiladi? Uning tizginsiz o'ylari ne sabab odamning o'zligi haqida? O'zlik shoir talqinicha, bu XOTIRANG, QADAMIYATING, NOMING, LISONING, VATANING, HAQIQATING va yuraging quvvati – ERK-U IXTIYOR, so'zing ravon etgan NOMUS va ORING!

Lirik qahramon vujudini o'rtagan alam, iztirob og'riq minbarda haqiqatdan lof urib, amalda undan niqob o'rnida foydalanuvchilar tufayli. Yurtining nomidan ot surib, e'tiqodini shilliqqurt kabi so'rib yotganlar; aqli siyrak, fahmi notavon zotlar; a'moli o'marish, qilmishi-nayrangdan iborat kimsalar tufayli. Shular tomiringni yemirib borarlar. Barcha nodonligu jaholatlarga ular sababchi.

Iymonni, vijdonni tufroqqa qorib,
ta'maning qarami bo'lsa muddaong,
yo rabbim, ko'ksingda to'r to'qir tinmay,
o'rgimchak baloi nafsning a'moli.

Kimligin bilmagan banda alhazar,
hamisha o'qlangan sopqon singari
g'anim dastida shay turgan qatori:
sotqinlik, jinoyat o'shandan sodir,
razolat, xiyonat o'shandan paydo,
o'sha – ishorani bajaruvchi qul,

o'sha – HAQIQATNI mo'ljal olgan tig'.

Mabodo, inson o'zligini anglab yetmasa, kechani esdan chiqarsa, bugunning o'zida to'xtab qoladi. Shoir lirik qahramon qalb nidosi orqali erta sari borayotgan odamlarga qarata o'zing bilan birga kechadan kelgan mehrni, ishonchni, oqibatni ertangi kunlarga olib o't. Bu fazilatlarini bobolaring senga meros qilib qoldirgan, ularni unutsang o'zligingga ham begonasan... deya bong uradi. Ko'ngil qo'nog'ida doimo men kimningdur o'rnidaman, degan bir ilohiy his makon tutmog'i mansub. Umid shundan. Shafolat shundan. Inoyat shundan. Shular tufayli zaminda hayot davom etadi, inson erta sari intiladi, azobu og'riqlar undan uzoqlashadi. Ammo, og'riqsiz yashab bo'ladimi? Hayotning turli yo'llaridan yurib kelayotgan ikki yo'lovchining hayot falsafasi, nuqtai nazari, sezimlari, hukm-xulosalari orqali bu savolga javob topamiz. Bundan qochib ketayotgan to'rg'aylarni, yo'rg'alarni, safsarlarni vaqtida mehr bilan ortga qaytarsak, sotqinlarning urchishi, qo'rloqlarning tig' tutishi, manfaat jallodlari bo'y cho'zishiga chek qo'yiladi. Odamlararo mehr-muruvvat makon topsa, nazarning to'qligi, dil forig'ligi, yuzlab ko'zlarning birdan ochilishiga sabab bo'ladi. Barchaning mulki – IMON, davlati – SUBUT, makoni – VATANGA aylansa, iztirobni tuysa, sevsa, sevilsa, og'riq undan uzoqlashmasa, shunda IYMONga yetishar, ko'ngil poklanar. Dostonning falsafiy-badiiy umumlashmasi salmoqli.

Istiqlol davrida yaratilgan Husniddin Sharipovning "Qaynarbuloq", Oydin Hojiyevaning "Ziyorat", Mahmud Toirovning "Ogoh bo'l dunyo!" dostonlarida bugungi hayotimizga shukronalik, Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ulari badiiy ifodasini topgan bo'lsa-da, bu asarlarni chinakam badiiyat namunalari deya olmaymiz. Xulosa qilib aytish mumkinki, so'nggi yillar o'zbek dostonlarida zamondoshimiz timsoli bor bo'y-basti, tuyg'ular rang-barangligi ila gavdalantirildi; "men"ning bepoyon xayoloti, ruhiyati tafakkur kengliklarini qamrab olib, qalb sezimlariga vobasta yangi ma'nolarni ifoda etmoqda, natijada poetik tafakkur miqyoslari

kengayib, salmoqli badiiy umumlashmalar kashf qilinmoqda. 2012 yil dostonlarini tahlilga tortgan adabiyotshunos olim N. Abdulhakim Abdulla Oripovning “Ranglar va ohanglar” to‘plamiga kirgan “Istiqlol manzaralari” asarini o‘zbek dostonchiligida yangi hodisa bo‘lganini ta’kidlaydi. Negaki, doston liro-epik poeziyada bir oz unutila boshlagan xalqona qissago‘ylik usulida ijod etilgan. “Yigirma yil”, “Tog‘lar hikoyasi”, “O‘zbek ishi”, “Muruntov”, “Elobod”, “Qamchiq dovoni”, “Imom Buxoriy”, “Jeneva” sarlavhalari bilan berilgan sakkiz manzara orqali xalqimiz hayotida istiqlolgacha va mustaqillik yillarida kechgan butun murakkabliklar: ziddiyatlaru yuksalishlar, alohida shaxslar va millat ruhiyatidagi evrilishlar qiyosiy aspektda betakror poetik talqin etilgan. Bu sakkiz manzara alohida-alohida olganda ham o‘ziga xos tugal badiiy kashfiyot bo‘lgani singari, yaxlit holda ham original liro-epik hodisa mavqeiga ko‘tarilgan¹.

Chinakam badiiy asar botinni – mohiyatni kashf etadi. Adabiyot asl ana shu haqiqatni obrazli talqin etadi.

¹ Bu haqda qarang: Abdulhakim N. Yangi zamon she’riyati: izlanishlar, tamoyillar. //Sharq yulduzi. 2013, 3-son, 137-140-b.

BUGUNGI HIKOYALARNING MAZMUN MOHIYATI VA MUSTAQIL FIKR TARBIYASI

O'zbek hikoyachiligiga nazar tashlasak, u qaysi davrning mahsuli bo'lmasin, ularning har biri o'z geneologik asosiga egaligini ko'rish mumkin. Geneologik asos – har bir xalq adabiyotining o'zligi, milliy adabiy-badiiy tafakkuridagi o'ziga xoslik, ularni istifoda etuvchi an'ana va yangiliklar uyg'unligidir. Keyingi yillarda yaratilgan hikoyalar markazidagi qator qahramonlar o'zligini anglashga intilayotgan zamondoshlarimiz obrazidir. Ular insonlik sha'nini pok saqlashga ezgulikka intilayotgan odamlar. Ayrim obrazlar esa o'z hayotini yashab o'tgan, umri oxirida amalga oshirgan ishlari, imon e'tiqodi, yashash falsafasi, xato kamchiliklarini taftish qilib, vijdon azobida qiynalgan holda hukm- xulosa chiqarayotgan odamlar sifatida namoyon bo'ladilar. Yana boshqa qahramonlar kitobxon ko'z o'ngida “adashgan odamlar” qiyofasida gavdalanadilar. Millat kishisining ruhiyati, hissiyotlari, ko'ngil olami yaxlit holda, bor ziddiyatlari bilan badiiy tasvirlangan hikoyalar qahramonlari o'zining notekis hayot yo'li, adashuvlari, xatoliklari, ruhiy iztiroblari bilan kitobxonni befarq qoldirmaydi. Ularning betakror dunyosi manzaralari realistik tasvir qirralarini tashkil etadi.

Bunday estetik tamoyillarning o'zbek nasrida barqarorlashuvi O'tkir Hoshimov, Zohir A'zam, Erkin A'zam, Omon Muhtor, Muhammad Ali, Asad Dilmurod, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Abduqayum Yo'ldosh, Isajon Sulton singari o'nlab yozuvchilar ijod namunalari misolida yuz berdi. Xususan, O'tkir Hoshimovning istiqlol davri ijodida voqelikni yangicha anglashi, uning mohiyatiga chuqur kirib borish, zamondoshlarimiz obrazlarining yangicha talqiniga e'tibor berilganligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Ayni damda, insonning qadsizlanishi, ma'naviy illatlarga murosasizlik, fojeiy qismatlar ortidagi hayot haqiqatini tasvirlash “Oq bulut,

oppoq bulut”¹ deb nomlanuvchi hikoyalar to‘plamiga xos yetakchi xususiyat deyish mumkin. To‘plamdagi hikoyalar markazidagi qahramon “Yangi odamlarni” emas, balki ularning badiiy tasviri, talqini yangicha. Adib o‘z qahramonlari ruhiyatini tasvirlar ekan, xarakterlarini tadrijiy o‘rish- o‘zgarishlar jarayonini kechirayotganligiga diqqatimizni qaratadi. “Men” mulohazalari, nuqtai nazari, ko‘ngil olami uning surati va siyratini namoyon qiladi. Bu o‘rinda yozuvchi alohida badiiy detallarga asosiy vazifani yuklaydi: detallar ramziy ma’no tashiydi, qahramon ichki olamini ochish “kaliti”ga aylanadi. Yomg‘ir, hazonrezgi kuz, bulutlar, sovuq, muz qotgan yerlar, qorong‘u xona timsolida biz asar qahramonlarini qurshab turgan muhitni tasavvur qilamiz. Ular ruhiyatidagi iztirob, g‘am, alam kabi yechinmalar badiiy detallar orqali tasirchan ifoda qilinadi. Detallar inson xarakterini ochuvchi vositaga aylanadi. So‘lg‘in kuz manzaralari, yurakni ezuvchi tim qorong‘ulik, quyuq bulutli, yomg‘irli kun manzaralari, ayniqsa, yomg‘ir badiiy detal adib asarlarida tasvir serjiloligini, ko‘pma’nonilik, ko‘pohanglikni ta’minlagan. Adibning “Oq bulut, oppoq bulut” hikoyasi ham yomg‘ir yog‘ishi manzarasi bilan boshlanadi.

“Oq bulut, oppoq bulut” hikoyasi ham yomg‘ir yog‘ishi manzarasi bilan boshlanadi. “Samolyot yomg‘irdan qorayib yotgan beton yo‘lkadan shiddat bilan yugurgilab bordi-da, birdan muallaq to‘xtab qolgandek bo‘ldi. Yomg‘ir tomchilari muttasil chiziq tortiladigan illyuminator oynasidan tashqariga qaradim. Samolyot qiyalab uchib borar edi. Samolyotning shiddat bilan yugurgilab uchishga hozirlanishi hikoya qahramonining hayotiga, odamlarga munosabatini, ko‘nglidagi shiddatni ifoda qiladi. Samolyotning birdan muallaq qolganday to‘xtashi esa birinchi muhabbatidan ayrilish sabablarini xato talqin qilgani, jizzakiligi tufayli Dilafruz

¹ O‘ Hoshimov. Oq bulut, oppoq bulut. (Hikoyalar to‘plami). T.: “Davrlar” – 2010. (Barcha misollar shu nashrdan olindi va sahifasi ko‘rsatildi).

xatti-harakatlarini to'g'ri baholay olmaganini ifoda etadi. Haqiqatni bilganda esa oradan o'n-o'n besh yillar o'tib ketgandi. Qahramonning shu damdagi ruhiy holati samolyotning "muallaq qotib qolgani"ga o'xshatiladi. Tasvirdagi yomg'ir detali esa har ikki sevishgan qalblarning shuncha yillardan keyin tasodifan uchrashib qolishi natijasida ko'ngillarida sodir bo'lgan holatni kitobxonga yorqin, ta'sirchan yetkazishga, xis qildirishga xizmat qilgan bo'lsa, "Uzun kechalar" hikoyasi so'ngidagi yomg'ir tasviri tuyg'ulari, dunyoqarashlari, ko'ngil olami boshqa- boshqa ikki yoshning hayot yo'llari ayri tushganligini ramziy ifodalaydi. Hamon yomg'ir savalar daraxtlarning sarg'aygan yaproqlari chiroqlar nurida xira yiltirar edi. Allaqayoqda xazon tutayotgan bo'lsa kerak achchiq is(53-bet) dimoqni kuydirardi.

O'tkir Hoshimov yaratgan qahramonlar, mag'rur, qatiyatli, mard, birso'zli, tanti odamlar. Ular dunyosi ezgulik va samimiylilik bilan yo'g'rilgan. Ularning talqini qo'ni- qo'shni, qarindoshlar, yaqinlar, turli toifadagi odamlar bilan muloqatda namoyon bo'ladi. Ular mehr oqibatga, bag'rikenglikka, fidoiylikka intiladilar. Yozuvchi bu kabi qadriyatlarni qadrlashga undaydi. Bu fazilatlarni ulug'lash orqali yozuvchi qahramonlarni ma'naviyatining yangi qirralarini ochishga erishadi. Ikkinchidan, asarlari syujet yo'nalishlarining o'zaro uyg'unligi va izchilligini, kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi. Tasvirlanayotgan voqea va lavhalarining har biri muayyan badiiy shakily funksiya tashiydi, hamda qahramon xarakterining biror jihatini izohlashga, individuallashtirishga xizmat qiladi.

O'tkir Hoshimovning istiqlol davri ijod namunalari adibning davr va qahramon konsepsiyasini yangicha badiiy tadqiq etish yo'lidagi izlanishlarining samarali hosilasidir. Realistik tasvir imkoniyatlarini namoyon qiluvchi adib hikoyalari bu asarlarda shaxsning qalb olami o'zligini anglash, o'zini taftish qilish va ruhiyatining daxlsizligi muammosi obrazlar talqinida mujassamlashtirilganligidan

dalolat beradi. Bugungi zamondoshimizning ma'naviy-intelektual va axloqiy, ruhiy olami qarshisidagi evrilishlarni, insonni murakkab xilqat egasi ekani uning erkini, maylini muqaddas tuyg'u sifatida idrok qilish tamoyilini nasrimizga barqarorlashganidan darak beradi.

"Odam ovozi" va "O'zbeklar" hikoyalarida millatga xos xususiyatlarni axloqiga badiiy detallar orqali ham tasvirlaydi. Har ikki hikoyada muallif joy tasvirini berar ekan, hovli o'rtasidagi gulzor atrofida ekilgan sada rayhonlarga diqqatingizni qaratadi.

"Odam ovozida" da bu tasvir quyidagicha chiziladi: "Ayvon zinasidan etakdagi hujragacha, undan burchakdagi oshxonagacha chegaralangan silliq yo'lkaga olma xazonlari to'kilibdi. Gulzordagi rayhonlar shalpayib qolibdi". Bu o'rinda yozuvchi rayhonlarning o'zbek oilalari tomonidan sevib ekib - o'stiriladigan ekin-gulligini hisobga olib, ayniqsa, keksa onaxonlar bor xonadondan albatta rayhon isi urib turishini milliy odatlar sirasida ta'kidlamogda. Ayni damda rayhonlarning shalpayib qolganligi qahramonning yaqinlarisiz yolg'izlikdagi hayotini ifoda etmoqda.

"O'zbeklar"da: "Mashina sig'maydigan tor yo'lakdan o'tib, kichkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Oshrayhon, sadarayhon, oqrayhon, qorarayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor". Muallif joy tasvirini berishda ham shu tahlit milliylikga e'tiborini tortadi.

Taniqli rus yozuvchisi V.Rasputinning "Mariyaga pul kerak" asardagi bosh qahramonlardan biri Kuzima tabiati juda soda, yuvosh qilib tasvirlangan. Rus xalqiga xos odatga ko'ra marhumni so'nggi manzilga kuzatib qo'ygach ichimlik ichib uni yod oladilar. Asarda Vasiliy Kuzimani o'lim to'shagida yotgan onasining oldiga olib boradi. Ona: "o'limligimga" deb yiqqan pulini azbaroyi achinganidan Kuzimaga qarzga beradi, ammo pulni albatta o'g'li Vasiliyga qaytarishini so'raydi.

"O'zbeklar" hikoyasida esa Otinoyi pensiya pulidan bir necha yillar davomida "o'limlik" yig'ardi. Hammaga "bu

pulni o'g'li Iskandar tashlab ketgan"ligini aytib yuradi. Jon taslim qilgach, yostiqlik jildidan topilgan buni zaruratga ishlatib, qolgan qismini o'ziga qaytarib berishganida u nomusdan karaxt xolga tushadi. Mana o'sha manzara tasviri: "Iskandar boshi g'uvillab borayotganini, hozir yiqilib ketishini his qilib turardi. Kelinoyi "dutor chalib turgan" hind choyini peshayvon taxtasiga qo'ydi burnini torta yig'lagancha ko'ylagining yoqasidan qo'yniga qo'l, eski gazetaga o'rog'liq allanima chiqardi:

- Olib qo'ying,- dedi qog'ozni uzatib.

- O'limligim deb, yostiqlarining orasiga tiqib qo'ygan edilar. Siz tashlab ketgan ekansiz. Yuvuvchini haqini berdik. Qolganini sanab oling.

Qachon, qachon shunga pul berdi onasiga?! Bu qanday jazo? Bu qanday bedodlik! Shu kundan ko'ra onasi emas, o'zi o'lgani yaxshi emasmi!!! Onasi bir so'mlab yiqqan pensiya pulini ham Iskandar bergan degan shu gapga o'ziyam ishongan, boshqalarniyam ishontirgan. Qani endi ko'kragini yirtsa-yu yuragini sug'urib olib yerga uloqtirsa! Ich-ichidan otilib kelgan bo'g'iq yig'idan titrab pulni tashlab yubordi. Mayda-yirik pullar parishon pildirab kavshandozga tushdi"(76-74-bet).

Ruslarda kekxa onaxonlarning o'limligini qarzga olish qiyin vaziyatdan chiqishning bir yechimi sifatida talqin qilinishi mumkindir. Ammo o'zbeklarda bu ishni qilish isnot hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning Iskandar ruhiyatidagi drammatizmni tasvirlashdan maqsadi ham oriyat, nafsoniyat tuyg'usi borlig'ini chirmab olgan milliy harakterlarni gavalantirishdir.

Badiiy adabiyotda milliylik deganda ayrim adabiyotshunoslar buni asarlaridagi milliy urf-odatlar, an'analarning talqini deya izohlaydilar. Milliy libos, harakat nutqda, qahramonlar ruhiyati talqinda milliylik namoyon bo'lishiga yetarli e'tibor qaratilmaydi. "Milliylik birinchi navbatda, ruhiyatda o'z ifodasini topadi. Milliylikni belgilaydigan barcha xususiyatlar unga bog'liq, undan kelib

chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiati va o'zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma'naviy oziqdir. Ruhiyati kuchli odam o'z qiyofasidan, o'z yo'lidan, e'tiqodidan voz kechmaydi".

Keyingi yillarda adabiyotshunoslik ilmida an'anaviy realizmning imkoniyatlari milliy xarakterlar yaratish orqali ham nomoyon bo'lmoqda. Xususan, xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov yaratgan milliy xarakterlar hatti-harakati, fikrlash tarzi, ruhiyati, tuyg'ulari, hatto imo- ishorasigacha milliyligi bilan ajralib turadi. "Oq bulut, oppoq bulut"dagi Dilafruzning uyalganda chetga yoki yerga qarashi; ko'zlarini yashirishi, tuyg'ularini "sir" tutishi, istiholali, mulohazali hatti-harakatlari- bari o'zbek ayoliga xos.

"Uzun kechalar" hikoyasidagi Hilola avvaliga suhbatdoshiga tik qarab, o'z fikrini hech qanday andishasiz aytib yuboraveradigan "Zamonaviy" qizla kabi tasavvur uyg'otsa-da, aslida hayoli, nomusli qiz ekani voqealar ichida ochib beriladi.

"-Ana, ana, siz suvda suzib yuribsiz, - dedi Marat suv yuzida qalqib turgan ingichka oyni ko'rsatib. O'sha sizsiz-da!

Hilola yuragida iliq tuyg'ular uyg'otib, Maratga mehr bilan qarab qoldi. Endi u boyagidek o'ychan, vazmin emas, go'dakdek sodda bo'lib qolgan edi"¹

Hikoyada redaksiyalardan birida kotiba bo'lib ishlaydigan qiz bilan yozuvchi o'rtasidagi tanishuv va ularning munosabatlari tasvirlanadi. Hilolaning romantic orzular girdobidagi ko'ngil olami, ijodkor yigit tuyg'ulariga tuyg'udoshligi ularni birlashtiradi. Muhabbat rishtalari ularni bog'laydi. Hikoyada qahramonlar ruhiyati yorqin ochib beriladi. Ana shu xususiyat adibning "Tasodif" hikoyasidagi Ochil obrazi talqinida ham ko'zga tashlanadi. Bu hikoyadagi Ochil va Lola o'rtasidagi munosabatlar oila, maishiy turmush muammolari ichida tasvirlanadi.

Oddiy korxona ishchisi Ochil ayolini yasantirib, ro'zg'orini esa to'ldirib- toshirib qo'yishning ilojini

qilolmaydi. Uning ozgina maoshi esa Lolani qoniqtirmaydi. Shu ziddiyat oiladagi doimiy janjallarni keltirib chiqarardi. Yozuvchi hikoya qahramonlari hayoti va taqdirini qalamga olish orqali inson uchun eng katta boylik bu oila tinchligi, sog'lik-salomatlik ekanligini uqtiradi. Bugungi hikoyachilikda izchil analitik uslub bilan liro-romantik uslub uyg'unligi ularning qorishiq (sinkretik) shaklinin yuzaga keltirdi. Bir asarda turfa uslub elementlari mavjudligini o'zbek adabiyotida tamoman yangi hodisa emas. Biz ta'kidlayotgan hodisa istiqolol davri nasrida, xususan, hikoyachilikda ham turfa ijodiy izlanishlarga keng yo'l ochilganligidan dalolat beradi. Ayni damda, hikoyalar, qissalar, romanlarning mazmun yo'nalishi obrazlar tuzilishi, kompozitsiyasi, badiiyati, shakliy-uslubiy ko'rinishlari rang-baranglashib borayotganligidan dalolat beradi. Realizmning haqqoniylik, hayotiylik, ta'sirchanlik, yuksak badiiylik kabi mezonlar bugungi davrning yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligi; badiiy ijodning mavzulari va tasvir obyekti doirasi kengayganligi; adiblar mahorati yuksalib borayotganligida; xilma-xil uslublarga xos xususiyatlar o'zaro sintezlashishi an'anaviy va yangicha (modernistik) uslub sintezlashuvi hodisasi ro'y berganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ijodiy xarakterdagi bu evrilishlar yangilanayotgan tafakkur mohiyatida realizmning o'rni mustahkamlanganligini ayon etadi.

Xususan, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida an'anaviy kompozitsiya yo'nalishi ustunlik qilsa-da, xronologik tartib doim ham izchil saqlanmaydi. Ammo asar kompozitsiyasida qismlar, unsurlar hamda obrazlar muayyan aloqadorlikda, izchillikda joylashtirilganligini kuzatamiz. Bu hol yozuvchining asar kompozitsiyasini yaratishda o'ziga xos, "yangicha" yo'l tutganligini bildiradi. Yozuvchining moziy mavzusidagi "Oq libos", "Qazo bo'lgan namoz",

“To‘xtaboyning boyliklari” hikoyalarida ana shunday xususiyatlar ko‘zga tashlanadi¹.

“Oq libos”da Toshkentdagi 1810-yil voqealari tasvirlanadi. Yozuvchi “Nima demoqchi ekanini” kitobxondan sir tutadi. Xon o‘g‘il betob ona huzuriga uni ko‘rmoq va hol-ahvol so‘ramoq niyatida tashrif buyuradi.

Ona erta bilan uni yo‘qlagan edi:

“- Xon o‘g‘lim... onaning tovushi juda zaif eshitildi. Vujudi quloqqa aylanib, Yunusxo‘ja onasi sari engashdi, cho‘kib tushdi. Keldingizmi?

-Ona, tuzuksiz, men shu yerdaman...

-Yurt tinchmi?

-Tinch, ona tinch, ulus sizga salomatlik tilamoqda, ona.

-Men roziman... Xon o‘g‘lim... Yurtni sizga topshirdim... Meni rizo qilay desangiz yurtga tinchlik ber... Kentning boshini qovushtirding... Buning sababi yeti pushtingga yetadi.. U yoqda otangiz... Biz tinch yotamiz, xon o‘g‘lim.

-Yurt farovon, ona, ulus ulus osoyishta yashayotir.

-Ko‘nglim alog‘da, o‘g‘lim... Otang yoniga yetgan joyimdan qaytim... Negadir dilim g‘ash... Oqil o‘g‘illar onani, ulusni bezovta qilmaydilar, bolam... Ishonchim sizdan, xon o‘g‘lim, ishonchim...”

Hikoya ona va o‘g‘il vidolashuvi tasviri bilan boshlanadi. Ona o‘g‘liga oxirgi vasiyatini so‘zlayapti, unga ishonishini aytadi. Darhaqiqat, Yunusxo‘jaga bo‘lgan ona ishonchining ortida uning dahalar o‘rtasidagi nizolarga chek qo‘yib, mahallalar to‘qnashuviga chek qo‘yganidan; dahalar aholisi birlashgach, Kentning dovrug‘i olis Sibirdan Chin o‘lkalarigacha, u yog‘i Ovrupa taraflariga yetganligi kabi jiddiy hodisalar turadi. Savdo-sotiq rivojlanib Kent aholisi farovon, tinch hayot kechirayotgani shu sababli edi. Ammo Rajabbekto‘ra bilan Sultonxo‘jani hokimlik shon shuhrati

¹ Xurshid Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi. T.: Sharq. – 2006. (Keyingi misollar shu nasrdan olindi.)

emas, o'zga yurtlarni bosib olib, boylik to'plash muddaosi tinchini o'g'irlagani bois Yunusxo'jani "temirni qizig'ida bosishga" undaydilar. Xonlikka qarshi qo'shin bilan jang qilishga ko'ndiradilar. Buni ustiga o'g'li Sultonxo'ja ham ular tarafiga o'tib oladi. Yunusxo'ja kengashda uning hamiyatiga atay tegib gapirgan bir so'zi tufayli to'g'riso'z va sadoqatli Boboxon to'raning ishtirokisiz ham, maslahatisiz ham ish yurita olishini ko'rsatib qo'yish maqsadida kengashga yakun yasaydi:

-Qo'shinlar jangovar holatga keltirilsin! Uch kecha kunduzda qo'shin jangga hozirlanib, yurish boshlaydi." Ammo bu qarorning naqadar axmoqona ekanini barcha aniq his qilib, bilib turar edi. Faqatgina Kent hokimining piri Tarxongina haqiqatni ochib so'zlaydi:

"Ko'nglingiz xon taxtini tusab qoptida?!"

-Yurt tinch - onalar tinch, yurt parokanda bo'lsa, onalar go'rida tik turadi, to'ram... Muhoraba boshlansa, ota-onalar ruhi bezovta bo'ladi. Paymonasi to'lgan banda o'lim to'shagida azob chekkandan ko'ra omonatini topshirgani ming chandon maqul. O'limga tik bosqich-donishmandlik, el-yurtidan ko'ngil to'q ketish esa saodatdir. U kishiga bu mushkulot..."

Quramatepa viloyatini tezlikda, osongina ishg'ol qilgan Kent hokimi xon o'rdasini qo'lga olishga kirishadi. Afsus, yangi zafarlar sari shaylanayotgan qo'shinni tongda dahshatli toshqin bosadi. Bu quyun ularni qirib tashlaydi. Yunusxo'ja hushiga kelganda uning oldida piri Tarxondan bo'lak birorta zot yo'q. Yunusxo'ja ona ishonchiga pand berdi. Chuqur o'ylab, aql tarozusida o'lchab ko'rilmagan qaror tufayli u yuzlab, minglab odamlar xuniga sababchi bo'ldi. Tarix haqiqati bugungi zamonlar uchun ham saboq bo'lishi tayin. Hikoyani o'qib tugatgan kitobxon ko'z o'ngida uzoq muddat oq libosdagi xomush va parishon Omila ona qiyofasi muxrlanib qoladi. Ona so'zini qaytargan, uning ishonchini oqlamagan, oxirgi vasiyatiga amal qilmagan o'g'il qismati esa o'ygatib toldiradi. Onalar ruhi tinch bo'lishi uchun

bugunning qadriga yetib yashaylik, tinchlikni, el farovonligini saqlash uchun tinmay kurashmoq- har birimizning farzandlik burchimizdir. Shu burch mas'uliyati bilan yashasak maqsadlarimiz pok, tilaklarimiz oq, yo'limiz nurafshon bo'lishi aniq.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida badiiy til borasida yangilanishlar, o'ziga xosliklar kuzatiladi. Jumladan, muallif nutqining asardagi ko'rinishlari boyib, voqelikka, personajlarning hatti-harakatiga munosabat bildirish, qahramon ruhiyatini chuqurroq ochish, qahramon obrazi yoki voqeani tasvirlashda yangi estetik badiiy tamoyillar ko'zga tashlanadi.

Umuman, inson ichki olamini bor ziddiyatlari bilan yoritish tamoyili kuchaygan hozirgi o'zbek hikoyachiligida qahramonning nima haqida o'ylayotgani, xohish-istaklari, his-tuyg'ulari, qalb tug'yonlarini ifodalashda yangi tasviriy usul va vositalarga ehtiyoj paydo bo'ldiki, buni Xurshid Do'stmuhammad va unga avloddosh yozuvchilar yaratayotgan hikoyalar orqali kuzatish mumkin. Bugungi hikoyalar kompozitsiyasidan qahramon xayollari, xotiralari, tushlari tasviri keng o'rin olmoqda. Ko'plab hikoyalarda ortiqcha tafsilotlar uchramasligi, ularning uzundan-uzoq izohlari, jimjimadorlik va balandparvozlikdan xoliligi, jumalarning ixcham, aniq, ravon tuzilgani, sodda bayon orqali teran ma'no, purhikmat fikrlar ifodalanishi: "Men"ning qarashlari, mulohaza-muhokamalari bayoni avvalgi hikoyalaridan farq qiladi.

Xurshid Do'stmuhammad kundalik voqea-hodisalar, holatlar zamirida yashirin bo'lgan goh o'ychan, g'amgin, ba'zan esa tizginsiz insoniy dardni topa biladi va uni o'quvchiga ta'sirchan yo'sinda yetkazadi. Masalan, "Oq libos" hikoyasi mungli, mayus ruh uyg'otuvchi hikoya bo'lsa, "Oqimga qarshi oqqan gul", "Joziba" hikoyalari esa boshdan oyoq dramatismga yo'g'rilgan. Uning mavzusi hayotiy material, tasvir dramatik shiddatkor ohangni talab etgan. Hikoya tili, bayon usuli nihoyatda ta'sirli, dardchan qo'shiq

ohangini eslatadi, kitobxonni loqayd qoldirmay boshidan oxirigacha qahramon iztiroblariga sherik qiladi.

Xurshid Do'stmuhammad asarlaridagi dramatismning chuqurligi yana bir o'ziga xos xususiyatdir.

Yozuvchining "Qazo bo'lgan namoz" nomli hikoyasida o'tgan asr boshidagi voqealar qalamga olingan. O'rta Osiyo, xususan, Turkistonni ruslar tomonidan bosib olinganidan keying o'lkadagi faol ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va madaniy hayotda ko'zga tashlangan ilg'or Mirkomilboy hayotining so'nggi yillarini ko'z oldimizda gavdalandiradi. Hikoyaning ilk sahifalaridanoq kitobxon o'z davrida Andijonda zavod ochib, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, Turkiston taraqqiyotiga hissa qo'shish yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan, to'g'riso'z, adolatparvar, cho'rtkesar, tadbirkor qiyofasi bilan yuzlashadi. Haq gapni kezi kelganda hech bir ikkilanmay tik gapiradigan Mirkomilboy laganbardorlikni sira xazm qilolmaydi. Qozilikka Temurxo'ja tavsiya qilgan bo'lsa, azbaroyi uni halol, yurtning xizmatini qilib yurganligi uchun qo'llab-quvvatlagan. U bo'lsa, ellikboshi bilan qo'ltiqdashib, shu tavsiya uchun pora bermoqchi bo'ladi.

"Ellikboshi gapini adog'iga yetkazguncha qozi tugunning bog'ichini yechib, zarbof to'nni qo'lga oldi. Mirkomilboy keluvchilarning muddaosini tushundi.

-E, barakalla-a! – deb yubordi u boshini sarak-sarak chayqab.

-Bu ishlarning durust emas... Bir og'iz rizoligim evaziga hadya keltirib – sizlarmi, undan chiqdi, rizolik bermaganimda ortimdan tosh otar ekansiz – da?!

Temurhoji ikki qo'llab tutib turgan to'nni tushirib yuborayozdi. Ellikboshi tushuniksiz g'o'ldiradi..."

-Xushomadni bandaga emas, Xudoga qilinadi. U to'g'riso'zligi uchun dushman orttiradi. Eng alamlisi - yotlar emas, o'z satrlari, shu atrofida girdikapalak bo'lib yurgan odamlar uni sotdi. Yotlarga o'zinikilar ortidan ayg'oqchilik qilib, ma'lumot yetkazib turdi. Omadi kulib boqqan odamni begonalar emas o'z yaqinlari

ko'raolmasligini u kech angladi. Bunga qadar hamyurtlari uchun jon fido qildi, ularni o'ris iste'dodidan himoyalab olish uchun masjid, madrasa, musofirxona, hammom qurishga sarmoyalarini tikdi. Andijondan mardikorlar haqqini to'lash orqali o'zbek yigitlarining sovuq o'lkalarda xarob bo'lishiga, qirilib ketishiga yo'l qo'yolmasligini harbiy hokim muoviniga dangal so'zlaydi. Agar u zimdan ish bitiradigan quv odam bo'lganida harbiy hokimga bor niyatini to'kib solarmidi?! Germaniyadan Andijonga zavod olib kelib qurmoqchiligini boshqa boylar davrasida behisob daromad keltiradigan rejani oshkor etarmidi? Aslida ana shu dangalchiligi uning boshiga yetdi. Loaqal Istambulda Anvar poshshoning maslahatiga quloq solganida shunday odam bu qadar pastkashlarcha otib tashlanmasdi.

Hikoyada Mirkomilboy hayotining so'nggi damlari nihoyatda ta'sirchan tasvirlangan. Yozuvchi ortiq tafsilotlarga berilmaydi, voqealarni bayon qilishdan qochadi. O'ziga go'r qazishga majburlangan, insoniy qadri, huquqlari poymol etilgan, xo'rlangan inson ruhiyati bor ziddiyatlari bilan ta'sirchan tasvirlangan.

"Mirkomil og'ir burilib, askar va askarcha tomon o'girildi, uning mosh-guruch mo'ylabi asabiy titrar edi. Afsus-nadomat o'rnini adoqsiz va og'ir o'ychanlik egallayotgan nigohini ko'tarib, askarchani boshdan-oyoq kuzatdi. Mahbusdagi bunday o'zgarishni ko'rib hayratini yashirolmagan moviy ko'z soqchi nihoyat, askarchaga qarab do'rilladi:

-Nima deyapti?

-“Suv keltir-emish! Tahorat qolarmishlar. Tahoratni ashyoqda qiladi, emish!

Moviy ko'z soqchi tutaqib ketdi.

-Odamning bolasimisan, mol?! O'zingni sarting bo'lsa, musulmon bo'lsalaring, oxirgi iltimosini bajarsang o'lib qolasanmi, enag'ar!..

Askarcha qo'rqqanidan yerga o'tirib qoladi. Tizzasi qaltirab enkayib, soqchining yoniga miltig'ini qo'ydi-da, qoqilib surilib qamoqxona binosi tomon g'izillaydi...

-Menga qara, bola,- dedi juda mayin vazmin ohangda,- ikki rakat boshdodni o'qib olay. So'ng qad rostlab "Allohu akbar!" deya qo'l ko'targanimda otsa otabersin, tushuntirib ayt.

Mirkomilboy "Muqarrar moviy ko'z soqchi otadi!" degan fikrda edi... Shoshilib "Allohu akbar!" dedi-yu ushbu kalom sehrini yana bir bor vujudga singdirish umidida irodasini jamladi. Ikki kuragining qoq o'rtasidan yana bir qattiq zarb yedi- qanday bo'lmasa muvozanatni saqlashga tutinadi, hayollari yanayam sokinlashdi. U namozni boshlash uchun niyat qilib ulgurdi, xalos... basharti bir soniya ortiga o'girilsa, keyingi kunlarda tilidan tushmay qolgan. Nahotki?"-degan qattiq savolga javob topar zero, moviy ko'z soqchi boyagi-boyagi chekkada turganicha tamaki tutatayotgan, bosar-tusarini yo'qotgan o'zbek askarcha esa talvasada ustma-ust tepki bosayotgan edi".

Mirkomilboy oxirgi damgacha uni qamoqma-qamoq sarson qilganlar, ortidan qadam-baqadam kuzatib, xufya yullagan, u haqidagi "ma'lumotlar"ni tegishli odamlarga yetkazib turganlar, uni oxir-oqibat o'lim chohiga tashlaganlar "moviy ko'z" kelgindi hukumdorlar emas, o'z yonidagi, dindosh, millatdoshlari, o'zinikilar ekaniga ishora olmadi. Oxirgi damgacha "Nahotki?" savoli uni tark etmadi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida kompozitsiya, badiiy detallar, joy tasviri, qahramon portreti, syujet alohida ahamiyatga egaligini "Beozor qushning qarg'ishi", "Ko'z qorachig'idagi uy", "O'n birinchi eshik" hikoyalari orqali kuzatamiz. Bu asarlar tuyg'ular ifodasining tabiiyligi bilan ham tasirli.

Qadriya obrazi hikoyaning boshidan oxirigacha o'ta samimiyligi bilan kitobxonga yoqadi. Qadriyaga xos oqlik butun jismidan xusni tarovatidan sezilib turadi. Uning ko'ngli, dili oqlikka yo'g'rilgan yorug' nur kabi ekanini his

etamiz. Yozuvchi ana shu “oqlik, ilohiy nur” mohiyatiga chuqurroq kirib boorish maqsadida Qadriyani so‘zlatadi. Bu qadar bokiralik, pokizalik zamirida insoniylik, samimiyat, ilohiy e’tiqod yashashini uning hikoyalaridan anglab olamiz. Rahm-shafqatga to‘la bokira tuyg‘ular “yosh bolaning ko‘z yoshiday tiniq” mehr-muhabbatga payvand ekanini bolalik xotiralari, ayniqsa, onasi qiyofasida his qilamiz.

Ayvonchaga in qurgan qaldirg‘ochlar uyasini ko‘chirib tashlagan ota qiyofasi, bundan izillab yig‘lagan mushtipar ona holati, u e’tiqod qo‘ygan mehr-shafqatning itqitilishi hayajonli va o‘ta ta’sirchan manzaralanadi. “Onam dadamga quloq solmadilar. Yolvordilar: -Yo-on dadasi, umringizdan Baraka toping, tegmang...”

-O‘t-t, deyapman!

Onam alam aralash yig‘lamsirab yana yolvordilar:

-Mana uraqoling, adasi, roziman o‘ldiring. Faqat qaldirg‘ochni iniga tegmang! Kasofat uradi, barala top...

-E, irim siriming bilan qoshmazor bo‘l-a...

-Ha, ha, “bo‘lar ish bo‘ldi”,- dedilar dadam zaharhanda tovushda, keyin qo‘llaridagi tayoqni daraxt ostiga taraqatlab uloqtirdilar. Ko‘chirib tashladim...

Dadamning gapini onam dabdurustdan tushinib yetdilar, birdan hushyor tortdilar-u lahza sayin anglay boshladilar: “onamning yuzlari qiyshayib ketdi...” Onaning ikkiga bo‘linib yerda yotgan qaldirg‘ochlarning uyasini kaftida tutib, haykalday qotishi, qaldirg‘ochlarning uvvos solib yanada shiddat bilan chir aylanishi, shiftga, devorga o‘zini urishi yakson qilingan mehr-muhabbat, shafqat tufayli, insonlarga mehr, iymon-e’tiqod ko‘tarilganligi, odamzot qahriga yo‘liqib, qahr-g‘azab, shafqatsizlik izmiga yurgani tufayli edi. “Qaysi xonadonda mehr-muhabbat, qadr-qimmat, e’tiqod mustahkam bo‘lsa, qaldirg‘ochlar shu yerni makon tutardi”, - deguvchi qariyalar o‘gitining ma’nosi ham shundan. Fozilbekning: “Qaldirg‘ochlar bizning hovliga hech qachon kelmagan, uya ham qurmagan”, - degan o‘kinchli armonining ma’nosiga kitobxon tushinadi. Zotan, qaldirg‘ochlar

timsolidagi oqlik, yorug'likni quvonch, mehr-muruvvatni asrash orqali o'zligimizni saqlab qolamiz. Ezgu insoniy tuyg'ular esa insoniyatni qahr- g'azab tufayli tug'iluvchi yovuzlikdan asraydi, jaholatdan qutqaradi. Qaldirg'ochlar qo'nim topgan joy mehr-muhabbat, shafqat, ezgulik qaror topgan makon ekanligini yana bir karra his qilamiz.

Yozuvchi mahorati ravnaqi va milliy adabiyot rivojida adabiy ta'sirning o'rni muhim. "Adabiy ta'sir zamon va makon masalasida ichki va tashqi adabiyotlardan o'rganish asosidagi takomillashuv manbai, jarayonidir. Shu tufayli ba'zan adiblar ijodida mohiyatan bir-biriga o'xshash voqelik qalamga olinganini kuzatish mumkin. Masalan, A.Yo'ldoshevning "Vido ziyofati" va Z.Qurolboy qizining "O'lim hech narsa emas" hikoyalari o'rtasida umumiy yaqinlik bor. Balki bu ijodiy yaqinlik natijasidir. Har ikki asar personajlari o'z manfaatlari yo'lida o'limdan qurol sifatida foydalanadi. Xuddi shunday holat jahon adabiyotida Somersset Moyem ijodida ham kuzatiladi. Uning "Luiza" hikoyasi mohiyat e'tibori bilan "Vido ziyofati" va "O'lim hech narsa emas" asarlariga yaqin keladi. Turfa millat ijodkorlari asarlaridagi mushtarak talqinlar faqat adabiy aloqalar natijasi emas, balki odamzod tabiatidagi umumiy xususiyatlar bilan belgilansa kerak. Tahlilga tortganimiz deyarli barcha asarlarda o'lim qahramon hayotining yakuni o'laroq berilgan bo'lsa, mazkur hikoyalarda o'lim qahramon qiyofasiga ham satirik ruh bag'ishlagan, ham xudbinlik insoniyat tabiatining o'zgarmas doimiy manfiy energiyasi bo'lib qolaverishi haqidagi haqiqatni uqtiradi.

Ayrim badiiy asarlar orasidagi mushtarakliklar vaqt va manzil, davr va zamondan qat'i nazar, turlicha yaqin uzoqlikdagi adiblar ijodi va milliy adabiyotlar aro yaqinlik, o'xshashlik asosida tafakkur qirralarida aks etishi mumkin. Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" va A.Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasida ana shunday tipolik hodisa Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasi adiba ijodini yana bir bosqichga ko'targan. Bu hikoya kutilmaganda insonning o'lim oldi holatlarini teran yoritgani va hayotiyiligi bilan qimmatlidir.

Unda real voqelik badiiyatga yo'g'rib o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Adiba inson har qanday vaziyatda hayotga tashna ekanligini bemor qahramoni ruhiyati tasvirida aks ettiradi:

“Ayol ko'zlarini xiyol ochdi. Shu'la endi uning qorachiqalarida akslandi.

“Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, – ayol ko'zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: – Seni qanchalik yaxshi ko'raman quyosh!..” Quyosh nurlarini mo'l-ko'l to'kdi. Ayol butkul oftob nurlariga g'arq bo'ldi...”.¹ Adiba qahramonining hayotga tashna qalbini, umrining oxirgi kunlarini yashayotganligini ishonarli yoritadi. Ko'z o'ngimizda hayotiy haqiqat to'laligicha gavalalanadi. Bugina emas, Nazokatning o'lim oldida o'zini mardona tutishi kishini hayratlantiradi. Tobora qorni shishib ketayotgan bemor o'zini shu alfozda yaqinlariga ko'rsatgisi kelmaydi. Eri va bolalarining ko'z o'ngida bir umr shu manzara qotib qolishini istamaydi. Hatto shifokordan qornidagi suvni batamom olib tashlashni, xunuk alfozda o'lim topishni xohlamaydi. Umrining oxirgi daqiqalarini yashayotgan ayolning go'zallikka intilishi go'zallik sifatining ayol tufayli abadiy ekanligini anglatadi.

– “Do'xtir... – Nazokat barmog'idagi tilla uzugini vrachning cho'ntagiga soldi. – Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha!

Vrach yana javob bermadi. Xatto qarab qo'ymadi. Ayolning qo'li cho'ntagiga kirib chiqqanidan keyin ham yuziga qaramadi. Biroq...

– Hamshira! – deya chaqirdi yo'lakka qarab.

Nazokat jilmaydi. Keyin yostig'i ostidan upa-elikni oldi...”.²

O'limga mardona boquvchi personajlar adabiyotimizda etarlicha topiladi. Shunday asarlardan biri Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasidir. Hikoyadagi Mastura Alieva avvalo

¹ Qurolboy Qizi Z. Ayol. O'lim hech narsa emas. – T.: YAngi asr avlodi, 2011. – 297-b.

² Qurolboy Qizi Z. Ayol, 305-b.

taqdiri, qolaversa, kuchli irodasi va yozuvchining maqsadiga ko'ra hayotga qaytadi. Hayotda bu kabi bemorlar aksar hollarda yashay olmaydilar. Ammo yashashga intilish o'limni engadi. Abdulla Qahhor ijodida, ayniqsa, ayol personajlar qalbini ichdan yoritish u qadar kuzatilmaydi. Shunga qaramay, yozuvchining o'ziga xos uslubiga ko'ra bir-ikki shtrixlarning o'ziyoq Masturaning kuchli iroda sohibasi ekanligini bor basti bilan ifodalashga kifoya qilgan. Mastura Alievadagi iroda tom ma'noda adib shaxsiyatidan ko'chgan deyish mumkin. Negaki, o'limga tik boqa olish yozuvchining o'zida mavjud edi. "Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida" kitobida K.Simonovning Abdulla Qahhor shaxsi borasidagi muhim e'tirofi diqqatimizni tortadi. "Men uni vafotidan atigi bir kun oldin kasalxonada ko'rganman. U ajal chang solayotganini bilsa ham o'lishni istamas va o'zigagina xos tabiatiga ko'ra o'lim oldida ham o'zini bardam tutar edi. U karovatda ustma-ust qo'yilgan yostiqa suyanib yotarkan, og'ir-og'ir nafas olar va qo'rquvni bilmaydigan nuroniy chehrasida xuddi yor-do'stlarining istiqboliga yugurib chiqolmaganidan bir oz hijolat chekkandek bir ifoda mujassam edi... Men olamdan ko'z yumayotgan odamning bardam qo'l siqishlari-yu teran nigohlarini ko'rib hayratda qoldim".¹ Abdulla Qahhorning yigirma yildan ortiqroq vaqt qandli diabet bilan og'rib biror marta hech kimga shikoyat qilganini ham eslaydilar. Abdulla Qahhor umrining so'nggi daqiqalarida yonida turgan SHuhrat shunday xotirlaydi: "U hayotda qanday mardonavor yashagan, ijod etgan bo'lsa, ana shunday matonat bilan so'nggi nafasigacha hayot kechirdi. Uning o'limini eslasam: "Hayot bilan vidolashishning o'zi bir san'at ekan. Bunga ham matonat va iroda kerak ekan, degan xayolga boraman".² U.Normatov "Ustoz ibрати" kitobida Shuhratning adib shaxsiyatini yorituvchi shunday xotiralarini bergan: "Payg'ambar yoshini

¹ Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 50-b.

² Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida, 334 b.

yashadim. Na iloj, Muhammad payg'ambar "sevimli ummatim mening yoshimdan nariga o'tmasin" deb eshikni mixlab ketgan ekan, – deya u so'nggi vidolashuv gaplarini ham o'ziga xos hazil aralash obrazli jumlar bilan boshlaydi va shu ruhda davom etadi. – Taqdirga tan beraman-da... Sizdan o'tinib so'rayman, jonim chiqqandan to qabrga kirguningacha boshimda tursangiz. Tobutimni Toshkentga olib borgach, udumga ko'ra, albatta, yashikka solib tomoshaga qo'yasizlar. Ulardan oldin yuvib-tarab kafanlikka o'ranglar. Xunugim chiqib yotmasin, soqolimni o'zingiz qirtishlab qo'ying..."³ O'linga dadil boqish, taqdirga tan berish insondan kuchli ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo bunday kuchni hammadan birday kutib bo'lmaydi. Shu ma'noda yozuvchi shaxsiyatidagi ayrim qirralar uning qahramonlariga ko'chib o'tgan. "Ming bir jon" hikoyasi buning yaqqol dalilidir. Agar Abdulla Qahhor ayol personajlar ruhiyatini bir-ikki shtrixlar bilan gavdalandirishga moyil bo'lsa, undan farqli Z.Qurolboy qizi ayol ruhiyatiga chuqurroq kirib boradi. Va personajining har daqiqada ayolligini yoddan chiqarmaydi. Har ikki adib hikoyasida umumiy o'xshashlik shuki, unda ayol qahramonlarning o'lim oldi holatlari yoritilgan. Adiba qahramon o'limini tasvirlar ekan, quyosh nurlariga qayta diqqat qaratadi. "Birdan quyosh ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq bo'lib porlab bepoyon osmonni yoritdi, so'ng yurishini sekinlashtirganday bo'ldi va kasalxona tepasiga kelganida bor shu'lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi, shu'la shu lahza karovatda yotgan xushbichim va go'zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo'ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu'la o'ziga qadrdon qorachiqlarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmoqlarida paydo bo'lib qolgan uzukning olmos ko'zlaridagina aks eta oldi¹". Hikoyaning yutug'i unda

³ Normatov U. Ustoz ibрати. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 79-b.

¹ Qurolboy Qizi Z. Ayol, 305-b.

qahramonning o'lim oldi holati yoki o'limi haqidagi xabarning berilishi emas, o'lim qahramonga qanday estetik vazifa yuklaganligi va kitobxon undan qanday zavq tuya bilganidadir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun o'zbek hikoyachiligi markazida zamondoshlarimiz obrazi turadimi yoki tarixiy davr manzarasi tasviri qalamga olinganmi, ruhiy tahlilning teranligi; voqealarning muallif tilidan emas, ko'proq "men" tilidan hikoya qilinishi kuzatiladi, "Men" goh o'z hayoti va amalga oshirgan ishlarini amalga oshirgan ishlarini, taqdit yo'lini sarhisob etib taftish qiladi, goh o'z-o'ziga eng odil haqiqatni so'zlab, hakamlik qoladi, hukm chiqaradi. Voqealar birda uning hayollari tarzida chiziladi, ba'zan "ong osti", "ong ustki qatlamlari"da sodir bo'lgan fikrlar to'qnashuvi, tuyg'ular ziddiyati "ko'ngil oynasidan", vijdon "tarozisi"dan o'tkaziladi. Qahramon qismati bor dramatzimi bilan gavdalantiriladi. Qahramonlararo to'qnashuvlar o'rnini bugungi hikoyachilikda "Men" olamidagi ziddiyatlar, ruhiy iztiroblar tasviri egallaganligi alohida tamoyilga aylandi. Hatto an'anaviy hikoyachilikka xos dialektlarning uchramasligi, eng chigal hodisalar ham "sahna ortida" yuz berib, detallar, lavhalar, ramzlar, ishoralarga alohida badiiy vazifalar yuklatilganligi ham bugungi hikoyachilikka xos yangilanish o'ziga xoslikdir. O'zligini, o'z ko'ngil olamini anglashga, tozartishga intilayotgan qahramonlar qiyofasini yaratishga intilish kuchayganligini hikoyachilikka xos samarali uslubiy izlamshlar sifatida baholash mumkin.

Hikoya adabiy-tarixiy jarayonga doir uch zamon xususiyatini mujassam eta oladigan o'ziga xos badiiy janr hisoblanadi. Yuqorida tahlil qilingan hikoyalar misolida bugungi hikoyachilik uchun quyidagi xulosa chiqarish mumkin:

Universal makon-zamon ko'lamida olib qaralganda, o'zbek hikoyalari konkret makon va bu makonda hayot kechirayotgan odamlarining buguni, ya'ni ayni zamon voqeligining badiiy talqinidir. Ta'kidlash lozimki, barcha hikoyalar, hatto tarixiy mavzudagilari ham, istisnosiz tarzda bugunni aks ettiradi.

Davrimizning ma'naviy, ijtimoiy, maishiy, ruhiy ehtiyojlari, eng dolzarb muammolarini badiiy aks ettiradi.

Muayyan hikoyalar kelajakda yozilajak qissa va romanlarning debochasi, asosidir. Garchi qissa va romanga xos tafakkur qisman o'zgacharoq shakllarda namoyon bo'lsa ham, yaxshi hikoya iste'dodli yozuvchi ijodining keyingi bosqichlari uchun bir badiiy-psixologik maqom vazifasini o'taydi.

Shu ma'noda bugun hikoyalarining nasrimiz kelajagiga ham bevosita aloqasi bor. Ammo shunga qaramasdan, bugungi kun hikoyalariga tayanib, o'zbek hikoyachiligi o'zining barcha yutuq va kamchiliklari bilan kelajakdagi ulkan badiiy parvozlardan xabar beryapti, deb aytish mumkin.

Qissa milliy kitobxonlikning, adabiy jarayonning qiyofasini ko'rsatuvchi o'ta muhim janr. Romanga yetmagan, hikoyaga sig'magan oraliq ijodiy quvvat qissada aks etadi. Aynan qissa chinakam kitobxonlarni saralab, tarbiyalab, romanga tayyorlab beruvchi oraliq janrdir. Qissa ijodkorda romanik tafakkurning shakllanishidagi pillapoya. Qissanavislar ertangi romannavislardir. 2012 yil qissalarini sarhisob qilib borgan yosh tadqiqotchi Shahnoza Nazarova hozirgi adabiy jarayonda qissalarning tutgan o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. 2012 yilning o'zidayoq 30 dan ortiq qissalar e'lon qilindi. Ular, asosan, "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallari, "Extremum press", "Yangi asr avlodi", "Sharq" nashriyotlarida chop etilgan. G'ulom Karimiyning "Karvon" tarixiy-biografik qissasida Mahmud Koshg'ariy hayoti qalamga olinadi. Qissa tarixiylik talablariga to'la javob beradi. Makon va zamon masalasi tarixiy mantiq asosida hal etilgan. "Devonu lug'otit-turk"da mavjud qo'shiq, maqollardan qahramonlar nutqini, xarakterini yaratishda unumli foydalanilgan. Psixologik tasvirlar tarixiylikni badiiylikka olib o'tgan.

Luqmon Bo'rixonning "Olis qo'rg'on fuqarosi" qissasi No'monning ko'ngil qo'rg'onidagi ziddiyatlar haqida so'zlaydi. Voqealar xotirlash, aytib berish tarzida harakatlanadi. Bu usul No'monning yoshlik, o'smirlik psixologiyasini ochib berishga qaratilgan. Muallif har ikki

qissasida ifoda uslubiga tushib olguncha bir necha sahifalarni boy beradi. Shundan so'ng faqat o'zigagina xos bo'lgan uslub ichida erkin va go'zal harakat qila boshlaydi. Asardagi bolalarning qo'y o'g'rilashi, vaqt echimi (tunda sodir bo'lish), qariyaning ehsoni Sh.Xolmirzayevning "O'zbeklar" hikoyasini yodga soladi.

Shu muallifning "Bir tomchi yosh" qissasida musavvirning ruhiy olami yoritiladi. O'z o'rni qo'llangan, o'quvchining ma'lum ruhiy tayyorgarligidan so'ng aytilgan "Yuzlaringiz juda tiniq ekan, xayolkash qizlarning yuzlari shunday nurlanadi", "Ko'zlaringni sevaman, Rajab", – deya pichirladi yigit qop-qora tun qarab turgan derazaga tikilib", jumllarida kayfiyat berish borasida muallif ancha balandlikka ko'tarilgan.

Musavvir mavzusi Eldor Boboyevning "Musavvir" qissasida ham qalamga olinadi. Ifoda ravonligiga intilish kuchli. Qissadagi musavvir siri masalasi kuchli psixologik roman kengligini ham bera oladi. Tabiiyki, bunday asar engil ifodaga sig'maydi. Bu yo'l jahon tajribasida, xususan, S.Moyemning "Oy va sariq chaqa" romanida sinalgan.

Nabi Jaloliddinning "Majnun" qissasi qiziqish bilan o'qiladi. Ammo bu qiziqish ikkinchi bor o'qishda o'z kuchini yo'qotadi. Majnun holatining davomli bayonini birgina harakat, birgina so'z bilan ifodalash imkoni matnda yaratilgan, ammo foydalanilmagan.

Qissachilikning umumiy manzarasini qissalarning mavzu va yo'nalishlari ham belgilaydi. Hozirgi kun qissalarini kuzatar ekanmiz, maishiy, detektiv, sarguzasht, ilmiy-fantastik, yumoristik, tarixiy-biografik, ijtimoiy-psixologik, hujjatli, sentimental qissalar nashr etilganining guvohi bo'lamiz. Aytish mumkinki hozirgi o'zbek qissalari mavzu ko'lami, uslubi, obrazlar nuqtai nazaridan zamonaviy nasrimizning ajralmas bir qismi va qissachiligimiz tadrijida muayyan bir bosqich bo'lib qoladi

Adabiyotda milliylik va umuminsoniylik tushunchalari g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalardir. U insonning milliy o'ziga xosligi, mas'uliyati, qadriyatlari bilan

chambarchas bog‘lanadi. Ijodkor qaysi millatga mansub bo‘lsa, unda shu millatga xos bo‘lgan milliy qadriyatlarni, milliy ruhiyatni aks ettirishi tabiiy xol. Ayni chog‘da, odamlar millatidan, irqidan qat‘iy nazar umumiy tuyg‘ularga, kechinmalarga egadirlarki, bu holatlar ularning barchasiga xos umuminsoniy qadriyatlar ko‘lamini belgilaydi. Mana shu ikki jihat milliylik qatidan kelib chiqadigan umuminsoniy g‘oyalar yoxud umuminsoniy tushunchalar mohiyatiga yashiringan milliy qadriyatlar badiiy asarlarning ma‘naviy ruhiy asosini tashkil etadi.

Xurshid Do‘stmuhammadning “Oromkursi” qissasida ana shunday umuminsoniy g‘oya talqin qilingan. Insonning kim bo‘lishidan, qaysi millatga mansubligidan qat‘iy nazar mansab quliga aylanib qolish fojeasi qissadagi “men” timsolida yorqin gavalantiriladi. Yozuvchi asar qahramonining qiyofasini uning ichki kechinmalari, o‘y- hayollari orqali mahorat bilan tasvirlaydi. Uning ismi ham ajabtovur:

Ko‘klamбек Tongotarov yigirma yillar muqaddam rahmatli bo‘lib ketgan otasining marhamat-u muruvvatini unutmagan domlalar ham yo‘q emas edi. Niyozovich Nazirov... birinchi ko‘rishgandayoq ko‘klamning cho‘ntagiga “fan nomzodi” degan pattani solib qo‘ygandek bo‘ldi. Oilalilar yotog‘idan joy olib berdi. Ko‘klamtoyni “gijinglatib” yubordi. Bu voqealar asarda quyidagicha tasvirlanadi: “Ko‘klam otasi tufayli “odam bo‘lib qolgan”larning ko‘pini uchratgan, shaharga kelib, oliy maktab pattasini qo‘liga olguncha ham yuki yerda qolmagan, illo uning ich-etini kemirayotgan dard butkul boshqa –yetti iqlim ko‘rmagan nojins – betayin bir mayl o‘ziga qaerdan yopishganini bilmay dard-u dunyosi zimiston edi. Buning qandayin dard ekanini birovga og‘iz ochib aytolmas, o‘zicha o‘ylagani-o‘ylagan, ko‘nglining bir chekkasida bu –ojizlik kasallikmikan degan shubhalarga borar...” (121-b.) Darhaqiqat, yozuvchi X.Do‘stmuhammad mansabparastning “voyaga yetish”, “shakllanish” jarayonlarini ma‘naviy kasallik sifatida talqin etishga erishgan. Ko‘klam obrazi, uning oramkursini tanishi, unda mansabdorlar kabi

yastanib o'tirishni mashq qilishi, bundan rohatlanishi, bu rohatni tuyganda butun vujudi bilan mansab kursisiga yopishib olishi, hatto kecha-kunduz bu kursidan turgisi kelmay, uning "quli"ga aylanishi qissada ruhiy tahlil usulida gavdalantirilgan. "Oromkursi" mansabparastlik ramzi sifatida tasvirlanib obraz-ramz darajasiga ko'tarilgan. Bosh qahramonning oramkursi bilan suhbat, tortishuv – olishuvlari, oxir- oqibat u bilan birga yuqori qavatdan pastga qulashi ham muayyan ramziy ma'noga ega: mansab kursisiga o'zligini bag'ishlagan odamlar hayoti, izlanishi – intilishlari ma'nisiz, befoйда. Qissa epik tur janrlari orasida imkoniyatlari hikoyaga qaraganda kengligi, shaklining rang –barangligi, mazmunining ko'lamdorligi bilan ajralib turadi. Xususan, so'nggi yillarda ko'plab ijodkorlar qissachilik janrida barkamol ijod qilmoqdalar: Shoyim. Bo'tayev, Xurshid Do'stmuhammad, Normurod Norqobilov, Shodiqul Hamro, Eshqobil Shukur, Salomat Vafo, Nazar Eshonqul yaratgan asarlar kitobxonlar e'tiborini jalb qildi. Chunki, bugungi adabiyot – alohida, ayni chog'da turli-tuman shaxslarning tuyg'ulari, qiyofalari aks etgan adabiyot sifatida qad rostlagan. Zamondoshlarimizning o'zi alohida, betakror shaxs, yaratuvchi inson. Shu ma'noda, zamondoshimizni o'z shaxsiyatining elchisi, deyish mumkin. Mustaqillik davri o'zbek qissalarida millatning o'ziga xos tabiatini, ko'nglidagi sezimlar va mayllarini aks ettirishga intilishning kuchayganligi ham kitobxon e'tiboridan chetda qolmayapti. Bunday o'ziga xoslik qahramon ruhiyati timsolida uning surati va siyrati orqali tasvirlanmoqda: tasvirning teranligi, badiiy nigohning o'tkirligini taqozo etmoqda. Xozirgi qissachilik XX asr o'zbek nasri erishgan yutuqlar ta'sirida, ayni chog'da zamonaviy jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tutash holda rivojlanmoqda. Natijada, jahon adabiyotining ilg'or tamoyillari adabiyotda, xususan, qissachilikda ham nomoyon bo'lmoqda. O'tgan asrning 80-yillaridayoq yuz bera boshlagan demokratik yangilanishlar badiiy tafakkurda aks eta boshladi. Sho'ro davridan farq qiluvchi yangicha badiiy –estetik idealni aks ettiruvchi asarlar yaratila boshlandi. "Oydinda yurgan

odamlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Sho‘rodan qolgan odamlar”, “Momo yer qo‘shig‘i”, “Qora kitob”, “Eski arava” singari qator qissalarda ana shunday yangilanish tamoyillarini his qilamiz. Ustoz munaqqid O. Sharafiddinov so‘zlari bilan aytganda: “Mustaqillik adabiyoti- mazmunan teran, shaklan rang-barang, inson qalbining hamma qirralarini chuqur tadqiq etuvchi, inson haqiqatini butun murakkabligi va qarama-qarshiliklari bilan qadrllovchi... xushomaddan, tilyog‘lamalikdan, madhiyabozlikdan holi adabiyotdir”.¹

Ayni xususiyatlar XX asrning so‘nggi choragidan boshlangan milliy tafakkur rivojidadagi yangilanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda sodir bo‘ldiki, bu haqidagi yozuvchi N. Eshonqulning quyidagi fikrlari e‘tiborni tortadi: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or, entelektual boy mamlakatlarda nasr juda oldinda. Aslida nasr bu –millatning fikrlash jarayonidir. Millat tafakkuri qanchalik yuksak bo‘lsa, nasr shunchalik ustun bo‘ladi. Nasr milliy tafakkurning rivojiga turtki beradi, uni yuksaltiradi, boyitadi. Dunyoga fikr beradi, fikr uyg‘otadi. U ijtimoiy hayotga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi, uning yangilanishiga kuch-quvvat beradi”.² Ayni jihatlar o‘tgan asrning 80- yillaridayoq Murod Muhammad Do‘st, Erkin A‘zam, Tog‘ay Murod, Xurshid Do‘stmuhammad, Salomat Vafo, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo‘tayev kabi ijodkorlar ijodida o‘zining muayyan izlanishlarini boshdan kechirdi. Bugungi kun qissachiligida ham bu kabi izlanishlar davom etmoqda. Insonni ijtimoiy hayotning bir namoyondasi sifatida emas, balki o‘ziga xos bo‘lgan ma‘naviy olam egasi sifatida kashf etishga e‘tibor kuchaydi. Bunda realistik tasvir bilan birga yangi-yangi tasvir usullaridan keng miqyosda foydalanila boshlaydi, tasvirda shartlilikka, ramziylikka katta e‘tibor berila boshlandi. Is‘tedodli yozuvchilardan Sobir Unarning “Chambilbelning oydalasi” M.Hazratqulovning “Ko‘k ko‘l”,

¹ O. Sharafiddinov. Adabiyot mangu yashaydi. // Jahon adabiyoti. 1998. 1-son 3-6-betlar. 2. Nazar Eshonqul. Yoshlar nasri o‘z yo‘lidan boradi. // O‘z. A.S.-2000. 4-avgust.

Sh. Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" E.Azamning "Shoirning to'yi" qissalari. Bu qisalardagi voqealar ham, qahramonlar talqini ham bugungi o'zbek qissalaridan noan'anaviy obrazlar joy olganini namoyon etadi. Tasvir uslubi, epik bayon tarzi, yozuvchi konsepsiyasini yangicha shakllar orqali ifodalash tendensiyasi ko'zga tashlanayotganini ko'rsatadi. Har bir ijodkor shaxs o'zini o'rab turgan olamni, insonlarni tasvirlar ekan asarga o'z g'oyasini singdiradi. Asar qahramonlari yozuvchining kitobxonga aytmoqchi bo'lgan gaplarini yetkazuvchi vositaga aylanadi. Inson murakkab ruhiyat egasi. U jamiyat tarkibida yashaydi, uning bevosita va bilvosita ta'siri orqali o'zidagi karakter xususiyatlarni yuzaga chiqarib, rivojlantirib, takomillashtirib boradi. Ijodkor shaxs insondagi mana shu jarayonlarni turli qahramonlar orqali tasvirlashga harakat qiladi. Iste'dodli yozuvchi Sh. Bo'tayev o'tmish davrga xos siqiy muhit insonlarga qanday salbiy ta'sir ko'rsatganligini, ularni fojeaviy ahvolga solib qo'yishi mumkinligini o'zining "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida tasvirlagan. Qissa qahramonlari aka va uka. Aka qamoqxona nazoratchisi. U o'zini hukumat odami deb biladi va hukumat buyurgan ishni hech ikkilanmay xatosiz bajaradi. Xukumat va u chiqargan qonun qoida aka uchun ideal. Bir vaqtlar akaning o'z ismi bo'lgan. Ammo u armiyada xizmat qilib yurgan kezlarida o'z ismini MELS deb o'zgatirgan. Bu ham uning ruhiyatidagi hukumatga bo'lgan ishonchining bir belgisi edi. U o'z qilgan ishlaridan g'ururlanadi, ammo boshqalar uning ustidan kuladi, mazax qiladi. Bu qahramonni biz "Programmalashtirilgan robot" yoki manqurt deb atashimiz mumkin, chunki shu nom bu obraz uchun xarakterli, uning qiyofasi mazmuniga juda mos. Obrazni yaqindan anglab olish uchun quyidagi manzarani ko'zdan kechiraylik. "...Bugun kechqurungi navbatchilardan biri biroz kechikib kelgan, vaqt ziqligi uchun boshliq ham pachakillashib o'tirmay, keyin gaplashamiz, deb qo'ya qolgan...U qamoqxonadagi eng kekxa va hamma buyruqlarni quloq qoqmay bajaradigon itoatgo'y xizmatchi, o'zimizning tanishimiz edi. Uning biror daqiqa

bo'lsayam kechikib qolishi favqulotda holat sanaladi, har doim yarim soat oldin yetib kelardi... Keyin ...duo o'qiyotgan yoinqi qasamyod qilayotganday besh-o'n minut narvoncha qarshisida g'oz qotib turardi. Soatiga bot-bot qarab qo'yar, birinchi zinaga qachon oyoq o'tishigacha...hammasining aniq hisob-kitobini olib qo'ygandi....Shunday bo'lsa-da, qo'llari bilan paypaslab, kamarining siqib bog'langan-bog'lanmaganligini, yoqasi ostidagi tugmasining qadalgan-qadalmaganligini o'z-o'zicha g'ayriixtiyoriy tarzda tekshirib ko'rgach,o'ziga eshittirib:

- Hammasi joyida!-deya ming'illab qo'ydi...tuyqusdan ...uyda, janda-jundalarga o'ranib,...o'rnidan turolmayotgan xotini esiga tushdi...va pastda turib uni o'ylagani uchun o'zidan qattiq ranjidi".¹

E'tibor bering-a, nazoratchi shunchalik hukumatga, kasbiga sodiqki, hatto bir ahvolda qolgan kasalmand ayoli haqida ish paytida o'ylashni gunoh deb biladi, xuddi hukumatga qarshi jinoyat qilib qo'yadiganday qo'rqadi. Mana shu tasvirning o'zi nazoratchining qanday odam ekanini aniq namoyon qiladi.

Asarda akaning o'z o'g'liga qarshi nohaq munosabati, ayoliga bo'lgan qo'pol muomalasi, ro'zg'or yumushlarini o'z zimmasidagi yumush hisoblamasligi-yu, hukumatga bunchalik sadoqati kitobxonni hayron qoldirmay iloji yo'q. Akaning harakteri asar mohiyatida yotgan butun bir dahshatni yaqqol namoyon qiladi. O'quvchi kitobxon asarni o'qib, o'z- o'ziga nahotki shunday gumroh insonlar bor, bu hayotda?-kabi savolni bermay iloji yo'q.U kitobxon ko'z oldida manqurtlashgan odam sifatida namoyon bo'ladi.

"Toshmurod o'g'riligi uchun qo'lga olinib, qamab qo'yilgani haqidagi xabar yetib kelgach, erining yuz-ko'zlarida allaqanday otalik hissiga hech-hech qovushmaydigan, ana, aytmadimmi, deganday, o'z aytgani kelganidan boshi shoyon

¹ Sh. Bo'tayev. "Sho'rodan qolgan odamlar" Sharq, - 2000y. 369- 370-betlar.

ko'kka yetgan odamlar qiyofasida bo'ladigandek, o'zgarishlar zuhrlanganini ayol tuyqusdan payqagan, dahshatga tushganidan indamay qolgandi...²².

Birgina shu qahramonning ruhiyati asarning asl mohiyatini qanchalik ravshan oshkor eta olgan. Asarda shaxs fojeasi butun dahshati bilan tasvirlangan. Razolat va jaholat botqog'ida suzib yurgan bu odam hayotning haqiqiy mohiyatini tushunishga ojiz. Yozuvchi ta'biri bilan aytganda esa, Akada ko'ngil-insoniy qalb tavallud topmagan.

Ko'ngil, qalb tavalludsiz inson inson emas, shunchaki bir tirik mavjudod, xolos. Ma'nisiz o'tgan kechasi, buguni, shunchaki qorin qayg'usida o'tar ertasi bor uning.

Nazoratchining xotini o'g'li Toshmurodni oxirgi marta ko'rishni istaydi. Nazaratchi o'z o'g'lini ya'ni maxbusni qamoqxonadan uch kunga olib ketar ekan, u o'zini ota deb emas, nazoratchi deb his qiladi. U hatto maxbus (o'g'li) qochishga harakat qilsa, quroli yo'qligidan xijolat chekadi. Hatto, ayolining dafn marosimida ham to'n, do'ppi kiymaydi, belbog' bog'lamaydi. Maxsus kiyimda, qamoqxona nazoratchisi sifatida maxbus o'g'lini qo'riqlaydi, o'z vazifasiga, "sodiqligini" namoyish qiladi.

Faqat asar so'ngida, ya'ni qabr boshida o'g'li bilan yolg'iz qolgan nazoratchining ruhiyatida o'zgarish yuz beradi. Buni nima ekanini uning o'zi nazoratchi ekanini ham, qamoqni ham, burch va ma'suliyatni ham yodidan chiqargandi. Bularning bari u uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan edi.

"U qabr yonida muk tushib haykaldek qotib o'tiraverdi.

Kaftidagi qabrdan olingan bir hovuch tuproqni g'ayriixtiyoriy ravishda g'ijimlar, g'ijimlar, g'ijimlar edi xolos...

Shu tariqa ular ancha vaqt o'tirishdi.

² Sh.Bo'tayev. Hayot.Qissalar. - T.: SHarq, 2000-y.328-bet

Bir mahal Toshmurodning ovozi olis-olislardan uning asabiy norasidalik paytidagidek yetib kelib, nazoratchining qulog'iga urilganday bo'ldi.

-Ota, yuring endi...

Nazoratchi chaqmoq urganday seskanib tushdi.... keyin Toshmurodga ko'zi tushib negadir sarosimalanganday bo'ldi.

Qult etib yutindida:

-Hozir-ir, -dedi itoatgo'ylik bilan va bu so'zni o'zi yana bir bor eshitib ko'rishni istayotganday takrorladi, -Hozir-ir o'g'lim..."¹.

Nazoratchi hayotining mutlaq haqiqati- o'lim oldida taslim bo'ldi. Bu o'rinda yozuvchi inson psixologiyasiga katta e'tibor qaratadi va uni o'z adabiy qahramoni ruhiyati orqali ochib bera oladi. Qahramonimiz o'zi ishongan aqida, g'oya uchun hayotini bahshida qildi, unga sig'indi, insoniylikdan uzoqlashdi, mehr-muhabbatni qalbining qaysidir bir ko'rinmas burchagiga ko'mib tashladi. Ammo inson ana shu mehr-muhabbat, insoniylik tuyg'ulari bilan inson. Bu tuyg'ular bizni johillikdan saqlaydi. Akani shunday johillikdan, nursiz hayot botqog'idan hayotning mutlaq haqiqati bo'lmish o'lim tasviri olib chiqdi. Qalb qurida uyg'onishga, hayotga tashna oliy tuyg'ularning kurtaklanishiga sabab bo'ldi. Asarda nazoratchidan tashqari uka obrazi ham bor u hech qachon aka bilan chiqisha olmagan. Bolalardagi oddiy talashishlar ulg'ayganlari sari katta janjallarga aylangan. Uka uylanib, o'z uyini tashlab qaynota va qaynona xonadoniga ichkuyov bo'lib boradi. Ammo u yerda ham o'z fe'l atvoridan voz kechmagan holda kun kechiradi. Uning qo'lidan hech qanday ish kelmaydi. Mustaqil ravishda ro'zg'or yuritishni eplay olmaydigon Uka qaynotasidan keyin undan qolgan chorvaga ham egalik qilolmaydi. Turmushi, ya'ni ro'zg'ori xarob ahvolga tushadi. Uning ichi qora, baxil va hasadgo'y. U ham o'z Akasi singari ayolining qadriga yetmaydigan, og'zi buzuq, qo'li yugurdak

¹ Sh.Bo'tayev. Hayot.Qissalar.-T.:Sharq, 2000-y.330-bet

erkak. Jiyani Toshmurod sigirini o'g'irlagandan so'ng uning Akasi va jiyaniga bo'lgan nafrati yanada oshadi. Shu o'g'irlik bahona ulardan qasdini olayotganidan xursand bo'ladi. Lekin qishloq aholisi Ukani emas, balki jiyanini yoqlaydilar va ukaning qilgan ishini qoralaydilar. Hamqishloqlar jiyanning birgina shu adashib qilgan o'g'irligi tufayli qamatib yuborish odamiylikdan, insofdan emas, deb hisoblaydilar. Amaki avvaliga jiyanni qamatgani uchun mamnun kayfiyatda bo'ladi. Ammo ko'rgan tushidan so'ng uning qalbida ham tushunarsiz evrilishlar yuzaga keladi. Qalbining qaysidir burchagida yashirinib yotgan, mudroq insoniy tuyg'ular tushunarsiz holda junbushga keladi. Bu tuyg'u uni bo'lib o'tgan voqealarda o'zini aybdor his qilishiga undaydi.

Yozuvchi ukaning o'z-o'zini anglab, xatosini tushunib yetishda tush motividan o'rinli foydalangan. Tush qahramon ruhiyatini ochish vositasiga aylangan.

Uka o'z ruhiyatidagi bu o'zgarishlarni, evrilishlarni nimadan ekanini, nima uchun sodir bo'layotganini aniq-tiniq tushunmaydi. Ammo qandaydir bir ikki xohish uni qilgan gunohi uchun jazo berishlarini istaydi.

Qissada akaning o'g'li Toshmurod bor. U yolg'iz o'g'il. Bolalik davrining aksar qismini buvisi bilan o'tqazgani uchun unga bog'lanib qolgan. U mushtipar onasini yaxshi ko'radi. Ammo otasidan mehr ko'rmaydi. Otasining o'z kasbiga bo'lgan munosabatini tushunmaydi. Otasidan mehr va ko'mak istaydi, lekin uni ololmaydi. Aksincha, ular orasida katta jarlik paydo bo'ladi.

Toshmurod qalbidagi o'zgarishlarga ana shu jarlik, tushunmovchiliklar sabab bo'ladi. Otasidan topmagam e'tiborni, mehrni amakisidan qidiradi, ammo bu umid ham puchga chiqadi. Natijada uning qalbida alam va iztirob, qasos hissi uyg'onadi. Amakining uyiga o'g'irlikka tushadi. Oxir oqibat, u maxbusga aylanadi. Qishloq ahli Toshmurodning bu ishini jinoyat, yoki gunoh deb bilmaydi, aksincha ularda amakiga va ota-nazoratchiga nisbatan nafrat oshadi. Xatto ular Toshmurodning qamalishiga ham qarshi chiqadilar. Onasini

ko'rgani qamoqxonadan chiqayotgan maxbus yigitga qamoqxonada ishlovchi qo'riqchi va nazoratchilar mehr ko'rsatadilar va yemak beradilar.

Qissada u aka-uka singari ko'ngilsiz qahramon sifatida emas, balki ularning mudroq ko'ngillarini uyg'otuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ayolining qabri ustidagi holat tasviri ham, uka qalbidagi tushunarsiz evrilishlar ham qissada tabiiyligi, butun murakkabligi bilan tiniq tasvir etiladi. Biz ruhiyati "mayib va majruh" insonlar holatini his qilamiz.

Asarda yana bir kichik qahramon bor. Bu ham bir vaqtlar nazoratchi ishlaydigan qamoqxonada mahbus bo'lgan. Qissada Sunnat o'g'ri-nazoratchiga to'qnash keladi va nazoratchiga uyiga eltib qo'yishni taklif qiladi. Yo'l-yo'lakay suhbatda Sunnat o'g'ri nazoratchiga uning tutgan yo'li noto'g'ri ekanini uqtirmoqchi bo'ladi. O'sha siz ishongan, alqagan hukumat odamlari insoniylikdan mahrum, degan fikrni aytmoqchi bo'ladi. Nazoratchi esa bu gaplarga umuman ahamiyat bermaslikka harakat qiladi.

Sunnat o'g'ri ham aslida hayot qanday ekanini, uning asl mohiyatini tushunadigan, insoniylikdan, mehr-oqibatdan yiroq bo'lmagan odam sifatida namoyon bo'ladi. U o'z davrining qirliklari qurboni, davr muhiti uni abgor qilgan.

Sh.Bo'tayev "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida nafaqat Sho'ro hukumati g'oyalari dastur qilib olgan odamlar, ularning ayanchli taqdiri haqida hikoya qiladi, balki umuman o'z mustaqil fikri yo'q, kim nima deb ishontirsa o'shanga ergashib ketaveradigan, qiyofasiz, o'z fikri va qarashlariga ega bo'lmagan ayanchli odamlar taqdiri haqida fikr yuritishga undaydi. Qissada qahramonlarning ruhiyatiga xos evrilishlar tabiiylik bilan tasvirlangan va asarning badiiy qiymatini oshirgan. Inson hayotining mazmuni insoniyatga yot g'oyalarga bo'ysunib yashashda emas, balki o'zlikni anglab yetishda ekanligini asar qahramonlarining chigal taqdirlari, ruhiy kechinmalari orqali kitobxonga anglatadi.

Demak, milliy tafakkurlari yangilanishlar ta'sirida o'zbek qissachiligida hayot hodisalari va inson shaxsiga

yondashuv tamoyillari ham o'zgardi, yangi shakllarda namoyon bo'la boshladi. Qator qissalarda turli davrlar o'sha o'zligidan, imon-e'tiqodidan ayrilmagan, masalaga sodiq, mard insonlar obrazlarini uchratamiz. Ayni chog'da mafkuraviy tazyiqlar ostida "zamonasozlik" ka ruju qo'ygan, e'tiqodidan yuz o'girgan, aldamchi va zo'ravon mafkur maddohiga, xizmatkoriga aylangan kimsalarga duch kelamiz. Bunday obrazlarga xos riyokorlik butun dahshati bilan tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek qissalarida millatning o'ziga xos tabiati, betakror olami, ko'ngil kechmishlari-yu tuyg'ularini aks ettirishga intilish muayyan estetik tamoyilga aylanganini, bunday ijobiy izlanishlar esa qissachilikka ham sezilarli o'sish-o'zgarishlar olib kirayotganligiga zamin bo'lib xizmat qilayotganligini ham kuzatish mumkin. Biz tahlilga tortgan asarlar nafaqat epik tafakkurni, epik bayon tizimi u yoki bu jihatdan yangilamoqda, balki adabiy hayotda yangi tendensiyalar, oqimlar va yo'nalishlarning vujudga kelishga ham negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada, ijtimoiy-ma'naviy va badiiy estetik tafakkur taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda yaratilgan Abbos Said, Abdukalom Yo'ldosh, M. Hazratqulov, Q. Norqobil kabi adiblar yaratgan qissalar janrga xos o'sish-o'zgarishlar, yangilanishlar, adabiy-badiiy an'analar qatori adabiy-ijodiy aloqalar ta'sirida bitilgan asarlar jamligini ham alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, o'zbek nasriga jahon adabiyoti va nasrga xos tendensiyalar ta'siri bugun yanada yorqin ko'zga tashlanmoqda. Adabiy jamoatchilikka "Sumbulaning ilk shanbasi", "Timsohning ko'z yoshlari", "Parvoz", asarlari bilan tanilgan Abduqayum Yo'ldosh qissalari qahramonlari-zamondoshlarimiz. Ular o'ziga xos harakteri, qiyofasi, qalbi, ko'ngil olami bilan ba'zida "g'alati" tuyiladi. Ayni o'ziga orqavarotdan taqalgan "Dovdir" laqabiga bir qarashda mosday ko'rinuvchi asar qahramoni haqida, uning g'oyat sirli "taqdir yo'li", qismati xususida redaksiyada birga ishlaydigan hamxonasi-asar voqealarini so'zlab beruvchi shaxs so'zlab beradi. An'anaviy

bayonchi obrazi bizni asar voqealari ichiga olib kiradi, qandaydir telbavor hamxonasi haqida fikrlaydi, fikrlatadi, uni his qilishga urinadi, kitobxonni ham qahramonni tushunishga yo'llaydi. Uning portreti qissaning ilk sahifasidayoq chizib beriladi:

“Hamxonam allanechuk hayojanlangan-to'liqqan ahvolga tusha borar; qo'llari qaltirab, yanoqlari pir-pir uchayotganini, istagan odam besh gaz naridan ilg'ab olishi mumkin bo'lib, qolgan mahallari esa, ich-ichiga botgan besaranjom ko'zlarida qandaydir telbavor junun uchqunlari o'ynay boshlardi. Shunda u endi-endi olamni anglab borayotgan go'dak misoli huda-behudaga o'z-o'zidan ma'sumona jilmayaverar, boshqa paytlari bir tuki qilt etmay eshitadigan latifalarni aytib qolguday bo'lsam, mening har bir so'zimni hayratlanib, yutoqib tinglardi-da, goh sharaqlab, goh sillasi qotib qolguncha yayrab kulaverardi-kulaverardi. Shodumonlik boisi mening latifalarim emasligini yaxshi anglab turardim, illo oradan bir soniya o'tar – o'tmas u mutlaqo boshqa mavzudan so'z ochib qolar yoxud stolida yotgan istagan mavzudagi maqolani sharillatib, ohangdor ovozda o'qishga tushib ketardi. Men odatda, o'zimcha “Ko'r ko'zning ochilishi” deya andak istehzo bilan ataydigan jarayon ibtidosi shunday kechardi...”

Bayonchi tili orqali ifodalanayotgan ushbu tasvir qissa qahramonning harakter xususiyatlarini, ruhiy olamidagi o'ziga xosliklarni kitobxon ko'z o'ngida namoyon qiladi. Ushbu tasvirlar orqali asar qahramonning har tomonlama dardchil-ham ma'nan, ham ruhan bu shafqatsiz olamga begona, sig'ishmaydigan qalb egasi ekanini his qilamiz. Voqealar fonida bu dardlar ustiga o'g'ir jismoniy dard ham qo'shiladi-ku, bular barchasi uning insoniy qiyofasini yanada yaqqolroq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Yozuvchi bayonchi-hamxona tilidan qahramon sur'ati bilan siyratini bir butunlikda jonlantira boradi. Tashqi qiyofasi va xatti-harakatlaridan telbanamo ko'ringan bu yigit aslida beg'ubor, sodda, samimiy, borlig'i bilan go'dakday pokiza, oddiy, kamtarin-kamsuqum bir inson ekanini anglab boramiz. Uning

go'daklarday chaqnab turuvchi tiyrak nigohi, serhayajon chehrasi ko'z o'ngimizda jonlanadi, unga yaqinlashgimiz, tabiiy tuyg'ularini hurmat qilgimiz, panoh bo'lgimiz keladi.

"Hamxonam so'nggi kunlar uxlab uxlolmas kerakki, ko'zlari kirtayib, og'ir xastaniki misoli so'lg'inlashib qoladi. U o'tirgan joyida bir nuqtaga tikilib, nechukdir og'ir hayollarga botar, ogoh harorati ko'tarilib ketgan odamday dag'-dag' qaltirab bir nimalarni shosha-pisha yozib qolar, ora-sira, aftidan, sal o'ziga kelgan chog'lari, rangi qumday oqarib, ko'zlari jovdiragan alfozda mendan uzr so'rayotganday botinmaygina qaror, biroq uning mayday-chuyda, chumoli so'zlarga, ortiqcha mulozamatlarga tobi yo'qligini bilganimdan, kechirim so'rashga tili aylanmasligiga imonim komil edi..."¹.

Yozuvchining mahorati shundaki, asardagi voqealar rivojida bayonchisining qiyofasini ham kitobxon ko'z o'ngida gavdalandira boshlaydi: uning hamxonasi haqidagi fikr-mulohazalari, o'y-kechinmalari, tuyg'ulari, munosabati orqali ko'pchilik kabi befarq, loqayd, "menga nima?" qabilida yashaydigan odam emasligi ravshanlashadi. U yonidagi odamlarga hamdard, hamfikir, dardkash bo'lishga intiladigan, ularning iztirobi azoblari, ilinju gumonlari, quvonchlarini shunchaki chetdan kuzatuvchi bo'lolmasligini, bunga qodir emasligini his qilamiz. Aksincha, u hamxonasini mensimay, mazah qiluvchilardan oshkora nafratlanadi; rang-ro'yining ko'rinishidan kun sog'ayib borishidan, xastalik aniq sezilib turgan chehrasidan yuragi simillab og'riydi, achinish, shafqat hislarini tuyadi.

"Holbuki, hamxonamga rahmim kelardi. Juda. Unga, dunyoda chorak asrdan oshiqroq yashab qo'ygan bo'lsa-da, hali o'z yo'lini, nainki yo'lini, xatto o'z so'qmoqchasini topib ololmagan, o'z orzu-hayollarining irodasiz bandasiga aylanib qolgan go'dakka qaraganday achinib qarardim.

¹ Yo'ldosh. A. Bir tun va bir umr. Hikoyalar va qissalar. – T.: Yangi asr avlodi. 2007. Sumbilaning ilk shanbasi. 126-127-betlar.

Holbuki men uni... ba'zi-ba'zida o'z iztiroblarini yalong'ochlab ko'rsatib, huzur topuvchi xudbin emasmikin, degan gumrohona o'ylarga borsamda... hurmat ham qilardim shekilli. Ro'zg'or, qorin, ust-bosh, buyum tashvish degan tuzoqlarga o'ralashib qolib, so'nggi yillar ichida o'ylagan o'ylarimning to'qson foizi hisob-kitob, pul topish, narsa olish kabi arzimlas tashvishlar bilan bog'liq bo'lib qolganini tushunib, endi bu girdobdan orqaga, orzu-umidlar, turli hayollar sohiliga qaytib chiqa olmasligimni anglaganim mahal yuragimni o'tkir tirnoqlari bilan ayovsiz timdalovchi o'kinch, armon, g'azab, chorasizlik balolaridan qutilolmay jizg'anagi chiqib yurgan kezlarim, hamxonamning o'z fikrini butkul hissiyotlar hukmiga topshirib qo'yadigan biroq, qirq kunlik telbavor hayot tarzini ma'qullaganday ham bo'lardim",- kabi o'y-hayollari esa uning diyonatli, qalbi uyg'oq inson ekanini ochiq-oydin ko'rsatadi. Xamxonasi og'ir betob bo'lib, shifoxonada yotganida yelib-yugiradi, unga yordam qo'lini cho'zadi, azoblarini ko'rib azob chekadi. Afsuski, bemorning ahvoli kundan-kun og'irlashadi. Oxirgi ilinjini u quydagicha oshkor etadi:

- Boring, aka, eng kattasiga boring, pul so'rasa aytganini bering, hammasini qaytaraman, maqtab yoz, desayam, mayli deyavering, men o'zim yozaman. Faqat ayting, meni qo'yib yuborishsin. Analizlarini kelib topshirib turaman, yot desa dushanbadan kelib yotaman, bir-ikki kunga osmon uzilib yerga tusharmidi, faqat meni qo'yib yuborishsin, ayting, qo'yib yuborishsin. Aytasizmi..."¹

Ma'lum bo'lishicha, yigit o'z sevgan yoridan ayrilib, xijron azobida umr kechirgan. Armonlar, cheksiz-cheksiz xayollar hayotiga aylangan. Har yili sumbulaning ilk shanbasi qayerda, qanday xolatda bo'lishdan qat'iy nazar yori bilan ilk uchrashgan, sevgi uchqunlangan joyda uchrashishgan. Umrining ohirigacha o'sha kuni, o'sha soatda, o'sha joyda uni

¹ Yo'ldosh A. Bir tun va bir umr. Qissa va hikoyalar to'plami. "Sumbulaning ilk shanbasi" 132-bet.

kutishgan ont ichgan; mana qariyb 2-3 yildan beri so‘ziga, lafziga sodiq. Endi esa unga shifoxonadagilar javob berishmayapti, demakki, u lafziga, yoriga, qalbiga hiyonat qilyapti, go‘yo.

“Qarasam,... yotibdi, kechagidan ham battar, cho‘p-ustixon bir ahvolda, tishlab tishlaganmi, po‘rsillab yorilgan lablaridan qontalash izlar. Ko‘nglini ko‘tarib qo‘yay degan maqsadda yelkasida urib-urib qo‘yish uchun qo‘limni olib borayotib, nigoh tok urganday seskanib ketib, qo‘limni shartta tortib oldim. Hamxonamning peshonasidagi bir tutam soch bamisoli kul tegib o‘tganday oqarib qolgan, bu hol uning aftini yanada solg‘in, yanada qarimsiq ko‘satib qo‘ygan edi.

- Javob berishmayapti, akajon... Ayting agar javob berishmasa men ... men o‘lib qolaman...

-Rentgen yaxshi chiqsa, o‘ylab ko‘risharkan,-deyishim bilan bug‘ilib qolgan chog‘ida bir yutim sof havo berilganday entikib nafas olgan hamxonam shilq etib yostiqqa quladi. U hushidan ketgan edi.”¹

Ahdlashilgan kun, soatda, o‘sha joyda qo‘rquv hissiyotlari qorishiq nigoh ila atrofga toqatsizlanish, joniqish, vahima, g‘ussa, ilinj, qo‘rquv bilan boqqan holda o‘sha ayol: bag‘rida chaqalog‘i, yonida esa siyrak cho‘qqi soqolli chol bilan paydo bo‘ladi. Unga yigitning betoblighi xabari yetgach, unsiz yig‘lab bolasini bag‘riga bosib, qaytib ketadi. Xolis xizmatni bajarib, dardi og‘irlashgan yigitga bor tafsilotlarni so‘zlab bergach, u chuqur xo‘rsinadi:” -... biz... har yili... sumbulaning birinchi... shanbasida... favvora yonida uchrashamiz... Shunga ahdlashganmiz, birinchi ham shu yerda bo‘lgan, o‘shandan beri... qayerda bo‘lsak ham... qanday qilib bo‘lsayam ... yetib kelamiz... u kepti... Har yili keladi... gaplasholmasak ham... bir-birimizni ko‘rib... omonligimizni bilib ... so‘ng... orqasidan borib... oldidagilarga bildirmasdan... vakzalgacha... kuzatib... Derazadan qarab

¹ Yo‘ldosh A. Bir tun va bir umr. Hikoyalar va qissalar.-T.: Yangi asr avlodi. 2007. Sumbulaning ilk shanbasi. – 134-135-betlar.

qoladi... Yig'laydi... ko'p yig'laydi... Shunda... o'zimni-o'zim o'ldirgim keladi... sizdan iltimos kelasi yili ham, sumbulaning birinchi shanbasida... o'zingiz..."²

Voqealar oqimida paydo bo'lgan ayol qiyofasi tasviri orqali iztiroblar ichida yashayotgan, o'z baxtidan, ko'ngil qo'yganidan judolik fojeasi butun ruhiyatidan sezilib turgan, ko'ngli bo'm-bo'sh, hayoti ma'nisiz, atrofida gilar esa unga bepisand inson gavdalanadi. Qaysidir sabablar ichida eng asosiysi – yigit va qizga, ularning ko'ngil mulkiga, hayoti va taqdiriga, muqaddas tuyg'ulariga bepisandlik oqibatida bir umr baxtiyorlikdan maxrum etilgan ikki yoshning qismati kitobxonni larzaga soladi.

“- Charchadim-m...

Seskanib ketdim. Bu jonidan ham to'yib ketayotgan, sabr kosasiga so'nggi xo'rlik-alam tomchisi to'kilayotgan, biroq hali-hamon eng oxirgi soniyadami ro'y berajak nechukdar mo'jizaga ilinj bog'lab, o'sha o'sha ilinj sarobga... tezroq aylanib qo'ya qolishini ham dahshatga tushib kutayotgan ayolning zorlanib aytgan so'zi edi...

U juvon arqon bilan sudraganday... naynovga ergashdi. Damo-dam o'girilib, hamxonamni izlaydi. Meni ko'rgan, aftidan tanigan bo'lsa-da, bari-bir, hamxonamni izlaydi. izlaydi, topolmasdan dili vayron bo'ladi, tekis yo'lda qoqilib-surinib ketadi, dakki eshitadi, yana o'giriladi, yana izlaydi, yana qoqiladi, yana izlaydi, izlaydi, izlaydi... Bir muddatdan so'ng qahrdan afti qiyshayib ketgan naynov jonsiz suratga aylangan juvonni sudrab chiqib, so'ka-so'ka taksi to'xtatish joyi tomon yurdi..."¹

Javonning yigitni nigohlari orqali izlashi bu achchiq qismat tegrasidagi yorug'lik nuri, yashashdan to'yilgan yorqin ma'no, yoqimli ko'ngil istagi, mayli edi. Bularning baridan birato'la

² Yo'ldosh A. Bir tun va bir umr. Hikoyalar va qissalar. –T.: Yangi asr avlodi. 2007. Sunbulaning ilk shanbasi. 159-bet

¹ Yo'ldosh A. Bir tun va bir umr. Hikoyalar va qissalar. – T.: Yangi asr avlodi 2007. 167-bet.

ayrilish oqibatida ayol ma'nisiz hayotdan ko'z yumdi. Erta xazon bo'lgan ikki yosh umr balki o'zlari qachonlardir yo'l qo'ygan xatolari hal etib yuborganliklari kabi xatolar evaziga shafqatsiz to'lov edi.

Yozuvchi bir qator romantik sevgi qissasini bayon qilar ekan, ayrim o'rinlarda yigit va qiz ruhiyati, insoniy qiyofasini ichdan yoritish o'rniga barini hikoyachi tilidan "so'zlab berish"ga urinadi, bunday o'rinlarda har ikkala qahramonning jonli qiyofasi xira tortadi. Voqealar oqimida paydo bo'lgan qizning singlisi ham, bayonchining oilasi, ayoli boshliq ham oddiy epizodik obraz darajasida qolib ketgan. Afsuski, yozuvchi ularning janr ko'lamiga mos "yuki"ni ham bayonchi zimmasiga majburan yuklagan. Natijada, voqealar va qahramonlar bayonining salmog'i keragidan ortib ketgan.

Abduqayum Yo'ldoshning "Zalolat" nomli qissasida ham ma'naviy muammolar qalamga olingan. Asar yozilishiga turtki bo'lgan voqeani yozuvchi shunday izohlaydi: "Yaqinda huquq mavzusida yozib yuradigan jurnalist birodarim mardikor bozorida ish olib borgan jinoiy guruh faoliyati tergov qilinayotganini aytib qoldi. Rostini aytsam, unchalik ishonmadim. Axir mardikor bozori qayda-yu, jinoiy guruh qayda! Ammo ...Ilyos ismli tortinchoq, kamtaringina yigitning boshidan kechirganlarini tinglash men uchun ana hayajonli kechdi..."²

Qissadan moddiy qiyinchiliklar tufayli pul topish umidida mardikor bozoriga chiqqan yigit sarguzashtlari tasvirlanadi. Yozuvchi avvalgi qissadagi farqli hodisalarni bayon qilishdan ko'ra tasvirlashga ko'proq harakat qilganligi Ilyosning mardikor sifatida yollanib, "Maskvich"da noma'lum tomonga qarab yo'l olishi, "manzil"da kechirgan azob-uqubatlari tasviridan ko'rinadi: "...bir harakat bilan muallimni loydan sug'urib olib, shundoq handaq chetiga yiqitdi-yu tepaverdi, tepaverdi..."

² Yoldosh A. Bir tun va bir umr. Hikoyalar va qissalar.- T.: Yangi asr avlodi 2007. Zalolat 174-bet

Qop qora qoniga belangan, sulayib qolgan muallim ustiga bir chelak suv sepgan xo'jayin karaxt ahvolda turgan mardikorlarga qarab o'shkirdi:

- Bittang g'ing desang hammang bundan battar yasalasan! Bu yer sanlarga onangni uyi emas!... bo'lmasa, qorinlaringni yorib, o'liklaringni asfaltning tagiga tashlatvoraman!

- Xudo xayringizni bersin, mani qo'yib yuboring...

- Keyin kiynimaganingni itga talataman!"¹.

Insonga inson tomonidan zulm qilishning cheki-chegarasi bormi? Inson bolasining vahshiyliги-chi? Odamiylik qiyofasini butkul yo'qotib, o'zi kabi odamlarni zo'rlash, haqorat qilish, tahqirlash, cheksiz azob-uqubatlarga duchor qilish, kaltaklash... bularning baridan huzur qilish hatto hayvonga ham xos. Zalolat botqog'iga botgan bu maskanda hamma narsa zo'rovonlik, shafqatsizlik bilan yanchib tashlangandi. Tubanlik, zulm va vahshiylikka bosh egib, kulga aylangan Nishonboy aka, muallim, talaba yigit va Ilyos oftob bilan lotdan boshqani fahmlamas ahvolga tushadilar. Yozuvchi ayni hodisalar tasviridan so'ng yana bor yukni bayonchiga yuklaydilar. Har bir hodisa tavsiloti, qahramonlar ruhiyatida sodir bo'lishi kutiladigan holatlar tavsifi uning tilidan so'zlanadi, bayon qilinadi: "Sumbulaning ojizona nur taratib turgan quyoshi baland devor ortiga yonboshlaganiga ancha bo'lgan, hovliga shom qorong'uligi cho'kkan mahal bu nihoyat bu la'nati devorni suvab tugatishdi... birinchi bo'lib bara-bara andavani yerga qo'ydi... Jonni sug'urib oladigan ishi yakuniga yetganini anglagan brigadir sudrab borib bo'lsa ham jon-jahdi bilan paqirlarini tozalashga tushdi... Mardikorlar dasturxonga och bo'riday tashlanishdi..."² va hokazo.

¹ Yo'ldosh A. Bir tun bir umr. Hikotalar va qissalar. – T.: Yangi asr avlodi. 2007. Zalolat. 194-bet

² Yo'ldosh A. Bir tun bir umr. Hikoyalar va qissalar. – T.: Yangi asr avlodi. 2007. Zalolat. 200-201-bet

“Bu yerda qandaydir adolatsizlik, qonunsizlik ro‘y bermoqda edi”, - kabi voqealar drammatizmini susaytiruvchi, keraksiz tafsilotlar esa asar markazidan ma’naviy muommolar salmog‘ini xiralashtirgan. “Ilyos... bu voqelikka qarshi qanday ayrilib bosh ko‘tarish mumkinligini tasavvur ham etolmasdi. Illo, bunday qaltis vaziyatda isyonga ko‘tarilgan boshning sapchadek uzilib tashlanishi ehtimoldan holi emasdi”, - kabi qaytariqlar, uzun tafsilotlar voqealarni tabiiy oqimidan, qahramonlarni esa jonli inson kabi yashab, o‘z harakteri mantig‘iga ko‘ra harakat qilishdan to‘xtatib turadi, goyo. “Aftidan, shapaloq yegan dodlab yubordi va bu ovoz ayol kishiga tegishli ekanini anglar-anglamas kimdir vagonni devoriga gup etib urildi.

- Onangni... - Boyagi barzangining palag‘da ovozi eshitgan Ilyos titrab ketdi. Bunga javoban ayol kishining titroq sasi eshitildi:

- Rahim qiling, akajon! Bola-chaqam bor! Boshimda erim bor! Yo‘qchilik... Menga idish-tovoq tuvasiz deyishgandi... Meni anovilar aldadi... Bundan ko‘ra o‘lganim yaxshi... Ayol izillab yig‘lardi. Barzangi yomon tepdi shekilli, gup etib o‘tirib qolgan ayol ayanchli chiyilladi...”¹ - kabi dahshatli manzaralar ta’sirchan tasvirlangani holda voqealar shitobi birdan susaydi, qahramonlar dunyosidagi “ag‘dar-to‘ntarlar”, ruhiyatdagi siljishlar yozuvchi e’tiboridan chetda qoladi. Keyingi voqealar bayoniga berilish seviladi. Asar yakuniga esa detektiv tus beriladi.

- Qissa markazidagi ma’naviy muommolar har qancha dolzarb bo‘lmasin, ularning inson hayoti va vujudidagi og‘riqlari, jarohatlari, azob-uqubatlari ta’sirchan manzaralarda suvratlantirilmas ekan badiiy qimmat kasb etmaydi. Bayonchilik, tavsif qahramon qiyofasi va ruhiyatining jonli, tabiiy tasviriga o‘rin bo‘shatmas ekan, ijodkorning xayrli izlanish-intilishlari ko‘ngildagidek samara bermaydi.

¹ Yo‘ldosh A. Bir tun bir umr. Hikoyalar va qissalar. – T.: Yangi asr avlodi. 2007. Zalolat. 207-bet

Qator she'r va "Yonayotgan odam", "Bir oqshom voqeasi" kabi hikoyalari bilan adabiy jamoatchilikka tanilgan yosh adiba Risolat Haydarovaning "Mag'rura" nomli qissasi ayni fikrlarning haqiqat ekanini asoslaydi.

Asar bosh qahramoni Mag'rura xarakteri, qiyofasi, ruhiyati, tuyg'ular olami murakkab, o'zigagina xos, rangin hayollari qadar payonsiz. Ko'ngli tuyg'ularga boy bu qizning o'z qarashlari, imon-e'tiqodi, nuqtai nazari bor. To'g'ri so'zligidan biroz zahar tilli tuyulsa-da, u aslida samimiy, beg'ubor, mehribon qiz ekanini voqealar silsilasida anglab boramiz.

Yozuvchi qahramon ruhiyatida yuz bergan to'ntarishni uning o'z tilidan bayon qildiradi, tasvirda dramatism kuchayadi, "o'z-o'zini fosh qilish" usuli voqealar rivojining shiddatini yanada oshiradi. To'y kunining yaqinlashib qolishi, Mag'ruraning ming to'lg'onishlar ichra Muzaffar Ilhom bilan uchrashuvga chiqib kelishi, keyingi azoblari, vujudiga sovuqlik hissining yana-da chuqurroq o'rnashishi, uning qo'li behos tegib ham qaltirashlar... Oxiri toqati toq bo'lgan Mag'rura onasiga yoriladi:

- Qiynalib ketdim, oyijon! Uni ko'rishning o'zi menga azob! To'ydan keyin nima qilaman! U bilan... Yo'q! Xuddi vujudimda ilon o'rmlayotgandek bo'layapti... Meni qutqaring, oyi!"¹.

Mag'rura orzularida tiklagan baxt qasri kundan-kun to'liq yuvib ketgan qum qurg'on yanglig' nurab boradi; orzulari ham barmoqlari orasidan qum kabi to'kilib tushadi.

Yozuvchi qahramon ruhiyatini yoritishda tabiat manzaralaridan mahorat bilan foydalangan. Ko'z tasvirlarini kuzatgan chog'da qahramon nigohlari atrofdagi o'zgarishlarni nozik jihatlardan ilg'aydi, o'zi payqagan holatlardan esa muayyan ma'nolarni uqib olish qahramon ko'nglining, tuyg'ularining nozikligidan darak beradi. Ayni chog'da, xazin

¹ Haydarova R. Mag'rura. 108-bet

kuzga xos rang-barang manzaralar Mag'rura qiyofasmi ochishga, voqealar oqimiga, harakter qirralarining yangi jihatlaridan namoyon bo'lishiga ta'sir etadi. "Xuddi shunaqa yomg'ir shivallab turgan oqshom edi. Yaproqlarini to'kib ulgurmagan shahar endi sovuq yomg'ir ostida junjika, o'zini soyabonlar ostiga tortar edi. Ko'chalar to'la soyabonlar oqimi...

Shundoqqina yonimda kexsa o'rik shoxlaridagi so'nggi barglarini yomg'irlarga uzatib qisrlar edi"², - kabi tasvirlar esa qahramon holatini yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

Qissa kuz tasviri bilan boshlanadi va kuz tasviri ila yakun topadi. Kuz – qahramon hayot yo'lining ramziga aylana boradi. Asar davomida kuzdan qishgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi voqealar qalamga olinadi, "Yana yomg'ir" jumlasini ko'p bor takrorlanadi. Tasvirdagi bunday shartlilik ortiga qanday ma'nolar yashiringan? "Kecha boshlangan yomg'ir hamon ezilardi: Hovli yuzasi xalqob akayiyalarning bujur tanalari ho'l o'rtadagi gulzor o'rnini chirik xazonlar-u, ular orasida bo'rtib yotgan qup-quruq gul poyalari... Sharfimga mahkamroq o'randim. Atrof jim-jit. Tashqaridan yomg'irning shitirlashi-yu, bilagimdagi soatning chiqillashi eshitiladi, xolos. Ha, hayot ham goh oftobli, goh chaqmoqli, goh yomg'irli lahzalar ichra o'tarkan..."¹ (111-b) kabi o'y-kechinmalari qahramonning o'z-o'zini, o'z umri, yashash tarzi, hayotga qarashlarini doimiy taftish etishga qodir, ma'naviy kuchli shaxs ekanligini anglatadi. U hamma kabi atrofdagilarga, voqealarga, odamlarga loqayd munosabatda bo'lolmaydi, orzulari qadar yuksak, pok tuyg'ularni his qilgisi keladi, afsuski, "chaqmoqlar", "bulutli kunlar", doimiy yomg'irga burkangan rutubatli kuz misol oylar, haftalar hayotini qurshab oladi. Hatto uning sochlaridan kuz isini keladi, qo'llari sovuqdan muzlaydi, yakkash muz haroratini his qiladi. Bu holat uning yolg'izligidan bir darak. Mag'rura ma'naviy yaqin kishisini izlaydi, har qancha

² Haydarova R. Mag'rura. 92-bet.

¹ Haydarova R. Mag'rura. 101-bet

qiynalmasin uni Xurshid aka timsolida topadi. Topgunga qadar ruhiy iztiroblarni boshdan kechiradi, hayotning kuz yomg'iri misol ezishlariga chidaydi, o'z yo'lini, o'z taqdirini izlashdan chekinmaydi. Muzaffar Ilhomga ham hech ikkilanmay, ma'naviy jasorat ila ko'nglidagi gapni ochiq-oydin ayta oladi. Uning xudbinligi tufayli baxtiqaro bo'lgan Nilufar fojiasini kechira olmasligini, Muzaffar uni hech qachon sevmaganini ro'yi rost so'zlaydi.

Yozuvchi tanlagan uslub – bayonchi – hikoyachi – bosh qahramon qilib olinishi o'zini oqlaganligi tufayli barcha obrazlar, voqealar yagona kompazitsion markaz tevaragida – Mag'rura obrazi atrofida jamlangan. Barcha obrazlar o'z xarakteri mantig'iga ko'ra harakat qilsalar-da, bosh qahramon qiyofasini yoritishga xizmat qiladi. Qahramonning ular bilan muomala-munosabati, gap-so'zi, hayollari, tuyg'ulari bilvosita Mag'rura bilan bog'lanadi.

Mag'ruraning otasi, onasi haqidagi!!!! Uni yanada yorqin idrok etish imkonini beradi. Agar "Sumbulaning ilk shanbasi" qissasi qahramonlarning ma'naviy-jismoniy o'limi sabablaridan biri ularni tushunishga, himoya qilishga qodir odamlarning bo'lmaganligi bilan izohlansa, ushbu asarda o'zgacha manzaraning guvohi bo'lamiz. Aka –singil munosabatlari ayniqsa yoqimli va maroqli. Mag'rurani har qanday chigal vaziyatlarda sabr-toqat bilan tinglashga, tushunishga harakat qiluvchi, uning tuyg'ularini, hukm-xulosalarini hurmat qiluvchi ziyoli, taniqli xirurg, yaxshi oila boshlig'i Tal'at Mavlonov qiyofasi kitobxonda iliq tassurot qoldiradi.

Sirtidan qaraganda o'ta jiddiy, fikrini kesib-kesib bayon qiluvchi, qattiqqo'l Nazira opa ham Mg'rura kabi oqko'ngil insonlardan biri. Uning xonadonidagi oshxona ishlari, tuxumbarak tayyorlash chog'idagi samimiyatidan ko'ngli, niyatlari, tuyg'ulari pokiza ekanini sezamiz, Mag'rura kabi uni ham yoqtirib qolamiz. Ayniqsa, g'iybatlarga yo'qligi, odamlar ustidan bema'ni gap-so'zlar qilib yuradigan odamlardan tap tortmay, yuziga ko'nglidagi nafratini to'kib soluvchi

“erkaksifat” opadan jamoadagilar bir qadar hayiqishadi. Marg‘uraning “Nazira opa ro‘paramda menga sinchkov ko‘zlarini qadab o‘tirardi. Opaning nigohiga bardosh berish qiyin, qorachilari ichingizdagi butun siringizni yoritib yuboradigandek tuyulardi”,¹ - kabi mulohazalaridan uning atrofdagilarga loqayd emasligi, haq so‘zni, haqiqatni himoya qiladigan mard ayolligini anglatadi. Ana shunday insonlar tufayli Mag‘ruraning sha‘ni, tuyg‘ulari, ko‘ngli himoya qilindi, ular qizga ma‘naviy tayanch bo‘ldilar. Ular tufayli Mag‘rura: „Ruhim biram yengil, ko‘nglimda zarra g‘ashlik yo‘q, hayot biram shirin ediki”,² - deya oldi, bor g‘ashliklarni yengib o‘tdi. Nafaqat kaftiga, balki ko‘ngliga og‘riqli chandiq solib ketgan Muzaffar Ilhomni ham kechirdi. Ana shu chandiqlar azobi bilan Xurshid akaga duch kelib, uni seva oldi. Muhimi, yozuvchi o‘z qahramonining qadam-baqadam ulg‘ayib, hayotga, odamlarga ishonchining shakillanishi, o‘z taqdir yo‘lini izlashi, o‘z baxti uchun intilishi va bu yo‘lda chekkan ruhiy iztiroblarini epiklik talabiga monand ko‘lamli tasvirlay olgan. Asar voqealari ham turli-tuman to‘qnashuvlar, dunyoqarashlar ziddiyati ham mahorat bilan tasvirlangan. Ayrim badiiy detallarning vazifasi (masalan, jun qo‘lqoplarning 4-5 marta takrorlanishi) noaniq, Mag‘ruraning tushi tafsiloti ortiqachaday, muayyan salmoqqa ega emasday (asar voqealari mantig‘idan uning Xurshid aka bilan turmush qurishi anglashilib turadi) taasurol uyg‘otadi. Bu kabi kamchiliklar adiba uslubi bilan mahorati yanada sayqal topib, takomillashishga muhtojligini ayon etadi.

Demak, an‘anaviy usulda qalam tebratayotgan yosh qissanavislar nasrimiz an‘analarini davom ettirib, rang-barang qahramonlar yaratishga erishmoqdalar. Ma‘naviy muommolar talqini orqali zamondoshlarimiz hayoti, izlanish-intilishlari, kurashlari, mag‘lubiyat-u g‘alabalarini, iztirob-u ehtiroslarini ta’sirchan manzaralarda suratlantirishga erishmoqdalar. Ayrim

¹ Haydarova R. Mag‘rura. 104-b

² Haydarova R. Mag‘rura. 108-b.

hollarda esa mahoratning yetishmasligi, uslubda bayonchilikka berilish kabi nuqsonlar ko'zga tashlansa-da, yoshlar qissachiligiga qadam-baqadam badiiy kashfiyotlar sari bo'y cho'zayotganligidan, mahorat sirlarini chuqur o'zlashtirish tomon dadil odimlayotganligidan darak beradi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, prof. U. Normatov, adabiyotshunos D. Quronov bilan so'nggi davr o'zbek romanlari haqida suhbatlashib, quyidagi fikrlarini bayon qilgan edilar: "Bilamizki, har qanday salmoqdor, ezgu g'oya san'atkorona ifodasini topgan taqdiridagina qudratli kuch kasb etadi, asar g'oyasi esa o'quvchi qalbini asir etadigan yahlit sehrli tasvir ohangi orqali pafosga aylanadi. "Tushda kechgan umrlar" romani "Kuz o'lim to'shagan yotgan bemorga o'xshaydi" so'zlari bilan boshlanadi. Ish jumladan mana shu ma'yus, mungli ohang asar davomida tovlanib, goh sokin, goh shiddatli tus olib, vujud-vujudigingizni qamrab oladi". Risolat Haydarova "Mag'rura" qissasida ayni an'anani o'zgacha uslub va ohangda davom ettirganligi milliy-adabiy an'analar zaminida ijodiy o'sish-o'zgarishlar, yangicha adabiy hodisalar sodir bo'layotganligidan dalolat beradi. Yosh qissanavislarning inson, shaxs jumbog'ini yechishga, inson hayoti mohiyatini anglashga, inson tabiati va ruhiyatini tahlil qilishga intilayotganliklarini qissachiligimizga xos yangicha o'sish, o'zgarish sifatida baholash mumkin.

Urush fojeasini, urushning inson ruhiyatini chil-parchin etganini, ruhiy to'lg'oqlarni tasvirlash Qo'chqor Norqobilning qator qissalariga xos umumiy xususiyatdir.

Adibning "Daryo ortidagi yig'i" qissasi qaysi jihatlardan e'tiborni tortadi?

"Afg'on bahori ham o'zinikiday bo'ladi. Qism atrofidagi o'rikzor oq gulga burkangan... Tiniq kunlar boshlandi. Yaqinimizdagi qishloqdan bolalarning qiy-chuvi eshitar, havoni to'ldirib varraklar uchardi. Go'yo bu yerlarda urush bo'lmaganday... Biz bahorni hech qanaqa reydsiz o'tkazishni istardik. Nachora. Urush hech narsa bilan hisoblashmaydi. Har holda bu yerga kurortga kelmaganimizni his qilardik. Shu

boisdan bahor ham omonat edi”², - kabi parchalar bahorning go’zal, ayni paytda omonatligini, xotirjam borliqqa sepini yoyayotgan, ruhga-da tiniqlik, kenglik, uyg’onish nafasini ufurayotgan holatini o’limga tik qarab, jangga hozirlik qurayotgan jangchi nigohlari, ruhiyati orqali kuzatamiz, xis etamiz. Balki hozirgi jangda rotadoshlari kabi soniyada o’limga mahkum etilar, balki anavi yosh serjant kabi oyog’idan, anavi Rinat kabi boshidan yo yelkasidan jarohat olar.

Ushbu qissada yozuvchi bosh qahramonning jang paytidagi ruhiy holati va hayot uchun kurashish jarayonini mohirlik va topqirlik bilan tasvirlaydi. Bu borada Xurshida Hamroqulova yozuvchi mahoratini shunday baholaydi: “Urush tasviriga bag’ishlangan asarlarga xos umumiy jihat bor. Bu – o’lim oldida qo’rquv tuyg’usining yo’qolishi. ... Q. Norqobilning yutug’i shundaki, u qahramonni o’lim ostonasidagi holatlariga, kechinmalariga alohida urg’u beradi. O’lim vahimasi ruhiyatdagi o’zgarishlarni yuzaga chiqaradi Yozuvchi o’lim oldidagi uch holatga e’tibor qaratadi: 1. Qahramon o’z holatidan o’zganing holatiga ko’chadi. 2. Ma’lum muddat o’tib u o’ziga kela boshlaydi. 3. Qahramon oxirgi imkoniyatni ishga soladi.”¹

Darhaqiqat, yozuvchi qahramonning o’lim dahshati oldidagi ichki tuyg’ular, iztirob, o’lim bilan yuzma-yuz kelish holatini haqqoniy tasvirlay olgan.

O’lim bilan ajal yuzlashish onlari qay darajada dahshatli ekanini yozuvchi “men” tilidan hikoya qildiradi

U og’ir janglardan birida kontuzya olib, gospitalga tushadi. Bu yerda “o’z hokimiyatini o’rnatgan Andrey, Vladiklarning yosh askarlarni xo’rlashlari, pul evaziga oylab gospitalda dam olib, aysh-ishrat ichida yashashi, jismoniy kuchi yetmaganlarni urib-do’pposlashi, vrachlar bilan qanday “til topishishi”ning guvohi bo’ladi. Bunday marazlar bilan tap tortmay olishadi, ular kabi do’stlari qon kechib, jon olib-jon berayotgan pallada

¹ X.Hamroqulova. Adabiyotda hayot va mamot muammosi tadqiqi. T.: Fan. – 2010. 98-b.

chekkada o'z tinchi-yu oromini o'ylab, pastkashlarcha yashashdan or qiladi, o'z ixtiyori bilan rotaga qaytadi. "Men bu urushda nimalar sodir bo'layotganini og'rinib his etgandim. Umuman, inson hayoti, o'y-orzulari kimningdir qo'lida o'yin-yuk bo'layotganini anglayotganing sayin yuragingda pishayotgan cheksiz nafrat tuyg'usi ich-etingni sirqiratib yemiradi. Bu birgina mening hayotim, o'y-orzularimning uvol bo'lishi emas, balki millionlab kishilar taqdirining yovuzlik komida toptalishi, orzu-armonlarining chilparchin qilinishi edi. Yigirmanchi asr yuziga oyoq qo'yilishi – tarix sahifasiga qora rang chaplanishi edi. Keyinchalik bu dog' besanoq ko'ngillarda mangu bo'lib qolishini o'sha zahotiy oq payqash imkonida emasligimni karaxtu lol bo'lib qurol tutganlar, odam o'ldirishganlar yaxshi bilishadi. Urushda odamiy qiyofada bo'lmaysan, hammasi tugagachgina sen ham inson ekanliging, haqoratlanganing yodingga tushadi. Xotira azobi, degan bir og'ir dard hayotingning eng so'nggi lahzalarigacha senga azob beraveradi, anglaysanki, urush doim g'alaba qilib kelgan, urushda qatnashganlarning bari mag'lub bo'lib dunyodan ko'z yumadilar..."¹

Yozuvchi jang manzaralarini ko'z o'ngimizda suratlantirar ekan, unda ishtirok etayotgan odamlar – askarlar ruhiyatini, ma'naviy fojiasini tasvirlashga kirishadi: "Biz istak xohshi vatan niqobini kiygan davr siyosati qo'lida ezg'alanayotgan sho'rpeslonalar edik, xolos. Bizni sharmandalarcha aldadilar, ruhan majruh qilib tashladilar, endi bilsam. Qisqasi, Kremlning gunohlari bo'yi barobar yuksalayotgan edi. Negaki, bu yoqlarda endigina oq-qorani taniyotgan yigitlar qirilayotgan edi, tiriklar ham o'lib bo'lgan edi!..."¹

Chorikorda gunohkor-u begunoh odamlarni ayovsiz qirayotganimizni har bir askar bilib turadi, bu galgi yurishimiz chindan ham dahshatli edi. Artelleriya tingach, osmonda samolyotlar uchdi. Dunyoni larzaga solib, hozirgina

¹ Norqobil Q. Daryo ortidan yig'i. Qissa. T.: Sharq. – 2006. - 53-bet

¹ "Daryo ortidagi yig'i. Qissa. 57-bet

xonavayron qilingan, yer bilan bitta bo'lgan qishloqlar ustidan tonnalab bombalar tashlandi. Aqlbovar qilib bo'lmas holdagi qirg'in-qiyomat bo'layotgandi. Shu dahshatli manzaraning barini odamzot amalga oshirayotgani tasavvurga sig'masdi... urushda bir yoki o'nlab emas, yuzlab, minglab, o'n minglab odamlarning hayoti bir lahzadayoq intiho topadi. Urush uchun inson umrining tugashi; tiriklik bulog'ining qurishi hech qachon fojia sanalmaydi. Urush – o'lmak demakdir...²

Yozuvchi urush dahshatini tasvirlash orqali uni "tashkil etgan" Sho'ro tuzumi va siyosatini fosh etish yo'lidan bormaydi. O'z xalqini afg'on xalqi kabi o'limga, halokatga yetaklagan urush ekanligini qahramon kechinmalari orqali anglatadi. Ayni damda, yozuvchi shunga alohida urg'u beradiki, insoniyat boshiga tushgan fojialari har qancha dahshatli bo'lmasin, ularning yaratuvchisi inson bolasi ekanligini anglash undan-da dahshatli! Odam bolasi fashizmni, urushni, atom va yadro kabi qiron keltiruvchi dahshatli bombalarni ixtiro etdi, yaratdi, amalga oshirdi. O'zi kabi millionlab odamlarni qirdi, yer yuziga balo, ofat dahshatlarini yog'dirdi, yovuzlik oxir-oqibat, o'z yaratuvchisini mahv etdi! Urush, zulm, dahshat, fojea, qirg'in keltirdi, insoniyat aql-u idrokiga bo'ysunmay, uni o'z komiga tortdi; dunyoni, inson borlig'ini yovuz kuch bo'lib qurshab oldi! Endi esa yovuzlik insoniyatni o'ziga bo'ysundirish arafasida.

"Daryo ortidagi yig'i" nolalari insoniyatni ana shunday so'nggi Qiyomatdan ogoh etmoqda! Insoniyat yovuzlik qa'riga botmagan so'nggi kuch-qudratini jamlab, ongu-tafakkurining zabt etilmagan nuqtalarini ishga solib, yovuzlikka qarshi mardona kurashsa, ohirgi imkoniyat qo'ldan boy berilmasligi mumkin. Aks holda, daryo ortidagi, Afg'on, Iroq va boshqa hududlarda to'kilayotgan qon, ko'z yoshlari insoniyat va bashariyat ajaliga aylanishi muqarrar! Yozuvchi o'z asari bilan qabohat-u razolat botqog'ida bijg'ib yotgan bu

² "Daryo ortidagi yig'i. Qissa. 60-bet

kir dunyoni tozalash, urush quchog'iga o'z hohish-irodasi bilan o'zini tashlashga chog'lanayotgan odamlarni yaqin o'tmishning motamsaro yig'isini, ohu nolalarini bir zum tinglashga chorlaydi. Begunoh o'lim topgan navqiron yigitlarimiz ruhiga bizni yaqinlashtirishga, ular kechirgan azoblar dahshatini his qildirishga erishganligi adib mahoratidan darak beradi.

Adib qissalarining yetakchi konsepsiyasini inson hayoti, yashash mazmuni, boqiylik, azal va abad, hayot va o'lim kabi masalalar tashkil etadi. Inson o'z hayotining qadrini o'lim bilan yuzma-yuz kelgandagina tushunib yetadi. Uning naqadar shirinligi va omonat ekani, shu bois uni bekorchi ishlar bilan besamar o'tkazmasdan, sermazmun hayot kechirish lozimligini anglaydi.

Adibning "Kulib tur, azizim" qissasining qahramoni – shoir. U afg'on urushi qatnashchisi. Urushdan orttirgan asorat, kasalliklari keyinchalik hayotdagi nohaqliklarga qarshi haqiqat deb kurashish jarayonida kechgan ko'p qiyinchiliklar sababli og'ir ahvolda kasalxonaga tushib qoladi. Shifokorlar uning hayotini saqlab qolish uchun bor imkoniyatini ishga soladilar. Ammo asosiy gap shoirning qay ahvolda shifoxonaga tushib, qanday sog'ayganida emas, balki, shu vaqt mobaynida uning ruyhiyati, ongi-shuurida yuz bergan o'zgarishlarda.

Shifoxonada davolanish jarayonida uning fikri-hayolini ana shu urush fojialari, jang maydonida kechgan xunrezlik manzaralari egallab oladi. Ko'zini yumgan hamon bu dahshtli manzaralar shoirni tinch qo'ymaydi, u alahsiray boshlaydi. Sirdan qaraganda bu bemorlarga xos bo'lgan oddiy holatday tuyuladi. Lekin voqealar tafsiloti bilan tanishib borar ekanmiz, inson shuncha azob, qiynoq, dard bilan qanday yashay olishi mumkin, -degan savol tug'iladi. Asarda bunday fojiali holatlar o'zining haqqoniy, shafqatsiz realistik tasviriga ega. "Kazarmada ikki kun dong qotib uxladim. Shkafimda jangga chiqqan kezlar beriladigan "quruq ovqat" ...bor edi. Ovqatlanaman, uxlayman. Ayqash-uyqash manzaralar paydo bo'ladi. Nina Grigorevnaning qon sizgan chehrasi, o'sha o'lik

askarlar qiyofasi, yaralangan mayor, yig'layotgan leytenant, son-sanoqsiz texnikalar, qurol o'qталgan, sallali mahalliy kiyimdagi afg'onlar hayolimdаn bir-bir o'tar, uyqu aralash kimlar bilandir gaplashardim. Bu judayam og'ir hol edi".¹

Bu urush maydonidan qaytgan askarning dardchil ruhiy holati, ruhiy charchoqlari ifodasi. Urush fojealari ko'z o'ngida sodir bo'lgan dahshatli voqealar askar xotirasidan o'chmaydi. Naqadar dahshatli holat. Buni his qilish uchun o'sha dahshatlarni boshdan kechirmoq kerak. Qissada qahramon xarakterini, hayotiy prinsiplarini yaqqol namoyon etuvchi epizodlar juda ko'p. Asar voqealari qahramon o'y-hayollari orqali kechadi. Uning o'ylari tartibsiz, ayqash-uyqash. Ayni usul asar qahramonining ichki tuyg'ularini, qalb iztiroblarini, ruhiy holatini ishonarli, haqqoniy tasvirlashda katta ahamiyat kasb etgan. Qissada urush tafsilotlari juda yorqin aks ettirilgan. Ularni o'qir ekansiz urush va tinchlik, qadr-qimmat, urushning oddiy xalq boshiga solgan ofatlari, ota-onasiz qolgan yosh-yalang bolalar taqdiri mulohaza qilishga undaydi. Asarda jang maydonida kechgan bir voqea tasviri xarakterlidir. Dushman bilan ayovsiz otishma tufayli juda ko'p askarlar xalok bo'ladilar. Rinat do'sti-quroldoshining o'limini ko'rib jazavaga tushadi va o'ch olish maqsadida norasida Afg'on bolasiga qurol ko'tarib uni o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo shoir bunga yo'l qo'ymaydi. Chunki bu bema'ni urush, kattalarning ahmoqona manfaati-nafsi tufayli boshlanagan. Siyosiy o'yinlarda bu bolakayning aslo aybi yo'q. Shoirning ko'z oldiga o'sha urushda nobud bo'lgan har bir begunoh ayol, bolalar keladilar, oldida o'zini gunohkor hisoblaydi, umri davomida urush qurbonlari uni tinimsiz ta'qib etadi.

Yozuvchining mahorati shundaki, asarda urush fojialarini ochish bilan birga, tinchlik zamonidagi kundalik turmushda uchraydigan vijdotsizlik, ikkiyuzlamachilik, irodasizlik va o'z yashash prinsipiga ega bo'lmagan qo'g'irehoq odamlar fojealarini ham tasvirlagan, ularni fosh qilgan. Shoir urushdan qaytadi, oliygohda ta'lim oladi, o'qish davrida turkum She'rlari bilan ustozlari va talabalar orasida hurmat-e'tiborga sazovor

bo'ladi. Keyin televideniya teleboshlovchi bo'lib ishga kiradi. U xalqni aldashni gunoh deb biladi va xalq manfaatini ko'zlovchi, jamiyatda mavjud kamchilik va nuqsonlarni fosh qiluvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Ammo mustaqillikka erishilganiga ancha muddat o'tgan bo'lsa-da hali ham sho'ro davri unsurlaridan xalos bo'lolmagan boshliqlar tanqidiga uchraydi. Bir kuni shoirdan betob bo'lgan jurnalist o'rniga jonli efirda intervyu olishni iltimos qilishadi. Bu suhbatda jurnalist ham, mehmon ham mavzu yuzasidan haqqoniy fikr yuritishadi. Ammo shu harakatlari uchun rahbarlardan ogohlantirish oladi. Yozuvchi qissada nafaqat urush fojeasi, balki qo'rqoqlik, nafsga mutelik, yalovbardorlik jamiyatning rivojlanishiga to'siq ekanini yaqqol misollar orqali ko'rsatib bera olgan. Bu shaxs fojeasi. Inson yakka tug'uladi, ammo jamiyat-odamlar orasida yashaydi, ulardan nimanidir oladi, ularga qaysidir ma'noda ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday "so'qirlik"ka qarshi imon-e'tiqod, vijdoniylik orqali kurashmoq lozim. Xalqimizda "birniki mingga, mingniki tumanga" degan naql bor. Darhaqiqat, mas'ul lavozimda ishlaydigan shaxsning har bir boshqaruvi butun boshli jamoaga xoh salbiy hox ijobiy bo'lsin o'z ta'sirini o'tkazadi.

Asarda ana shunday rahbarlardan yana biri ko'rsatilgan. Bu Burxonov obrazidir. U shoirga qarzga pul beradi, evaziga, o'z manfaati yo'lida bir rahbarning aybini berkitish, yolg'on gapirishni taklif qiladi. Shoirning vijdoni but. U bunday noma'qulchilikka qo'l urmaydi. Burxonov Afg'ondagi kapitan Kupringa juda o'xshaydi. Kuprin kaltabin, maqtanchoq va dovdir. Uni barcha askarlar quruq gap-so'zga o'chligi, do'q-po'pisa va rasmiyatchilikdan boshqasini bilmagani uchun yomon ko'rishardi. Bir kuni rotani Kuprin boshqaradi va uning qo'rqoqligi hamda kaltabinligi tufayli rota talofat ko'radi. Kupin va Burxonov bo'y-bastda ham fe'l-atvorda ham o'xshash: ikkisi ham baqaloq, maqtanchoq, qo'rqoq. O'zgalarni xavfli yumushga buyurib o'zlari chekkaga bekini oladilar.

Asarda insonga xos buqalamunlik har doim – urush yoki tinchlik davrida ham birdek o‘zini namoyon qilaveradi, degan haqiqat shu tariqa aks ettiriladi.

Shu bois asardan o‘q-ildiz bo‘lib insoniylikni saqlash va to‘g‘ri yo‘ldan adashmaslik uchun esa imon, iroda, ishonch bo‘lmo‘g‘i va albatta yoningda munosib hammaslaging, sen ishonadigan, suyanadigan inson, do‘stlarining bo‘lmo‘g‘i darkor, degan g‘oya o‘tadi. Bosh qahramonning ana shunday tirgagi bor. U shoirning umr yo‘ldoshi – rafiqasi. U shoirning yahshi-yomon, baxtli va baxtsiz kunlarida doimo yonida: dardiga malham, atrofida parvona bo‘lgan. Shoirning haqiqiy haloskoriga aylangan. Shoir rafiqasi-do‘stidan kuch-quvvat, hayotga ilhom oldi. Hayotda egildi, ammo sinmadi; qoqildi, lekin yiqilmadi.

Qissada shoir o‘zining bor xarakteri bilan namoyon bo‘ladi. U urush dahshatlarini kasalxonada yana bir bor boshidan kechiradi. Biroq shoir uni yengib o‘tdi. Kasalxonani rafiqasi hamrohligida tetik ruh bilan tark etdi.

Ushbu qissadagi yozuvchi konsepsiyasi urush manzaralarini yoritishdan iborat emas, balki urush inson tomonidan amalga oshiriladigan eng ulkan jinoyat ekanini ko‘rsatish. Hayot mazmuni nafsga qullik emas, unga qarshi kurashib yashash; tinchlik, mehr-muhabbat va oqibat, o‘zlikni saqlash va insonparvarlikdan iborat ekanini tasvirlashdan iborat. Demak, yosh qissanavis urush mavzusi tevaragidagi fojiaiviylikka to‘la hayotiy hodisalarni xilma-xil taqdirlar timsolida badiiy gavdalandirib, fojiaiviylik “qirralari”ni bugungi zamon nafasi, globallashuv davri tafakkuri nuqtai nazaridan badiiy talqin etishga erishganligi quvonarli. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam so‘zlari bilan aytganda: “Ha, inson o‘zi mansub bo‘lgan davr bilan yonma-yon yurmas, zamon nafasini o‘z hayotida his qilib yashamas ekan, o‘zini baxtsiz sezaveradi”.

Shaxs jumbog‘ini “Raqobat” nomli qissasida o‘ziga xos tarzda badiiy talqin qilishga intilib, Ilhom Zoyir zamonaviy “tadbirkor” obrazini yaratgan. Shunisi diqqatga sazovorki, yosh

qissanavis bugungi zamondoshlarimiz qiyofasini, orzu-
intilishlarini, o'y-hayollarini bosh qahramon – “men” qiyofasi
orqali gavdalantirishga harakat qilgan.

Oddiy qishloq bolasi bo'lsa-da, “zuvalasi pishiq”
bo'lganidan “tegirmondan butun chiqadigan” “men” “Vaqt
aqchadur, g'ofil bo'lsang qochadur”, - deb xisoblaydi. O'qishga
kirishga muvaffaq bo'lolmagach, tog'asi bilan shaharga ketadi.
Uning korxonasida qorovul bo'lib ish boshlaydi. Tog'asining
“tarbiyasi” ta'sirida “men” o'z yashash falsafasini yarata
boshlaydi: “Qanchalik odmi yoki sipo ko'rinma,
atrofdagilardan asl basharangni yashirolmaskansan. Ayniqsa,
o'zingni halol-pok, vijdonli, aqilli ko'rsatishga urinma,
tirikchilik dardida o'zini o'qqa-cho'qqa urganlar sening
ustingdan kulisharkan. O'zi emas, o'zgaga bermaslar hamma
zamonlarda kulguga qolgan. Atrofigdagilar nima ish qilsa, sen
ham shularga taqlid qilmasang, to'dadan ajralib qolishing
mumkin. Men jamoaga qayishdim. Bitta-yarimta kalish olib
chiqib ketayotganlarini ko'rsam, ko'rmaganga soldim, o'zimni.

Saxiy bulut boqqa yomg'ir quyadi,

Yomg'ir ko'rgan bog' albatta ko'karadi”.¹

Xalq yozuvchisi Tohir Malikning “Tblis devori” nomli
qissasi inson dunyosi, iymon- e'tiqodi, unga berilgan hayot va
soniyalar qadri haqida o'ylatadi. Odamlararo mehr-oqibatning
ko'tarilishi qanday ma'naviy talofatlar keltirishi qator obrazlar
ruhiyati orqali yoritiladi. Ota-ona vafotidan keyin nima uchun
farzandlar ko'nglidan raqobat, hasad, kek, adovat bunchalar
tez va chuqur o'rin egallaydi? Ayrim jigarlar xatto yuz
ko'rmas bo'lib ketadilar? Nahot ular ota-onalari bu
ko'rgiliklardan azob chekishini o'ylamaydilar? Yozuvchi
kitobxonga ayni savollarni To'lqin va Robiya, Sattor bilan
Obodxon hayotlarining ichki manzaralarini tasvirlash orqali
ko'ndalang qo'yadi. Ularning amakisi Ibrohim bobo tilidan

¹ Ilhom Zoyir. “Raqobat” // “Sharq yulduzi” 1-son.

aytiladigan haq soʻzlar, rivoyatlar shunchaki oddiy choʻpchak yoki nasihat emas, imon faryodi ekanini his qilamiz.

“Bu devorga chidasa boʻlar, vaqti kelib oʻzi yemiriladi yoki boshqa bir sabab bilan olib tashlanar. Lekin aka bilan ukaning yuraklari orasiga devor tushsa, yomon juda yomon.... Hovlini gʻisht devor ajratsa, yurakni bemehrlik devori parchalab tashlaydi. Bilib qoʻylaring: bu devor koʻngillaringga picha orom berganday boʻlar-u, ammo qiyomatdagi javob ogʻir kechadi. Shuni ikkovlarning bir ahllashib koʻringlar. Xudodan qoʻrqmasalaring, qiyomatdan qoʻrqmasalaring, hech boʻlmasa, bolalaringdan uyalinglar”.² Asar muqaddimasidagi manzara tasviri qabristonga xos sukunataro qay bir qabr tepasidan shaffof nur, qay biridan “kirlangan dud” koʻtarilayotganday tasavvur uygʻotadi, goʻyo kitobxon dud oʻrlayotgan qabr ostidan hasrat nolalarini eshitganday boʻladi:

- Dadasi, bolalarimiz nega bemehr boʻlib qoldilar?

- Bilmayman, onasi.

- Yuz koʻrmas boʻlib ketishmasa –ya?

- Endikech, onasi...

- Bir qoringa siqqan, katta hovliga sigʻishmaydimi?

- Taqdir shu ekan, onasi.

- Taqdir? Goʻrdagi azoblarimiz kammidi?

- Agar hovlini ikkiga boʻlib devor olishsa ruhimiz battar nimta-nimta boʻlmaydimi?

- Taqdir onasi... bizning mukofatimiz shu ekan....

Goʻrdan azobli nola eshitaladi... Nola choʻkkayib turgan qabr toshlarga urinib, aks-sado beradi-da, soʻng goʻyo qabristonni silkitib yuborganday boʻladi. Goʻyo qiyomat boshlanganday....”

Oʻtganlar ruhining azobi va bezovtaligi sabablari bu dunyodagi aka va uka oʻrtasidagi ziddiyatlar tufayli kechishi; bu ziddiyatlar markazida ilm yoʻlidan voz kechib, jaholat yoʻlini tutgan uka, iblislar dunyosini mahv etgan rafiqasi

² Tohir Malik “Iblis devori” T.: Sharq. -2006. 3-bet. (Barcha koʻchirmalar shu nashrdan olindi).

Obodxon (odamlar unga Ofatxon deb nom bergan) turishi, uning to'riga tushgan, kirlangan, xarob ko'ngil mayllari, ojiz istaklari, maqsadlari turishi anglashiladi.

Nodonlik tufayli Sattor hovlini bo'lishga, o'rtadan devor olishga kirishadi, oqibatini esa yana nodonlik tufayli o'ylamaydi, o'ylashni istamaydi. Qahr-g'azab bilan aytilgan ukaning so'zlari go'yo o'qqa aylanib, uchib borib qabrstonga, ota-ona go'riga sanchilgan edi.

“Bu onda Sattor vahimali tush ta'sirida to'lg'anayotgan edi. Bir qarasa, devor bitganmish. Biroq.... devor ostida adasi bilan oyisi yotganmish.

Sen devorni ko'kragimiz ustidan qurdirding. Ezilib ketyapmiz, - deb ingrarmish oyisi.

- Bunaqada, o'ldirib qo'yasan, - dermish adasi.

Sattor jon holatda devorni buzayotganmish.” (169-bet)

Devor tiklash uchun terila boshlangan g'ishtlar xuddi zilzila bo'lganday, ag'anab tushardi. Devor tiklashga kelgan ustalar bu hodisadan hayratlanib, xosiyatsiz joy ekan”, -deya qaytib ketishadi.

Xotining “uy-joy kenja o'g'ilga qilingani haqidagi xat borligi, bu xatni akasi ataylab yo'qotib yuborgani” haqidagi bo'xtonlarni miyasiga mixlab tashlangan Sattorga tushida otasi xat qayerda ekanini aytib ketadi. O'z uyidagi javon ortidan topilgan vasiyat xatini o'qib, lol qoladi:

Otasi ularga mehri – oqibatni meros qilib qoldirgan edi.

“Iblis devori”ning qulashiga hali ko'ngil olami pokiza, iymoni kirlanmagan Salohiddin, Badriddin va Oftobxon ham ma'lum darajada sababchi bo'ladilar. Uydagi ota-onasi, amakisi oilasi bilan bo'lib turadigan janjallar, “bombalar portlashi” joniga tekkan Salohiddinning uyga oylab kelmay qo'yishi; Baxriddinning bu mojoralarga o'z munosabatini ijodi, kuy-qo'shiqlari, ta'sirchan She'rlari bilan bildirishi; Oftobxonning esa isyon ko'tarib, o'zini o'ldirishga shaylangani... bularning bari kattalarni sergaklantirdi, so'qir ko'ngil ko'zlarining ochilishiga sabab bo'ldi.

To'g'ri asar xotimasida yozuvchi voqealar yechimini kitobxonlar hukmiga havola qilganini ta'kidlagan. Har holda biz "Iblis devori"ning qulashi va iymonga qaytish orqali odamlar hidoyat yo'lini topishlarini istaymiz. Ushbu qissa orqali adib o'z kitobxonlarini shu yo'l sari chorlaydi: insofga, poklikka, iymonga da'vat qiladi. Asarning badiiy- ma'rifiy qimmatini ham shunda deb o'ylaymiz.

"Ozod inson haqida qo'shiq" xujjatli qissasi esa XX asr adabiyotining nodir durdonalaridan biri "Farg'ona tong otguncha" romani muallifi Mirzakalon Ismoiliiy hayotining eng og'ir yillari haqida hikoya qiladi.

Qissa aniq yillar, sanalar va voqealar orqali bayon qilingani uchun muayyan darajada "hujjatli" dalillar asosidagi hayot yo'lini eslatadi.

Tabiatan serg'ayrat, jikkakdan kelgan, irodali bu odamning xasta holda yotishi, o'z umrini bir-bir ko'z oldidan o'tkazishi kitobxonda unga hamdardlik, hamfikirlik kayfiyatini uyg'otadi. Asar voqealari metin irodali, murakkab hayoti davomida ko'p adolatsizliklarni, "do'stlar" xiyonatini boshidan kechirgan adib Mirzakalon Ismoiliiyning ruhiy xolatiga monand tasvir bilan boshlanadi: "Qish o'zining avvalgi hovuridan birmuncha tushib, bahor siqig'i bilan chekina boshlagan bo'lsa ham, hanuz o'z yo'llarida alam zaxrini sochib boradi. Uning achchiq izg'irinlari iliq bahor yoillariga ba'zan hamla qiladi, tamom qo'zg'alib, kuchga kira boshlagan dilkash hayotni bo'g'moqchi bo'ladi. Lekin borliqni uyg'otgan bahor o'z o'jarligini qo'ymaydi.

Bahor O'jar.

Bahor nafasida xuruj qilayotgan xastalik o'jar.¹

"Bemor sirtidan qaraganda xushsizdan ko'rinsada, siyrati-la yashamoqda, ruh kengliklarida kezmoqda edi. "Orzu o'sha yillar bo'g'ishgan bo'lsa-da, kemirishlardan, yemirilishlardan qutilishni, sof havoni hanuzga qadar istaydi"...

¹ Tohir Malik Ozod inson haqida qo'shiq. T.: Sharq — 2008. —156-bet

“Darchadan tushib turgan zaif yorug‘lik go‘yo uning orzulariga o‘xshaydi. Sovuq va ochlikdan dir-dir titrab, Darxondagi bog‘larini eslaydi... Tunda so‘roq qilish uchun olib ketayotganlarida esa qorong‘u yo‘laklardan lahat sari ketayotganday his qiladi, a‘zoyi badani muzlab qoladi.”

“Tergov jarayoni nima qilib bo‘lsada yozuvchini “o‘z aybiga iqrorto‘lishga” “xalq dushmani” va “Millatchi” sifatida amalga oshirgan “ishlarini yozib berish”ga undashdan, bunga erishishdan iborat edi. Ammo mahbus qaysi “aybi”ni tan olishni, qaysi gunohi uchun bunchalar jabr chekayotganini bilmas edi.”

Turmaning bir kishilik siqiq xonasida xavotirlar iskanjasida o‘tirgan Mirzakalonning qo‘li tolib, qalamni qo‘ydi. Nafis adabiyot namunalarini yozishi kerak bo‘lgan bu qo‘l, bu qalam, hayot haqiqatlarini o‘ylab, mulohaza qilishi lozim bo‘lgan bu ong qandaydir pastkash yumushlar bilan band edi. Mirzakalonning yuragi bu turma siqiqligidan emas, shu tuban ishlar bilan band ekanidan azob chekardi.(103-bet) O‘z azoblarini esa “Farg‘ona tong otguncha” romanini yozish jarayonida birmuncha yengillatishga urinardi. Bu haqda u o‘z muxlislaridan birining maktubiga yozgan javobida quyidagilarni bayon qilgan ekan: “Kitobni o‘qib turib ho‘ngrab yig‘lab yubordim”, deysiz. Neajab, yerga qanday urug‘ tashlasangiz, hosili shunday b‘ladi... men bu kitobni yoza turib qanchalar yig‘laganman, qanchalar qon yutganman!..Qo‘ying, boshqa tafsillarning qorasi o‘chsin! Bu shunchaki bir kitob emas, yo‘q, shaxsga sajda davrining qora kunlarida ming azob, ming to‘lg‘oq bilan tug‘ulgan g‘arib xilqat. Ha, xilqat!... Bu mening yig‘lay- yig‘lay topgan bolam! (135-bet)

Asarda har qancha azoblar-u tepkilashlarga bardosh berib, vijdonini sotmagan, do‘stlariga xiyonat qilmagan metin, mard inson qiyofasi namoyon bo‘ladi;uning iztiroblar iskanjasidagi ruhiyatini, o‘y-kechinmalarini kitobxon his qiladi, ko‘ziga yosh oladi..

Qissa qahramoni – xalq yozuvchisi Mirzakalon Ismoiliiy o‘z xalqining sodiq farzandi, vijdonli inson sifatida mislsiz uqubatlarni boshidan kechirgan bo‘lsa-da, vijdoniga qarshi ish qilmaganligi – barhayotligi sababi ekanini anglaymiz.

Filologiya fanlari nomzodi Tohir Shermurodov Tohir Malikning “Shaytanat” asari muayyan kam-ko‘stlaridan ko‘z yummagani holda o‘zbek nasridagi yangi va to‘ng‘ich dedektiv asar ekanini alohida ta’kidlab: “Yozuvchisining uslubi, shar’iy nuqtai nazari, qahramonlarning xarakter rivoji o‘ziga xosligiga” diqqatni qaratgan edi: “Shaytanat” – san’atkorona nom- topildiq, - deb yozadi olim, - u katta – kichik mafiya to’dasi yoki alohida jinoyatlar dunyosinigina emas, odatiy muhitdagi turfa illat, turfa qilg‘uliklarni, bandalar adashuvlari sababiyati va ziddiyatining nokasliklarini qamrab, anglata olguvchi tushuncha... “Shaytanat” muallifining shar’iy dil nigohi tasvirning barcha – barchasini qamrab oladi. Hech bir voqea, hech bir qismat, hech qaysi kechinma mushohada, g‘oyibiy tasavvur, hotima, yechim bu nuqtai nazardan chetda qolmaydi. Oyatlar, hadislar, tushlar, rivoyatlar, She’riy parchalar ham jam bo‘lib shu ruhni asarning yagona joziba qonuniyatiga aylantirgan. Bu ruh muayyan umumlashmalarga ham ziynat, tarovat baxsh etadi,¹ - deb yozganida asarning bosh xususiyati va yutug‘ini ifodalagan edi.

Darhaqiqat, “Savohil” dan “Shaytanat” ga qadar uslubi bilan mahorati sayqal topib borgan yozuvchi keyingi qissasida “mafiya” deb atalmish yovuz kuchlar timsolini ruhiyat dunyosidan turib tasvirlay olgan. Asadbek qiyofasi voqealar oqimida asta-sekin yorqinlik kasb etib, butkul “qora” rangni emas, turfa ranglar uyg‘unligini o‘z dunyosi ila namoyon qiladi; ko‘z o‘ngimizda o‘zgarib boradi, yovuz kuchlardan, ular dunyosidan uzoqlasha boshlaydi.

Uni hech kim hidoyat yo‘liga sola olmaydi. Bu yo‘lni u adashishlar, yovuzliklar, xatolar, yo‘qotishlar, azoblar ichida o‘zi topib boradi. Shaytanat dunyosidan bilib-bilmay uzoqlashadi. Xatto kasalxonadan chiqib, albatta namoz o‘qiyman, masjidga har kuni boraman, deb xayoldan o‘tkazadi. Ammo boshqa yumushlar ichida buni unutadi. Boshqacha bo‘lishi esa kitob xonni xayron qoldirgan, qahramonni esa

¹ Tohir Shermurodov. Jozib Izxor izlab. T, “Milliy kutubxona” nashri, - 2009. – 129-130-betlar.

tabiiylikdan, asarni bo'lsa, hayotiylikdan uzoqlashtirgan bo'lardi. Zotan, Asadbek qiyofasi, ruhiyati, xarakteri, ishonchmaslagi, kurash – intilishlari yo'li silliq, birdan o'zgaruvchan emasligini kitobxon allaqachon payqagan edi. Asadbek musibatlarining keti uzilmaydi. Asadni hayot sinovlari haqiqatga, xaqqa yaqinlashtiradi.

Qissadagi rang-barang qiyofalar: Qarimulla, imom Sobitxon, Asadbekning qadirdoni Jalil, Muslima, Manzura va boshqa ko'plab obrazlar inson surati va siyrati betakror, go'yat sirli, ajib nurli, xatto jirkanch, qo'rqinchli ekanini faxmlatadi. Asarga xos shiddatli dramaturizm goh sokin o'ychanlik, goh mushohada- muhokama, goh qaltis holatlar ruxiga singishib, asar voqealari oqimini muvozanatdan chiqaradi. Shaytanat olamini tasavvur ettiradi, sergaklantiradi, titratadi, hayajonga soladi, iztiroblar girdobida to'lg'onishga mahkum etadi. Kitobxon Asadbekning musibatlarini yurakdan his qiladi. Uning: "Agar yuz beradigan voqealarning evaziga tinchligimni olgan bo'lsang, meni gado qil, ammo bolalarimning baxtiyorligini ber, bir kecha tinchgina uxlay", - deb yaratganga tavallo qilishidan ta'sirlanamiz. Bayonchi roviy: "Namozxonlar tursa-turdi, rukuga borsa, ruku qildi, sajdaga bosh qo'yganda u ham joynomozga bosh qo'ydi", - deb tasvirlaganida ilohiy qoniqishni his qilgan Asadbek holatini o'zimizda, o'z borlig'imizga tuyamiz.

"Shaytanat" o'zbek detektiv qissachiligida shakliy yangichaligi bilangina emas, goyaviy salmogi jihatidan ham diqqatga sazovor asar sifatida baholandi. Zotan, hidoyat yo'lidagina har turli adashuvlardan qutulib yashamoq, najot topmoq mumkin...¹ Uslubiy o'ziga xosliklar o'zbek adabiyotida ijodkorlarning olam manzaralari va inson dunyosini, surat-u siyrat qiyofalarini yangi jihatlardan idrok etib, qalb ko'zlari ila ko'ra olganliklari natijasi sifatida zohirlashayotgani qissachilikka xos alohida tamoyil ekanini ta'kidlaymiz.

¹ Tohir Shermurodov. Jozib Izxor izlab. T.: - "Milliy kutubxona" nashri, - 2009. - 131-betlar.

O'ZBEK DRAMATURGIYASI NAMUNALARI ASOSIDA YOSHLARDA INSONIY SIFATLARNI TARKIB TOPTIRISH

Milliy tafakkurdagi o'zgarishlar she'riyat va nasrda bo'lgani kabi hozirgi o'zbek dramaturgiyasi rivojiga ham ta'sir ko'rsatdi. Istiqlol davrida yaratilgan yigirmadan ortiq sahna asarlarining ichida Usmon Azimning "Bozor", "Kunduzsiz kechalar", Erkin A'zamning "Orolmomo", "Jannat o'zi qaydadur", Erkin Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon" tragediyasi, Ilhom Hasanning „Bir kam dunyo“, Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy" kabi asarlaridagi dramaturgiya yutuqlari sifatida baholanadi. "Xotinning eri", "Erginamning orzusi", "Qalliq o'yin", "Super qaynona" singari badiiy zaif asarlar esa "sahndan tushmay" hanuz tomoshabinlarni yengil-yelpi, andishasiz ifodalar bilan kuldirishga didini buzishga ta'sir qilyapti.

Bugungi o'zbek dramaturgiyasi haqida gap ketganda she'riyat yoki nasrga xos jiddiy o'zgarishlar, tendensiyalar u qadar yaqqol ko'zga tashlanmaganiday tasavvur uyg'otadi. Zotan, birgina o'zbek she'riyatida yuz bergan ham shakliy, ham uslubiy o'zgarishlar tufayli XXI asr yangi o'zbek she'riyati shakllanganligi yirik adabiy hodisa hisoblanadi. Miqdor jihatdan e'tiroz uyg'otmaydigan dramaturgiya mahsulotining sifatini ko'tarish badiiy yuksak asarlar yaratilish shubhasiz ijodkorlarga ularning mahoratiga bog'liq. Yaxshi yashashni, farovon turmushga intilishni ta'qiqlab bo'lmaydi albatta. Chet ellarga chiqib mablag 'orttirib kelish ham olqishga loyiq tashabbus. Qolaversa, erkin dunyoning qonunlariga ko'ra qaysi yurt, qay mintaqada umr kechirmoq- har kimning shaxsiy ishi. Lekin qayerda, qay manzilda dunyoga kelmoqlik, qay go'shada kindik qoni to'kilmog'i- bu endi bandasining shaxsiy ishi emas, bu taqdiri azal, qismat. Ana shu qismat ro'y bergan makonni Vatan deyдилar. Vatan-muqaddas, uni sevmok, unga sadoqat iymondandir. Aksincha, uni qadrlamaslikni, sinov kunlarida

uni tashlab, hayoliy jannat qidirib yurganlarni nima deb atamoq kerak? Ertaga bir kun Vatan qaddini rostlaganida qozonning boshida paydo bo‘lib qolmasmikanlar?” (“Jannat o‘zi qaydadir”).

Yozuvchining samimiy va dardchan mulohazalari barchamizni hushyor torttiradi, shukuru qanoat ila yashashga undaydi. Xolbuki, yozuvchi kuyinib yozganday, afsus, shu hisni boy berdik. To‘plamda muallifning yozuvchining bugungi hayotimiz va zamondoshlarimiz qiyofasini badiiy, falsafiy-publitsistik ruhda tahlil qiluvchi o‘y-mushohadalari ma’naviy hayot muammolariga bog‘lab yoritilgan.

Asardagi yetakchi personajlar: domla (sobiq markschi olim, akademiklikka davogar, e’tiqodidan qaytmaydigan odam; 60-65 yoshlarda); xonim (domlanning xotini, tijoratchi); shogird, boy ota (Rahmatulloh Jiydaliy, amerikalik o‘zbek); Komilaxon (domlanning qizi); Melis (Melivoy domlanning asl merosxo‘ri); Asal xola (oqsoch kampir); Oq kaptar (operachi qiz- Melisning qaylig‘i, unvonparast); Sardor, Luizaxon (Klaraning erka qizi); er-xotin¹.

Asar voqealari tijoratchi Xonimning navbatdagi savdo natijasidagi hisob-kitob o‘tirgan holatidan boshlanadi. Xonaga mast-alas o‘g‘lining kirib kelishi bilan voqealar o‘zgacha tus oladi. “Mustaqillik ketdi! Ozodlik ketdi!” deb jar solgan Melisning mashinasi yukxonasidan sirg‘alib tushgan “Oq kaptar”-notanish qiz hammani hayratga soladi. Domlani uyiga “oshbop” xarajat bilan kelib “Fan doktori” darajasini olish va shu yo‘l bilan biron mansabga ilinib olish payida bo‘lgan Tursuniy qiyofasi ustoz bilan diolog-suhbat orqali ochib beriladi. Dissertatsiya yozib berishi va ilmiy daraja olib berish uchun “har ishga tayyor” bu “uddaburon olimcha”ni “Fan nomzodi” qilgan ham shu domlasi edi. Ammo, Sho‘ro zamonlari o‘tib, yurt mustaqilligi ta‘minlangach, “domla”ning davridan, yozgan

¹ Erkin A‘zam. Jannat o‘zi qaydadir. T.: Sharq. 2007. 147-221-betlar. (Barcha misollar shu nashrdan olindi).

o'nlab kitoblari eski tuzumi siyosati va mafkurasi yo'rig'ida bitilgani tufayli "eskirgan". Domla hayotini bag'ishlagan tuzum va uning g'oyalaridan voz kechilgan. Domla esa hanuz o'sha-o'sha. O'z davrini qumsaydi, o'tmishini eslab hayol suradi. Xonim kabi na u zamonga, na bu zamonga xizmat qilmagan, hech bir g'oya yo'iymon-e'tiqodni ko'ngliga tuymagan, faqat o'z manfaati, "bugun yaxshi yeb, yaxshi kiyib, yashab qolish"dan o'zga e'tiqodi bo'lmagan odamlar esa "zamonga" tez moslashib olardilar. Tursuniy va Xonim ayni jihatdan o'xshash odamlar. Har ikkalasi domlanning obro'-e'tibori soyasida yashaganlar, uning "qarzga berilgan ilmi" tufayli fan nomzodi bo'lib, kun ko'rganlar. Zamon o'zgargach, Xonim zamonaviy qiyofaga kirib, tijoratchiga aylandi. Ko'pchilikka urf bo'lganday chet ellarga savdosotiq uchun borib keldi.

Terrorchilar Vatan mustaqilligiga tahdid solgan kezlarda esa Amerikaga qochib qolishga urinadi. Hatto, domlani ham "o'z yo'rig'iga" yurg'izadi. Sirdan qaraganda domla Xonim istaganday kiyinib, u istaganday "janob" qiyofasiga kirgani bilan ko'nglida yurtiga, tug'ilib o'sgan qishlog'iga mehri ziyoda. Bu tuyg'ular domlanning Xonim bilan dialoglari orqali yorqin ifoda etilgan:

-Domla (o'ychan). Birga borib kelsak bo'lardida, kampir?

-Xonim (ensasi qotib). Qayoqqa, chol? Jiydalingizgami?

-Domla. Jiydalimizga har nechuk, To'ytepaga ketayotganimiz yo'q-ku. Dunyoning narigi chekkasi-Amerika deganlar! Shu ketish bilan qachon bu yoqqa kelamizu qachon boramiz Jiydaliga! Yoshimiz ham bir joyga boryapti. Nasib qiladimi hali, yo'qmi...

-Xonim: E, qo'ysangiz-chi, domla! Avval boraylik, joylashaylik. Balki birdan boyib ketarmiz! Amerikada shunday emish-ku: bir go'rlardan kelarmishu tezda boyib ketarmish odam!

-Domla: afsonangizni qo'ying xonim! Xazinaning og'zini ochib o'tirmagandir sizga? Jannat o'zi qayda ekan... Har

yerni qilma orzu- har yerda bordur toshu tarozu?!¹ Darhaqiqat, domla anglaganiday Xonimning “afsonaviy yurt”, “jannat” haqidagi hayollari puchga aylandi. Amerikada yuz bergan portlashlar, domlanning to’satdan Jiydalida vafot etishi tufayli Xonimning rejalari sarobga aylanadi. O’zi izlagan jannat aslida o’z yurti, o’z zamini, oilasi ekanini kech anglaydi.

Asar zamonaviy mavzuda, zamonaviy muammolar talqini, zamondoshlarimiz obrazlarini gavdalandirishga yo’naltirilgan. Domla va Xonim qiyofalarini har jihatdan jonli, ta’sirchan yaratishga harakat qilgan dramaturg Melis, Klara, Rahmatulloh obrazli talqinida biryoqlamalik, bir qadar sun’iylikka yo’l qo’ygan. Bu kamchilikni obrazlar asar g’oyasini ochishga majburan bo’sundirilganligi bilan izohlash mumkin.

Bugungi dramaturgiyada tarixiy mavzuni yoritishga yo’naltirilgan asarlardan yana biri “Sharq yuzduzi” jurnalining 2013-yil 1-sonida kitobxonlar e’tiboriga havola qilingan Xurshid Davronning “Alg’ul” pyesasi hisoblanadi.

Asarning ilk sahnasidanoq buyuk olim va mutafakkir, “Olim podshoh” bo’lish niyatida ilm-fan qudratini saltanatni idora qilish yo’liga burishni istagan Mirzo Ulug’bek gavdalanadi. Uning iztirobga to’la o’y-xayollari, anduhli so’zlari, ziddiyatli kechinmalari kitobxonni befarq qoldirmaydi. Otaga qarshi qilich ko’tarib isyon qilgan o’g’li Abdullatifni insofga chaqirish yo o’limga topshirish... nima qilish kerak? Yov tomonga birma-bir o’tib ketayotgan hiyonatkor amirlarni nima qilmoq darkor? Qanday yo’l tutilsa nobakor o’g’il insofga keladi, sotqin bek-u amirlar xiyonatiga chek qo’yiladi, qon to’kilmaydi, ulus osoyishtaligi, saltanat butunligi saqlab qolinadi? Bir tomondan Qozi kalon, Shayxulislom, amirlar, lashkarboshilar Ulug’bekdan qattiqqo’llikni, ojiz tuyg’ularni uloqtirib, shiddatli bo’lishni talab etmoqdalar. Zulmga qarshi zulm bilan, qilich ko’targan o’g’ilga g’azab bilan tig’ ko’tarib javob berishga undamoqdalar. Ulug’bek esa hamon ikkilanmoqda. O’z

o'g'lining nomardligiga, xiyonatiga ishonish...; unga qarshi urush boshlash yo pinhona o'limga mahkum etish... Qanday chora qo'llash to'g'ri bo'ladi?

“Ulug'bek: Nahot bizdan meros bo'lib avlodlarga yolg'iz adovat qolgay?! Nahot podshohlar hayotining tub mag'zi toj-u taxt hirs, zindon, kishan, fitna, quvg'in, qatag'on bo'lsa?! Nahot sohibqiron bobom yaksarhad etgan mamlakat bizdan keyin yana parcha-parcha bo'lgay?!”

Shayxulislom: Mamlakatni bahodir o'g'lonlar to'kkan qonlar birlashtirgay!

Qozikalon: Mamlakatni ayovsiz to'kilgan xiyonatkorlar, qo'rqoqlar, fitnachilar qoni, shu tufayli yuzaga chiqqan dahshat-u qo'rquv birlashtirgay, shunda uni na o't, na suv buza oladi!

Ulug'bek: mamlakatni adolat, yolg'iz adolatgina birlashtirgay!¹”

Ushbu dialog Ulug'bek davri ziddiyatlarini tub mohiyatini ifoda etadi. Binobarin, Ulug'bek fojeasining sabablaridan biri sifatida talqin etilgan ayni ziddiyatli qarashlar asarning asosiy konflikti sifatida bo'rtirilgan. Voqealar shiddati, Ulug'bek va uni ushlab turgan ulamolar, amir-u beklar, sarkardalar dilidan kechgan o'y-kechinmalar, Shayxulislom va Qozikalon, Devonbegi tilidan ifoda qilinadi. Ularning “Qonga-qon, jonga-jon” qabilidagi da'vatlariga qarshilik ko'rsatishga urinayotgan Ulug'bek anduhlari asarda ta'sirchan ifodasini topgan. Ayniqsa, Ulug'bekning o'z-o'zi bilan olishuvlari, ruhiy kolliziya, qahramon dunyosidagi ziddiyatlar mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi. Shogirdi Ali Qushchining: “Ammo siz hamisha “Men zolim emas, olim podshoh bo'lmoqni tilayman!” – deb edinggiz-ku, ustoz?!” kabi o'kinchlariga ustoz: “Ammo taxt bilimliniki emas, zolimniki ekan, Ali! Men yengildim, Ali, yengildim. Zolimlik olimlikni mag'lub etdi. O'limni najot deb bilganim uchun mag'lub

¹ Xurshid Davron. Ayg'ul. // Sharq yulduzi. – 2013. – 1-son.

bo'ldim, Ali!" – deb javob qaytaradi. Bunday o'rinlarda biz buyuk olim va shijoatli jasur davlat boshlig'i – podshoh Mirzo Ulug'bekka xos ulug'likni, yuksaklikni emas, oddiy insoniy ojizlikni his etamiz. Bosh qahramonning enaga onasi bilan so'nggi bor suhbatini orqali esa yuksak tafakkur egasi bo'lmish Ulug'bekning falsafiy o'ylari, iztirobli kechinmalari qalbimizga yuqadi, hayajonga soladi!

"Ona: Aytinggiz, podshoh bolam, ular nega sizga xiyonat qiladilar, podshoh bo'lagninggiz tufaylimu, yohud olim bo'lganinggiz uchun?!"

Ulug'bek: Ular menga emas, insoniylikka xiyonat qiladilar. Ular jaholat bilan chiqisholmaganim, vahshiylikni rad qilganim uchun, insonga ato etilgan ilohiy aql tuhfalari ila el-ulusni bahramand qilmoqchi bo'lganim uchun xiyonat qiladilar.

Ona: Bunday tuban g'arazga toj-u taxt sabab emasmu, bolam?

Ulug'bek: Ha, ona, haqqast rost!..bu toj-u taxt yuki yelkamni qanchalik ezayotganini bilsanggiz edi! Uni xoin-u johillarga topshirsam, balki o'zimni qutqarurman... Ammo el-ulus, butun mamlakat jaholat domiga tushishidan qo'rqaman... Jaholatni yengmoq uchun necha zamonlar lozim bo'ladi. Taxtda o'tiribmankim, tinim bilmay g'araz bilan, jaholat bilan, zulm-u adovat bilan olishaman, jang qilaman! Ammo dahshati bu emas... Eng dahshati zulmga qarshi zulm qilmoqdur!"

Dramada Ulug'bek shaxsiyati, qiyofasi, ruhiyati: Ulug'bek – shoh, Ulug'bek – inson... kabi xilma-xil qutblardan yoritib beriladi. Har jihatdan ojiz o'gli Abdulazizning tahlikali vaziyatda qo'rquv iskanjasida qolgan ayanch holatini ko'rgan ota: "G'aribligingizni ko'rmasunlar. Bor, ularning ko'ziga ko'rinma! O'zingni tut!" – deya o'git beradi. Oxirgi damlarda ham tushkunlikka tushmaydi, mard bo'lishga undaydi, dushmanlar ko'ziga mag'rur, o'z kuchiga ishongan, ruhan tetik ko'rinishga harakat qiladi. fursat g'animatligida urush talofat yetkazgan kutubxonani, kitoblarni ta'mirlash chorasini ko'radi. Uning bu tadbirlariga g'ashi kelgan saroy ayonlarining ginalari, kesatq va kinoyaga to'la munosabatlariga javoban: "...Shuni

bilingkim, odamlar uchun eng faxrli ish kitob bitmak, kitob o'qimakdir! Illo qalam yodgorligi o'lmasdur, abadiydir! Biz ham, siz ham kun kelib bir hovuch tuproqqa aylanamiz. Lekin kitoblar abadiyan odamlarga hayotni o'rgatuvchi murabbiy bo'lib qolajaklar", - deb javob beradi. O'z e'tiqodiga oxirgi nafasigacha sodiq qoladi.

Asar voqealari davomida Abdullatif bir ikki kichik epizodlardagina ko'rinish beradi. Ulug'bek bilan sarkardalar, amirlar, ayonlar suhbatida tilga olinadi. Birinchi pardada esa Ulug'bek hayolan o'g'li bilan gaplashadi. Bunday tasvir uslubi vositasida dramaturg Ulug'bek – ota ruhiyati haqqoniy ochib berishga, o'zi yo'l qo'ygan xatolarini, o'g'liga nisbatan qilgan adolatsizliklarini ichidan tan olayotganligini anglatishga erishadi. Yuz bergan mudhish hodisa, kutilayotgan falokatga yolg'iz Abdullatif aybdor emasligini Ulug'bek vijdoni, iymoni, o'zligi oldida tan oladi, shu bois o'g'liga qarshi zudlik bilan tig' ko'tarmay, dahshatga tushmay, o'z mag'lubiyatini mardonavor qarshi oladi. Uning anduhlari, iztiroblari sababi o'zi yo'l qo'ygan xatoliklar tufayli ulus boshiga tushgan kulfatlar, qirg'in, nohaq to'kilgan qon, bobosi ne umidlarda barpo etgan davlatning parokandalikka, yemirilishga yuz burganligi tufayli edi.

Asar xotimasi ham o'ziga xos: Ulug'bek erta tongda poytaxtga yaqinlashib qolgan Abdullatifga qarshi jangga kirish to'g'risida farmon beradi. Sodiq shogirdi Ali Qushchiga ilm hazinasini saqlab qolish haqida vasiyat qiladi, so'nggi bor "Segoh"ni tinglab, yulduzlarga termulib hayol suradi... Porlab turgan yulduzlar yorqinligi timsolida esa Ulug'bek dahosi, uning tafakkur qudrati, buyuk o'zlik chaqinlari tasavvur qilinadi.

Bugungi dramaturgiya namunalari janrning o'ziga xos takomilidan, uslublar rang-barangligidan, ijodkorlar mahoratining turfaligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillar o'zbek dramaturgiyasi tarixiy va zamonaviy mavzularda yaratilgan sahna asarlari bilan boyidi. Dramaturglarimiz iymon-

e'tiqod, milliy g'urur, or-nomus masalalari ma'naviy – axloqiy muammolar talqini bilan uyg'un holda zamondoshlarimiz obrazlarini gavdalandirishga intilayotirlar. Afsuski, she'riyat va nasrga xos ilg'or tendensiyalar dramaturgiyada bir qadar sust, xira ko'zga tashlanayotir: inson ko'ngil olami sarhadlarini kashf etish "Bozor", "Bir kam dunyo"; mangu haqiqatlarga qaytish ("Arabmuhammad Bahodirxon") orqali tarix saboqlarini eslash, tarixiy shaxslar botiniga kirib borish, kabi ijobiy xususiyatlar qatori asar qahramonlari biron ijtimoiy-ma'naviy g'oya tashuvchi "Orolmomo", yurtparvarlikka da'vat etuvchi ("Jannat o'zi qaydadur") vositaga aylanib qolgan asarlar ham yaratilmoqda. Dramaturgiya "g'oyaparastlik" dan yoki mayda mavzulardan hanuz uzoqlasholmayapti. Bugungi globallashuv zamonining bor murakkabliklari, ziddiyatlari, fojialarini inson dunyosi, ko'ngil olami, tafakkur tarzi, ruhiyatidagi o'zgarishlarga bog'lab "ichdan" yorituvchi insoniy qismatlar dramasi yetishmayapti. Shunga qaramay saxna asarlari ham yoshlar ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qiladi.

UMUMIY XULOSALAR

Bugungi kunda yoshlarniig ma'naviy ruhiy sog'lomligi jamiyat a'zolarining sog'lom g'oyalar asosida izlanib intilishlari, yaratuvchilik muhitining barqarorlashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda badiiy pedagogikaning yoshlar tarbiyasiga oid masalalar yechimini beruvchi tadqiqotlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

- . Iymon-e'tiqod, milliy g'urur, or-nomus masalalari, ma'naviy – axloqiy muammolar talqini o'z ifodasini topgan o'zbek adabiyoti namunalari orqali yoshlarni ma'naviy ruhiy jihatdan tarbiyalash mumkin.

- . Badiiy asarlarni o'qib o'rganish, tahlil qilishga yo'llash orqali o'quvchi yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga erishiladi. Estetik did shakllanadi, tanqidiy fikrlash salohiyatlari takomillashadi.

- . Globallashuv sharoitida hilma xil axborotlar bosimi ta'siridagi yoshlarni "ommaviy madaniyat"ga qarshi yurtsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlaridan foydalanishda badiiy pedagogikaning o'rni va ta'siri beqiyosdir

- . Badiiy asarlar orqali ijogkorlar o'z kitobxonlarini hidoyat yo'liga chorlaydi: insofga, poklikka, iymonga da'vat qilinadi.

- . Keyingi yillarda yaratilgan to'rlıklarda ham (Azim Suyun, Sirojiddin Sayyid), ikkiliklar, hatto birlik she'rlar (Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam, Tursun Ali) qatori bugungi she'riyatda inson ruhiyatini, qalbdagi kechinmalarni shaklan qisqa uchliklarga joylashtirib, tagma'noni davr o'zbek she'riyatiga xos shakliy qisqalikka quyma, mantiqiy shiorlar orqali ifodalash tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday izlanishlarni mahorat bilan uddalayotgan Farida Afro'zning uchlik tasbehlarini o'qigan kitobxon matn tagma'nosini o'zi ta'sirlangan holatda hissiyotlari, o'y-kechinmalariga monanad uqib oladi. Shunisi ajablanarliki, shoira o'ttiz uch tasbehdan to'qson to'qqiz

misrali shoda yaratib, o'z dunyosiga xos rangin holatlardan falsafiy-ruhiy mantiq asosidagi badiiy umumlashmalar kashf qilishda foydalangan. Uchliklarning ichki qurilishi, ohangi, bo'g'inlar soni, mazmuni turlicha bo'lsa-da ularni yagona shodaga birlashtirib turuvchi lirik "men" olami, tuyg'ulari, hukm-xulosalari, mushohadalari, alam-o'kinch, afsus-nolalari Yaratganga munojot shaklida yaxlitlashadi va mantiqan birlashadi. Yagona shodani tashkil etuvchi uchliklar ohangini turoq tartibi, vazn yo qofiya emas, ko'proq "men" ruhiyatidagi evrilishlar shiddati va "sen" ni anglash mashaqqati yuzaga keltiradi. Lirik "men" olamini, uning turfa kinoyalari ortidagi ma'nolarni o'zligini idrok etish barobarida "sen"ga ba'zan "uchinchi odam"ga murojaat qiladi. Poetik to'xtamlar, tuyg'ular ziddiyatidan, insonni anglash yo'lidagi ikkilanishlar, yo'qotishlar, aldanishlar, iztirobli og'riqlar zarbini kitobxonga yuqtiradi. Bunday asarlarni o'qib o'rganish natijasida yoshlarda odamlararo munosabatlarga kirishish malakasi bilan hayot ziddiyatlari mohiyatini anglash, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish sifatlari ham shakllanib boradi. Odamlarga, hayotga sog'lom munosabat qaror topishi barqarorlashadi.

- Muhammad Yusuf yaratgan obrazlar qaysi bir g'oyani o'rtaga tashlamasin, unda shoirning yuragi urib turishi seziladi. Ayniqsa, sevgi, ona, Vatan, mehr-muhabbat mavzularidagi tuyg'ular va fikrlar ifodasi shoir qalbining aks sadosidir. Zamondoshlarimizning ezgulik va badbinlik, adolat va zulm, ma'rifat va jaholat, muhabbat va nafrat haqidagi o'ylari, tushunchalari Muhammad Yusuf she'rlarida o'ziga xos milliy ohang, tiniq bo'yoqlarda ifodalangan. Bu esa asarlarining umumbashariy ahamiyat kasb etishiga yordam bergan. Ta'lim va tarbiya jarayonida ana shunday asarlar tahlilidan foydalanilsa, kitobxonlikka da'vat qilinsa, mustaqil mutolaa malakasi shakllantirilsa, talaba yoshlarda fidoyilik, yaratuvchilik xislatlari tarkib topishiga erishiladi.

- Badiiy pedagogika yoshlarning mustaqil fikr egasi sifatida shakllanishlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganar ekan bu boradagi badiiy adabiyotninig imkoniyatlarini aniqlashga

yordam beradi. Xususan, ushbu monografiyada Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toyir kabi ijodkorlar asarlarini tahlil qilish yo'llari aniqlashtirilgan. Badiiy tahlil malakasini tarkib toptirish usullari asoslangan. Bu usullardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanilsa, samaradorlik ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2016 йил 8 декабрь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармойиши. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 13 январь.

5. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. -Т.: Ўқитувчи, 1996. - 151 б.

6. Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. (Методик қўлл. 7- синф "Ўзбек адабиёти " дарслик-мажмуаси учун.) - Т.: Ўқитувчи, 1997.-230 б.

7. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Т.: - Янги аср авлоди. – 2006. 545 б.

8. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Т.:

Фан. – 2008. 160

9. Косогоева А.С. Педагогические основы творческого самовыражения как фактор становления будущего учителя: Автореф. дисс. док. пед. наук. – Хабаровск.: 2000. – 45 с.

10. Б. Марасулова У. Ўқувчиларда адабий-назарий тушунчаларни шакллантириш усуллари. Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2006. – 40 б.

11. Маранцман В.Г. Биография писателя в системе эстетического воспитания школьников. – М.: Просвещение, 1965. – 75 с.

12. Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. дисс. – Т.: 1997.

13. Матчонов С. Китоб ўқишни биласизми? – Т.: Ўқитувчи, 1993.

14. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Т.: O'zbekiston, 2008. – 80 б.

15. Мухсиева А. Оилада миллий тарбияни ташкил этишнинг методик асослари. – Т.: Фан, 2009. – 116 б.

16. Подласый И.П. Продуктивная педагогика. – М.: Народное образование, 2003. – 496 с.

17. Усмонова О. Ёзувчи ҳаёти ва ижодини адабий таҳлил ҳамда талқин усулларига таяниб ўрганиш. Пед. фан. ном. дисс. – Т.: 2007. – 140 б.

18. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. 365-б.

Badiiy asarlar

1. Qurolboy Qizi Z. Ayol. O'lim hech narsa emas. – Т.: Yangi asr avlodi, 2011. – 297б.

2. Сирожддин Саййид. Сўз йўли. Т.: Шарқ, -2007. 91-б.

3. Azim Suyun. Vatan fasillari. Navjiy nomli kutubxona

nashri.-T.;2005. 668-b

4. Mahmud Toir. Saylanma. I jild. T.: O'qituvchi, 2008. 83-b.

5. Mahmud Toir. Saylanma. 2- jild. T.: O'qituvchi, 2008. 23-b.

6. Xurshid Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg'ishi.Hikoyalar va qissalar.T.: Sharq.- 2007.

7. Farida Afro'z. Tasbeh. T.: Sharq.-2007. - 106b.

10. Ikrom Otamurod. Xaritaga tushmagan joy. Doston. T.: Sharq.-2007. 20-30b.

11. Ikrom Otamurod.. Dostonlar. T.: Sharq.-2007. 40-43-b.

12. Ikrom Otamurod. Tag'azzul.Doston. T.: Sharq.-2005. 25-32-b.

13. Q.Yo'ldosh,M.Yo'ldosh.Badiiy tahlil asoslari.T.:Kamalak.-2016.-166-b.

14. Muhammad Yusuf. Saylanma. T. :Sharq-2005y.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
O'zbek she'riyati namunalari - yoshlarda yurtsevarlik, insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash vositasi	5
Muhammad Yusuf ijodini o'rgatish vositasida yoshlarni yurtsevarlik, insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalash	33
Mahmud Toir ijodida insoniy g'oyalar talqini	67
O'zbek dostonlarini tahlil qilish orqali yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish	97
Bugungi hikoyalarning mazmun mohiyati va mustaqil fikr tarbiyasi	109
O'zbek dramaturgiyasi namunalari asosida yoshlarda insoniy sifatlarni tarkib toptirish	167
Umumiy xulosalar	175
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	178

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

YOZUVLAR UCHUN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

MARG'UBA MIRQOSIMOVA

BADIY PEDAGOGIKA

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbek, qozoq tili va adabiyoti"
kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori

I. Yoqubov.

Toshkent davlat "O'zbek tili va adabiyoti" universiteti
professori, p.f.d. R.Niyozmetova.

O'z XIA "Din psixologiyasi va pedagogika"
kafedrasi mudiri dots.

Z.X.Qosimova.

Bosishga ruxsat etildi: 30.05.2019.

Ofset qog'oz. Qag'oz bichimi 84x108 1/16.

Times New Roman garnituras. Shartli bosma tabog'i 14,7.

Nashr hisob tabog'i 13,75. Adadi 500.

«LESSON PRESS» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

«ZAMON POLIGRAF» OK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri. Yunusobod tumani,

Bobodehqon mahallasi 45-uy.

44²



Handwritten text in a cursive script, possibly German, appearing at the top of the page.

ISBN:978-9943-5902-12



9 789943 590212